

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TARIX FANI METODOLOGIYASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlarining
5a110601 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish
metodikasi (tarix) yo'nalishi talabalari uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti
TOSHKENT – 2018**

UO‘K: 930.2 (075.8)

KBK: 24.1

A 50

Alimova, D.A.

Tarix fani metodologiyasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / D.A.Alimova, Z.A. Ilxamov. — Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 324 b.

Mazkur fanning ma’ruzalari tarix fani metodologiyasi predmetiga bag‘ishlangan bo‘lib, yigirmaga yaqin mavzularni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, tarix fanining asosiy xususiyatlari ochib beriladi, tarixiy bilishning metodologik kategoriyalari ko‘rsatib beriladi, tarixiy manba, tarixiy dalil, tarixiy davr qonuniyatlari tahlil etiladi. Tarix fanining tadqiqot uslublari va tamoyillari, fanlararo yondashuv tamoyillariga alohida e’tibor qaratilgan. Nazariy bilimlar so‘nggida tarixiy tadqiqotlar bosqichlari, tushuntirish muammolari va tarixiy tavsiflash masalalariga ham to‘xtalib o‘tiladi. O‘quv qo‘llanmadan tarix mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan bakalavriatura va magistratura talabalari «Tarix fani metodologiyasi», «Tarix fanining nazariy masalalari» kabi fanlarni o‘qishda, shuningdek, tadqiqotchilar va tarixchi mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

UO‘K: 930.2 (075.8)

KBK: 24.1

Tuzuvchilar:

D.A.Alimova — tarix fanlari doktori, professor,

Z.A.Ilhomov — tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul muharrir:

N.Mustafoyeva — tarix fanlari doktori,

Taqrizchilar:

M.Isxoqov — tarix fanlari doktori, professor.

N.Mahkamova — tarix fanlari doktori,

F.Ismatullayev — tarix fanlari nomzodi, dotsent.

1. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashining 2017-yil 1-iyuldaggi 12-sonli yig‘ilishi qarori bilan nashrga tavsya etilgan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti Ilmiy Kengashining 2017-yil 16-iyun 8-sonli yig‘ilishi qarori bilan nashrga tavsya etilgan.

ISBN 978-9943-5488-3-1

© «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018.

Tuzuvchilar tomonidan quyidagi asarlardan qilingan tarjimalar va ularning ilmiy-nazariy xulosalaridan tahliliy ravishda foy-dalanib, qo'llanmaga kiritilgan:

Афанасьев Ю.Н. История против эклектики. — М., 1980.

Барг М.А. «Историческое время»: методологический аспект // Новая и новейшая история. 1990. № 1. С. 66 – 67.

Баринова Е.П., Иполлитов Г.М., Бобкова Е.Ю. Основы теории и методологии исторической науки: Учебное пособие в схемах. — М., 2010

Бибиков Г.Н., Бибикова Л.В. Методология современной истории: историографический очерк. — М.: Фонд современной истории, Издательство Московского университета, 2011.

Бродель Ф. История и общественные науки. Историческая деятельность // Философия и методология истории. Благовещенск, 2000. С. 133.

Гринин Л. Е. Теория, методология и философия истории: очерки развития исторической мысли от древности до середины XIX века. Лекция 4. Философско-историческая мысль в Средние века. Византия, Русь, арабский мир, Китай / Философия и общество. Выпуск №2 (58) / 2010. <http://www.socionauki.ru>

Грязнов В.М. Методология научного творчества. — М.: РУДН, 2000.

Иванов Г.М. и др. Методологические проблемы исторического познания. — М., 1981.

Ковальченко Д.И. Методы исторического исследования. — М.: Наука. 2003.

Ковальченко И.Д. Методы исторического исследования. — М.: Наука, 1987.

Коллингвуд Р.Дж. Идея истории; Автобиография. — М., 1980.

- Лаптева М.П. Теория и методология истории: курс лекций / М.П. Лаптева; Перм. гос. ун-т. — Пермь, 2006. С.159—160.
- Мадраимов А., Фузаилова Г. Тарихий манбашунослик. — Т., 2005.
- Мелконян Э.Л. Проблемы сравнительного метода в историческом знании. Ереван. 1981.
- Парфёнов И.Д. Методология исторической науки. Саратов. 2001.
- Перегудов Л. Методология научных исследований. — Ташкент, 2002
- Репина Л.П. История исторического знания: пособие для вузов / А.П. Репина, В.В. Зверева, М.Ю. Парамонова. — 2-е изд., стереотип. — М.: Дрофа, 2006. 45-б.
- Репина Л.П. «Новая историческая наука и социальная история». — М., 1998.
- Савельева И.М., Полетаев А.В. «История и время». 1997.
- Смоленский Н.И. Теория и методология истории. — М.: «Академия». 2007.
- Смоленский Н.И. Теория и методология истории: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. 2-е изд., — М.: Издательский центр «Академия», 2008. С.16.
- Сорокин П.А. Голод как фактор. — М., 2003. С. 4.
- Сулаймонова Ф. Шарқ ва Farrell. — Т.: «Ўзбекистон». 1997.
- Топольский Е. Методология истории. Варшава. 1968.
- Фролова Е.А. История арабо-мусульманской философии. Средние в.а и современность: Учебное пособие. — М., 2006.
- Ясперс К. Смысл и назначение истории. — М., 1991.

SO‘ZBOSHI

Mazkur fanning ma’ruzalari tarix fani metodologiyasi predmetiga bag‘ishlangan bo‘lib, yigirmaga yaqin mavzularni o‘z ichiga oladi. O‘quv qo‘llanmada tarix fanining asosiy xususiyatlari ochib beriladi, tarixiy bilishning metodologik kategoriyalari ko‘rsatib beriladi, tarixiy manba, tarixiy dalil, tarixiy davr qonuniyatlari tahlil etiladi. Tarix fanining tadqiqot uslublari va tamoyillari, fanlararo yondashuv tamoyillariga alohida e’tibor qaratilgan. Sharq tarixnavisligi va tarixnavislik tamoyillarining o‘ziga xosligi haqida so‘z yuritiladi. Nazariy bilimlar so‘nggida tarixiy tadqiqotlar bosqichlari, tushuntirish muammolari va tarixiy tavsiflash masalalariga ham to‘xtalib o‘tiladi. O‘quv qo‘llanmada tarixiy ong, tarixiy xotira masalalariga keng o‘rin berilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda mualliflik tarjimasidan keng foydalanylган. Mualliflik tarjimasi asosida bir qator tarixchi olimlarning ilmiy va nazariy xulosalaridan, asarlari va monografiyalaridan o‘rin olgan masalalar tahliliy ravishda o‘quv qo‘llanmaga jalb etilgan.

O‘zbekiston tarixining tarixshunoslik masalalariga oid bir qator tahlillar, Sharq tarixnavisligi va tarixnavislikning bir qator o‘ziga xosliklari, zamonaviy tarix fani va sharq tarixchilarining tarix fani sohasidagi nazariy fikrlari tahlili, tarixiy ong, tarixiy xotira va tarixiy meros masalalari, qo‘llanmada O‘zbekiston tarixiga oid ko‘rsatib o‘tilgan bir qator masalalar, tarix fani ilmiy tadqiqot ishlarini tashkillashtirish tamoyillari va vazifalari, tadqiqotlarning ilmiy metodologik jihatlari kabi masalalar mualliflar tomonidan mustaqil ravishda tayyorlangan.

O‘quv qo‘llanmada sharq tarixnavisligida tarix fanining nazariy masalalari, Abu Rayhon Beruniyning tarixiy ilmiy merosi va zamonaviy tarix fanining nazariy masalalari va ularning zamonaviy tarix fanining rivojidagi o‘rni haqidagi masalalar tarix fani metodologiyasi sohasida ilmiy jihatdan asoslab berishga harakat qilindi.

Shuningdek, dalil interpretatsiyasida mantiqiylik nazariyasi mustaqil nazariya sifatida ilgari surilib, dalilning ichki va tashqi xususiyatlari tushunchalari asoslab berilgan.

O‘quv qo‘llanmada tarix fanining asosiy xususiyatlari ochib beriladi, tarixiy bilishning metodologik kategoriyalari ko‘rsatib beriladi, tarixiy manba, tarixiy dalil, tarixiy davr qonuniyatlarini tahlil etiladi. Tarix fanining tadqiqot uslublari va tamoyillari, fanlararo yondashuv tamoyillariga alohida e’tibor qaratilgan. Nazariy bilimlar so‘nggida tarixiy tadqiqotlar bosqichlari, tushuntirish muammolari va tarixiy tavsiflash masalalariga ham to‘xtalib o‘tiladi. O‘quv qo‘llanma tarix mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan bakalavriatura va magistratura talabalari «Tarix fani metodologiyasi», «Tarix fanining nazariy masalalari» kabi fanlarni o‘qishda, shuningdek, tadqiqotchilar va barcha tarix faniga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

*N.Mustafoyeva
tarix fanlari doktori*

KIRISH

Mustaqillik yillarda O'zbekiston tarixini har tomonlama xolis va ilmiy jihatdan mukammal va tarixiy dalillarga asoslangan holda yoritishga katta e'tibor berilmoqda. Jahon tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan Vatanimiz tarixi o'zining nafaqat qadimiyligi, balki uzoq davom etgan tarixiy jarayonlarining jahon tarixiy taraqqiyoti jarayonlariga juda katta ta'sir etganligi bilan ham jahon ilm ahli e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Aytish mumkinki, O'zbekiston so'zi tilga olinganda jahoning turli iqlimlarida yashovchi har qanday insonning ko'z o'ngida qadi miy tarix gavdalananadi. Bugungi kunda tarixni nafaqat o'rganish, balki uni ilmiy jihatdan asoslangan dalillarga tayangan holda, tarixiy jarayonlarning mohiyatini olib berishda haqqoniylilik tamoyillariga asoslangan holda chuqur va atroflicha tadqiq etish hamda eng to'g'ri ilmiy xulosalarni taqdim etish har bir tarix tadqiqotchisi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan «Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori oliy ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishni ko'zda tutish bilan birgalikda bugungi kunda oliy ta'limning sifati va samaradorligini yuksaltirish borasida pedagoglar oldida katta mas'uliyat turganligini belgilab berdi.

Tarix, tarixiy haqiqat va uni ilmiy jihatdan xolislik asosida o'rganish, ayniqsa uni yosh avlodga yetkazib berish bugungi tarix fani oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tgani dek, «Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat yurtimizning fidoyi, o'z yo'lidan, maslagidan, so'zidan qaytmaydigan farzandlariga

ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo‘lgan sahifalarni qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham qarz, ham farz»¹.

Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro‘y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta omil sanaladi. Ayniqsa, turli davrlarda yaratilgan tarixiy ilmiy asarlarda mualliflarning tadqiqot masalalariga turlicha yondashuvlari va fikrlari, xulosalarning turlichaligi, ularni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va tarixiylik, ilmiylik hamda xolislikka asoslanilgan eng to‘g‘ri xulosalarni chiqarish bugungi kun tarixchi mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Bugungi kunda tarix fani sohasida ta’lim olayotgan talabalar tarixga oid asarlardan foydalanish, ularni tahlil etish kabi o‘zlashtirish uslublari, ulardan foydalanish samaradorligini bilish haqidagi tarixiy tadqiqot uslublari va ilmiy-tarixiy haqiqatga erishish yo‘llarini anglashi lozim.

Hozirgi vaqtida tarixchi mutaxassislarni tayyorlashda va ularning ilmiy tadqiqot malakasini shakllantirishda tarix fanining turli tadqiqot uslublari va yondashuvlari haqida yetarli bilim berish va ularning tarixiy tadqiqotlar jarayonida to‘g‘ri va ilmiy, tarixiylikka asoslangan xulosalarni chiqarishga yo‘naltirish bugungi kun tarix o‘qitishning asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi: «Yomon tomoni shundaki, subyektiv fikr yuquvchan bo‘ladi. Chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan bирyoqlama fikr odamlarni, eng avvalo, tarix o‘qituvchilarini chalg‘itadi. Ular eshitganlarini haqiqat shu ekan, deb o‘quvchilarga ham yetkazishadi. Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo‘lgan xulosalargina bizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi mumkin. Bu – birinchidan.

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T.: «O‘zbekiston», 1996. 92-b.

Ikkinchı masala shundan iboratki, biz komil inson tarbiyasi-ni davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yি, xulosasini mantiq asosida qur-gan kishi yetuk odam bo'ladi»¹.

Mazkur qo'llanmada ko'zda tutilgan eng asosiy maqsad-lardan biri ham talabalarda tadqiqotchilik, ilmiy izlanuvchanlik malakalarini shakllantirishdan va kelajakda mutaxassis sifa-tida mukammal tadqiqotlarni amalga oshirish uchun dastlabki tushunchalarni berish etib belgilangan.

«Tarix fani metodologiyasi» fanini o'qitishda talabalarni bugungi kungacha shakllanib, tarix tadqiqoti sharoitida zarur bo'ladi-gan ilmiy-bilish nazariyasi, tarixni o'rganish va anglash tamoyillari uslublari bilan tanishtirish hamda ularning xususiyatlari haqida ma'lumot berish asosiy maqsad etib belgilangan. Shuningdek, ta-labalarni jahon tarixi fanining falsafiy yondashuv asosidagi bilish haqidagi nazariyalar, umumiyl ilmiy uslublar, tarixiy bilish yo'lla-ri, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uslublari va tamoyillari bi-lan tanishtirish, tarixi fani tadqiqot uslublari bo'yicha xorijiy mam-lakatlar tarixi va O'zbekiston tarixiga oid ilmiy adabiyotlar bilan tanishtirish hamda tadqiqot jarayonida tarixchining aniq vazifasi-ni ko'rsatib berish fanning asosiy vazifalari sifatida namoyon bo'la-di. Jahon tarix fani metodologiyasining hamma tarixiy davrlar-da ham bir maromda mayjud bo'lib turmaganligini hisobga olgan holda tarix fanining metodologiyasi va uning asosiy xususiyatlari tasnif etiladi.

Qo'llanmada Sharq tarixnavisligi va tarix falsafasi va metodo-logik jihatlari haqida ham to'xtalib o'tish va uning ayrim o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratish ko'zda tutilgan. Ma'lumki, Sharq-

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998. 6-b.

da tarixni yaratishga bo‘lgan munosabat boshqa geografik hududlar mamlakatlari tarixini yaratish uslublaridan ma’lum darajada farqlangan. Bundan Sharqda yaratilgan tarixiy asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy asarlar mualliflarining tarix asarlarini yaratish yoki tarixiy jarayonlar tavsifini yoritishdagi asosiy falsafiy qarashlari va yondashuvlari, Sharq tarixchilarining tarixnavislik jarayonida rioya etgan tamoyillari, ilmiy yondashuvlari va uslublari ni o‘rganishni ham mazkur fanning asosiy vazifalaridan biri sifatida e’tirof etish lozim. Shundan kelib chiqqan holda qo‘llanmada Sharq tarix falsafasining ayrim xususiyatlari haqida ham so‘z yuritiladi.

Zamonaviy ijtimoiy fanlar sohasida tarixiy xotira tushunchasi va tamoyiliga e’tibor kuchayib bormoqda. Zamonaviy tarix fani da tarixiy xotira alohida mavjud tamoyil emas, balki fanlararo yondashuv asosida shakllanib borayotgan alohida maxsus fan sohasiga aylanib bormoqda. Tarixiy xotira nazariyasi faol tarzda rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, tarix darslarining o‘qitilishi jarayonida tarixiy xotira tushunchasining amalda qo‘llanilishiga katta urg‘u berilmoqda. Mazkur qo‘llanmada tarixiy xotira va tarixiy ong tushunchalari haqida ham so‘z yuritiladi.

Qo‘llanmada manbalar va ulardan foydalanish tamoyillari xususida ham so‘z yuritiladi. Tarix fani tadqiqotlarining bu sohasida tarixchi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar va nazariyalarni tahlil qilgan holda tarixiy manbalar va dalil interpretatsiyasi masalalarida manitiqiylik va mantiqiy izchillik masalasi haqida bir qator fikrlar va farazlar berib o‘tiladi. Shuningdek, qo‘llanmada talabalarning o‘tilayotgan mavzularni teranroq o‘zlashtirishlarini osonlashtirish maqsadida fan terminologiyasiga oid bir qator so‘zlar va ularning tarix fani hamda tarix fani tadqiqotlari bilan bog‘liq vazifalari va izohli tushunchalari berib o‘tilgan. «Tarix fani metodologiyasi» fanini o‘qish davomida tarixiy bilimlar nazariyasi haqidagi turli fikrlar o‘rganiladi, ularning tarixiy bilimlarga xos bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlariga asosiy e’tibor qaratiladi.

Qo'llanma mazkur fan yuzasidan dastlabki tajribalardan sana-ladi va uni tayyorlashda bugungi kungacha tarix fani hamda fan-ning metodologiyasi sohasida turli yillarda yurtimizda va xorijda nashr etilgan adabiyotlar, fan sohasida tadqiqotlar olib borgan bir qator mualliflarning ilmiy maqolalari materiallaridan foydalaniłdi va o'z o'rnida mazkur kitobning tuzuvchilari ularga o'z min-natdorchiligini bildirib qoladilar. Qo'llanma va unda keltirilgan materiallar yuzasidan soha mutaxassislari tomonidan fan xususi-yatidan kelib chiqqan holda ayrim e'tirozlar va bahs-munozara-li fikrlar bildirilishi tabiiy. Bu esa albatta, tarix fani va uning tadqiqotlari borasida, qolaversa «Tarix fani metodologiyasi» fani o'quv adabiyotlarining yanada mukammallikka erishishiga xiz-mat qilishi shubhasiz.

«TARIX FANI METODOLOGIYASI» FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA VAZIFALARI

Tarix fani metodologiyasi haqida tushuncha. Tarix fani metodologiyasi shakllanishining bosqichlari. Tarixchilarning tarixiy tadqiqotlar haqidagi fikrlari.

O'zbekistonda tarix fani rivojlanishining tarixiy yo'li haqida. O'zbekiston tarixini o'rganishning tarixshunoslik masalalari.

«Tarix fani metodologiyasi» fanida eng asosiy ko'rildigan masalalar «nazariya», «metodologiya», «tarix falsafasi», «metod» (uslub) kabi bir qator tushunchalar va ilmiy qarashlar bilan bog'liq holda ochib beriladi.

Tarix nazariyasi – tarix haqidagi va ayni vaqtida u yoki bu tarixiy voqealar, hodisalar va jarayonlar haqidagi umumiy tasavvurlar majmuyidir. Tarix nazariyasi har qanday holatda ham faqatgina tarixiy hodisalar haqidagi konkret – tarixiy tasavvur sifatida cheklanib qolmasdan, balki tarixiy bilishning eng yuqori darajasi sanaladi. Tarix nazariyasida asosiy e'tibor tarixni real voqeilik sifatida o'rganuvchi umumiy muammolar (ontologiya) hamda tarixni bilish sifatida o'rganishga (gneseologiya) qaratiladi¹.

Tarix fani metodologiyasi ilmiy bilish faoliyati bo'lib, tarixiy tadqiqotlarning amalga oshirilishi, tahlili va o'rganilishiga qaratilgan faoliyatdir. Metodologiya ilmiy muammolarning qo'yilishi xarakterini aniqlaydi, ularning yechilishidagi eng maqbul prinsiplar va yo'nalishlarni aniqlaydi, tadqiqot metodlarini tanqidiy baholaydi va tahlil qiladi.

Tarix fani metodologiyasi (yunon. *metodos* – usul, bilish yo'li, *logos* – so'z) – mustaqil fan sohasi bo'lib, tarixni bilish, anglash uslublari haqidagi tarix fani tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bunda uslub (metod) tarixiy tadqiqot vositasi sanaladi.

Uslub (metod)lar yordamida tarixchi yoki tadqiqotchi yangi bilimlarni o'zlashtirishi yoki tarixiy jarayonlar haqida amaldagi

¹ Смоленский Н.И. Теория и методология истории. – М.: Академия, 2007. С. 3.

qarashlarni aniqlashi va ayni vaqtda ularga aniqlik kiritishi mumkin. Bu qarashlar tarix fani metodologiyasi tushunchasi haqidagi dastlabki qarashlar bo'lsa, zamonaviy tarix fani sohasida fanning metodologiyasi tushunchasini tarixiy bilishning nazariy asoslarini to'lig'icha, uning nazariy xususiyatga ega bo'lgan muammoviy jihatlarini ko'rsatib berish sifatida qo'llaniladi.

Boshqa ilmiy adabiyotlarda ko'rsatib o'tilishicha, tarix (tarix fani) metodologiyasi – maxsus tarixiy fan sohasi bo'lib, tarix fanining predmeti va obyektini hamda ilmiy tarixiy bilishning nazariyasini aniqlab beradi. Tarix fanining ilmiy va ijtimoiy mavqeyini, tarixning fan sifatidagi tuzilishini o'rganadi. Tarixiy bilishning nazariyasini (umumfalsafiy, gneseologik va epistemologik asoslarini, tamoyillari, darajalari, turlari, bosqichlari, tarixiy bilish uslublari, tarixiy bilish natijalarining namoyon qilinishi, shuningdek tarixiy bilimlar shakllarini o'z tarkibiga olgan holda) yaratadi. Shuningdek, tarix fani metodologiyasi tarix fanidagi asosiy nazariy-metodologik yo'nalishlar, turli ilmiy muktablar va ularning xususiyatlarini o'rganadi. Umumiyl holda tarix fani metodologiyasi konkret-tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirishning ilmiy bilish asoslarini shakllantiradi¹.

Bir so'z bilan aytganda tarix fani metodologiyasi uslublar, tamoyillar, ilmiy tarixiy tushunchalar kabilar ko'rinishidagi konkret-tarixiy tadqiqotning nazariy aks ettirilishi deb hisoblash mumkin.

Metodologiyaga oid tushunchalarning shakllantirilishi va yuzaga kelishida hamda bugungi kunda ma'lum bo'lgan ayrim muammolarining ishlab chiqilishida Suqrot (Sokrat), Aflatun (Platon), Arastu (Aristotel)larning qarashlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Suqrot tarixiy mushohadaning dialektik tabiatini turli tasavvurlarning, tushunchalarning, ularning qiyosiy holatlarining

¹ Баринова Е.П., Иполлитов Г.М., Бобкова Е.Ю. Основы теории и методологии исторической науки: Учебное пособие в схемах. – М., 2010.

hamda tarkibiy qismlarga ajratilishining taqqoslash tahlili ja-rayonida birinchi o‘ringa qo‘ydi. Olim mavhum tasavvurlardan tarkibiy qismlarga ajratilgan aniq va tushunarli tasavvurlarga o‘tishni mukammal hayotning yashash san’ati ko‘rinishida tas-virlaydi. Suqrotning qarashlarida mantiqiy jarayonlar axloqiy maqsadlarga bo‘ysundirilgan, maqsadga esa fikrning tashkiliy faoliyatining vositasi sifatida qaralgan.

Aflotun tushunchalar dialektikasi va kategoriyalarning maz-munini har bir buyumdan (narsadan) qidirishga qaratdi.

Arastu tamoyillar tahlili, xulosalash va isbotlash qoidalarini, terminlar (atamalar, iboralar)ni aniqlashtirish masalalarini, ha-qiqatga erishishda induksiya va deduksiyaning mohiyatini fikr-lashga, mulohaza va mushohada qilishga yo‘naltirdi. Metodologiya uchun muhim hisoblangan kategoriyalar haqidagi bilimlar va ta’limning bilish shakllarining shakllantirilishi masalalari ham aynan Arastuga tegishlidir. Arastu shakllantirilgan mantiqiy tizimni «organon» – haqiqiy bilishning asosiy quroli, vositasi si-fatida ko‘rib chiqdi.

Tarix falsafasi tushunchasi tarix fani metodologiyasining tarkibiy qismi sifatida tushuniladi. Yangi davrda «tarix falsafa-si» atamasi ham paydo bo‘lgan. Mazkur ibora ilk bor 1765-yilda tarixchi tarixiy voqealarni shunchaki tavsiflabgina qolmasdan, balki tarixiy jarayonni falsafiy jihatdan anglab yetishga harakat qilishi lozim, deb hisoblagan fransuz ma’rifatchisi Volter (1694–1778) tomonidan qo‘llanilgan¹.

Biroq Volter yashagan davrgacha ham tarix falsafasi va bu tushuncha atrofida bir qator fikrlar bildirilganki, ularni antik davr tarixchilari va faylasuflarining qarashlarida ko‘rish mumkin. Gerodot, Gekatey, Platon, Fukidid, Aristotel, Plutarx kabi tarixchilarning va faylasuflarning asarlari va ularning mazmunidan ko‘rish mumkinki, ularda o‘zlarigacha yashab o‘tgan insonlar, xalqlar, madaniyatlar kabilar haqida va ayni vaqtida o‘zlari ya-

¹ Смоленский Н.И. Теория и методология истории. С. 3.

shab turgan zamon kishilarining faoliyati, qilmishlari, tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir haqida ma'lumotlar yig'ganlar, kuzatishlarini umumlashtirganlar, tarixiy dalillarni tavsiflaganlar va talqin qilganlar. Biroq bunda ular tarixiy jarayonlar va tarixiy dalillarni bugungi tarix fanidagi mavjud ilmiy va nazariy qarashlar asosida emas, balki o'zlari to'g'ri va foydali deb hisoblagan usullar bilan talqin qilganlar. Aynan ana shu jihatlari bilan ham mazkur tarixchilar va faylasuflarning bugungi kunlargacha yetib kelgan ma'lumotlari va tarixiy tavsiflari hamda talqinlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta asrlarda (Avgustin va b.) tarix falsafasining predmeti sifatida avvalo Xudo va insonning o'zaro aloqasi muammosi, harakatlantiruvchi kuchi ilohiy vahiy sanalgan tarixiy jarayonning mazmunini aniqlash, tarixiy asarlarning mohiyati va vazifasini o'rganish amal qilgan¹.

Sharqda tarix falsafasining (A.Beruniy, Ibn Xaldun, A.B.Narxashiy, R.Hamadoniy) predmeti sifatida jahon tarixi, umumiylar tarixiy taraqqiyot qoidalari, yo'nalish va omillarini belgilovchi kishilik jamiyatining o'ziga xos davriylik nazariyasini alohida o'rin tutadi. «Odamlar kabi davlat ham o'zining hayotiy davriga ega».

Beruniy tarixni o'rganishda tahlil qilish, so'ng xulosalar chiqarish zarurligini tavsiya qilar ekan, uni davrlarga bo'lish, har bir davrning o'ziga xos jihatlarini aniqlash va ana shu usul orqali ijtimoiy hayotga, kishilik jamiyatiga tegishli va asosli baho berish mumkin deb hisoblaydi.

Uyg'onish davrida va Yangi davrda (Nikkolo Makiavelli, Jam-battista Viko, Frensis Bekon, Tomas Gobbs va b.) tarixning maqsadi, yo'nalishini, shuningdek tarixiy jarayonda insonning, sinflarning rolini aniqlash (Ogyusten Tyerri, Fransua Gizo, Ogyust Minye) tarix falsafasining predmetiga aylangan.

¹ Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. — T.: Ma'naviyat, 2008. 12–21-bb.

XIX asr oxiri – XX asr boshida tarix falsafasining ko‘pgina yangi yo‘nalishlari vujudga kelgan. Ularning har biri o‘z tadqiqot predmetiga ega bo‘lgan. Masalan, tarixning aylanma harakati nazariyasini namoyandalari (Nikolay Danilevskiy, Osvald Shpengler, Arnold Toynbi), o‘z o‘tmishdoshlari kabi, o‘z oldiga tarixiy jarayon qonuniyatlarini aniqlash vazifasini qo‘ygan. Xristian tarix falsafasining ko‘p sonli yo‘nalishlari: neotomizm (Jak Mariten, Etyen Anri Jilson va boshq.), neoavgustizm (Moris Blondel, Gabriyel Marssel, Jan Lakrua), teyyardizm (Pyer Teyyar de Sharden) va qisman ekzistensializm (Karl Yaspers) namoyandalari tarixning mazmuни muammosini bosh muammo deb hisoblaganlar. Tarixiy bilishning gnoseologik nazariyasi va tanqidi namoyandalari (Vilgelm Diltey, Benedetto Kroche) esa tarixshunoslik (istoriografiya) doira-si bilangina cheklanib qolmaganlar, balki so‘zning keng ma’nosidagi tarixiy ongni ham tahlil qilganlar. Neokantchilik tarix falsafasi (Vilgelm Vindelband, Genrix Rikkert) va «analitik» tarix falsafasi (Ernest Nagel, Karl Gempel va b.) ham o‘zining alohida predmetiga ega. XX asr tarix falsafasi aksariyat hozirgi yo‘nalishlarining muhim xususiyati shundan iboratki, ularning predmeti sifatida jahon tarixi, hozirgi sivilizatsiyaning global muammolari amal qiladi¹.

Tarix fani metodologiyasi mustaqil fan sifatida XIX asr oxirgi choragi – XX asr boshlari davomida shakllandi. Bu davrda tarix fanining metodologik muammolari boshqa joylarga nisbatan Germaniyada jadallik bilan o‘rganila boshlandi va bu bora-da ikkita o‘ziga xos «maktab»lar shakllandi. Baden maktabining yetakchi vakillari nemis tarixchi va faylasuflari V.Vindelband (1848–1915) va G.Rikkert (1863–1936)lar edi. Ular o‘zlarining fanning metodologiyasi borasidagi qarashlarini shakllantirib, uni quyidagicha ifoda qildilar: «tabiiy fanlarning vazifasi – umumiy qonunlarni shakllantirsa, tarix fanining vazifasi – alohida dalil-larni tavsiflashdir»².

¹ Смоленский Н.И. Теория и методология истории. С. 7.

² <http://helpiks.org>

Tarixiy bilishning rivojlanishi ayni vaqtida uning metodologik asoslarining ham rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Tarix fanida metodologiyaning qandaydir aniq bиргина ко'риниши mavjud emas, undagi holatlarning o'zgarishlari bilan birga metodologik qarashlarning ham o'zgarishlari sodir bo'lib boraveradi. Tarixiy bilishning rivojlanib borishi shunga olib keldiki, metodologiyaga bir yaxlitlik sifatida qarash yoki ayni vaqtida uning u yoki bu jihatlariga munosabat bildirish tobora tushunarli va jonli ravishda, nazariy jihatdan mukammallahsgan holda namoyon bo'lmoqda.

Tarixchi N.I.Smolenskiyning ta'kidlashicha, har qanday fan metodologiyadan emas, balki bilishning mukammallahib borishi bilan uning metodologik muammolarini aniqlab beruvchi faktik materiallarning to'planib borishidan boshlanadi¹.

Zamonaviy tarix fanida oxirgi yillarda tarixiy tadqiqotlar sohalarida hamda ularning nazariy asoslari sohalarida yangicha yondashuvlar shakllanib bormoqda. Bunday yo'nalishlar sifatida postmodernizmni, mikrotarixni, kundalik jarayonlar tarixini, mentalitet tarixini, og'zaki tarixni, gender tadqiqotlarini ko'rsatib o'tish mumkin².

Metod – tarixiy tadqiqotlar jarayonida aniq maqsadga olib boruvchi tadqiqot usullari va jarayonlar yig'indisidan iborat, metodning o'zi nazariyadan, tadqiqot metodikasi va texnikasidan tarkib topadi.

Har qanday metod nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, bir vaqtning o'zida obyektiv va subyektiv xususiyat kasb etsada, obyektiv asosga ega. Biroq shunga alohida ahamiyat berish lozimki, har qanday metod ham obyektiv xulosalarga olib kelmasligi mumkin. Bunda metodning tanlanishi, uning to'g'ri qo'llanilishi va tanqidiy xulosalarning chiqarila olinishi tadqiqotchining bevosita o'ziga bog'liq va uning o'rni asosiy ahamiyat kasb etadi.

¹ Смоленский Н.И. Теория и методология истории. С. 4.

² Теория и методология истории. С. 13.

Karl Yaspers – «Men ilmiy bilimga faqat metodni anglaganidagina ega bo‘laman, uning vositasida men bu bilimni egallayman. Ilmiy bilimlarga faqat bilimning asoslanganligiga ishonch hosil qilganidagina ega bo‘lishim mumkin», – deb yozadi¹.

Ma’lumki, tarixchi-tadqiqotchi metodlar yig‘indisidan ilmiy muammoni hal etish va yechimini topishda foydalanadi.

Tarixiy tadqiqotlar metodlarining to‘rtta darajasi va yondashuvlari mavjud:

1. Falsafiy (har bir falsafiy yondashuv tarixga nisbatan o‘z qarashlariga ega).
2. Umumfan (tabiiy va gumanitar fanlarda qo‘llaniladi).
3. Maxsus-tarixiy (faqatgina tarix fani tadqiqotlarida qo‘llaniladi).
4. Aniq-muammoviy (tor doiradagi tadqiqotlar uchun).

Tadqiqot metodlarining yuqoridagi har to‘rtalasi o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan bo‘lib, aniq-muammoviy va maxsus-tarixiy uslublar umumfan va falsafiy uslublarga asoslanadi. Hozirgi vaqtida tarixchilar fanlararo yondashuv – boshqa fanlar metodlarini ham tarixiy tadqiqotlarda qo‘llamoqdalar.

Mazkur fanni o‘qitish davomida tarix fani va uning nazariy asoslari, predmeti va tadqiqot uslublari hamda tamoyillariga bag‘ishlangan ma’ruzalar orgali tarix fanining asosiy xususiyatlari oolib beriladi, tarixiy bilishning metodologik kategoriyalari ko‘rsatib beriladi, tarixiy manba, tarixiy dalil, tarixiy davr qonuniyatlar tahlil etiladi. Tarix fanining metodlari va prinsiplari, fanlararo yondashuv tamoyillariga alohida e’tibor qaratilgan. Nazariy bilimlar so‘ngida tarixiy tadqiqotlar bosqichlari, tushuntirish muammolari va tarixiy tavsiflash masalalariga ham to‘xtalib o‘tiladi.

– Metodologiya bilishning falsafiy nazariyasi, sotsiologiya va tarixshunoslik asosida shakllanadi. Tabiiyki, bilish nazariya-

¹ XXI asrda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. O‘zMU. 2008. 43-b.

si masalalari bu fanda asosiy o‘rin tutadi, biroq bu bilan asosiy e’tibor shunga qaratilishi mumkin emas, balki nazariy bilimlar tarixiy tadqiqotlar amaliyoti bilan mukammallashtirilishi lozim. Bunday tarixiy tadqiqotlar faylasuflar tomonidan amalga oshirilmaydi, shuning uchun ularning tarix fani metodologiyasi borasida bildirgan fikrlari ko‘p hollarda bahs va munozaraga sabab bo‘ladi, aksariyat hollarda esa tarixchi-amaliyotchilar ularning fikrlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri inkor qiladilar.

Tarix fani metodologiyasi tarixiy jarayonning mohiyatini bilish maqsadida to‘plangan ma’lumotlarni tizimlashtirish, talqin qilish, o‘tmish to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtirish vositalari va mezonlarini ishlab chiqish demakdir. Tarix fani metodologiyasiga yagona qarash mavjud emas. Chunki, tarixiy taraqqiyot jarayoniga, jamiyat va tabiatga qarashlarning turlichaligi tarix fani metodologiyasining ham turlicha talqin qilinishiga olib keladi.

Tarix fani metodologiyasi kursini o‘qish davomida tarixiy bilimlar nazariyasi haqidagi turli fikrlar o‘rganiladi, ularning tarixiy bilimlarga xos bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlariga asosiy e’tibor qaratiladi. Bunda tarixchilarning falsafiy bilimlarni hamda tadqiqotlarning falsafiy yondashuvlarining mohiyatini ham chuqur egalaganliklari muhim ahamiyatga ega, ayni vaqtida faylasuflarning ham tarixiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini chuqur bilishlari muhimdir. Shu holda har ikki fan sohalari vakillari nazariy bilimlarning mukammallahuviga erishishlari mumkin. Bu esa tarixiy tadqiqotlarning nazariy ahamiyati ortishiga olib keladi.

Tarix fani metodologiyasini o‘rganish jarayonida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yirik faylasuf olimlarning tarix fanining nazariy asoslari to‘g‘risida bildirgan fikr-mulohazalari va bugungi kungacha turli darajada amalda bo‘lgan qarashlari – pozitivizm, neokantchilik, strukturalizm, postmodernizm kabi bir qator yo‘nalishlarning tarix fani tadqiqotlariga ta’siri masalariga alohida to‘xtalib o‘tiladi.

Tarix fani metodologiyasi shakllanishi jarayonida bir qancha bosqichlarni bosib o‘tgan.

«Klassik» metodologiya. Bunda tarixiy voqelik obyektlarini o'rganish, o'tmish haqidagi dalillarni tiklash, tarixiy tadqiqot jarayonida tadqiqotchining o'rnnini yo'q qilish yoki sezdirmagan holda tarixiy haqiqatni izlashga asosiy e'tibor qaratildi.

«Klassik bo'limgan» (noklassik) metodologiya avvalgi tarixiy tadqiqot nazariyasi yondashuvlari izchilligidan voz kechgan holda, tarixiy bilimlarning qiyosiyligiga asoslanadi, tarixni esa «tarixchi ongining in'ikosi» (tarixchi tomonidan voqeliklar va tarixiy jarayonlarning ketma-ketlikda tuzib chiqilgan holati) sifatida ko'rsatishga harakat qiladi. Strukturalizm (tizimlilik, o'zaro bog'liqlik, sistemalilik)da tarix ijtimoiy-madaniy maydonda insonlar tarixini siqib qo'ydi va birinchi o'ringa turli tizimlar (strukturalar) qo'yildi.

«Postnoklassik» metodologiya bilish subyektining qarashlari dan kelib chiqqan holdagi qadriyatlarga, intellektual ijod jarayonlarini (til shakllari, matnlari) o'rganishga asosiy e'tibor qaratadi. Shu tariqa postmodernistlar tadqiqot obyektni subyektdan, dalil larni uydirmadan alohida ajratmaydilar va obyektiv haqiqatga erishishni shubha ostiga qo'yadilar.

Yuqorida qarashlarning alohida xususiyati shundaki, ular bugungi kun tarix tadqiqotlarida ham amalda mavjud bo'lib, turli darajada qo'llaniladi.

Zamonaviy tarix faniga XIX asrning oxiri – XX asr boshlari da asos solindi. Metodologiya bo'yicha dastlabki ishlar asrlar chegarasida paydo bo'ldi. Shu vaqtida shakllangan dastlabki asosiy qarashlar tarixiy tadqiqotlar metodlarini qo'llash borasidagi tassiyalardan iborat bo'ldi.

Klassik pozitivizm tushunchasi Sh.Langlua va Sh.Senyo bosaning «Tarixni o'rganishga kirish» asarida ko'rsatib berildi. Pozitivistlar tarixni «pozitiv» bilimga aylantirishga harakat qildilar. Bu tushunchaning mohiyati shundaki, pozitivistlar hamma haqiqiy, pozitiv bilimlar konkret fanlarning mahsulidir, falsafa esa bunday bilimlarni bera olmaydi, shuning uchun uning keragi yo'q, degan g'oyaga asoslangan subyektiv qarashga ega edilar.

Ular tarixiy dalillar bilan qanday ishlash, manbalarni tahlil qilish bo'yicha bir qancha metodlarni taklif qildilar.

Nemis tarixchilari va neokantchilari V.Vindelband va G.Rikertlar «pozitiv tarix» g'oyasiga qarshi chiqqib, tarixni jamiyatning rivojlanib boruvchi qonuniyatlari asosida emas, balki, alohida va takrorlanmas holatlar, ko'rinishlar asosida o'rganishni tarixchining oldiga vazifa qilib qo'ydilar.

Bu vaqtida Germaniya va boshqa bir qator davlatlarda yuqoridagi har ikki qarashlarni tanqid qilib chiqqan va tarixni o'rganishda materialistik yondashuvni ilgari surgan, keyinchalik, XX asr oxirlariga kelib esa o'z ahamiyatini yo'qotgan marksistik yo'nalish shakllandı.

XX asr boshlaridan Rossiya tarixchilari ham tarix fani metodologiyasi borasidagi bahslarga qo'shildilar. 1913-yilda N.I.Kareyev o'zining «История. Теория исторического познания» kitobini nashr qildi. Bu kitobda muallif pozitivistlar qarashlari ni ma'qullagan. Neokantchilik yo'nalishini ma'qullab yozilgan nashrlardan biri A.Lappo-Danilevskiy qalamiga mansub bo'lib, uning ikki qismdan iborat «Методология истории» nomli asari 1910 va 1913-yillarda nashr etilgan. Rus tarixshunoslari ham tarix fani metodologiyasini yevropalik tarixchilar nuqtayi nazarlaridan yondashgan holda talqin qilganlar.

XX asrning 30-yillarida bu sohaga bag'ishlangan bir qator ishlar amalga oshirildi. Shulardan biri R.Kollingvudning «Идея истории» nomli («Tarix g'oyasi») kitobi bo'lib, 1946-yilda, muallifning vafotidan so'ng chop etilgan. Dastlab unchalik e'tiborni tortmagan bu asar keyinroq tarix fani metodologiyasi sohasida asosiy adabiyotlardan biriga aylandi va bir necha bor qayta nashr etildi. Mazkur kitobda antik davrlardan boshlab tarix borasidagi fikrlar sharhlab berilgan¹.

Tarix fani metodologiyasi sohasida chop etilgan kitoblardan yana biri «Annallar maktabi»ning asoschisi M.Blokning «Апология истории или ремесло историка» («Tarixning madhi yoki ta-

¹ Qarang: Коллингвуд Р.Дж. Идея истории; Автобиография. – М., 1980.

rixchining hunari») kitobidir. Muallif o‘z asarida pozitivistlar va neokantchilar qarashlariga qarshi chiqib, o‘zining yangi qarashlarini bayon qiladi. U «voqeaviy» va tavsifiy xususiyatga asoslanilgan tarixni tanqid qilib, ikkinchi jahon urushidan keyin keng tarqalgan tizimli-tahliliy yondashuvni taklif qildi¹.

Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda tarix fani metodologiyasi borasidagi babs va munozaralar yana avj oldi. Yangi nazariy-falsafiy qarashlar shakllanib, ijtimoiy va gumanitar fanlarda fanlararo yondashuv qaror topdi. Avvaldan mavjud bo‘lib kelgan babs – tarixning fan ekanligi (stiyensistlar) yoki san‘at va adabiyotning bir ko‘rinishi ekanligi (antistiyensistlar) borasidagi eng yirik olimlar ishtirokidagi bahslar yana avj oldi. 1962-yilda Londonda E.Karrning «What is History?»² («Tarix nima?») nomli asari nashr etildi. Bu kitobda R.Kollingvuddan so‘ng birinchi marotaba tarixiy bilish va tarixiy jarayonning bir tizimga solingan tahlili berildi. Asar faqatgina Buyuk Britaniyada emas, boshqa mamlakatlarda ham keng tarqaldi. Muallif pozitivistlar qarashlariga xos bo‘lgan manbalarga «topinish» (dalillarning ilohiyashtirilishi) g‘oyasiga mutlaqo qarshi chiqdi. Har bir dalil (fakt) subyektiv holat – interpretatsiya bilan bog‘liq. Bunda tarixchining shaxsiy qarashlari va ijtimoiy mansubligini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim, deb ko‘rsatadi. U L.Rankening tarixni «qanday sodir bo‘lgan bo‘lsa, shundayligicha» ko‘rsatish kerak degan fikrini nostalgik romantizm (his-tuyg‘ularga berilgan holda ideal qahramonlarni qo‘msash) deb hisobladi. Ayni vaqtda u «dalil (fakt)lar hech nima, interpretatsiya – hamma narsa» deb hisoblagan prezентistlarning fikriga ham qat’iy qarshi chiqdi. Bu fikrning bir tomonidan to‘g‘riligi shundaki, dalillar (faktlar) tarixchisiz hech nima, biroq tarixchi ham dalillar (faktlar)siz hech kim. E.Karrning ta’kidlashicha, tarixga qurama (aralash) dalillar (faktlar)ning yig‘indisi sifatida qarash yoki tarixchining

¹ М.Блок. «Апология истории или ремесло историка». – М., 1973

² Carr E.H. What is History?

subyektiv aqliy mahsuli sifatida qarash maqsadga muvofiq emas. Garchi ayrim xatoliklarga yo'l qo'yilsada, obyektiv interpretatsiya muhimdir. E.Karr tarixda sababiylilik nazariyasini hamda o'sha vaqtarda turli e'tirozlarga sabab bo'lgan rivojlanish g'oyasini ilgari surgan edi.

E.Karrning rivojlanish g'oyasi borasidagi fikrlarini keyinchalik D.Plam va S.Polard ham qo'llab-quvvatlardilar. Biroq neokantchilik tarafdori bo'lgan I.Berlin E.Karr fikrlari bilan bahsga kirishib, uning tarixdagi sababiylilik nazariyasini tanqid qildi. U Karrni «tarixni o'z xususiyatiga ega bo'limgan tushunchaga hamda insonni qo'g'irchoqqa aylantirayotganligi» haqida fikr bildirdi.

I.Berlinning fikrlari noto'g'ri bo'lsada, keyinchalik «tarixning ilmiy asosga ega emasligi» borasidagi g'oyani quvvatlantirdi. 1960 yilda I.Berlin o'zi tashkil qilgan «Tarix va nazariya» («История и теория») nomli jurnalida tarixning san'atga yaqinligi borasidagi asossiz qarashlarini ilgari sura boshladi. I.Berlinning fikri-cha tarixchining vazifasi tarixiy jarayon bo'yicha betakror portret yaratish, tushunchaga oid nazariya yaratish esa shart emas, ilmiy tarix esa amalga oshmaydigan xomxayoldir. Harchand keng targ'ib qilinsada, uning bu mulohazalari tarixchilar tomonidan qabul qilinmadi.

Bu davrda muhokama va munozaralarga sabab bo'lgan tushunchalardan biri – fanlararo yondashuv edi. Tarix fanining yangilanishi tarafdarlaridan biri sifatida London universiteti professori J.Barraklou tanildi. U neokantchilarning tarixning ilmiyiligiga qarshi bildirgan fikrlariga qat'iy ravishda e'tirozlar bildirdi. U tarixchilar tomonidan boshqa ijtimoiy va gumanitar fanlarning ilmiy tadqiqot metodlaridan kam foydalanilayotganligini alohida ko'rsatib o'tdi. Bu tarixiy tadqiqot ishlari va ularning ilmiy-nazariy darajasini pasaytirib yuboradi, hamma narsani dalil (fakt)lar bilan bog'lash kerak emas, nazariya ham har qanday ilmiy metodning asosi hisoblanadi.

1978-yilda uning «Новые тенденции истории» («Tarixning yangi qarashlari») kitobi nashr etildi. Bu kitobda u sodda siyosiy

tarixchilikdan voz kechib, tarix fanining ko‘lamini kengaytirish fikrini ilgari surib chiqdi. Bunda u tarixchilar va tarixiy tadqiqotlarning individuallashgan (alohida yakka jarayonni yoki holatni tadqiqot jarayonida ustun qo‘yish) tarixdan generallashgan tarixga, ya’ni jarayonlarni o‘rganishdan boshlab tizimlarni o‘rganishgacha, tavsiflashdan tahlilga o‘tishi kerakligi to‘g‘risidagi fikrini ilgari surdi. Ijtimoiy tarixni o‘rganish birinchi o‘ringa ko‘tarilishi va alohida e’tibor qaratilishi va bu jarayonda tarix milliy afsonalardan xoli bo‘lishini ko‘rsatib o‘tdi.

Bu davrda traditsionalistlar («an’anaviyichilar») ham bir qator fikrlarni o‘rtaga tashlaganlar. 1967-yilda taniqli medievist D.Eltonning matematik metodlar, fanlararo yondashuv hamda sotsiologik kategoriyalardan foydalanishga qarshi yo‘naltirilgan «Практика истории» («Tarix amaliyoti») nomli kitobi chiqdi. U «avtonom» tarixiy yondashuv tarafdoi bo‘lib, zamonaviy davorni chiqarib tashlab, o‘tmish tarixini o‘tmishning o‘zi uchun o‘rganish zarur, tarix qonuniyatlarni kashf etmasligi kerak, bu unga mumkin ham emas, degan g‘oyani ilgari suradi. 1970-yilda shu muallifning «Политическая история» («Siyosiy tarix») nomli kitobi nashr qilindi. Bunda u modellashtirishga qat’iy ravishda qarshi ekanligini bildirib, empirizm – nazariyadan ko‘ra ko‘proq amaliy yondashuvni (tajribani) mutlaq (absolut) darajaga ko‘taridi, tarixchi jarayonlarning mohiyatini aniqlashi va sabablarini o‘rganishi mumkin emas, degan fikrni bildirib o‘tdi.

Yuqorida qilardan ko‘rinadiki, XX asrning 60–70-yillarida tarix fani metodologiyasi borasida turli-tuman fikrlar ilgari surilgan bo‘lib, ularning barchasida pozitivistlik, neokantchilik, strukturalizm va boshqalar o‘z aksini topgan. Bu faqatgina metodologiya borasidagi bahslar avj olgan Buyuk Britaniya, Fransiya yoki Germaniyadagina emas, balki boshqa davlatlarda ham keng yoyildi.

Fransiyada «Annallar maktabi» («yilnomachilik maktabi» – qadimgi Misr, Yunoniston, Rimda mayjud bo‘lgan yilnomachilik) qarashlari ta’sirida «yangi» tarix fani paydo bo‘ldi.

«Annallar» harakatining yuzaga kelishi 1929-yilda Strasburg shahrida Lyusen Fevr (1878–1956) va Mark Bloklarning «Iqtisodiy va ijtimoiy tarix annallari» («Анналы экономической и социально истории») nomli jurnalining nashr etilishi bilan boshlandi.

Fransuz tarixchisi F.Brodel mintaqaviy va global (umumjahon) tarixi bo'yicha bir qator samarali fikrlar va metodlarni ildgari surdi. Bular orasida fanlararo yondashuv, tizimli tarix, tarihiy vaqtning turli «tezliklari» va boshqalarni ko'rish mumkin.

XX asrning 70-yillariga kelib, «lingvistik (tilshunoslik) burlilish» hamda semiotik «chaqiruvlar» yuzaga keldi. Tarixching diqqat markaziga manbaning matni va narrativ matnni qo'yan postsrukturnalizm yondashuvi shakllandi. Bu talqin tarafdoqlari obyektiv tarixiy voqelik mavjudligini inkor qiladilar. Mantiqiy bilishga assoslangan matn mavjudligi bilan kifoyalanadilar. Ularning fikricha, subyekt obyekt bilan qo'shiladi, vaqt esa uydirma bilan uyg'unlashadi. Tarixchilarni bilish nazariyalaridan voz kechib, badiiy mehnat va izlanish bilan shug'ullanishga undaydilar. 1973-yilda amerikalik tadqiqotchi X.Vaytning «Метаистория» nomli kitobi nashrdan chiqib, bunda muallif tomonidan asosiy metodlar sifatida ritorika (notiqlik), metafora (kinoya) va boshqalar ko'rsatilgan.

X.Vaytning kitobiga javoban D.Elton qarshi fikr bildirib, bunday metodlarning qabul qilinishi tarix uchun «fojiali» bo'lishi mumkin deb hisobladi. XX asrda tarixni o'rganishda bir yoqlamalik yetakchi mavqedha bo'lgan sobiq ittifoqda ham bir qator qarashlar shakllanib bordi va tarix fani metodologiyasi borasida ilmiy adabiyotlar nashr qilindi. Jumladan, N.A.Yerofeyevning «Что такое история?» («Tarix nima?»), M.A.Bargning «Категории и методы исторической науки» («Tarix fanining kategoriyalari va metodlari») kitoblari nashr etilgan bo'lsa, I.Kovalchenko dastlabkilardan bo'lib matematik metodlarni tarix tadqiqotlarida qo'lladi. 1997-yilda amerikalik tarixchi A.Menslouning «Декорация истории» («Tarixning buzili-

shi») nomli kitobi chop etildi. Bunda an'anaviy tarixshunoslik tanqid ostiga olingan. Ayni vaqtida tarixiy tadqiqotlarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan bir qator metodlar tarixiy tadqiqotlarning asosiy metodlariga aylanib bordi.

Sobiq ittifoq tuzumi davrida tarixni o'rganishga asosan materialistik oqim asosida yondashib kelindi. XX asrning 60-yillarigacha tarix fanining metodologiyasi mavjud emas, tarixni «tarixiy materializm» asosida o'rganish lozim, degan tushuncha rasmiy ravishda tarixiy tadqiqotlarda hukmronlik qildi. XX asrning so'nggi o'n yilligi – XXI asrga kelib O'zbekistonda ham tarix fani va fanning metodologiyasiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, tarix va tarixiy tadqiqotlarda jahon tarix fani tamoyillari, tarixiylik, ilmiylik, obyektivlik va haqqoniylik ustuvor bo'lgan tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi va bugungi kunda u jadal rivojlanmoqda.

O'zbekistonda tarix fani rivojlanishining tarixiy yo'li haqida

Tarix fani asrlar davomida qo'lyozma asarlarda ifodalan-gan maishiy hayot, voqeа-hodisalar, tarixiy personajlar va shaxslar haqida hikoya qilishdek oddiy bayonchilikdan, muayyan-tarixiy kontekstda tarixiy hayot yo'lining shakllanishi, bosqichlari va umumiy qonuniyatlarini aniqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarish kabi murakkab ilmiy yo'lни bosib o'tdi.

O'zbekistonning eng qadimgi tarixi haqida moddiy madaniyat yodgorliklari va arxeologik topilmalar ma'lumot beradi. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikka oid yozma manbalar, zardush-tiylarning muqaddas «Avesto» kitobida, axmoniyilar davriga oid Behustun, Naqshi Rustam qoyatoshlaridagi bitiklarida, Turon va Movarounnahrning tabiatni, xalqlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekistonning qadimgi tarixi haqida Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Polibiy, Diodor, Strabon, Kursiy Ruf, shuningdek, xitoy, arman, arab mualliflari yaratgan yozma manbalarda ma'lumotlarni uchratish mumkin. Asrlar davomida O'zbekistonning si-

yosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy hayoti tarixi haqidagi ma’lumotlar saroy yilnomachilar, tarixchilar, geograflar tomonidan yozilgan asarlar haqida, xonlar, podshohlar va boshqa hukmdorlar ko‘rsatmasiga binoan yozilgan rasmiy hujjatlarda manbalar shaklida jamlana bordi.

Xalqimizning qadim tarixga ega ekanligi haqida so‘z yuritar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tadi:

— «Hozir O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, oli mu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko‘rku fayzini, mahobatini yo‘qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me’morchilik va shaharsozlik san’ati yuksak bo‘lganidan dalolat beradi»¹.

O‘rta asrlar tarixnavisligida sulolaviy tarixga bag‘ishlangan Bayhaqiyning «Tarixi Bayhaqiy», Nasaviyning «Syrat as-Sulton Jalol ad-Din Mankburni», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Fazlulloh ibn Ro‘zbexonning «Mehmonnomai Buxoro», Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy», Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanova» kabi asarlari yaratildi.

Ya’qubiyning «Kitob al-buldon» («Mamlakatlar haqida kitob»), Tabariyning «Tarixi Tabariy», Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», ma’lum bir hudud tarixiga oid — mintaqaviy uslubdagi Narshaxiyning «Tarixi Buxoro», Nasafiyuning «Kitob al-qand fi tarixi Samarcand» («Samarcand tarixi haqida qand-

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. — T.: «Sharq». 1998. 3–4-bb.

dek kitob») kabi nodir qo‘lyozma manbalarda O‘rtta Osiyo mamlakatlarining geografik holati, yirik shaharlari va aholisi, ularning turmush tarzi va mashg‘ulotlari, karvon yo‘llari, urushlar, g‘alayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotiga doir turli ma’lumotlar bayon etilgan.

O‘rtta asrlar tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar davri tarixi, ayniqsa, mufassal yoritilgan. O‘sha davr tarixiga oid yaratilgan «Temur tuzuklari», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla’ us sa’dayn va majma’ ul-bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilish o‘rnii»), Mirxondning «Ravzat us-safo» asarlarida Amir Temur va temuriylar sultanatining tashkil topishi, ichki va tashqi siyosati, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan.

O‘rtta asrlarda davlat ishlari, boshqaruv tizimi haqida ma’lumot beruvchi Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Nizomulmulkning «Siyosatnama», Xondamirning «Dastur al-vuzaro», Muhammad Boqirxonning «Muvazayi Jahongiriy» asarlar yaratildi.

O‘rtta Osiyoda 3 ta mustaqil davlat – Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarining vujudga kelishi bilan, XVII–XIX asrlarda mazkur davlatlar tarixiga bag‘ishlab alohida-alohida asarlar yaratildi. O‘ziga xos uslub va an‘analarga ega bo‘lgan tarixnavislik maktablari shakllandi. Buxoro va Xiva xonliklari tarixi Abulg‘ozzi Bahodirxonning «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima», Muhammad Amin Buxoriy, Muhammad Sharif, Mirzo Shams Buxoriy, Munis, Ogahiy, Bayoniy asarlarida keng yoritilgan.

Muhammad Solih Toshkandiy, Muhammad Hakim, Avaz Muhammad Attor, Niyoz Muhammad Ho‘qandiy, Mulla Olim Maxdumxoji asarlarida Qo‘qon xonligining tarixi bayon etildi. Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rtta Osiyo xonliklarining bosib olinishi arafasidagi voqealar, janglar tafsilotlari, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, XIX asrning ikkinchi yarmi

— XX asr boshlarida Ahmad Donish, Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy, Mirzo Salimbeklarning Buxoro tarixiga oid asarlari-da keltiriladi. Ushbu asarlarda o'rta asr tarixnavisligi an'analari-ga ko'ra, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayat, tashqi alo-qalarga oid ma'lumotlar garchi muayyan bir tartibda berilmagan bo'lsa-da, jamiyat hayatining turli yo'nalishlari bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni ko'rish mumkin.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning yana bir fikri tarixchilarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sifatida katta ahamiyat kasb etadi:

«Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mu-jassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada ja-honning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin, deb dadil aytga olaman.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayatiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi»¹.

O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya mustamlakasiga aylantirilishi bilan mustamlakachilik tuzumi tartibotlari tarix sohasida-gi ilmiy tadqiqotlar ko'lami va mavzusiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Rus tarixchilarining yuqorida zikr etilgan O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixiga oid asarlarining aksariyati o'zining bir yoqlamaligi, metropoliya manfaatlariga xizmat qilishga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi².

¹ Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. 3–4-bb.

² «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8-jild. 274-b.

XX asrning boshida milliy davriy matbuot «Sadoi Farg‘ona», «Sadoi Turkiston», «Oyna», «Najot», «Hurriyat» sahifalarida O‘zbekiston tarixi muammolariga oid ilk maqolalar e’lon qilina boshladi. Bu maqolalar mualliflari jadidchilik harakati namoyandalari bo‘lib, ular mamlakat rivoji, millatning taraqqiysi, o‘zlikni anglashda tarix fanining o‘rniga alohida e’tibor qaratdilar. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatida tarix muammolarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etdi. Behbudiy komil inson bo‘lib yetishishda va jamiyatni boshqarishda tarix fanining o‘rni beqiyosligini ta’kidlaydi. U «Tarix va jug‘rofiya», «Turkiston tarixi», «Sart so‘zi majhuldir» kabi asarlarida faqatgina Vatan tarixini emas, Yevropa va jahon mamlakatlari tarixini bilish zarurligi haqidada so‘z yuritadi. Uning «Moziy istiqbolning tarozisidir», degan xitobi tarix tajribasida o‘zining to‘g‘riligini isbotladi¹.

Tarix fani rivojiga Abdurauf Fitrat salmoqli hissa qo‘shti, uning — «Tarix millatimizning, o‘tmishimizning taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rganadigan fandir», degan so‘zlar tarix fani sohasida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Sobiq sovetlar hokimiyyati davrida tarixni o‘rganishda bir yoqlamalikka yo‘l qo‘yildi. Bu davrda ayniqsa Rossianing O‘rta Osiyodagi mustamlakachiligi tarixini o‘rganishda Sovet mafkurasi rasmiy andozalaridan chetga chiqishga yo‘l berilmadi, tarix fani nihoyatda siyosiy lashtirilib, ilmiy-tarixiy tafakkur hukmron mafkura nazorati ostida bo‘lganligi tufayli juda ko‘p masalalarning asl mohiyatini ko‘rsatib berish imkonini bo‘lmadi, natijada tarixni soxtalashtirish kuchayib ketdi².

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so‘zlar muhim ahamiyat kasb etadi: «... dunyo xalqlari va xususan yurtimiz tarixiy taraqqiyot yo‘lining asosiy qonuniyatlarini mantiqiy tahlil qilsak, shu narsa ayon

¹ O‘sha joyda.

² «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8-jild. 276-b.

bo‘ladiki, Aleksandr ham (uni Sharqda ko‘proq Iskandar Zulqarnayn degan nom bilan biliшadi), Qutayba ham, Chingizxon ham, general Chernyayev ham, umuman, kim bo‘lmasin, yurtimizga bir necha o‘н ming yo bir necha yuz ming lashkari bilan kelgan, ishg‘ol qilgan va bu yerdagi siyosiy hokimiyatni qo‘lga olgan. Yana takrorlayman: Siyosiy hokimiyatni. Tamom. To‘g‘ri, hukmronliklari mobaynida ular mamlakatimizning iqtisodiy, savdo, ilmiy, madaniy imkoniyatlaridan o‘з manfaatlari yo‘lida foydalanimishga zo‘r bergenlar. Biroq shu yerda asrlar davomida yashab kelayotgan mahalliy aholini, uning ko‘p ming yillik madaniyatini yo‘q qilolmaganlar, qilolmasdilar ham»¹.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, tarix fani oldiga o‘zbek xalqining haqqoniy tarixini yaratish, taraqqiyotning turli bosqichlarida jahon hamjamiyatida uning o‘rni va rolini aniqlash, tarixiy bilimlarni ommalashtirish va targ‘ib qilish orqali millatning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, madaniyati, qadimiy an‘analariga qaytish vazifalarini qo‘ydi².

Bu borada I.A.Karimovning tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan uchrashuvida bayon etgan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» asari muhim rol o‘ynadi. Unda prezidentimiz: «...tarixchilarimiz millatga uning haqqoniy tarixini ko‘rsatib, isbotlab berishlari kerak. Zotan, tarix — xalq ma’naviyatining asosidir; ... biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur», — deb ta’kidlab, tarixchilar oldiga aniq vazifalarini qo‘ydi³.

Mazkur asarda I.A.Karimov tomonidan tarixchi olimlar, ilmiy muassasalar oldiga qo‘yilgan bir necha dolzarb masalalar ko‘rsatib berilgan, jumladan: «Men qaysi xalq qayerdan kelib chiqqani, kimning tarixi ko‘hnaligi xususida bahs yuritish, bu borada bir millatni

¹ Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. 18-b.

² «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8-jild. 276-b.

³ O‘sha joyda.

boshqa bir millatga qarama-qarshi qo‘yishga mutlaqo qarshiman. Bu narsa bizga aslo kerak emas. Faqat bizning davlatimiz tarixini yoritishda o‘zga g‘oya hukmronlik qilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini ta’kidlamoqchiman. Bu masalada, ya’ni uzoq o‘tmishimiz, tarixiy tomirlarimiz bo‘yicha o‘z mustaqil fikrimizga, chuqur ilmiy asosga ega bo‘lishimiz shart. Tarixchi olimlarimiz, ilmiy muassasalarimiz oldida turgan dolzarb vazifa shundan iborat»¹.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalar va tamoyillardan kelib chiqqan holda bugungi kunda O‘zbekiston tarixi va uning sohalari yuzasidan har tomonlama, ilmiylikka va tarixiylikka asoslanilgan holda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda va bu bora da bir qator muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

«Endi biz muarrixlar oldida ham tadqiqotchilik, ham fuqarolik burchi turganini, bir yelkamizda tarixga xolislik, ilmiy haqiqat bilan qarash yuki, ikkinchi yelkamizda esa Vatan va Millat oldidagi javobgarlik, o‘tmishimizni asrash, ajdodlar ruhini e’zozlash va kelgusi avlod oldidagi qarzdorlik yuki borligini butun vujudimiz bilan anglamog‘imiz kerak»².

Bugungi kunda tarix fani metodologiyasi va tarixiy tadqiqotlar borasida shunday bosqich yuzaga keldiki, bunda tarixchi tadqiqotchi ilmiy natijalarga erishish uchun zamonaviy tarix fani tadqiqotlari talablaridan kelib chiqqan holda eng maqbul uslublarni va metodlarni tanlay bila olishi va uni amalda qo‘llay olishi, tadqiqotlar jarayonida u yoki bu qo‘llanayotgan tarixiy tadqiqot metodlarining me’yorlarini yaxshi tafakkur qila olishi talab etiladi.

O‘zbekiston tarixini o‘rganishning tarixshunoslik masalalari

O‘zbekistonning bir necha ming yillarga borib taqaladigan qadimiylar tarixi, uning davlatchilik masalalari, ajdodlarimizning moddiy va ma’naviy merosi, o‘zbek xalqining shakllanishi va et-

¹ Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. 29-b.

² Jo‘rayev N. Tarix faslafasining nazariy asoslari. – T.: Ma’naviyat. 2008. 39-b.

nik jarayonlar va boshqa ko'plab tariximizga taalluqli jihatlariga oid minglab nodir qo'lyozmalar va boshqa manbalar yaratilgan.

Keyingi ikki asr mobaynida o'tmish tarixni tadqiq etish borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Garchi bu tadqiqotlarning natijalari, ilmiy xulosalari turlicha mazmunga ega bo'lsada, ulardag'i mavjud holatlarni tadqiq qilish va tanqidiy tahlil qilish orqali tarixiy tadqiqotlardagi to'g'ri va noto'g'ri yondashuvlarni aniqlagan holda tarixiy jarayonlar va ularning asl mohiyati haqidada haqqoniy xulosalarga kelish mumkin. Bu borada tarixshunoslikning ahamiyati beqiyosdir.

O'zbekiston tarixining XVII–XIX asrlar – o'zbek xonliklari davri haqida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quydagilarni alohida ta'kidlaydi:

«Nega jahonga Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergen bu millat XVII–XIX asrlarga kelib, to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so'nngi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? Ajdodlarimizning qat-tiq qarshiligiga qaramay, chor Rossiyanining o'lkamizni nisbatan oson zabit etishida ana shu qoloqlikning ham o'rni bo'l maganmikan? Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun mana shunday savollarga duch keladi va, aminmanki, to'g'ri xulosalar chiqaradi. Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir.

Kim bo'l shidan qat'i nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi»¹.

Shu o'rinda o'zbek xonliklari tarixining o'rganilishi orqali tarixshunoslikning ayrim jihatlariga e'tibor qaratishimiz mumkin.

¹ Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. 10-b.

O‘zbek xonliklari tarixini o‘rganish XIX asrning o‘rtalaridan boshlab bugungi kungacha tarixchilar e’tiboridagi masalalardan biri sifatida tadqiqot obyekti hisoblanadi. Hozirgi kungacha xonliklar tarixi bo‘yicha amalga oshirilgan va yaratilgan ilmiy asarlar hamda ilmiy tadqiqotlarning salohiyati juda katta bo‘lib, keyingi ikki asr mobaynida xonlik tarixini o‘rganishda turlicha yondashish va munosabatlar, ayrim vaqtarda tarixiy jarayonlar va tarixiy voqelikni obyektiv baholamaslik holatlariga yo‘l qo‘yilgan. Bu esa xonliklar tarixini tarixshunoslik nuqtayi nazaridan chuqr tahlil qilishni talab etadi. Shundan kelib chiqqan holda XIX asrning dastlabki choragidan boshlab bugungi kungacha tarixchilar e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelayotgan o‘zbek xonliklari tarixining o‘rganilishini mavjud ilmiy tadqiqotlarning yo‘nalishi, davr va boshqa xususiyatlarga ko‘ra bir necha guruhga bo‘lib ko‘rib chiqish talab etiladi.

O‘zbek xonliklari tarixini tarixshunoslik nuqtayi nazaridan davrlashtirishning quyidagicha an’anasini tarix tadqiqotlارida asosiy qilib olinganligini deyarli barcha tadqiqotlarda kuzatish mumkin, unga ko‘ra birinchi davr – XIX asrning 30-yillaridan – XX asrning boshlarigacha, ikkinchi davr – Sovet davri tarixshunosligi (1917–1991-yy.), uchinchi davr – O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritganidan keyingi yillar (1991-yil 31-avgustdan bugungi kunlargacha)ni o‘z ichiga oladi.

Tarixshunoslikning bu tarzdagi davrlashtirilishi natijasida ak-sariyat hollarda har bir davrga umumiy tarzda yondashilgan va ayni vaqtida tarixiy asarlar va tarixiy voqealarning tahlili amalga oshirilgan. Biroq tarixiy asarlar va ularda voqealarning yoritilishiga bo‘lgan munosabatning xususiyatlarga qarab bu davrlarning har birini alohida yana kichik davrlarga yoki guruhlarga ajratib chiqish maqsadga muvofikdir. Bunda tarixiy tadqiqotlarning masalaga konseptual – metodologik yondashuv xususiyatlarga ko‘ra quyidagi davrlarga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etish mumkin:

Birinchi davr XIX asrning 30-yillaridan – XX asrning boshlarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi va uni quyidagi xususiyatlariga ko‘ra ikki qismga ajratish mumkin:

Birinchi qismi XIX asrning 30–50-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, bu vaqtida o‘zbek xonliklari tarixi masalalariga bag‘ishlangan ishlarda asosan xonliklarning ichki siyosati, ijtimoiy va iqtisodiy hayot masalalari yoritilgan ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. Bu ma’lumotlar xonliklar hayatini aks ettirish bilan birga keyinchalik uning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi shida podsho armiyasi harbiylari uchun qo’llanma-ma’lumotnomalarini ham bajargan. Bu ma’lumotlar va asarlar o‘zining ma’lum daraja obyektivligi bilan xususiyatlanadi.

Ikkinci qismi XIX asrning 50-yillaridan – XX asr boshlari gacha bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi. Bu davrda yaratilgan asarlarda xonliklarning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi masalalariga keng o‘rin berilgan va ularning aksariyatida «buyuk davlatchilik» shovinizmi xususiyatlari yaqqol sezilib turadi. Shu bilan birga ayrim rus tarixchilari masalani obyektiv yoritish fikrlarini ham ilgari suradilar. Ushbu xususiyatlari bilan bu davrda yaratilgan asarlar Qo‘qon xonligi tarixi va uning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi masalalarini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinci davrni Sovet davri (1917–1991-yy.) tarixshunosligi tashkil etadi. Bu davrni tarix faniga va tarixiy tadqiqotlarga bo‘lgan yondashuv xususiyatlariga asoslangan holda uch qismga bo‘lish mumkin:

1. Sovet davri tarixshunosligining birinchi qismini Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan – XX asrning 50-yillari o‘rtalarigacha bo‘lgan davr bilan belgilash mumkin. Bu davrda yaratilgan ilmiy asarlar va tadqiqotlar masalaga qisman obyektiv yondashuvi bilan xususiyatlanadi.

2. Sovet davri tarixshunosligining ikkinchi qismi XX asr 50-yillaridan – 80-yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida tarix-

ni o‘rganishga kommunistik mafkura va sotsialistik tuzum g‘oyalari ta’sirida bir tomonlama, O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilishiga «progressiv» jarayon sifatida, mahalliy xalqlar taraqqiyotida buyuk davlatchilik shovinizmini bo‘rttirib ko‘rsatishga moyillik hukm suradi.

Bu davr tarix fani sohasiga baho berar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildiradi:

«Ahvol shu darajaga borgan ediki, o‘z tariximizni o‘zimiz yozish huquqidan mahrum bo‘lib qoldik. Birovlar tomonidan yaratilgan tarix darsliklarini o‘qir edik. «SSSR tarixi» deb atalgan darslikda O‘zbekistonday mamlakatga bor-yo‘g‘i 3–4 sahi fa o‘rin berilib, tarixiy voqealar va shaxslar haqida noxolis fikrlar aytilar yoki umuman, lom-mim deyilmasdi. Fandagi bunday soxtakorlik, ko‘zbo‘yamachilikni bugun eng olis qishloqlarda yashayotgan oddiy fuqaro ham, maktab o‘quvchisi ham yaxshi biladi. Endi, mustaqillik tufayli yaqqol namoyon bo‘layotgan tarixiy haqiqatni bilishga, o‘zligini anglashga chanqoqlikning tub sabablari mana shunda, deb o‘layman»¹.

Bu davrda O‘zbekiston tarixi yuzasidan va uning turli davrlarga oid amalga oshirilgan tarixiy tadqiqotlar va ularda yo‘l qo‘yilgan soxtakorlik, g‘ayri ilmiy xulosalar haqida so‘z yuritib, Prezident quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tadi:

«...Tan olmaydi, bilmaydi, bilishni xohlamaydi ham. O‘jarlikning sababi esa bitta: basharti, tan olgudek bo‘lishsa, tarixiy xulosalari chippakka chiqadi, ilmda soxta yo‘l bilan borganlari fosh bo‘ladi»².

3. Sovet davri tarixshunosligining uchinchi qismi XX asrning 80-yillari o‘rtalaridan 90-yillari boshigacha («qayta qurish» davri) bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi. Bu davrda asosan o‘zbek olimlari tomonidan e’lon qilingan bir qator ilmiy ishlarda va maqolalarda

¹ Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. 3–4-bb.

² Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. 10–11-bb.

Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rtta Osiyo xonliklarining bosib olinishi va mustamlakaga aylantirishi jarayonlarini manbalar va arxiv hujjatlari asosida haqqoniy va obyektiv yoritishga intilish muhim o‘rin egallaydi.

Uchinchi davr O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillari tarixshunosligi (1991-yil 31-avgust – bugungi kunlarga) tashkil etadi. Bu davrda amalga oshirilgan va bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar o‘zining xolisligi, tarixiyligi, ilmiyiliği va masalaga obyektiv yondashuvi jihatlari bilan xususiyatlanadi.

Mustaqillik davri tarixshunosligini yuqoridagilarni inobatga oлган holda ikki qismga ajratish mumkin:

Birinchi qismi – 1991-yil 31-avgust – 1998-yil 28-iyun. O‘zbekiston Respublikasi o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, barcha sohalarda bo‘lgani kabi, tarix fani sohasida ham yangilanishlar amalga oshirila boshlandi. Tarixiy tadqiqotlarda nafaqat o‘zbek xonliklari tarixini, balki O‘zbekiston tarixinining barcha sohalarini ilmiy jihatdan obyektiv ravishda o‘rganish, tarixiylikka va xolislikka rioya etish shakllanib bordi. Bunda manbalarga va tarixiy hujjatlarga asoslangan holda tarixni yoritishga bo‘lgan e’tibor birinchi o‘ringa ko‘tarila boshlandi. Biroq, tarixni har tomonlama mukammal ravishda tadqiq etish borasida kamchiliklar ko‘zga tashlana boshlandi.

Mustaqillik davri tarixshunosligining ikkinchi qismi – ya’ni 1998-yil 28-iyundan boshlanib, bugungi kunlarda ham davom etmoqda. Bu yillar mobaynida tarixni o‘rganishga bo‘lgan munosabat mazmun va mohiyat jihatdan tubdan yangilanish bosqichiga ko‘tarildi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning tarixchi olimlar bilan uchrashuvi hamda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix Instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risidagi Farmoni katta ahamiyat kasb etdi¹.

¹ Xalq so‘zi. 1998-yil 28-iyun.

«Modomiki, o‘z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo‘lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur. Agar olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlari zamirida ana shu fikr, ana shu maqsad bo‘lmasa, ularning sariq chaqalik ahamiyati yo‘q», — degan so‘zlari bilan Birinchi Prezidentimiz tarixchilar oldiga ilmiy jihatdan asoslangan va haqqoniy tarixni yaratish vazifasini qo‘ygan edi¹. Bu bilan tarixni o‘rganishning mazmun jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga yo‘l ochib berildi. Shu nuqtayi nazardan 1998-yildan boshlab bugungi kungacha yaratilgan ilmiy asarlar, risolalar hamda ilmiy tadqiqot ishlarida tarixni o‘rganishning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan jihatlariga katta e’tibor berilmoqda.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Pezidenti I.A. Karimovning quyidagi so‘zlari g‘oyat o‘rinlidir: «Maqsad shuki, fanda bizning tarixiy tomirlarimizni aniqlaydigan, milliy g‘ururimizni yuksaltiradigan yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lishi kerak.

Bir so‘z bilan aytganda, davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligidan uchun g‘oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim»².

Tayanch tushunchalar:

«Annallar maktabi», metod, metodologiya, modellashtirish, tarix, empirizm, tarixiy tadqiqotlar, «klassik» (mumtoz) metodologiya, «klassik bo‘limgan» (noklassik) metodologiya, «post-noklassik» metodologiya, narrativ matn, manbaning matni, tizimli-tahliliy yondashuv, dalil.

¹ Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. 24–25-bb.

² Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. 30–31-bb.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarix fani metodologiyasi nimani o‘rganadi?
2. Metod va uning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Tarixiy tadqiqotlar metodlarining darajalari va yondashuvlari?
4. «Klassik» (mumtoz) metodologiya tushunchasi.
5. «Klassik bo‘lImagen» (nokklassik) metodologiya tushunchasi.
6. «Postnoklassik» metodologiya tushunchasi.
7. «Annallar maktabi» haqida tushuncha bering.
8. Tarixchilarining tarixiy tadqiqotlar haqidagi fikrlari.

Mavzuga aloqador so‘zlarning izohli lug‘ati:

«Annallar maktabi» – «Yilnomachilik maktabi», qadimgi Misr, Yunoniston, Rim, davlatlarida mavjud bo‘lgan yilnomalar asosida tarixni yoritish.

Tarixiy tafsifning eng qadimiy ko‘rinishlaridan biri qadimgi Rimdagi annallar (lot. annus – yil) – ruhoniy pontifiklar tomonidan yozib borilgan yilnomalar hisoblangan. Maxsus taqvimlarda ma’lum yil davomida sodir bo‘lgan eng asosiy voqealar, hodisalar, hukmdorlar va ularning faoliyatlari qayd etib borilgan. Bunday qaydlarning alohida xususiyati shundaki, pontifiklar sodir bo‘lgan voqealar va hodisalarni faqatgina qayd etganlar va ularga o‘zlari tomondan hech qanday izohlar va tushuntirishlar bermaganlar. Keyingi davrlarda yillar bo‘yicha xronologik tarzda tuzilgan qaydnomalar (yilnomalar) annallar deb yuritila boshlangan. Miloddan avvalgi taxminan 123-yilda shu vaqtgacha yig‘ilgan ma’lumotlarni o‘z tarkibiga olgan «Buyuk annallar» deb nomlangan va 80 ta kitobdan iborat katta to‘plam yaratilgan.

Yilnomalar bilan bir qatorda xususiy tarixnavislik an’analari ham yuzaga kela boshlagan. Biroq ularning aksariyat yo‘qolib ketgan va ayrimlari keyingi davr tarixchilarining asarlarida iqtibos tarzida keltirib o‘tilgan. Qadimgi Rimning eng qadimiy tarixlari «katta annalchilar» tomonidan yaratilgan bo‘lib, miloddan

avvalgi III-II asrlarga oid bo‘lib, qadimgi yunon tilida yozilgan. Ulardan keyingi davrlarda yaratilgan asarlar va to‘plamlar «kichik annalchilar» tomonidan yozilgan deb hisoblanadi.

Metod – (yunoncha methodos – nazariya, bilim va tadqiqot yo‘llari) – u yoki bu maqsadlarga erishish yo‘llari, uslublari, aniq va konkret vazifalarni hal etish usullari.

Metodologiya – (yunoncha «metod» va «logos» – fan, ilm) – fan metodologiyasi – ilmiy bilishning shakllari, uslublari va tuzilish tamoyillari haqidagi fan.

Modellashtirish – tarixiy hodisalarining andozasini, shaklini, holatini tuzish, shakllantirish.

Tarix (yunoncha «historia» – o‘tmishni tavsiflash, hikoya qilish) – ijtimoiy fanlar majmuasi (tarix fani) bo‘lib, insoniyatning butun o‘tmishi davomidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotidagi jarayonlar va voqeа-hodisalarни aniq-konkret holda va turli uslublar yordamida davrlarga bo‘lingan va umumiy holda o‘rganadi. Tarmoqlari: iqtisodiy tarix, siyosiy tarix, madaniyat tarixi, harbiy tarix, diplomatiya tarixi, tarixiy geografiya va boshqalar. Tarkibiy qismlari maxsus tarixiy fanlar hamda arxeologiya va etnologiya. Fan va madaniyat tarixi, san’at tarixi shu sohalarni bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

Empirizm – nazariy umumlashtirishni inkor qilib, hissiy idrokni, tajribani bilishning birdan bir manbayidir, deb biladigan falsafiy yo‘nalish, nazariyadan ko‘ra amaliy faoliyatga ko‘proq moyil bo‘lishlik, amaliy faoliyatga moyillik.

TARIX FANINING PREDMETI

Bilish obyekti. Tarix fanini bilish obyekti. Insoniyat tarixi. Tarix fanining umumiy tasnifi. Tarix fanida fanlararo yondashishdan foydalanish. Tadqiqot predmeti. Tadqiqot masalalarining qamrovi va xususiyatlari. Tarix fani haqidagi falsafiy yo‘nalishlar. Fanning tadrijiy rivojlanish bosqichi. Antropolologik yondashuv. Tarix fanining tarmoqlari va tuzilmalari. Siyosiy, harbiy, diniy tarix. Fanning tarixi. Ayollar tarixi va gender tadqiqoti. San‘at tarixi. Intellektual tarix. Madaniyat tarixi. Diplomatiya tarixi.

Tarix fanining bilish obyekti – insoniyat tarixining barcha davrlarida sodir bo‘lgan voqealar, jarayonlar, voqeliklar (ko‘rinishlar)ning majmuasidir.

«Bilish obyekti» tushunchasi ostida obyektiv voqelik yotadi.

Tarix fanining obyekti – bu insoniyatni tashkil etuvchi barcha jamiyatlar majmuyidir.

Tarix fanining predmeti – bu vaqt va makondagi shakllanishidan to tanazzulga uchrab tugagungacha bo‘lgan jarayonlarni boshdan kechirgan aniq va konkret jamiyat bo‘lib, umumiy yaxlit holda hamda uni tashkil qiluvchi barcha tarkibiy tuzilmalari va qismlari, shuningdek bu jamiyatning boshqa aniq va konkret jamiyatlar bilan o‘zaro munosabatlaridir¹.

Tarixiy bilishning asosiy maqsadi – obyektiv va xolis, tizimli, konkret jamiyatning taraqqiyotidagi tarixiy jarayon haqidagi konkret bilimga va ilmiy jihatdan asoslanilgan tarixiy haqiqatga erishish².

Tarixiy bilish nazariyasida metodologiya ma’lum bir faoliyatning aniq maqsadlari va yo‘nalishlarini belgilaydigan falsafiy tamoyillar va umumiy qoidalarning majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarix fanining ijtimoiy vazifalari ham mavjud bo‘lib, tarix fani quyidagi ijtimoiy vazifalarni bajaradi:

¹ Баринова Е.П., Иполлитов Г.М., Бобкова Е.Ю. Основы теории и методологии исторической науки: Учебное пособие в схемах. 2010.

² Ko‘rsatilgan manba.

1. Ijtimoiy xotira vazifasi. Ijtimoiy xotira – bu o‘tmishdagi barcha ajdodlar hayot tajribalarining xotirada jamlanishi va saqlanishidir.

Bunday xotira quyidagilardan tarkib topadi:

- jamoaviy xotiradan;
- tanlab olingan va alohida, uzuq-yuluq xotiradan;
- ijtimoiy yo‘naltirilgan xotiradan;
- murosaga keltiruvchi xotiradan;
- adolatli xotiradan.

2. Ilmiy bilish vazifasi.

3. Tarbiyaviy vazifa.

4. G‘oyaviy-siyosiy vazifa. Bu vazifa har doim ham tan olinavermaydi.

Tarix fani o‘zining asosiy maqsadiga erishish jarayonida quyidagilarga ilmiy zamin yaratadi:

- pozitiv ijtimoiy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirishga;
- konkret jamiyatning taraqqiyotini oldindan taxmin qilishga;
- jamiyat taraqqiyotini va uning alohida sohalari va jarayonlarini boshqarishga.

Tarix fani alohida mustaqil fan sohasi sifatida dastlab qadimgi Yunonistonda shakllangan. Bizga bugungi kunda tushunarli bo‘lgan «tarix» so‘zi qadimgi yunon tilida «qidirish», «izlash» kabi ma’nolarni anglatgan va bu tushuncha ostida Gerodotning o‘tmish haqidagi yozma hikoyalari tushunilgan¹.

Tarixiy bilish ikki turga bo‘linadi, birinchisi kundalik tarixiy bilish (kundalik hodisalar, jarayonlar, har kuni odatiy ravishda sodir bo‘lib turadigan, o‘z-o‘zidan (tartibsiz ravishda) yuz berishi (sodir bo‘lishi) mumkin bo‘lgan hodisalar va jarayonlar) bo‘lsa, ikkinchisi ilmiy tarixiy bilishdir².

¹ Смоленский Н.И. Теория и методология истории: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. 2-е изд., – М.: Издательский центр «Академия», 2008. С.16.

² Смоленский Н.И. Теория и методология истории. С.16.

Kundalik tarixiy bilish sohasiga hayotiy voqealar va hodisalarini tavsiflash, sayohat vaqtida ko'rgan-kechirganlarini tavsiflash, qadimgi osori-atiqalarni yig'ish va ular haqida ma'lum bir fikrlarni bildirish kabilarni kiritish mumkin bo'lsa, ilmiy tarixiy bilish sohasi professional tarixchilarga xosdir¹.

Ko'pincha tarix faniga o'tmishni o'rganuvchi fan sifatida qaraladi. Bu fikr yoki qarash unchalik ham to'g'ri emas. Tarix fani nafaqat o'tmishni o'rganadi, balki bugungi kunda, ayni vaqtda sodir bo'layotgan voqealarni ham o'rganadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asaridagi mulo-hazalar juda katta ma'no anglatishini ko'rish mumkin².

Bunda bir jihatga alohida e'tibor qaratish lozimki, bir tarixchi yoki bir guruh tarixchilar o'tmish tarixiy jarayonlarini (yoki ayni zamonaviy kunlardagi hodisalar va jarayonlarni) bor ko'lamicha tadqiq etmaydi, balki uning ma'lum bir tarkibiy qismini, voqealarni va hodisalarning biror-bir yo'naliishi yoki qatlaminigina o'rganadi. Tarix fani tarmoqlari sohalari mutaxassislari bo'lgan professional tarixchilar tomonidan amalga oshirib boriladigan tadqiqotlarning ilmiy xulosalarini va natijalarini umumlashtirish orqali o'tmish va bugungi tarixiy jarayonlar, hodisalarning mazmuni va mohiyati haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Tadqiqot predmetining tushunchasi va mohiyatidan kelib chiqqan holda o'tmishni o'rganishga yo'naltirilgan sivilizatsion, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, demografik kabi bir qator yondashuvlar mavjud. Bu shundan dalolat beradiki, tarix fanida tadqiqot predmetiga va uning tadqiqiga nisbatan aniq belgilangan yoki ayni bir o'zgarmas andozaga solingen yagona yondashuv bilan cheklanib qolimagan. Aynan ana shu holatdan o'tmishga aylangan tarixiy voqelikka nisbatan yoki ayni kunlardagi jara-

¹ Смоленский Н.И. Теория и методология истории. С.16.

² Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq. 1998.

ylonlarni o‘rganishga nisbatan qo‘llaniladigan tadqiqot jarayoni-ning tarkibiy qismi bo‘lgan «obyekt» tushunchasi hamda tadqiqot obyektining tarkibiy qismi sanalgan tadqiqot «predmet» tushun-chasi kelib chiqadi. Ayrim holatlarda ularning bir-biriga mos kel-masligi tarixiy bilishning xususiyati bilan bog‘liqdir¹.

Jamiyatning o‘tmishda sodir bo‘lgan jarayonlarga nisbatan qiziqlishi va uni bilishga hamda anglashga bo‘lgan intilishi, tarix-chilarning bu holatni tadqiqotni amalga oshirishdagi asosiy omil-lardan biri sifatida qabul qilishi mavzuning dolzarbligini belgi-lab beradi. To‘g‘ri, tarixchi tomonidan tanlab olingan har qanday tadqiqot mavzusida boshqalariga aynan mos bo‘lmagan o‘ziga xos jihatni mayjud bo‘ladi va u ayni vaqtda mazkur tadqiqotning nati-jalari atrof-muhit yoki jamiyatga ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin.

Tadqiqot mavzusi dolzarbligining ikki xususiyati mayjud bo‘lib, birinchidan, mavzuning dolzarbliqi faqatgina ijtimoiy – amaliy jihatnigina emas, balki tarixchi tadqiqotining metodologik asoslari bilan bog‘liq ilmiy ahamiyatiga e’tibor qaratishi nazarda tutiladi. Ikkinchidan, mavzuning dolzarbliqi o‘zgarmas va mutlaq ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin emas, chunki bir holatda dolzarb bo‘lgan mavzu boshqa bir holatlarda o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotishi mumkin².

Shu o‘rinda mavzuning dolzarbliqi tushunchasini konyunktura tushunchasidan farqlab olish kerak bo‘ladi.

Dolzarblik tushunchasining konyuktura tushunchasidan farqi shundaki, birinchi holatda o‘tmishga nisbatan faqat savol tariqa-sida yoki uni o‘rganish jihatidan munosabatda bo‘linsa, ikkinchi holatda o‘tmish voqealari yoki jarayonlarining mohiyati mayjud holat talablari bilan bog‘langan holda avvaldan tayyorlab qo‘yil-gan yoki belgilab qo‘yilgan yoki aniqlangan tushunchaga mos-lashtiriladi. Bu holatda tarixiy voqealarning ahamiyati o‘zining haqiqiy mohiyatidan uzoqlashtiriladi va umumiy tarixiy jarayon-

¹ Смоленский Н.И. Теория и методология истории. С. 17.

² Смоленский Н.И. Теория и методология истории. С. 18.

ga ta'sir ko'rsatgan boshqa bir voqeanning ahamiyatini oshirilishi-ga olib keladi¹.

Masalan, bunday yondashuvni O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi masalalariga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlarda kuzatish mumkin. N.A.Xalfin o'zining «Присоединение Средней Азии к России (60-80 гг. XIX в)» nomli monografiyasida² Turkiston o'lkasida ta'lim sohasidagi, ijtimoiy qarashlar borasidagi, iqtisodiy sohadagi o'zgarishlarning asosiy omili sifatida Rossiya imperiyasining bu yerdagi hukmronligini va uning «progressiv» ta'sirida, deb ko'rsatadi, biroq ayni vaqtda shu davrda Turkiston o'lkasida jadidchilikning yuzaga kelishi, jadidlarning milliy maorif, milliy matbuot, milliy adabiyot va san'at sohalaridagi faoliyati va ayni vaqtda ijtimoiy munosabatlар va xalq siyosiy qarashlarining o'zgarib borishiga ta'siri, iqtisodiy sohada esa milliy burjuaziyaning shakllanib borishi, nafaqat Rossiya, balki Yevropa va Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan ham iqtisodiy munosabatlarning avvaldan mavjudligi va bu davrda yanada kengayib borishi omillarini e'tiborga olmaydi.

Yuqoridagi fikrlarga umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, tarixiy bilishning fundamental asoslarining shakllanishi tadqiq etilayotgan mavzuning ayni zamonaviylikdagi dolzarbligi bilan bevosita bog'liqdir.

Ijtimoiy fanlar jamiyatning u yoki bu sohalarini, masalan, faylasuflar, sotsiologlar, lingvistlar, iqtisodiy fan sohasi vakillari, siyosatshunoslar yoki adabiyotshunoslar alohida-alohida tadqiqot sohasi sifatida o'rgansalar, tarix fani jamiyat hayotini to'lig'icha, bor ko'lami bilan o'rganadi va shu jihatni bilan jamiyat hayotini o'rganuvchi ijtimoiy fanlar qatorida alohida muhim o'rinn tutadi.

Tarixiy bilishning rivojlanib borishi tarix fani tarkibidagi tadqiqot yo'naliishlaridagi mustaqil fan sohalari – tarixiy antropologi-

¹ Смоленский Н.И. Теория и методология истории. С. 18–19.

² Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60-80 гг. XIX в). – М.: Наука, 1965.

ya, ijtimoiy psixologiya, tarixiy geografiya kabi bir qator boshqa sohalarning mohiyatiga ko‘ra differensiallashuviga (farqlanishi-ga, darajalanishiga) olib keladi. Keyingi yillarda zamonaviy fransuz tarixshunosligida «davomli tarix» tushunchasi yuzaga keldiki, bunda tarixiy jarayonlarni umumiylilik va yaxlitlikdan ajratib olgan holda alohida-alohida o‘rganish yuzaga kelmoqda. Bunday tadqiqotlar jamiyat hayoti yoki kishilar hayotining turli sohalari yuzasidan alohida mazmunga ega ma’lumotlarni ko‘rsatib berishi mumkin, biroq bu alohidalik tarixni umumiylilik tushunishga imkon bermaydi¹.

Bu o‘rinda o‘xshatish uchun shunday naql keltirish mumkin, ya’ni «daraxtning ortida o‘rmon ko‘rinmaydi».

Tarix fanining predmetini belgilash tarixiy bilim nazariyasidagi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Uning yechimini ilmiy jihatdan asoslangan holda belgilanishi fanning taraqqiyotini ham belgilab beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar o‘z xususiyatidan kelib chiqqan holda bilish obyektlari hamda ilmiy tadqiqot uslublari yordamida bugungi jamiyat hayotining u yoki bu sohalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tarix fani esa o‘tmishni o‘rganib, kompleks xususiyatlik kasb etadi va fanlarning ilmiy sohadagi yutuqlari bilan integrallashgan holda sintezlaydi (bir-biriga bog‘lagan holda umumlashtiradi). Ayni vaqtda tarix fani ilmiy xulosalarni chiqarishda tarixiy tadqiqotlarning natijasiga asoslanadi. Bu aloqalar bugungi fanlarning alohida xususiyati bo‘lib, ilmiy natijalarning chiqarilishiga imkon beruvchi fanlararo yondashuvdir.

Jamiyatda sodir bo‘lgan voqealarning tarkibi, jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va ko‘lami jihatdan kengligi bilish obyektining yaxlit holda tadqiq etilishi imkoniyatini cheklab qo‘yadi. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqotchidan tadqiqot predmetini ham aniqlash talab etiladi. Ayni vaqtda tadqiqotchi tomonidan tadqiqotning vazifalari, vogelikning alohida o‘ziga xosliklari, ko‘lamni va xususiyatlari aniqlanadi.

¹ Афанасьев Ю.Н. История против эклектики. – М., 1980.

Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san'atshunoslik va boshqalar) tizimining tarkibiy qismi. Tarix fanining bu guruhdagi o'rni uning tadqiqot predmeti va usullari bilan belgilanadi.

Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar jamiyat hayotining alohida jihatlarini o'rgansa, tarix fanining tadqiqot obyekti — aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o'tmishi va buguni haqidagi faktlarni yig'ish, tahlil qilish, to'plangan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishdir. Tarix fani o'tmishda sodir bo'lgan jarayon va hodisalar orasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig'i va ma'nosini ko'rish imkonini beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tarixiy tadqiqotlar natijalariga tayanadi. Fanlararo yondashuv jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirib, o'tmishni va bugunni anglash orqali jamiyat rivoji istiqbolini ko'ra bilishdek muhim vazifani hal qiladi.

N.Jo'rayevning fikricha, tarix – inson haqidagi, odamlar haqidagi fan. Biroq u bugunning odamlari, kechinmalari, his-tuyg'ulari, faoliyatları va munosabatlari xususida emas, balki o'tgan ajdodlarimiz turmush tarzi, ma'naviy-ruhiy kechinmalari, sodir etgan voqeа-hodisalari, maqsad va intilishlari haqidagi fandir¹.

Tarix fanida, boshqa fanlarda bo'lganidek, muqarrar ixtisoslashuv amalga oshmoqda. Hozirgi zamon tarix fani alohida bo'limlar va sohalardan tashkil topgan bilimlar mayjmuyidir. Ixtisoslashish darajasiga ko'ra, ularni bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhni jamiyatning butun va alohida tomonlarini o'rganuvchi bo'lim va sohalar tashkil qiladi.

- Insoniyat tarixining ayrim hodisalari alohida o'rganiladi.
- Hududiy-geografik tamoyilga ko'ra, tarixan bir-biri bilan bog'liq yirik mintaqalar – Yevropa va dunyoning boshqa qismi

¹ Tarix falsafasining nazariy asoslari. 24-b.

lari, Qadimgi Sharq, O’rta Osiyo va boshqa alohida mamlakatlar hamda xalqlarga ajratiladi.

— Kompleks muammolarni tadqiq qilish bir guruh mamlakat va xalqlar tarixida ro’y bergan bosqichli davrlarni va o’rganish zaruratidan kelib chiqadi.

— Jahon tarixida global yondashuv bilan bir qatorda mikro tarix (shahar va qishloqlar, alohida shaxslar, kundalik maishiy turmush) ham o’ganiladi.

— Tarixning alohida tomonlarini o’rganish tarix fanining alohida sohalarini ajratishni taqozo qildi (masalan, harbiy tarix, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, din, fan, xotin-qizlar tarixi va gender tadqiqotlari, san’at, intellektual, madaniyat, diplomatiya tarixi va boshqalar).

Ikkinchи guruhni yordamchi va maxsus tarix fanlari tashkil qiladi. Ularni alohida tarix fanlariga ajratilishi va rivojlanishi tarix fanining xususiy tadqiqot usullarini ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqadi. Antropologiya, arxeologiya, etnografiya mustaqil o’ringa ega. Yordamchi tarix fanlariga — manbashunoslik, arxeografiya, paleografiya, geraldika, numizmatika kiradi. Maxsus guruh — boshqa fanlar ehtiyojidan kelib chiqadi (masalan, tabiiy fanlar tarixi, texnika tarixi, davlat va huquq tarixi). Tarix fanning tarixini tarixshunoslik fani o’rganadi¹.

Tadqiqotning nazariy jihatdan ko’lami ayni vaqtda predmetning ham ko’lami jihatdan kengayib borishiga ta’sir ko’rsatadi. Biroq tarix fani tadqiqot usullari va tarix fani tushunchalarining turlichaligi bois, tarix fani predmetining belgilab olinishi ham murakkablik kasb etadi.

M.Veberning fikricha, tarix fanning obyektiv predmeti yo‘q. Tarix tarixchining «layoqati va ixtiyori, xohish-irodasi»dir. Tarixchi keng ko’lamli obyekt ichidan o‘z idroki asosida anglagan qisminigina yuzaga chiqarib, ajratib ola oladi. Neokantchilarining

¹ «O’zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8-jild. 274-b

fikricha, o‘rganish obyekti tadqiqotchiga bog‘liq bo‘lмаган holda o‘z qonuniyatlariga ega bo‘lgan tabiiy fanlarga nisbatan tarix fanida tarixchining mushohada yuritishiga hamda voqelikka nisbatan baho bera olishiga bog‘liq holda alohida va takrorlanmas holat deb tushuniladi.

Marksistlar esa tarixning xususiy bo‘lishi va umumiy taraqqiyot qonuniyatlariga alohida yondashishi kerak deb ko‘rsatadi. Agar tarix fan bo‘lishi kerak bo‘lsa, u ham (barcha fanlar kabi) qonuniyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Marksistlar haqida N.Jo‘rayev quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: – «Marksistik mafkura insonning tarixiy tafakkuri va qarashlari xolis hamda erkin rivojlanishiga, shaxsning ozod yashashiga, shakllanishiga imkon bermadi. Tarixiy taraqqiyot qonunlariga zid bunday g‘oyalar esa uzoq yashamasligi o‘tmishdan ma’lum. Chunki bir g‘oyani, konsepsiyanı ilgari surganlar o‘z maqsadlari, dunyoqarashlari doirasidangina kelib chiqib tarixga yonda-shadilar, xolos. Ana shu tufayli tarixga noxolisona qarash, bir yoqlamalik tendensiyasi vujudga keladi. Natijada tarix soxtalashtiriladi. Buni ko‘pincha anglab-anglamaymiz, tushunib-tushunmaymiz»¹.

Tarix va tarix fani yuzasidan bir qator fikrlar bildirib o‘tilganchi, ular biri ikkinchisining mazmunini to‘ldirib keladi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, tarix so‘zi beshta ma’noni ifodalash uchun qo‘llanilmogda, jumladan, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan voqelik, hayot; o‘tmishga oid dalil va hodisalar majmuyi – o‘tmish, kechmish; biror voqeа-hodisaning izchil taraqqiyoti haqidagi fan; jamiyat taraqqiyoti haqidagi fan; biror ishning bajarilganligini, biron voqeа-hodisaning qachon bo‘lib o‘tganligini ko‘rsatuvchi aniq vaqt, sana².

Tarix tushunchasi Yevropada dastlab insonni o‘rab turgan olamni tushunishning har qanday ko‘rinishiga nisbatan qo‘lla-

¹ Tarix falsafasining nazariy asoslari. 15–16-bb.

² Ibrohimov A. Bizkim o‘zbeklar... – T.: «Sharq», 1999. 278–279-bb.

nilgan bo'lsa, bugungi kunda tadqiqotchilar va mutaxassislar tomonidan uchta asosiy tushunchaga urg'u berilmoqda, ya'ni, birinchidan, tabiat va jamiyatdagi har qanday jarayon taraqqiyoti, ikkinchidan, insoniyatning taraqqiyoti jarayonlari va uchinchidan, insoniyat taraqqiyoti jarayonlarini o'rganuvchi fan¹.

Tarixchi M.P. Lapteva «tarix» («istoriya») atamasi rus tilida-gi tushunchalar bilan yondashilsa sakkizta ma'noni, ingliz tili-ning Oksford lug'atida esa to'qqizta ma'noni bildirishini ta'kid-lab o'tadi².

Mazkur fanning izohi keltirilgan boshqa manbada qayd etili-shicha, tarix bu –

1. Tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni.
2. Insoniyat va uning mahsuli bo'lgan tamaddunlar rivoji, jamiyat va davlatlar o'tmishi taraqqiyoti jarayonini o'rganuv-chi fan. Tarix fani insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqe-a-hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o'rganadi³.

Hozirgi zamon tarix fani alohida bo'limlar va sohalardan tashkil topgan bilimlar majmuyidir.

O'tmish hamda o'tmish haqida yozma va og'zaki tarzda ma'lumot berish yoki so'zlash, hikoya qilish, xabar berish tarix fani-ning xususiyatini aniqlab beradigan asosiy metodologik muam-molardan biri sanaladi⁴.

Biroq, yaxshi bilamizki, haqiqiy tarixiy voqelik bizning tu-shunchamizdagi tasavvurdan ko'ra birmuncha kengligi, ko'pqir-aliligi bilan tarix fanini «hayot murabbiyi» darajasiga ko'tara-di. Shu o'rinda tarixchilardan birining quyidagi so'zlarini keltirib o'tish o'rinnlidir: «Hayotni tushunish va yo'lga qo'yishni tarix

¹ Теория и методология истории: курс лекций / М.П. Лаптева; Перм. гос. ун-т. – Пермь, 2006. С.4.

² O'sha joyda.

³ «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8-jild. 274-b.

⁴ Могильницкий Б.Г. Введение в методологию истории. – М., 1989.

o'rgatmaydi, balki hayotning o'zi tarixni talqin qilish, izohlashni o'rgatadi. Tarix hayot murabbiyididan uning o'quvchisiga aylandi»¹.

Biroq shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tarixiy jarayonni tu-shuntirish tarixiy tadqiqotlarning mantiqiy mazmuni va tadqiqotlarning ilmiy metodologik yondashuvlariga bog'liq bo'ladi.

Tarixiy tadqiqotlar uzoq vaqt davomida siyosiy tarix tadqiqotlari bilan cheklanib kelgan bo'lib, tadqiqotlarning asosiy e'tibori hukmdorlar faoliyatiga qaratilgan bo'lib, xalq ommasi va uning tarixiy jarayonlardagi o'rni tadqiqotlar e'tiboridan chetda qolgan. Bu haqda mashhur adiblardan biri F. Volter kinoya bilan: «Hamma tomonda faqat qirollar tarixini ko'rmoqdaman, men esa odamlar tarixini yozmoqchiman», — degan edi.

D. Yum tarix fani predmeti sifatida buyuk saltanatlarning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi hamda tanazzulga uchrashini ko'rsatgan edi².

E. Gibbon urushlar tarixi va jamiyatni boshqarish deb ko'rsatgan bo'lsa³, L. Ranke diplomatik aloqalar tarixini ko'rsatgan edi⁴.

Nemis faylasufi K. Yaspers esa tarixni bir davrdan ikkinchi davrga o'tish, deb ko'rsatadi. K. Yaspersning fikricha, tarix fanining eng muhim savollaridan biri bu — «aslida bu qanday sodir bo'lgan edi?» tarzida emas, balki, «biz aslida qanday

¹ Виппер Р.Ю. Состояния и события, массы и личности, интересы и идеи // Рубеж. 1995. № 5. С. 69.

² Devid (David) Yum (ing. David Hume; 1711-yil 7-may (eski hisobda 26-aprel), Edinburg — 1776-yil, 25 — avgust) — shotland faylasufi, iqtisodchi va tarixchi, publisist, shotland maorifi arboblaridan biri, empirizm nazariyasi vakili

³ Edvard Gibbon (ing. Edward Gibbon; 1737-yil 27-aprel, Patni, Surrey grafligi —1794-yil 16-yanvar, London) — ingliz tarixchisi. «Rim imperiyasining inqirozi va yemirilishi» asari muallifi (1776—1788).

⁴ Ranke (Ranke) Leopold fon (1795—1886) — nemis tarixchisi. Asosan G'arbiy Yevropaning XVI—XVII asrlardagi siyosiy tarixi bilan shug'ullangan. D.Rankening ta'kidlashicha, «tarixni qanday sodir bo'lgan bo'lsa, shundayligicha yozish kerak».

holatdamiz (yoki qayerdamiz)?» tarzida, ya’ni, boshqacha so‘zlar bilan aytganda, tarix bilimlarining maqsadi – bizning bugunimizni (aslimizni) aniqlashdir. Shundan kelib chiqqanda tarix – bu zamonaviy muammolarni hal etishga va anglashga yo‘naltirilgan qator hodisalar va jarayonlardir¹.

Yuqoridagi tarixchilarning fikrida bir umumiylit borki, bu ham bo‘lsa ularning barchasi tarix predmetini siyosiy tarix va uning tadqiqidan kelib chiqqan holda ko‘rsatib bergen edilar.

XIX asrda statistik tadqiqotlarning yuzaga kelishi natijasida iqtisodiy tarixga qiziqish paydo bo‘ldi. Shuningdek, bu vaqt-da madaniyat tarixiga ham e’tibor qaratila boshlandi. Qadimgi san’at va madaniy hayot tarixi va ijtimoiy hayot sohasida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib, adabiyotlar nashr qilindi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng «Annallar maktabi» ta’sirida «yangi tarix fani», ya’ni tarixni o‘rganishda antropologik yondashuv paydo bo‘ldi. Endi tarixiy tadqiqotlarning diqqat markazida inson va uning faoliyati hamda ijtimoiy va madaniy mansubligi masalalari ko‘rila boshlandi. Tarixiy antropologiya, tarixiy psixologiya, tarixiy sotsiologiya, demografiya, urbanizatsiya sohalari shakllandi, ayollar tarixini o‘rganish, mahalliy yoki alohida tarixiy jarayonlarni o‘rganish boshlandi. Shu vaqtarda u yoki bu voqealarning bevosita ishtirokchilari bo‘lgan insonlar xotirasiga asoslangan «og‘zaki tarix» sohasi ham taraqqiy eta boshladi.

Ayrim tarixchilar hatto ehtiyoj yo‘qolishi natijasida tarix predmetining ham yo‘qolib borishi haqida fikr bildira boshlagan bo‘lsalar, ayrim tarixchilar (E. Xobsboum) aksincha, ijtimoiy tarix asosida va ijtimoiy psixologiyaga, ya’ni fikrlash tizimi, xulqlar stereotiplari va odamlarning hayot tarziga alohida e’tibor qaratgan holda yaxlit tarix fani predmetini shakllantirish zarur, deb hisobladi.

N. Jo‘rayevning ta’kidlashicha, tarix fanining predmeti, tarix fani va tarix tushunchasi va tadqiqot usullarining yondashuvlari

¹ Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М., 1991.

haqida 30 dan ortiq tushunchalar mavjuddir. Bunday fikrlarning xilma-xilligi, yondashuvlarning turlichaligi, tarix faniga bo‘lgan munosabatlarning har xilligi uning predmetini aniqlashda murakkabliklarni yuzaga keltiradi¹.

F. Brodel esa global tarixni yaratish (ya’ni, tarixchini inson va jamiyatga aloqador barcha omillar va jarayonlar qiziqtirishini hisobga olgan holda) g‘oyasini ilgari surdi².

M. Barg esa tarixni «ikkinchi darajali» faktlar va dalillar bilan «to‘ldirib» tashlamaslik fikrini ilgari surdi, biroq bu bilan xatolikka yo‘l qo‘ydi³.

B.G. Mogilnitskiy tomonidan ilgari surilgan «konkret tarixiy qonuniyatlar» tushunchasi esa mavhumlik kasb etib, qonuniyatlarini tarixiy voqelikdan faqatgina abstraktlashgan holda aniqlanishi ochib berilmadi⁴.

N.A. Yerofeyev esa tarix fani predmetini birmuncha to‘laqonliroq tushuntirib berishga erishdi, uning fikricha, tarix fani inson hamda jamiyatni hamda ularning taraqqiyoti xususiyatlari, ulardagи o‘zgarishlar, ularning jamiyat taraqqiyotining turli qismalarida sodir bo‘lishini, bu jarayonlarda inson va jamiyat qan-

¹ Tarix falsafasining nazariy asoslari. 199-b.

² Fernan Brodel (fr. Fernand Braudel; 1902-yil 24-avgust — 1985-yil 27-noyabr) — taniqli fransuz tarixchisi, tarixiy jarayonlarning tahlili va tadqiqida iqtisodiy va geografik omillarning hisobga olinishi fikrini ilgari surgan. Fransuz tarixshunosligining «Annallar maktabi» vakili, ijtimoiy fanlarda tarixiy omillarning o‘rnii brasida tadqiqotlar olib borgan, «dunyoviy-tizimli nazariya» (mir-sistemnaya teoriya) asoschisi.

³ Mixail Abramovich Barg (1915-yil 1-may, Satanov, Proskurovsk uezdi, Podolsk guberniyasi — 1991-yil 21-may, Moskva) — rus tarixchisi, Buyuk Britaniya tarixi va tarix fani metodologiyasi sohasida yirik mutaxassis, tarix fanlari doktori (1958), professor (1960), Buyuk Britaniya qirollik akademiyasi a’zosi. M.A.Barg tomonidan fanga tizimlar (sistemalar) va tuzilishilar (strukturalar), tizimlar tarkiblari (podsistema) haqidagi tushunchalar kiritildi.

⁴ Mogilnitskiy Boris Georgiyevich (1929-yil 18-aprel, Kiyev — 2014-yil 9-iyul) — tarix fanlari doktori (1967), tarix fanining nazariy masalalariga oid bir qator darsliklar («История исторической мысли XX века» (Вип.1. Томск, 2001., Вип.2. Томск, 2003 г., Вип.3. 2008) muallifi.

day bosqichlardan o‘tganligini, qanday taraqqiyot darajasiga erishganligini va shu jarayonlardagi ishtirokini o‘rganadi. Bunday yondashuv ijtimoiy tarix taraqqiyoti an‘analariga yaqin tushuncha edi. Tarixchining diqqati nafaqat tarixiy shaxslar va takrorlanmas aniq tarixiy voqealarga qaratilgan, balki o‘zaro munosabatlarda-gi ijtimoiy tizimlar va an‘analarga ham qaratilgan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, tarix tushunchasi haqida o‘ttizga yaqin yondashuv va tadqiq etish usullari mavjud. Fikrlarning bunday xilma-xilligi o‘z o‘rnida tarixni tushunish va uni anglashda o‘ziga xos murakkab-liklarni keltirib chiqaradi. Tarixshunos N. Doroshenko tarix fani predmetini «tarixiy ongda o‘z aksini topgan, turli tarixiy yo‘nalishlarga asoslangan, turli tarixiy vazifalarni bajaruvchi odamlarning tarixiy turmushidan tarkib topgan real qonuniy, tarixiy jarayon muhim elementlardan biri deb hisoblangan tizim» sifati-da tushuntiradi.

Fransuz tarixchisi Lyusyen Fevr: «Tarix – narsalar va hodisalar haqidagi emas, balki inson haqidagi, insonning o‘tmishi haqidagi fandir. Birgini tarix mavjuddir, u ham bo‘lsa Inson tarixidir va bu tarix keng ma’nodagi tarixdir», – degan fikrni bildirgan bo‘lsa¹, antik davr donishmandlaridan biri Sitseron: «Tarix – davrlarning guvohi, haqiqat chirog‘i, xotira hayoti, hayot murabbiyi, qadimiylilik xabarchisi», – degan fikrini bayon qilgan².

V. Ivanov esa «Tarix ommaviy hayot qonuniyatlarining konkret shakllarini o‘rganishni predmet», – deb hisoblaydi. B. Mogil-

¹ Lyusyen Fevr (fr. Lucien Febvre; 1878-yil 22-iyul – 1956-yil 11-sentabr) – fransuz tarixchisi, asosiy tadqiqotlari XVI asr tarixiga bag‘ishlangan. Mark Blok bilan hamkorlikda «Annallar» («Annali» (1929)) jurnaliga asos solgan. «Annallar» maktabining asoschilaridan biri.

² Mark Tulliy Sitseron (lat. Marcus Tullius Cicero; mil.avv. 106-yil 3-yanvar, Arpinum – mil.avv. 43-yil 7-dekabr, Formiya) – qadimgi Rim siyosiy arbobi, notiq va faylasuf. Sitseron o‘zidan ko‘plab adabiy meros qoldirgan va ularning bir qismi bugungacha yetib kelgan. Sitseron «Tarix – davrlarning guvohi, haqiqat chirog‘i, xotira hayoti, hayot murabbiyi, qadimiylilik xabarchisi», – degan fikrini bayon qilgan. Sitseron tomonidan ilk bor Geradotga «tarixning otasi» deya nom berilgan.

nitskiy: «Tarix odamlar faoliyati, shuningdek ushbu faoliyat oqibatlari bilan bog'liq konkret ommaviy taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq qiladi», — deb tushuntirsa, tarix fani metodologiyasi sohasida yirik tadqiqotlarni amalga oshirgan tarixchi I. Kovalchenko esa, «Tarixiy taraqqiyot o'z maqsadiga ega bo'lgan odam faoliyatini o'zida aks ettiradi, bu esa ilg'or qonuniy hamda ichki shartlarga ega bo'lgan jarayondir. Bu jarayonning konkret yo'naliishida organik ravishda moddiylik va ma'naviylik, obyektivlik va individuallik uyg'unlashadi. Bu uyg'unlikning o'zi esa tarkibiy shakl va sifat birligi holatida namoyon bo'ladi», — degan fikrni bildiradi¹.

Insoniyatning o'tmishi cheksiz darajadagi turfalikdan iboradir, undagi hodisalar cheksiz ravishda sodir bo'lgan va ularning barchasini ta'riflab berish imkonsizdir.²

Tarix — bu insonlar, ularning faoliyati, intitilishlari haqidagi fandir. Tarixchining ilmiy izlanishlari tarixiy jarayonlarning obyektiv va subyektiv qirralarining qo'llanilishidagi birlikning aniqlanishi bilan bog'liqdir. Aynan shu holat tarixiy bilimning sotsiologik bilim bilan yaqinlashtiradi.

Tarixdagi takrorlanishlar tarixiy jarayonlarning an'anaviyligi va ayni vaqtida tarixiy jarayonlarning o'ziga xosligi va individualligi bilan ham xususiyatlanadi. Tarixiy jarayonlarda o'xshash hodisalarning takrorlanishi ularning kelib chiqishidagi, takrorlanish ehtimolligi va sodir bo'lish jarayonlaridagi turlichaligi bilan bir-biridan farqlanadi³.

Bunday mazmundagi fikrlar boshqa bir qator tarixchilar tomonidan bildirilib, ular tarix fani va tarix fanining predmetini turlicha holatda tavsiflab berdilar. Ingliz tarixchisi R. Kollingvud: «Qandaydir tarixiy jarayon va uni anglashning aniq va yagona yo'li mayjud emas, tarixiy jarayon o'z-o'zidan shakllanadigan

¹ Tarix falsafasining nazariy asoslari. 199-b.

² Лаптева М.П. Теория и методология истории: курс лекций / М.П. Лаптева; Перм. гос. ун-т. — Пермь, 2006. С. 159—160.

³ O'sha joyda.

ong mahsuli hisoblanadi», — degan fikrni ilgari surgan bo'lsa, yana bir ingliz tarixchisi M. Oukshot: «Tarix fanining predmeti bu shunchaki tarixchining tadqiqot olamidir, undagi jarayonlar tarixchining tafakkuri mahsuli va konstruksiyasidir. Tarix bu — tarixchi g'oyalaringin spetsifik olamidir», — degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Tarixchi G. Kommadjer zamonaviy tarix faniga ta'rif berar ekan, uni quyidagicha sharhlab beradi: «Tarix amaldagi atom, kimyoiy vositalar singari o'zini namoyon eta olmaydi. Bu vositalar tabiatda mavjud va inson ularni yo'q qilgunga qadar mavjud bo'ladi. Tarix esa tabiatda yashamaydi, balki inson tasavvurida, xotirasida yashaydi»¹.

Tarix fani haqida bir qator vatandoshlarimiz ham o'z qarashlarini bayon qilganlar. Xususan, buyuk mutaffakkir shoir va alloma Alisher Navoiy tarix fani haqida shunday fikrlar bildirgan:

«Hukmdorlarning qay biri zulm otini surdiyu, qay biri adolat bilan dong taratdi va oxiri bundan nima murod hosil bo'lganin tarixdan bilamiz. O'lkada nima obod bo'ldi, mamlakat nimadan tinchlikka yuz tutdi? Har bir shaxsning sifatida nima-yu, nuqsonlari nima, hamma-hammasi tarixda bitilgan».

Abulg'oziy Bahodirxon o'z asarini yaratar ekan, tarixiy jarayonlar va voqealarni obyektiv ravishda yoritishga harakat qilganligini alohida ta'kidlaydi: «Emdi ko'nglingizga kelmasunkim faqir taraf tutub yolg'on aytqon bo'lg'ayman va yo o'zimni g'alat ta'rif etqon bo'lg'ayman».

U «Shajara turk» asarini yozishga kirishar ekan, Xorazm xonlari tarixini yozishga harakat qilayotganligi va bunda nafaqat saroy tarixi, balki shu hududlarda yashab o'tgan xalqlar va ularning tarixi, turkiy xalqlarning tarixi kabi sohalarni ham yoritishni maqsad qilganligini, biroq ayni vaqtida bu tarixlarni, ayniqsa Xorazm xonlari tarixini yozishda betaraf bo'lish, tarafkashlik qilmaslik yoki ilmiy til iborasi bilan aytganda voqealarni obyektiv ravishda yozishga amal qilmoqligini alohida ta'kidlab

¹ Tarix falsafasining nazariy asoslari. 200-b.

o‘tadi. Abulg‘oziyning tarixga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqib anglash mumkinki, tarix bu mamlakatning siyosiy mavjudligi, uning turli vaqtarda turli taraqqiyot darajasiga yetganligi yoki inqirozga uchraganligi, uning siyosiy va iqtisodiy hayoti va ayni vaqtda xalqlar va ularning kelib chiqishi, millat sifatida shakllanib borishi va qadriyatlarini yoritib berishi lozim bo‘lgan fan ekanligini anglash mumkin.

O‘rta Osiyo tarixchilarining tarixni yoritishdagi, tavsiflash va talqin qilishdagi obyekтивlik va xolislik an’analari keyingi asrlarda ham davom ettirildi. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Muhammad Yusuf Bayoniy «Shajara Xorazmshoxiy» asarini yozishda tarix va uni tavsiflashga alohida e’tibor qaratadi va tarixni haqqoniy, obyekтив ravishda yozish shartligini uqtiradi: «Tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafдорlik etmasdan, bo‘lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so‘zлari hech bir odamga ma’qul bo‘lmaydi»¹.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan farg‘onalik tarixchi Is’hoqxon Junaydulloxo‘ja o‘g‘li Ibrat To‘raqo‘rg‘oniy insonlarni o‘z o‘tmishi va ajdodlari, yashab turgan vatani va uning o‘tmishini bilishi zarurligini alohida ta’kidlab o‘tadi va tarixni o‘rganishga da’vat etadi: «....inson ancha-muncha baqadri ilmi bashariyat tavorixdan bilmak labudda o‘lmoqi ma’lumdir. Loaql kishi o‘z muvattin yerini bilmak zaruriyotdan-dur. Bilmasa, tafosir va ahodislarda va tavorixlarda mubayyindurki, ko‘rmak va bilmak ilmdandur»².

Ibrat tarix fani sifatida garchi o‘zining «Tarixi Farg‘ona» asarida ko‘pgina tarixiy jarayonlarni va ularning tavsifini, shaxslar faoliyati va ularning tarixiy jarayonlardagi ishtiroki va boshqa shu kabi bir qator holatlarni bayon etib bergen bo‘lsada, inson jamiyat taraqqiyoti va uning tarixidan xabardor bo‘lishi, hech bo‘lman-

¹ Muhammad Yusuf Bayoniy «Shajara Xorazmshohiy». – T.: Meros. 1991.

² Ibrat. Tarixi Farg‘ona. – T.: Meros. 1991.

da o‘zi yashab turgan vatani, tug‘ilib o‘sgan zaminini tarixini bilishi lozimligini, bu hatto tafsir va hadislarda ham shart etib qo‘yilganligi va bu ham ilm ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Tarixchi Mullo Olim Mahdumhoja esa «Tarixi Turkiston» asarida tarixga shunday ta’rif beradi:

«...Ilmi tavorix [tarix ilmi]ning foyidamandlig‘ig‘a tamomi firqa muttafiq ur-roydurlar. Aksar tavoyifi umam, balki, tamomi ahli olam bu ilmni amalga qo‘yub, gumoshtagonlarindin rivoyat va hikoyatlar qilib, oning o‘zlarig‘a dalil qiladurlar»¹.

Atoqli o‘zbek olimlaridan biri Abdurauf Fitrat esa Yevropa tarixchilarini tomonidan tarix fani va uning predmetining turli talqinlarini ilgari surish «avj» olgan XX asr boshlarida tarix va tarix fani haqida shunday deydi: «Tarix millatimizning, o‘tmishimizning taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rganadigan fandir».

Tarix va tarix fani yuzasidan bir qator fikrlar bildirib o‘tilganki, ular biri ikkinchisining mazmunini to‘ldirib keladi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, tarix so‘zi beshta ma’noni ifodalash uchun qo‘llanilmoqda:

1. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan voqelik, hayot.
2. O‘tmishga oid dalil va hodisalar majmuyi – o‘tmish, kech mish.
3. Biror voqeа-hodisaning izchil taraqqiyoti haqidagi fan.
4. Jamiyat taraqqiyoti haqidagi fan.
5. Biror ishning bajarilganligini, biron voqeа-hodisaning qachon bo‘lib o‘tganligini ko‘rsatuvchi aniq vaqt, sana².

Mazkur fanning izohi keltirilgan boshqa manbada qayd etilishicha, tarix bu –

1. Tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni.
2. Insoniyat va uning mahsuli bo‘lgan tamaddunlar rivoji, jamiyat va davlatlar o‘tmishi taraqqiyoti jarayonini o‘rganuv-

¹ Mullo Olim Maxdumxoja. Tarixi Turkiston. – T., 2010.

² Ibrohimov A. Bizkim o‘zbeklar... – T.: «Sharq», 1999. 278–279-bb.

chi fan. Tarix fani insoniyatning butun o‘tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo‘lgan voqeа-hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o‘rganadi¹.

Hozirgi zamon tarix fani alohida bo‘limlar va sohalardan tashkil topgan bilimlar majmuyidir.

Tarixiy manbalar va mumtoz adabiyotda tarix va ta’rix iboralarining turlicha mazmunda qo‘llanilganligini kuzatish mumkin.

Ta’rix (arab tilida — yuz bergan, sodir bo‘lgan) — mashhur kishilarning tug‘ilishi va vafoti, turli bino-inshootlarning qurilishi, kitoblar ta’lifi va boshqa muhim voqeа-hodisalar vaqtini anglatuvchi uslub. Ta’rix ko‘pincha u yoki bu mashhur shaxsning vafoti munosabati bilan, biror-bir tarixiy voqeaning sodir bo‘lgan sanasini anglatish yoki unga ishora tarzida she’riy tilda yozilgan. Ta’rixda qo‘llangan so‘z va iboralar, ularni tashkil etgan arab harflarining abjad raqami bilan qo‘sib hisoblanganda, ma’lum bir sana kelib chiqadi. Sanani bildiradigan so‘z yoki ibora ta’rix moddasi, ularni tashkil etgan harflarning abjad bo‘yicha yig‘indisi jumal deyiladi. Ta’rix faqat mustaqil yozilmay, ba’zi bir asarlarning ichida ham keladi.

Ta’rixda muallif ko‘zda tutgan sana so‘z yoki muammo usulida ifodalanadi. Shunga ko‘ra, ta’rix sarih (ochiq, ravshan) va ta’miya (berkitilgan, yashirilgan) kabi ikki turga bo‘linadi. Ta’rixning sarih turida sana ochiq ifodalansa, ta’miyada avval ta’rixning moddasi topiladi. Tarix asarlariда va manbalarda ta’rixlar qo‘llanilgan holatlar juda ko‘p uchraydi.

Masalan, Alisher Navoiy o‘zining «Mahbub ul-qulub» asarini yozgan vaqt vaqida quyidagi to‘rtlikni bitgan:

Bu nomakim lisonim o‘ldi qoyil,
Kilkim tili har na’v el ishiga moil,
Tarixi «xush» lafzidin o‘ldi hosil,
Har kim o‘qusa ilohi bo‘lg‘ay xushdil.

¹ «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8-jild. 274-b.

Bu to‘rtlikda alohida ta’kidlangan «xush» so‘zi asarning yozilish vaqtiga ishora bo‘lib, uning ta’rxi sanaladi, bundagi harflarning raqamlar bo‘yicha yig‘indisi hijriy 906 sanani (milodiy 1500-y.) anglatadi.

Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonining yozilishi sanasiga quyidagicha ishora qilingan:

Chu ta’rxi yilin aylay desangiz tuz,
Sakkiz yuz sakson erdi, dog‘i to‘qquz.

Mazkur ta’rixda keltirilgan ishoraga ko‘ra shoir dostonining yozilish yili hijriy 889 (milodiy 1484) yilni bildiradi.

Mirzo Ulug‘bekning o‘limi bilan bog‘liq sanaga ishora qilin-gan ta’rixda esa quyidagi misralarni o‘qish mumkin:

Ulug‘bek, bahri ulumu xirad,
Ki dunyou dinro az o‘ bud pusht,
Zi Abbas shahdi shahodat chashid,
Shudash harfi tarix «Abbos kusht».

Ya‘ni, Ulug‘bek aql va hunar dengizi, dunyo va dinning tayanchi edi. Abbosning qo‘lidan shahidlik sharobin ichdi va «Abbos kusht» (Abbos halok etdi) so‘zi uning ta’rxi bo‘lib qoldi. Tarixiy manbalarga ko‘ra Mirzo Ulug‘bek milodiy 1449-yilning 27-oktabr kuni o‘ldirilgan. Yuqoridagi ta’rixdagi «Abbos kusht» so‘zidagi harflarning abjad hisobi bo‘yicha yig‘indisi ham milodiy 1449-yilni ifodalaydi¹.

Tarix va tarixga aloqador iboralar, so‘zlar va tushunchalar bugungi lug‘atimizda ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ummiy tushunchalarga ko‘ra tarix o‘tmish va unda sodir bo‘lgan

¹ «Ta’rix» tushunchasiga oid ma’lumotlar A.Ibrohimovning «Bizkim o‘zbeklar...» kitobidan olingan. Qarang: Ibrohimov A. Bizkim o‘zbeklar... – T.: «Sharq», 1999.

voqeа-hodisalarni anglatsa, tarix fani ularni o‘rganuvchi, o‘rgatuvchi va tadqiq etuvchi fandir. Shuningdek tarixan iborasi orqali tarixga aloqadorlik, tarixga asoslanganlik, tarixiy tajribalarni hisobga olgan holda kabi tushunchalarni, tarixiy iborasi orqali tarixda qoluvchi, tarixga kirgan, tarix faniga oid, tarixga doir, qadimgi kabi tushunchalarni anglatadi.

Tarixiylik iborasi orqali biron-bir voqeа yoki hodisaning uni yuzaga keltirgan mavjud tarixiy shart-sharoit yoki vaziyat bilan uzviy bog‘lanishni tekshirish va baholash tamoyilini tushunish mumkin. «Tarixiylik» iborasi ilk bor tarixshunoslik tadqiqotlari doirasida avstriyalik tarixchi Karl Verner tomonidan 1879-yilda qo‘llanilgan¹.

Tarixnavis iborasi orqali tarixni tavsiflash, tarixni yozish, tarixni aks ettirish, manbalarni yaratish kabi tushunchalarni, tarixshunos iborasi orqali tarix tadqiqotlarining muammolari va ularni o‘rganuvchi fanni yoki shu soha bilan shug‘ulanuvchi mutaxassisni, tarixchi iborasi orqali esa o‘tmishdagi yilnomachilar, solnomachilar, sulolalar tarixlarini yozuvchilar, bugungi kunda esa tarix tadqiqotlari va tarix fani, uning o‘qitilishi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarni tushunamiz. Tarixiy jarayonlarga va ularning borishiga ta’sir ko‘rsatgan alohida mashhur kishilar tarixiy shaxslar hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, tarix va tarix fani predmeti haqidagi tushunchalar ko‘p va turlichadir. Yana ulardan anglash mumkinki, tarix uzlucksiz doimiy mavjud bo‘ladi. Inson, insoniyat mavjud ekan, ularning shajarasi davom etar ekan, tarix xotiralarda ma’lum darajada «yashayveradi» va avvalgi jarayonlarni ma’lum darajada saqlab uni davom ettiradi. Ana shu holatning o‘zi tarixiy bilim manbayi, tarix fani predmeti masalasiga aniqlik kiritadi. N. Jo‘rayevning yozishicha: «Tarix fani kishilik jamiyatining o‘tmishini o‘rganar ekan, u tom ma’noda insonshunoslikdir.

¹ Лаптева М.П. Теория и методология истории: курс лекций / М.П. Лаптева; Перм. гос. ун-т. — Пермь, 2006. С. 56.

Ana shu xulosadan kelib chiqib aytish mumkinki, tarix fanining predmeti – insondir»¹.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, tarix fani predmeti va bu tushunchaning tarixchilar tomonidan umumiy va yaxlit qabul qilin-gan tushunchasini aniqlab olish mavjud emasdek tuyuladi.

Tarix fani predmetining o‘zi tarixiylik kasb etadi. Hamma vaqt-da yangi ilmiy sohalarning shakllanishi va xususiylashuvi sodir bo‘lib boradi. Agarda fanning predmeti aniq va konkret holda qat’iy ravishda ko‘rsatib berilsa, bunda ilmiy tadqiqotlar ham o‘z yakuniga yetgan va to‘xtatilgan bo‘lar edi. Biroq bu bilan, fanning predmetini aniqlash muhim emas, degan tushuncha kelib chiqmaydi, balki fanning predmetini aniqlashtirgan va uni aniq tushungan holdagina biz fan sohasida ko‘pgina natijalarga erishishimiz mumkin.

Ayrim tarixchilar tadqiqotlar jarayonida nazariyani inkor qil-gan holda ko‘proq faktlar (dalillar)ni sharhlashga asosiy e’tibor qaratsalar, ba’zilari aksincha tarixiy voqelikni inkor qilgan holda, tarixni haddan tashqari sotsiologiyalashtirish va psixologiyalash-tirishga urinadilar. Bunday qarama-qarshilikdan ravshan bo‘ladi-ki, tavsiflashlarsiz tarix bo‘lishi mumkin emas va ayni vaqtda nazariy tushunchalar va metodologiyasiz ham tarixning bo‘lishi mumkin emas. Bundan ko‘rinadiki, tarixchilarda yagona aksio-matik nazariya (izohlarga muhtoj bo‘lmagan yagona nazariy qo‘ida va tushunchalar) mavjud emas, balki nazariyalar va interpre-tatsiyaning xilma-xilligi mavjud va tarix fani predmetining asosiy xususiyati ham ana shunda.

Tarix fanining tarmoqlari

Tarix fani ko‘p tarmoqli fan bo‘lib, inson va jamiyat taraq-qiyoti bilan bog‘liq bir qator sohalar rivojlanishi jarayonlarining umumiyligi mahsulidir.

Harbiy tarix – tarix fanining eng qadimiy tarmoqlaridan biridir. Hatto «tarixning otasi» Gerodot va boshqa antik davr ta-

¹ Tarix falsafasining nazariy asoslari. 199-b.

rixchilar ham qadimda sodir bo‘lgan urushlar haqida alohida va ko‘plab ma’lumotlar yozib qoldirganlar. XVIII asrdan boshlab esa harbiy tarix harbiy to‘qnashuvlar tarixi sifatida rivojlana boshladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlab, urushlar xususiyatidagi yuzaga kelgan o‘zgarishlar ta’sirida harbiy tarix sohasida nafaqat harbiy sohaga aloqador masalalarning o‘zinigina, balki jamiyat taraqqiyotiga aloqador masalalar o‘rganila boshlandi.

Ikkinci jahon urushidan so‘ng, harbiy tarix fani sohasi tarkibiga urushayotgan mamlakatlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o‘rganish sohalari ham qo‘sildi. Hozirgi vaqtida harbiy tarix predmeti birmuncha kengroq tusda, ya’ni «urush va jamiyat» tushunchasiga ega bo‘lib, ayrim vaqlarda harbiy mutaxassislar harbiy harakatlarni o‘rganish uchun ham jalb etiladi.

Harbiy tarix fani – tarix faning tarkibiy qismi bo‘lib, urushlar, harbiy jang san’ati, qurolli kuchlar, harbiy texnika va harbiy bilim berish, harbiy qo‘mondonlar, qo‘sinchalar, davlatlarning harbiy faoliyati tajribalarini o‘rganadi.

Harbiy tarix fanining tarmoqlariga urushlar tarixi, harbiy jang san’ati tarixi, qurolli kuchlarning shakllanishi va tuzilishi tarixi, harbiy o‘q otar qurollar va harbiy texnikaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi, harbiy qismlar tarixi va harbiy tafakkur tarixi kiradi. Shuningdek, harbiy tarixshunoslik, harbiy arxeologiya, harbiy arxivografiya, harbiy statistika sohalari harbiy tarix fanining maxsus tarmoqlari sanaladi.

Harbiy soha va uning taraqqiy etib borish jarayoni haqida asosiy tushunchalarni berish imkoniyatiga ega bo‘lgan urushlar tarixi hamda harbiy jang san’ati tarixi harbiy tarix fanining yetakchi tarmoqlari hisoblanadi.

Harbiy tarix fani ham boshqa fanlar kabi ma’lum bilimlar sohasiga tayanadi va o‘ziga xos an’naviyilikka ega. Siyosiy qarashlar, metodologik va nazariy yondashuvlar ta’sirida urushlarning xususiyatlari, mohiyati va o‘rniga baho berishda turlicha yoritilish hollari ham mavjud. Shundan kelib chiqqan holda XXI asr tarixchilar oldidagi asosiy vazifalardan biri urushlar tarixiga, har-

biy harakatlar tarixiga qat’iy obyektivlik, sof ilmiylik va tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashish sanaladi.

Siyosiy tarix – tarix fanining eng dastlabki yuzaga kelgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, bu tarix o‘z tarkibiga fuqarolik jamiyatni tarixini, siyosiy voqealar tarixini, siyosiy tizimlarni boshqarish va ijro etuvchi hokimiyat tarixini kiritgan holda tarix fanining o‘rganilishini ma’lum darajada o‘zgarib borishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ingliz tarixchisi D.Eltoning fikricha, siyosiy tarix jamiyatning tarkibi bo‘lgan inson faoliyatini o‘rganadi. Bunda asosiy e’tibor inson faoliyatini faqatgina tavsiflab berishga emas, balki uni tushunish va idrok etishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Mazkur tarixchi o‘z fikrini davom ettirib, siyosiy tarix statistikaga butkul bog‘liq bo‘lib qolmasdan, abstraksiyadan qochish va faqatgina ijtimoiy tarixni yozmasdan, inson faoliyati va insonlar bilan munosabatga kirishish kerak, deb ko‘rsatadi. Biroq tarixni yozishda sotsiologiyaga ko‘proq e’tibor qaratuvchi bir qator tarixchilar D.Eltoning bu fikrlarini ma’qullamaydilar va asosiy qimmatli ma’lumotlarni ijtimoiy tarixdan olish kerak deb hisoblaydilar.

Ko‘p hollarda siyosiy tarixchilar o‘z diqqat-e’tiborlarini insonlar taqdiriga ko‘proq ta’sir etuvchi siyosiy hokimiyat faoliyatini o‘rganishga qaratadilar. Shunga ko‘ra tadqiqotlar ko‘lami ham kengayib boradi, ya’ni aholining harakatlari, alohida muammolar, hattoki ommaviy madaniyat ham siyosiy tarixchilar diqqat e’tiboridan chetda qolmaydi. Tarix fanining bu tarmog‘ini rivojlantirishda tarixchi E.Xobsboom katta o‘rin tutadi. U tarixni faqatgina «oliy siyosat» sohasida emas, balki nizolar va kelishmovchiliklar, iqtisod, ijtimoiy psixologiya va boshqa bir qancha guruhlarga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi.

Iqtisodiy tarix statistikaning paydo bo‘lishi bilan faol rivojlanma boshladi. Bugungi kunda matematik modellashtirishdan keng foydalaniлади. Tarixchi monetarizm, lasseferizm, D. Keyns naziariysi va boshqa bilimlarni bilmasdan turib o‘z tadqiqotlarini olib borishi samara bermaydi. Tarixchi bu soha tadqiqida odamlarning yashash tarzi haqida to‘liq ma’lumot bera olishi mumkin bo‘lma-

gan jon boshiga to‘g‘ri keluvchi iqtisodiy ishlab chiqarish haqidagi ma‘lumotlar kabi faqatgina iqtisodiy tahlil bilangina cheklanib qolmasdan, demografiya, sotsiologiya kabilarni ham iqtisodiy soha tarixini o‘rganishga jalg eta olishi kerak.

Ijtimoiy tarix. XIX asrdan boshlab tarixchilar tomonidan tarixiy tadqiqotlarda oddiy odamlar va xalqning ahvolini o‘rganishga e’tibor qaratish boshlandi. Marksizm ta’limotida ishchilar tabaqalarini o‘rganishga asosiy e’tibor qaratildi. XX asrga kelib, «annallar maktabi» ijtimoiy tizim va jarayonlarni o‘rganishga kirishdi. XX asrning 60-yillarida E. Tomson tomonidan ishchilar tabaqasining kelib chiqish tarixining o‘rganilishi tarixiy tadqiqotlarda fanlararo yondashuvning imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi. Oila tarixi, ayollar tarixi o‘rganila boshlandi, odamlarning kundalik faoliyati va shaxsiy hayotini o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Biroq XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmi oxirlariga jamiyat hayoti tarixini o‘rganish jarayonida ko‘pgina sohalar e’tibor dan chetda qoldirilib, asosan sinfiy kurash masalalariga asosiy urg‘u berilib, tarixning bir tomonlama o‘rganilishiga yo‘l qo‘yildi. Shuningdek, bu jarayonlardagi bir tizimlilik ham jamiyat hayotini har tomonlama va atroflicha tadqiq qilishga imkon bermadi. XX asrning 90-yillaridan boshlab jamiyat hayotini o‘rganishdagi tarixiy tadqiqotlarda bunday yondashuvlar inkor qilinib, uni har tomonlama tadqiq etishga kirishildi.

Diniy tarix. Tarix fani sohalari va tarmoqlari orasida eng dastlabki yuzaga kelgan tarmoqlardan biri diniy tarix sanaladi. Diniy soha va jamiyat hayotining bu soha bilan bog‘liq jihatlariga yetarli baho berilmasligi umumiyl holatning noto‘g‘ri talqiniga sabab bo‘ladi. Ayni vaqtda bu sohaning ikki muhim jihatni borki, buni tarixchilar teologiya yo‘lidan borish (yoki voqelikka diniy nuqtayi nazardan yondashuv) yoki aksincha diniy g‘oyalarni butkul inkor qilish, deb ko‘rsatadilar. Hattoki Yevropa tarixchilarida biror-bir dinga e’tiqod qiluvchi tarixchi tarixiy jarayonlarni yaxshi tushunadi, degan tushuncha ham shakllangan edi. Biroq bu tushuncha o‘zini oqlamadi va bugungi kunda diniy tarixga (din tarixiga)

intellektual tarix va ijtimoiy tarixning ajralmas bir qismi sifatida yondashila boshlandi va ayni vaqtida tarixchi avvalgi davrlar tarixini o'rganish jarayonida bu sohaga oid ma'lumotlarni ham e'tiborga olishi kerak bo'ladi.

Fan tarixi. Tarix fani ilm-fanga kashfiyotlar ro'yxati sifatida emas, balki inson faoliyatining mahsuli va ayni vaqtida jamiyat va madaniy hayotning ajralmas bir bo'lagi sifatida qaraydi. Ilm-fan – ijtimoiy va mafkuraviy xususiyatga ega. Ayni vaqtida tarixchilardan ilm-fanning ilmiy bo'lмаган тафаккур mahsuli bo'lган (astrologiya, alkimyo va boshq.) fanlarni ilmiy fanlar bilan aralashtirib yubormaslik talab etiladi. Bu sohaning tarixiy tadqiqotlari jarayonida ilm-fan va jamiyat o'rtasidagi aloqalar va bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilishi kerak.

Ayollar tarixi va gender tadqiqotlari. Tarixda ayollar haqida ma'lumotlarning paydo bo'la boshlanishi feminizmning shakllanishi bilan bog'liq hisoblanadi. Biroq XX asrning 60-yillari oxirlari 70-yillari boshlariga kelib «ayollarga oid tadqiqotlar» sifatida paydo bo'lган bo'lsa, 80-yillarga kelib bu sohada «gender tadqiqotlari» deb nom olgan predmet tarmog'i shakllandi va bunda asosan ayollar tarixinining konseptual apparatini o'rganishga e'tibor qartila boshlandi. Bu tadqiqotlarning birinchi bosqichidayoq ayol tarixchilarning tanqidiy qarashlari birinchi o'ringa chiqdi. Ularning qat'iy ravishda ta'kidlashicha, erkaklar tarixshunosligi ayollarni tarixdan «o'chirib yuborgan» va eng avvalo bu bo'shlinqni to'ldirish lozim, qolaversa jinslar orasida «tobelik» va «hokimlik» munosabatlarni ham ko'rsatib berish kerak deb hisobladilar. XX asrning 80-yillarida madaniy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli bo'lган jinslar orasidagi notenglikning ijtimoiy xususiyatiga urg'u bergen holda tadqiqotlarni amalga oshirish yuzaga keldi. Gender tadqiqotlarning asosiy mavzulari oila va nikoh, uy xo'jaligi va bozor, huquq va siyosat, din va ta'lim, madaniyat sohalariga yo'naltirilgan.

San'at tarixi. San'at tarixi haqida tarixchilarning o'z nuqtayi nazarlari mavjud. Agar san'atshunoslar san'at asarining yaratilishi sanasi, muallifligi va uslubi kabi jihatlarini birinchi o'rinni

ga qo'ysalar, tarixchilar esa mazkur san'at asarining yaratilishi-dagi shart-sharoitlar, kompozitsiyalar, kontekstlar, intellektual va ijtimoiy tarixi jihatlarini asosiy o'ringa qo'yadilar. Tarixchi asar yaratilgan davr tadqiqi jarayonida o'sha davrning estetik qarashlarini ham o'rganish bilan bir vaqtida o'zi ham bu sohada ma'lum bilimlarga ega bo'lishi lozim. San'at tarixini chuqur o'rganish tadqiq etilayotgan davr madaniy hayoti tarixini kengroq va batafsil-roq tushunish va tadqiq etishda muhim o'rinn tutadi. Shu nuqtayi nazardan o'rganilayotgan davr tarixi haqida ma'lum bilimlarga va ma'lumotlarga ega bo'lgan tarixchi tadqiqotchida san'at shunos tadqiqotchidan farqli o'laroq ma'lum darajada imkoniyatlar ko'proq bo'ladi.

Intellektual tarix. Intellektual tarix dastlabki vaqlarda yirik mutafakkirlarning g'oyalari tarixi sifatida rivojlanib keldi. Keyinroq esa ko'plab g'oyalarning aksariyatini tashkil etuvchi va o'zini oqlamagan va hayotga kirib bormagan bunday g'oyalarni o'rganish zaruriyati bormi, degan savol paydo bo'ldi. Tarix fani-da postmodernistlar qarashlari va tadqiqotlardagi yondashuvlarning shakllanishi va taraqqiy etib borishi bilan intellektual tarix ham yangilanib bordi. Natijada intellektual tarix o'z tadqiqot ko'lamlarini kengaytirib borib, tadqiqotlar jarayonida tarixiy vo-qelikka diniy va ayni vaqtida ilmiy qarashlarni, turli vaqlarda sodir bo'lgan kasalliklar va ularning kelib chiqishi va oqibatlari va boshqa shu kabilarni o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ayni vaqtida yirik mutafakkirlar va ularning fikr va g'oyalariiga, ulardan qoldirilgan matnlar, turli davrlarning tilshunosligi kabi sohalarga ham qiziqish ortib bormoqda.

Madaniyat tarixi. Madaniyat tarixi tarixiy tadqiqotlarning an'anaviy va asosiy tarmoqlaridan biri sanaladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, madaniyat tushunchasining o'zi bir necha talqinda mavjud bo'lib, keng ko'lamli tushuncha bo'lganligi sababli, faylasuflar va madaniyatshunoslar tomonidan bu tushunchaga aniqlik kirituvchi o'nlab ta'riflar berib o'tilgan. Tarixchilar tomonidan madaniyat tarixining tadqiqotlari jarayonida bunday tu-

shunchalarning deyarli barchasidan foydalanib o'tilganligini tarixiy tadqiqotlarda kuzatish mumkin.

Bugungi kunda yangi madaniyat tarixi shakllangan bo'lib, uning asosini til, matnlar va narrativ tizimlar (semitik yondashuv) tashkil etadi. Yangi madaniyat tarixi xalq madaniyati va elitar madaniyatning bir-biriga qarama-qarshiligidini inkor qildi. Bugungi kunda madaniyat tarixi bilan shug'ullanish madaniyat falsafasi va madaniyatshunoslik sohalarida birmuncha jiddiy tayyorgarlik va bilimlarga ega bo'lishni talab etadi. Ayni vaqtida yangi yondashuvlar esa yangi-yangi natijalarni berishi shubhaisizdir. Ko'pgina tarixchilarning fikricha aynan madaniyat tarixi tarixiy sintezning asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin, vaholanki aynan ana shunday sintez vositasini shakllantirish va asoslab berishga ko'pgina avlod tarixchilarini tomonidan urinishlar bo'lган.

Diplomatiya tarixi. Diplomatiya tarixining shakllanishi va mukammallahib borishi ham tarixiy tadqiqotlarning ilk ko'rinishlarida uchraydi. Bunda asosan tarixchilar tomonidan qirollar, shohlar, xonlar, diplomatlar va elchilarining o'zaro alohida muzokaralari tarixini yoritishga asosiy e'tibor qaratilgan. Keyinchalik diplomatiya tarixi sohasiga asta-sekin yangi tushunchalar kiring kela boshladi va endi tadqiqot jarayonida iqtisodiy va ijtimoiy ahvolning ham holatiga e'tibor qaratila boshlandi. Xalqaro munosabatlar tarixi shakllangach esa davlatlar tizimiga va tuzilishi jihatlariga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi. XX asr oxirlariga kelib u yoki bu xalqlarning o'ziga xosligi muammolari tadqiqot jarayonlariga aralasha boshladi. Bunda xalqlarning o'ziga xos bebafo tarixiy merosini yaxshi anglash maqsadida ularning mentalitetiga, madaniyatshunosligiga alohida urg'u berila boshlandi. Xalqlarning o'zaro bir-birini yaxshi tushunishi va anglashini kuchaytirish maqsadida tarixchilarning tadqiqotlar jarayonidagi o'zaro hamkorligi ham yo'lga qo'yilgan.

Yuqorida tarix fani va uning tarmoqlari haqida so'z yuritilgan bo'lsada, bunda fanning va u bilan bog'liq barcha tarmoqlarning tavsifi to'liq keltirilmaganligi o'z-o'zidan tushunarli. Yuqorida

sanab o‘tilganlardan tashqari tarixni xronologik davrlashtirish, ya’ni qadimgi davrlar, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davrlar tarixiga bo‘lib o‘rganish, shuningdek, alohida olingan davlatlar, mintaqalar tarixiga va boshqalarga asoslangan holda o‘rganish mumkin. Jahon tarixini global tarzda keng va atroficha o‘rganish va tadqiq etish bilan bir qatorda alohida insonlar, shaxslar, voqealar, qishloqlar, shaharlar tarixi bilan bog‘liq kichik-kichik tarixiy tadqiqotlarni (mikrotarix) ham amalga oshirish mumkin.

Tayanch tushunchalar:

Bilish obyekti, tarix fanining bilish obyekti, fanlararo yondashish, tadqiqot predmeti, falsafiy yo‘nalishlar, tadrijiy rivojlanish, antropologik yondashuv, tarix fanining tarmoqlari va tuzilmalari, siyosiy tarix, harbiy tarix, diniy tarix, fan tarixi, gender tadqiqoti, san‘at tarixi, intellektual tarix, madaniyat tarixi, diplomatiya tarixi, mikrotarix, narrativ, elitar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Bilish obyekti nima?
2. Tarix fanini bilish obyektini tushuntirib bering.
3. Tarix fanining umumiy tasnifini aytib bering.
4. Tarix fanida fanlararo yondashishdan foydalanishning mohiyatini tushuntirib bering.
5. Tadqiqot predmeti nima?
6. Tarix fani haqidagi qanday falsafiy yo‘nalishlarni bilasiz?
7. Tarix fanining tarmoqlari va tuzilmalarini aytib bering.
8. Siyosiy tarix sohasining mazmunini aytib bering
9. Harbiy tarix sohasining mazmunini aytib bering.
10. Diniy tarix sohasining mazmunini aytib bering.
11. Fanning tarixi mazmunini aytib bering.
12. Ayollar tarixi va gender tadqiqotlarini tushuntirib bering.
13. San‘at tarixi sohasining mazmunini aytib bering.
14. Intellektual tarix sohasining mazmunini aytib bering.

15. Madaniyat tarixi sohasining mazmunini aytib bering.
16. Diplomatiya tarixi sohasining mazmunini aytib bering.

Mavzuga aloqador so‘zlarning izohli lug‘ati:

Feminizm – yunon mifologiyasidagi adolat ma’budasi Femida nomi bilan ramziy bog‘langan bo‘lib, XX asrda ayollarning erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishi g‘oyasi.

Sintez – hodisalarни o‘zaro bog‘langan, bir butun holda tekshirish, olingan natijalarни umumlashtirish, ulardan bir butun xulosa chiqarish.

Abstraktlik – mavhumlik, fikrning mavhumligi.

SHARQ TARIXNAVISLIGI VA TARIX FALSAFASINING NAZARIY MASALALARI

Sharq tarixnavisligining o‘ziga xosligi, «Avesto», O‘rxun-Yenisey bitiktoshlari, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Xaldunning tarix haqidagi qarashlari, Abulg‘oziy Bahodirxon, Muhammad Yusuf Bayoniy, Ibrat, M. Behbudiy, A. Fitratlarning tarixiy asarlarida tarix fanning talqini, Sharq tarix falsafasi va unda tarixiy talqinning falsafiy yondashuvlari.

Metodologiya – bu inson va insoniyatning barcha davrlardagi nazariy va amaliy faoliyatini o‘rganishni tashkil etish va uni tartibga solish yo‘llari va uslublari haqidagi bilimlar majmuidir.

Metodologianing umumiy ijtimoiy-tarixiy va madaniy asoslari uning shakllanishida va ayni vaqtida yangi metodologik omillarning shakllantirilishi va tahlili jarayonida mukammallashish nuqtayi nazaridan namoyon bo‘ladi va mazmunan turlilik kasb etib boradi.

Metodologianing falsafiy asoslarini shakllantirish va uni tahlil qilish hamda asoslab berish borasida turli davrlarda Suqrot, Platon, Aristotel, F. Bekon, Dekart, Kant, Shelling, Gegel, A.Toynbi va boshqalar juda katta xizmat qilganlar.

Rossiyalik tadqiqotchi V.P. Filatovning tadqiqotlaridan kuatish mumkinki, «tarix» tushunchasi va uning mohiyati borasida ilgari surgan fikriga asosan tarix falsafasining ikki turi mavjud bo‘lib, birinchisini g‘arb tadqiqotchilari «substansional» (material (ashyoviy daliliy), istorosofiya) falsafiy yondashuv sifatida, ya’ni o‘tmishda sodir bo‘lgan hodisalardan alohida ayrim umumiyy qonuniyatlarni ajratib olish va unga asoslangan holda tarixning barcha davrlari va hodisalari uchun «mohiyat», «maqsad», «vazifalar» kabilarni umumiylashtirgan holda belgilab olishni ko‘zda tutsa, ikkinchisi avvalgisidan tubdan farqlangan holda tarixiy jarayonlar va ularning mazmuni bilan shug‘ullanmaydi, aksincha tarix ilmining tahlili bilan, ya’ni tarixiy tadqiqotlarning mazmuni, yondashuvlar, falsafiy qarashlarni o‘rganish va tadqiq

qilish bilan xususiyatlanadi. Bunda tarixiy tadqiqotlarning maz-muni bilan birga ularning konseptual-metodologik tuzilishi, tarixiy tavsiflash va tushuntirish uslublari, tarixshunoslikning boshqa fanlarga munosabatini o'rganishga intiladi. Tarix falsafasining bu tipi bugungi fan olamida tarixning «tanqidiy» yoki «tahliiy» falsafasi sifatida talqin etiladi. Tarix falsafasining bu tipi yuzasidan XIX asr oxirlarida nemis nazariyotchilari dastlabki fikrlarni shakllantirgan bo'lsalar, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda bu masala Yevropaning boshqa davlatlariga ham tarqalib, yetakchi nazariyalardan biriga aylanib boradi.

Xuddi shu ma'nodagi falsafiy qarashlar Ibn Xaldunga ham xosdir. U tarix va tarix faniga tavsif berib, quyidagilarni yoza-di, ya'ni, «Fanning ikki jihatni bor. Birinchisi qadimgi mamlakatlar va davlatlar haqida hikoya etuvchi tashqi tomoni bo'lsa, ikkin-chisi tadqiqotlarning birining tarixi va yangi fikrlarni kashf etish bo'lgan ichki tomonidir».

Biz ham quyida tarixiy jarayonlar emas, balki tarixiy tadqiqotlar va nazariyalar haqida so'z yuritishga harakat qilamiz.

Aslida tarix falsafasi tushunchasi Gerodot va Fukidid asarlari-dagi tadqiqotlardan boshlangan. Ular asosan insoniyat taraqqiyotida tarixni harakatlantiruvchi kuch sifatida tavsiflagan bo'lsalar, Avgustin dinga e'tiqod qiluvchilar qarashlarini aks etirgan holda ilohiy davlat tarixi falsafasini yaratdi. Gegel dunyo-viy aql-zakovat, umuminsoniy tafakkur, insoniyat xatti-haraka-ti va aql-idroki uyg'unligi asosida yuzaga kelgan, ong va tafakkur hukmron bo'lgan yaxlit borliqni tarix deb tushuntiradi. F.Bekon tarixiy haqiqatni aniqlashda eng avvalo tadqiqot obyekti o'rgani layotgan predmet yoki hodisaning aynan o'zi emas, balki, uning mohiyati va uni yuzaga chiqaruvchi oddiy tabiiy omillar bo'lishi shartligini ta'kidlasa, E.Kondilyak bilishni eng oddiy – his etish va fikrlash orqali amalga oshirish kerak, degan fikrni ilgari suradi. Aksariyat nazariyotchilar o'zlarini taklif qilgan va nazariy jihatdan asoslab bergan uslublari haqiqatni anglash va bu borada har qanday xatoliklardan xoli bo'lishda asosiy ekanligini ta'kidlab

o‘tganlar. Eng asosiysi bu g‘oyalar va yondashuvlar aksariyat hol-larda biri ikkinchisini to‘ldirib, mukammallashtirib kelsa, boshqa holatlarda tarixiy haqiqatni anglashda eng maqbul yo‘l va uslubni tanlab olish imkoniyatini ta‘minlaydi.

Bunday nazariyalar va tarixni o‘rganishga bo‘lgan turli yon-dashuvlar va uslublar ko‘pchilikni tashkil qilib, ular turli davrlar-da shakllangan va bugungi kunda ham yangi-yangi yondashuvlar shakllanmoqda.

Umuman olganda, tarixiy tafakkur va tarix falsafasini shakl-lantirish, uni o‘rganish va tadqiq qilishida turli-tuman, bir-biri-ni inkor qiluvchi, rad qiladigan g‘oyalar va yondashuvlar mavjud va bugungi kunda ham yangi shakllar, g‘oyalar va oqimlar paydo bo‘lmoqda. Yuqorida aytilganidek, tarix falsafasi, ya’ni metodologiyasining inson faoliyati bilan bog‘liqligini nazarga oladigan bo‘lsak, bu jarayon, ya’ni tarixiy tafakkurning shakllanishi va tarix falsafasini anglash jarayoni inson faoliyati bilan bog‘langan holda hali yana uzoq vaqtlar davom etishi tabiiy holdir.

G‘arb tarixchiligi va tarix falsafasida murakkab jarayonlar da-vom etmoqda ekan, sharq tarixnavisligi va sharqona tarix fal-safasining mazmuni ham barchani qiziqtirishi tabiiy. Sharq tarixnavisligi yoki sharq tarixchilik falsafasi bugungi kungacha tarixchilar tomonidan maxsus o‘rganilmagan eng muhim il-miy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Garchi tarixchilar va ularning tarix asarlari manbashunoslik nuqtayi nazaridan tad-qiq etilgan va tahlil qilingan bo‘lsada, biroq bu tadqiqotlardan sharq tarixnavisligining falsafiy asoslari, tarixiy hodisalarni yori-tishdagi biror-bir yo‘nalish yoki yondashuvlarning nazariy asos-lari borasidagi fikrlarni uchratish mushkul. Bu ma’lumotlarni biz faqatgina manbalarni mazmunan, davriy, ijtimoiy va bosh-qa xususiyatlariga asoslangan holda maxsus tadqiq qilish orqali qo‘lga kiritishimiz mumkin.

Eng avvalo aytib o‘tish joizki, Sharqda tarix falsafasi yoki metodologiyasi va uning yo‘nalishlari hamda turlari va tiplari g‘arbdagidek tarzda chuqur va turli qarashlar asosida «shakllan-

tirilgan» emas. Aynan ana shu holatning o‘zi ham sharq tarixnavisligining o‘ziga xosligini belgilab beradi.

Biroq ayni vaqtida insoniyat taraqqiyoti jarayonlarini umumiy yaxlit hodisa sifatida olganda Sharq va G‘arb va uning tarixnavisligini ham bir-biridan alohida ko‘rsatib bo‘lmaydi. Bu holatda ham har ikki yo‘nalishdagi tarixnavislik bir-birini to‘ldirib keladi va tarixni mukammal anglashni ta’minlaydi.

Tarixdan ma’lumki, sharq sivilizatsiyalari boshqa mintaqalardan ancha avvalroq (Qadimgi Misrning sharqona xususiyatlarni hisobga olsak) shakllangan. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyot jarayonlari ham avval sharqda shakllanib, o‘z davriga xos ravishda mukammallahib, boshqa hududlarga, eng avvalo g‘arb – Yevropaga tarqalgan yoki taraqqiyotga ta’sir o‘tkazgan. O‘z-o‘zidan tarixnavislik va tarixiy tafakkur ham aynan sharqda shakllangan. Ayni vaqtida Sitseron tomonidan ilk bor «tarixning otasi» deya nom berilgan Gerodotning tarix fani oldidagi xizmatlarini e’tirof etgan holda aytish o‘rinlikni, tarixga munosabat va tarixiy jarayonlarni yoritish, tavsiflash va tushuntirib berish ham aynan Sharqda shakllanganki, bu eng avvalo «Avesto» kitobida yaqqol namoyon bo‘ladi.

«Avesto» – jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir. Zardushtiylik e’tiqodiga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi sifatida Yagona Tangriga topinish shu ta’limotdan boshlangan. Bu kitob tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalariga yaqin turadi. «Avesto»da tilga olingen joy nomlari (Varaxsha, Vaxsh)dan kelib chiqib, uning Amudaryo sohillarida yaratilgani aniqlangan. Shu asosda uning vatani Xorazmdir, degan qarash mavjud.

«Eng mo‘tabar, qadimgi qo‘lyozmamiz «Avesto»ning yaratilganiga 3000 yil bo‘lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig‘ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma’naviy, tarixiy merosidir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o‘lkada buyuk dav-

lat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi»¹.

«Avesto» oromiy va pahlaviy yozuvlari asosida yaratilgan maxsus alifboda dastlab to'qqiz ho'kiz terisiga yozilgan. Ilk nusxalari asosida sosoniyalar davrida 21 kitob holida yig'ilgan, bizgacha ularning chorak qismi yetib kelgan. «Avesto»ga sharhlar ham bitilgan bo'lib, ular «Zand» nomi mashhur.

«Avesto» insoniyat sivilizatsiya tarixining ilk sahifalarini tashkil etgani uchun jahon olimlarining e'tiborini tortgan. «Avesto» va uning talqini yuzasidan F. Nitsshe, F. Shpigel, A. Mayllet, V. Bartold, Ye. Bertels, Yan Ripka, O. Makovelskiy, I. Braginskiy kabi bir qator xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud.

O'zbekistonda «Avesto»ni o'rganish qadimdan boshlangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Jafar Tabariy, Abu Baxr Narshaxiy asarlari-da «Avesto» ta'limotiga va unda tilga olingan timsollarga murojaat mavjud. Bu nodir ilmiy asarlarning qo'lyozma va bosma nusxalari O'R FA SHI jamg'armasida saqlanadi. Hozirgi o'zbek olimlari A. Qayumov, H. Homidov, M. Is'hoqov, N. Rahmonov kabi tarixchi va adabiyot vakillari mazkur manba yuzasidan ko'plab tadqiqotlar va ilmiy ishlarni amalga oshirganlar.

«Avesto» va uning tarixiy ahamiyati, uni o'rganishga bo'lgan e'tibor nafaqat Vatanimizda, balki xorij tarixchilari tomonidan ham e'tirof etilgan. «Avesto» haqida fikr bildirar ekan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: «Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, «Avesto» deb atalgan beباو ma'naviy obida alohida o'rinn tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorlikning zamon to'fonlardan, qanchadan-qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning

¹ Tarixiy xotirasiz keljak yo'q. 10-b.

davrimizgacha yetib kelganining o‘zida katta ma’no mujassam. Bunday o‘lmas osori-atiqalar bu ko‘hna o‘lkada, bugun biz ya-shab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo‘lganidan guvohlik beradi.

Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g‘oyalar, ha-yot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir kar-ra amin bo‘lamiz.

Misol uchun, «Avesto»ning tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal» degan tamoyilni oladi-gan bo‘lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratlil bo‘lgan saboqlar borligini ko‘rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya’ni, ezgu niyat, so‘z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g‘oya-si sifatida talqin etish bizning bugungi ma’naviy ideallarimiz bilan naqadar uzvii bog‘liq, nechog‘liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e’tiborlidir.

«Avesto»da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayo-tining tabiat bilan uyg‘unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog‘liq holda ko‘rsatilgani ko‘p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma’naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta’sir o‘tkazib kelgani-ga yana bir bor e’tiborimizni jalb qiladi¹».

«Avesto» nafaqat O‘rtta Osiyo, balki unga tutash hududlar va xalqlarning qadimgi tarixi, madaniyati, dini, ma’naviy merosini aks ettiruvchi bebafo manba, balki insoniyat sivilizatsiyasi shakl-lanishi va jamiyat taraqqiyotining jarayonlarini o‘rganishda ham bebafo tarixiy manba sanaladi.

Bu bilan Sharqda tarixni yoritishga dastlab O‘rtta Osiyoda qo‘l urilgan, degan fikrni bermoqchi emasmiz, zotan bu davrlarda qadimgi Xitoy, Hindiston, Ikki daryo oralig‘i, Misrda ham o‘zi-ga xos tarzda tarixnavislik va tarixiy voqeа-hodisalarni qog‘ozga

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat». 2009. 31–32-bb.

tushirish ishlariga alohida e'tibor berilgan va hatto bu voqealarni qog'ozga tushirib boruvchi maxsus kishilar ham shakllangan.

Ilk o'rta asrlar tarixining muhim jihatlari va jamiyat hayotining turli jihatlarini aks ettiruvchi yana bir muhim manbalardan biri O'rxun-Yenisey bitiktoshlari V asr o'rtalari – VIII asr birinchi yarmida Sharq, xususan Osiyoning bepoyon hududlari-da hukmronlik qilgan va o'z davlatchiligin shakllantirgan turkiy xalqlarning tarixiga oid manbalardir.

O'rxun-Yenisey bitiktoshlari V–VIII asrlarda qadimgi turk tilidagi va yozuvidagi tarixiy yodgorliklar hisoblanadi. Mo'g'uliston-dagi O'rxun va Janubiy Sibirdagi Yenisey daryolari sohillari-da topilgani uchun ham mazkur yodgorliklar umumiy holda shu nom ostida yuritiladi. Mo'g'ulistonдан Shimoliy dengizgacha, Uraldan Saxalinga qadar davom etgan hududlarda shu yozuvidagi yodnomalar uchraydi. Shimoliy Kavkazda XV asrda ham O'rxun yozuvidan foydalanilgan. O'zbekiston hududlarida (Farg'ona, Surxondaryo), Qozog'istonning Talas vodiylaridan 20 dan ortiq turkiy-run yozuvi yodgorliklari topilgan.

Qadimgi turkiy yozuvlardan biri hisoblangan O'rxun-Yenisey yozuvingilgini ilk ko'rinishlari davlatning ma'naviy hayotida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Lekin bular turkiylarning dastlabki yozuvlari emas, Sirdaryo bo'yalaridan (miloddan avvalgi III–II asrlar) hamda Qozog'istonning Issiq qo'rg'onidan (miloddan avvalgi IV asr) topilgan yozuvsular ham turkiylarga xos bitiklar hisoblanadi. Bu bitiklar orasida albatta O'rxun-Yenisey bitiktoshlari alohida tarixiy ahamiyatga ega, ayniqsa Kultegin, Bilga xoqon, To'nyuquq yodnomalarida turk xoqonligi va uning bir qator davlatchilik masalalari, boshqaruvi, davlatning tanazzuli, siyosiy tarqoqlik kabi holatlar haqida qimmatli ma'lumotlar mayjud. Kultegin bitiktoshi 732-yilda Turk xoqonligi (551–745)ning lash-karboshisi sharafiga o'rnatilgan. Bitiktosh ikki qismdan – Kichik va Ulug' bitikdan (muallifi Yo'llig' takin) iborat. Bitikda Tabg'ach, Tibet, So'g'd, Turkash, Qirg'iz kabi nomlar tilga olingan. Bitiktoshlар XIX asr oxirlarida topilib, U. Tomsen tomonidan o'qilgan

va ilmiy muomalaga kiritilgan. Turk – run bitiklari AQSH, Polsha, Vengriya, Finlyandiya va Turkiyada ham o'rganilgan. Rossiyada V.Radlov, S.Malov, I.Stebleva ishlari ma'lum. O'zbekistonda Fitrat, A.Qayumov, N.Rahmonov va boshqalar tadqiqot ishlarini chop qildirgancha.

Tarixiy tafakkur va tarix falsafasi ma'rifatli jamiyat qurishning muhim omili bo'lib xizmat qilar ekan, tarix bunda o'tmishni anglash, uni his etish va tushunish pirovardida kishilar ruhiyatida ma'naviy va ruhiy e'tiqodni shakllantirish va bu orqali jamiyatni ma'naviy jihatdan isloh qilish, ayni vaqtida o'zlikni anglash va milliylikni saqlab qolishda eng muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

«Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi»¹.

Sharqda, xususan hozirgi O'zbekiston hududlarida yashab ijod qilgan fazil kishilar tomonidan yaratilgan tarix, shuningdek geografiya va falsafaga oid asarlarning aksariyatida tarixiy jarayonlar va voqealarni yoritib berishga katta o'rinn berilgan. Qizig'i shundaki, XV asrgacha bo'lgan davrdagi bu asarlar mualliflari orasidan (Narshaxiy, Juvayniy kabilarni hisobga olmagan holda) birontasini aynan tarixchi deb ko'rsatish mushkul yoki ular sanoqligina, sababi sharq tarixnavisligining, asosan islom olami tarixnavislarining ko'pchiligi tarixdan boshqa sohalarda ham yetuk olimlar va fazil kishilar hisoblangan. Bu esa ularga tarix sohasidagi bilimlarni faqatgina ro'yi-rost voqealarni tavsiflash (tarixiy materializm) orqali emas, balki ularning kelib chiqish sabablari, mazmuni va natijalari hamda oqibatlarini ham tahlil qilgan holda, ularning alohida shaxs yoki insonga va ayni vaqtida mamlakatga, jamiyatga ta'sirini falsafiy mushohadalar orqali yoritib berishlariiga imkon bergen. Tarixni yoritishga bo'lgan bunday yondashuv-

¹ Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 29-b.

ni Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk, Abu Rayhon Beruniy kabi olimlarning turli vaqtarda yozilgan asarlarida kuzatish mumkin.

«Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san‘at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyat, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me’morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kamdan kam topiladi»¹.

Sharq tarixchilari orasida Abu Rayhon Beruniy (973–1048-y.) alohida o‘rin tutadi. U turli mazmunda, jumladan falsafiy, geografik, etnografik, jumladan tarix sohalariga oid 150 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Mutafakkirning 152 asaridan 15 tasi bevosita tarix ilmiga bag‘ishlangan. Ayniqsa tarix to‘g‘risidagi chuqur bilimlarini o‘z ichiga olgan «Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») hamda «Hindiston» yoki «Kitab tahqiq molil-Hind min manqula fi-l-aql va-l-marzuma» («Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini tadqiq etish») va «Kitob ul-musammara fi axbori Xorazm» («Xorazm haqidagi axborotlar haqida suhbatlar») nomli asarlari bilan jahon tarix fani va madaniyat tarixiga katta hissa qo‘shdi.

Beruniy siyoshi haqida so‘z yuritar ekan O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildiradi: «Milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta’riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo‘lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasi bilan izohlanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Beruniy il-

¹ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 30–31-bb.

miy masalalarda ham, tarixiy voqea-hodisalarga, o‘z zamondoshlariga baho berishda ham o‘ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko‘p aziyatlar chekkan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo‘lgan, amma har qanday og‘ir sharoitga qaramasdan, e’tiqodidan qaytmagani uning o‘z ma’naviy ideallariga naqadar sodiq bo‘lganidan dalolat beradi¹.»

Abu Rayhon Beruniy asarlari orasida «Osor ul-boqiya» asari alohida muhim ahamiyat kasb etib, asarda qadimgi O‘rta Osiyo, Yunon, Eron, Hind, nasroniy, yahudiy va boshqa xalqlarning islomiyatgacha bo‘lgan tarixi, urf-odatlari, bayramlari va asosan vaqtini hisoblash taqvim-xronologiya to‘g‘risida mukammal ma’lumot berilgan. Beruniyning Xorazm tarixiga oid asari yuqorida zikr etilgan nomdan tashqari, yana «Tarixi Xorazm» va «Mashohiri Xorazm» («Xorazmning mashhur kishilari») nomlari bilan ham mashhur bo‘lib, uning ayrim lavhalari – parchalari Abulfazl Bayhaqiyning 1056-yili yozib tamomlangan «Tarixi Bayhaq» va Yoqt Hamaviyning «Mo‘jam ul-buldon» asarlari da saqlanib qolgan. Beruniyning «Kitob fi axborot al-mubayyizot val-karomita» («Oq kiyimlilar va karmatlarning xabarları haqida kitob») asari ham tarix ilmi uchun alohida qiymatga ega. Unda o‘sha zamonlarda O‘rta Osiyoda keng tarqalgan ijtimoiy harakat – karmatlar harakati haqida diqqatga sazovor ma’lumotlar bor.

Shuni alohida aytib o‘tish kerakki, Sharqda tarixga qiziqish, insoniyat tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini o‘rganish keng taraqqiy etgan. Bu borada yuqorida aytib o‘tilganidek nafaqat tarixiy mazmundagi, balki bir asarning o‘zida bir necha sohalar haqidagi, ya’ni tarixiy, falsafiy, tarixiy-falsafiy va tarixiy-badiiy mazmundagi ko‘plab fikrlarni o‘z ichiga olgan, ularning tahlli, tavsiyi va sharhlari berib o‘tilgan ko‘plab nodir asarlar yaratilgan. Ular jumlasiga Abu Ja’far Tabariyning (839–923-yy.) «Tarixi Tabariy», «Tarixi ar-rusul va va-l-muluk» (Payg‘ambarlar va

¹ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 42–43-bb.

podshohlar tarixi), Abu Bakr Muhammad Ja’far an Narshaxiy tomonidan yozilgan va tarixi asarlari orasida nodir asar sanalgan «Tahqiq al viloyat» (Viloyatlarning tadqiqotlari), «Tarixi Buxoro» (Buxoro tarixi), «Axbor al-Buxoro» (Buxoro haqida xabarlar) kabi asarlarni ham ko‘rsatib o‘tish mumkinki, ularda tarixiy voqealarning tahlili, sharhlari, tavsifi, hodisalarning falsafiy-mantiqiy ifodalari o‘z aksini topgan.

Abu Muhammad al Kufiyning (X asr) «Futuxi ibn A’sam», arab tarixchisi va geografi, faylasufi Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Mushkuya (X asr—1030-y.) Abu Ali Miskovayxning «Adab al arab va-l-furs» (Arab va forslarning odob qoidalari), olti kitobdan iborat bo‘lgan «Tahsil al axloq» kabi asarlarida insoniyat yaxlit o‘tmishining taraqqiyot omillari, ayrim xalqlarning an’analari, turmush tarzi va hayot tajribalari aks ettirilgan bo‘lsa, olti jilddan iborat «Kitob tajorib ul-ulum» («Xalqlarning tajribalari haqida» nomli asarida musulmon mamlakatlarining qadim zamonlardan 983-yilgacha tarixi yoritib berilgan. Muhammad Muso al-Xorazmiy (VIII asr ikkinchi yarmi—IX asr o‘rtalari, Xorazm) «Kitob at-tarix», («Tarix kitobi») O‘rta Osiyoda yozilgan dastlabki tarix kitoblaridan biri bo‘lsa, uning «Kitob al-surat al-arz» («Yer tasviri kitobi) asarida O‘rta Osiyo va unga yaqin joylashgan xalqlar, Kaspiy dengizi, Xorazm (Orol) dengizi va shu kabi geografik hududlar va joylarning ta’rif — tavsifi keltirib o‘tilgan. Abulhasan Ali ibn Muhammad Madoiniy (IX asr, Arabiston)ning «Kitob al mag‘oziy» («Urushlar (tarixi) haqidagi kitob»), «Tarix al-buldon» («Mamlakatlar tarixi») kabi ikki yuzdan ortiq asar yaratgan bo‘lib, bu asarlarning aksariyatida ilk o‘rta asrlarda musulmon mamlakatlari va ularga tutash hududlardagi asosan siyosiy, harbiy, diplomatik tarix masalalalariga katta e’tibor qaratilgan. Yana bir arab tarixchisi Abulabbos Ahmad ibn Abu YA’qub ibn Ja’far ibn Vahb ibn Vadid al-Kotib al-Abbosiy qalamiga mansub o‘ta qimmatli mazmunga ega manbalar sanalgan «Kitob al-buldon» («Mamlakatlar haqida kitob») hamda «Tarix» nomi bilan mashhur bo‘lgan asarlar bo‘lib, ularda arab xalifaligi tarkibiga kiritil-

gan bir qator mamlakatlar va xalqlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, bu mamlakatlarning geografik holati, yirik shaharlar va qal’alari, aholisi va uning asosiy mashg‘uloti, urf-odatlari, ulardan olinadigan xirojning umumiyligi miqdori haqida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan asarlar qatorida Abubakr Ahmad ibn Yaxyo Jabir al-Balazuriyning (IX asr) «Kitob futuh al-bul-don» («Mamlakatlarning zabit etilishi»), Abu Yusuf Ya’qub ibn Ibrohim Kufiyning «Kitob ul-xiroj» («Xiroj solig‘i haqida kitob»), Abu Abdulloh Muhammad al-Xorazmiy (X asr, Xorazm) «Mafotix ul-ulum» («Ilmlarning kalitlari»), Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiyning (961–1038-yy., Nishapur) «Yatimat ad-dahr» yoki «Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl ul-asr» («Asr ahlining fozillari haqida zamonining durdonasi»), Abu Nasr Muhammad ibn Abdujabbor Utbiyning (961–1036-yy. Eron) «Tarixi Yaminiy», Abulqosim ibn Havqal an-Nasibiy – Ibn Havqalning (976-yilda vafot etgan) «Kitob ul-masolik va-l-mamolik» («Yo’llar va mamlakatlar haqida kitob») yoki ikkinchi qisqacha nomi «Kitob surat al-arz» («Yerning surati»), Abu Said Abulhay ibn Zahhok ibn Mahmud Gardiziyning (XI asr) «Zayn ul-axbor» («Tarixlar ziynati»), Abulfazl Muhammad ibn al-Husayn al-kotib al-Bayhaqiyning (995–1077-yy., Nishapur) «Tarixi Mas’udiy» («Mas’ud tarixi»), shuningdek, turli mamlakatlarda va turlicha davrlarda yashab ijod qilgan va keyingi asrlarda yaratilgan Shihobuddin ibn Ahmad ibn Ali Muhammad Nasaviyning (XIII asr, Xorazm) «Siyrat as-sulton Jaloliddin Menkburni» («Sulton Jaloluddin Menkburnining tarjimai holi»), A'loddin Otamatlik ibn Bahouddin Muhammad al-Juvayniyning (XIII asr, G‘arbiy Xuroson). «Tarixi jahonkushoy» («Jahongir (Chingizxon) tarixi»), Rashididdin Fazlulloh ibn Abulxayr al-Xamadoniyning (1247–1318-yil 18-iyul) «Jome’ ut-tavorix» («Tarixlar majmuasi»), Hamdulloh ibn Abubakr ibn Ahmad ibn Nasr Mustavfiy Qazviniyning (1281–1350-y., Qazvin) «Tavorixi guzida» («Saylangan tarix»), Nizomuddin Shomiyning mashhur «Zafarnoma»si,

Shahobuddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid al-Havofiyning (XIV asr—1430-yil Xirot, Xamadon) «Majma at-tavorix» asari, Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bekning (1394—1449-yy., Samarqand) «Tarixi arba’ ulus» («To‘rt ulus tarixi»), Kamoluddin Abdurazzoq ibn Jaloluddin Ishoq Samarqandiylar — Abdurazzoq Samarqandiyning (1413—1482-yy.) «Matla’ us-sa’dayn va majma’ ul-bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki azim daryoning qo‘shilish yeri») nomli yirik tarixiy asari, Mir Muhammad ibn Sayyid Burxoniddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al-Balxiy — Mirxondning (1433—1497-yy.) «Ravzat us-safo» («Sof jannat bog‘i») yoki «Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo» («Payg‘ambarlar, podshohlar va halifalarning tarjimayi holi haqidagi sof jannat bog‘i») nomi bilan mashhur bo‘lgan umumiy tarixga oid asari, Abdulla Nasrullohiy yoki Abdulla ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohning (XV asrning ikkinchi yarmi — XVI asrning birinchi yarmi) «Zubdat ul-asar» («Solnomalar asari») asari, Zahiriddin Muhammad Boburning (1483—1530-yy., Andijon, Agra) «Vaqoye» — «Boburnoma» asari, Abulg‘ozzi Bahodirxonning «Shajarayi tarokima» va «Shajarayi turk» kabi tarixchilar tomonidan yaratilgan yuzlab tarixiy, geografik, etnografik, madaniyat va san’at, adabiyot va me’morchilik, iqtisodiy hayot va mamlakatlar o‘rtasidagi siyosiy hamda diplomatik munosabatlar haqidagi qimmatli va turli-tuman mazmungidagi ma’lumotlarni o‘zida jamlagan asarlardan ham ko‘rish mumkinki, ulardagagi manbalar mualliflari tomonidan tarixiy voqealar va jarayonlarning yoritilishi, tavsifi, tahlili va ayrim hollardagi tanqidiy xulosalari va mulohazalari tarix fani haqidagi keyinigi asrlarda (asosan XVIII asrdan boshlab) Yevropada yuzaga kelgan falsafiy yondashuvlarning ham asosiy elementlarini kuzatish mumkin. Sharq tarixchilari, xususan o‘zbek xalqining farzандлари sanalgan Abu Rayhon Beruniy, Abu Bakr Muhammad Ja’far an Narshaxiy, Abulg‘oziy Bahodurxon, Ibrat, Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy kabi bir qator tarixnavislar ham o‘z asarlarini yaratish jarayonida tarix il-

mi haqida qator qimmatli fikrlar va falsafiy yondashuvlarini bayon etganlar.

Abu Rayhon Beruniyning tarix bayonida voqealarning aniq va ishonarli tarzda, ixtiloflardan xoli hamda haqqoniy tafsiflanishi va talqin qilinishiga alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa tarixning buzib ko'rsatilishini ma'qullamaydi¹.

Abulg'oziy Bahodurxon tarix va tarixchilar haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Muarrixlar ... onlarning podshohlik qilg'on, tug'g'on va o'lg'on tarixlarini, yaxshi va yomon qilg'on ishlarini yozib tururlar. Bir podshoh otina bir donishman kishi bir tarix aytib turur. Yana bir necha yillardan so'ng shul podshohning avlodidan bir podshoh bo'lg'onda taqi bir donishmand muarrix paydo bo'lub, man ul burungi muarrixdan yaxshi ayturman teb, bu podshohning otina taqi bir tarix aytib turur. Shundoq qila-qila podshohlarning otlarig'a ba'zilariga o'n tarix, ba'zilariga yigirma tarix va ba'zilariga o'ttuz tarix aytib tururlar». Abulg'oziy Bahodurxon o'z asarini yaratar ekan, tarixiy jarayonlar va voqealarni obyektiv ravishda yoritishga harakat qilganligini alohida ta'kidlaydi: «Emdi ko'nglingizga kelmasunkim faqir taraf tutub yolg'on aytqon bo'lg'ayman va yo o'zimni g'alat ta'rif etqon bo'lg'ayman». Sharq tarixnavisligida nafaqat adabiyot, she'riyat va boshqa kitobatchilik sohalarida, balki tarix va tarixnavislik sohalarida ham til omiliga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, tarixiy asarlar muallifi Abulg'ozzi o'z asarlarini ona tilida yozayotganligini ta'kidlab: «... bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsin, deb turk tili bilan aytdim. Bir kalima chig'atoy, turkiydan, forsiydan va arabiyan dan qo'shmayman, ravshan bo'lsin deb, turkiyni ham andoq aytibmanki besh yashar o'g'lon tushunar», – deb yozadi. Abulg'ozzi tarixiy voqealarni badiiy lavha va she'rlar orqali tafsiflaydi.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniy «Shajarayi Xorazmshohiy» asarini yozar ekan, undagi ayrim voqealar tafsilotlarini

¹ Tarix falsafasining nazariy asoslari. 79-b.

o‘zidan avval Ogahiy tomonidan yozilgan asarlardan topmaganligi va endi bevosita o‘zi tarixiy jarayonlar ishtirokchilari va shohidlarining so‘zlaridan yozishga harakat qilganligini ta’kidlaydi: «.... yuqorida zikr etilgan davr tarixini (Muhammad Rahimxon II ning (1865–1910-yy.) 1872-yilgacha bo‘lgan xonlik davrini – mualliflar) o‘sha davrda ishga aralashib yurgan bir necha keksa odamlarni topib, ulardan bo‘lgan voqealarни so‘rab, diqqat bilan haqiqatlab yozdim». Muhammad Yusuf Bayoniy «Xorazm tarixi» asarini yozishda tarix va uni tavsiflashga aohida e’tibor qaratadi va tarixni haqqoniy, obyektiv ravishda yozish shartligini uqtiradi: «Tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarни yozuvchi tarafдорlik etmasdan, bo‘lgan voqealarни rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so‘zлari hech bir odamga ma’qul bo‘lmaydi». XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan farg‘onalik tarixchi Is’hoqxon Junayduloxo‘ja o‘g‘li Ibrat To‘raqo‘rg‘oniy insonlarni o‘z o‘tmishi va ajdodlari, yashab turgan vatani va uning o‘tmishini bilishi zarurligini alohida ta’kidlab o‘tadi va tarixni o‘rganishga da’vat etadi: «....inson ancha-muncha baqadri ilmi bashariyat tavorixdan bilmak labudda o‘lmoqi ma’lumdir. Loaqal kishi o‘z muvattin yeri ni bilmak zaruriyotdandur. Bilmasa, tafosir va ahodislarda va tavorixlarda mubayyindurki, ko‘rmak va bilmak ilmdandur». XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida asosan O‘rta Osiyo va qo‘shni turkiy davlatlarda keng tarqalgan va ta’lim sohasining taraqqiy etishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan jadidchilik harakati va jadid namoyandalari ham tarix faniga alohida e’tibor qaratganlar va uni chuqur o‘rganish shartligi haqidagi fikrlarini bildirganlar. Jumladan, tarix fanining jamiyat taraqqiyoti, millatning o‘zligini anglashdagi nufuzli o‘rniga alohida e’tibor qaratib, tarix fanini o‘rganishga M.Behbudiy, A.Fitrat va boshqalar atroflicha e’tibor qaratganlar. Jumladan, M.Behbudiy shunday deydi: «Hozirgi dunyoda yashash, ziyoli, komil va odil bo‘lish uchun o‘z vatani va o‘z tarixini o‘rganish da’vati bilan chiqish lozim». Abdurauf Fitrat esa tarix ilmiga avvalgi mualliflarga nis-

batan aniqroq ta’rif berib shunday deydi: «Tarix millatimizning, o’tmishimizning taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o’rganadigan fandir».

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar va tarixchilarining tarix va tarix fani, tarix ilmiy haqida keltirib o’tgan fikrlaridan ham anglash mumkinki, Sharq, xususan O’rta Osiyoda ham qadimdan tarix fani sohalariga e’tibor kuchli bo’lgan va ayni vaqtida tarixnavislar faqatgina tarixiy jarayonlarni tavsiflash, manbalarni tahlil etish kabilar bilan cheklanib qolmasdan tarix va tarix fani haqida, uni qanday yozish yoki tahlil qilish kerakligi kabi masalalar yuzasidan ham o’zlarining falsafiy fikrlarini ko’rsatib o’tganganlar. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Sharq tarixnavisligi bilan kengroq tanishar ekanmiz, unda ham tarixni yoritishda o’ziga xos tarzda shakllangan falsafiy yondashuvlarni yoki uslublarni kuzatishimiz mumkin.

Birinchidan, tarixni yoritishda tarixiy jarayonlarning eng avvalo butun borliq bilan bog’lagan holda yoritilishi. Ya’ni, ibtido – yaralish – voqelik. Bu an’ananing bugungi metodologik qarashlar nuqtayi nazaridan ikki tomonlama mazmunga egaligini payqash qiyin emas. Birinchi tomoni shundaki, bunda biror-bir tarixiy voqeя yoki asar yaratilar ekan, avvalo olamning paydo bo’lishi, insonning yaralishi va yoritilayotgan voqeagacha bo’lgan davr mobaynidagi asosiy ilohiy voqealar va jarayonlarning eslatisib o’tilishiga alohida e’tibor berilgan va aksariyat tarixchilar bu an’anaga rioya qilganlar. Bu yondashuvning ikkinchi tomoni Avgustin qarashlari asosidagi ilohiy tarix falsafasini eslatsada, biroq aynan uni aks ettirmaydi. Chunki sharq tarixnavisligida tarixni ilohiy jarayonlarni aks ettirish bilan birga unga bog’langan holda davom ettirilsada, biroq tarixiy jarayonlarning o’zi aynan diniy nuqtayi nazardan emas, balki o’z holicha, ya’ni voqelikni yoritib beruvchi daliliy va manbaviy asoslarga tayangan holda yaratilgalligi bilan Avgustin qarashlaridan keskin farqlanadi. Bunda din tarixi va diniy tarix masalalarining alohida yo’nalish ekanligini ham unutmaslik lozim. E’tiborli tomoni shundaki, inson va ta-

biat, odam va olam o‘rtasidagi munosabatlar va o‘zaro bog‘liqlik ilk marotaba dunyoviy fan nuqtayi nazaridan aynan sharqda, Abu Rayhon Beruniy tomonidan tadqiq etilgan.

Ikkinchidan, sharq tarixnavisligida tarixiy voqealarni yoritishda davriylikka asoslangan holda yondashuv, ya’ni islomgacha, arablarga, xalifaliklar, amirliklar, podsholiklar, xonliklar, sulolalar kabi alohida hodisalarga asoslangan holda tarixni yoritish ham ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblangan. Bunda asosiy voqelik podsholarning faoliyati va boshqaruvi jarayonlari atrofida shakllantirilganligini kuzatish mumkin. Bunda podsholiklarning vujudga kelishi va siyosiy tarixi, diplomatik aloqalar jarayonlari va davlatlarning inqirozlari asosiy diqqat markazida tutilgan. O’sha davrdagi ma’naviy va madaniy, iqtisodiy taraqqiyot yoki inqiroz holatlari aynan shu davr hukmdorlari faoliyati bilan bog‘lana-di. Bunday tarixiy yondashuvda tarixiy voqelikning aks ettirilishi asosan davriy yoki hududiy jihatdan chegaralangan va voqealarning butun mohiyati va ko‘lamli bilan tasavvur qilish imkoniyati ni cheklagan. Bunday yondashuv D. Yumning «tarix predmetini buyuk imperiyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va inqirozi tashkil etadi», E.Gibbonning «tarix urushlar tarixi va jamiyatni boshqarish ishlaridan iborat», L. Rankening «tarix bu diplomatik munosabatlardir» kabi fikrlariga turli darajada mos keladi. Hatto bu borada mashhur yozuvchi F. Volter kinoyali ravishda «har tomonda faqat qirollar tarixini ko‘rish mumkin, men esa odamlar tarixini yozmoqchiman» degan so‘zlarni ayтиб о‘тган edi.

Uchinchidan, sharq tarixnavisligida axloqiy va ma’naviy mezonlardan kelib chiqqan holda tarixiy voqelikni haqqoniy va qanday bo‘lsa shundayligicha talqin qilish ham ustuvor yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ayrim tarixchilar o‘zlaridan oldin sodir bo‘lgan voqealarni avval yozib qoldirilgan asarlar asosida ko‘rsatib berayotganligini va bunda o‘zlaridan biror-bir qo‘sishmchalar qo‘sishga jur‘at etmaganliklarini, ya’ni o‘zlaridan keyingi avlod uchun isbotlanmagan va tasdiqlanmagan ma’lumotlarni o‘z kitoblarida qayd etishga jur‘at etmaganliklarini alohida qayd etib

o‘tganlar. Bunday qaydlar hamma tarixchilar tomonidan e’tirof etib qoldirilmagan bo‘lsada, biroq asarlarni o‘qish jarayonida shunday ruhiyatni sezish mumkin.

To‘rtinchidan, sharq tarixnavisligida tarixiy voqealarni yoritishda ijtimoiy mansublik omili ham uchraydiki, bu ayrim holatlarda tarixiy voqelikni bir tomonlama yoki cheklangan va chegaralangan holda yoritilishiga olib kelgan. Bunday holatlar aksariyat hollarda asarlar mualliflarining hukmdor ta’sirida bo‘lganliklari yoki undan jabrlanganliklari bilan xususiyatlanadi va ko‘p holatlarda mubolag‘ali va haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlar bilan voqelikni tavsiflashga urinish ko‘zga tashlanadi. Bunday holatlarni tarixnavislik bilan bir vaqtida she’riyat va adabiyot sohalarida ham kuzatish mumkin. Albatta tarixni yoritishga bunday yondashuv asl voqelikni tasavvur etishga imkon bermaydi yoki uni cheklaydi va chalg‘itadi. Tarix tadqiqotiga bunday yondashuvni shartli ravishda tarixiy-badiiy yo‘nalish sifatida baholab, unda tarixiy dalillarga asoslanilgan badiiy bayon uslubini yetakchi deb hisoblash mumkin. Bunday yondashuvning eng e’tiborli tomoni shundaki, bunda mualliflar o‘zlariga ma’qul bo‘lgan jarayonni yoki hodisani mutlaq haqiqat deb hisoblaydilar, aynan ana shunday xulosa chiqarish tarixiylik va haqqoniylilikka putur yetkazadi.

Beshinchidan, sharq tarixnavisligi va tarix falsafasida inson hayotidagi, turmushidagi axloqiy me’yorlar va ma’naviy tamoyil-larga oliy darajadagi qadriyatlar sifatida yondashuv ham yetakchi xususiyatlardan biridir. Bu yo‘nalishning asoschisi Abu Rayhon Beruniy hisoblanadi. Bunda tarixni yoritishda aniqlab bo‘lmaydigan dalillarni aynan yuqorida qayd etilgan xususiyatlarga birlamchi sifatida yondashib xulosalar chiqarishga da’vat etadi.

Oltinchidan, sharq tarix tafakkurida tarixni Olam asoslari sababiyyatini aniq izlaydigan fan sifatida ham yondashiladi va tarixga voqealar va ularning sabablari haqidagi chuqur ilm sifatida yondashiladi. Bunday yondashuv asoschisi Ibn Xaldun hisoblanib, u tarixiy voqelikni falsafiy tafakkur yordamida idrok qilish, falsafiy fikrlar, xulosalar chiqarishga da’vat qilib, tarixni falsafiy fanlar

qatoriga qo'shadi. Ibn Xaldun tarixning mazmuni haqida mulohaza yuritar ekan, uni, inson hayotining mazmuni kabi, tarix tugaganidan keyingina aniqlash mumkinligini qayd etadi. Ammo, shunga qaramay, tarixning mazmuni haqida erkinlik, ijod tu-shunchalariga tayanib so'z yuritish mumkin, deb hisoblaydi. Tarixning harakatida Ibn Xaldun obyektivlashuvning inson ustidan hukmini kamaytiradigan, uning erkinligi va ijodining tantanasini qaror toptiradigan jarayonlarni aniqlashga harakat qiladi.

Yettinchidan, sharq tarixchiligidagiadolat ustuvorligi, tarix haqiqati hamisha bosh mezon bo'lishi, har qanday voqe va hodisanning tahlilida to'g'ri munosabat (pozitsiya) tanlash, xulosalar chiqarishga odillik bilan yondashishni ustuvor deb hisoblaydilar. Bunday qarashlar Beruniy va Ibn Xaldun, Abulg'oz, Bayoniylarning qarashlarida yetakchi yondashuvlardan biridir.

Sharq tarixnavisligi namoyandalari va ularning asarlarining ayrim tafsilotlari bilan tanishar ekanmiz, asosan yurtimiz zaminda yashab ijod etgan va beba ho tarix asarlari yaratgan tarixchilarimizning asarlarida bugungi jahon tarix fani metodologiyasidagi mavjud bir qator falsafiy muktablarining tarix fani sohasidagi yondashuvlari va qarashlari turli ko'rinishda va turli mazmunda bundan bir necha asrlar avvalroq sharq tarixnavisligida amalda bo'lganligini ko'rish mumkin. Sharq tarix falsafasining shakllanishi yuqorida xususiyatlar atrofida yuzaga kelgan va shakllanib borgan. Biroq yuqorida qayd etilgan fikrlar sharq tarix falsafasining butun mohiyati va mazmunini ochib bera olmaydiki, bu borada hali yana ko'plab chuqr ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilishi kerak.

«Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olim ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islam dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga

ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ allo-malarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi»¹.

Tayanch tushunchalar: ong, yaxlit borliq, haqiqatni anglash, sharq tarixnavisligi, falsafiy yondashuv, axloqiy va ma’naviy mezonlar, ijtimoiy mansublik omili, adolat ustuvorligi, tarixiy-badiiy yo‘nalish, Olam asoslari, Sharq tarix falsafasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sharq tarixnavisligining o‘ziga xosligini nimalarda ko‘rasiz?
2. Tarixiy jarayonlarning butun borliq bilan bog‘lagan holda yoritilishi tushunchasini izohlab bering.
3. Tarixiy voqelikni haqqoniy talqin qilish deganda nimani tushunsiz?

¹ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 29–30-bb.

ABU RAYHON BERUNIYNING TARIXIY ILMIY MEROSI

Abu Rayhon Beruniyning tarixiy ilmiy merosi. Abu Rayhon Beruniy va tarix fanida axborotning nazariy masalalari. Abu Rayhon Beruniy va tarix fanida tadqiqot uslublarining nazariy masalalari.

Sharq tarixchilari orasida turli davrlarda tarixni o'rganish va tarix fanining rivojiga katta hissa qo'shgan tarixchilardan Abu Rayhon Beruniy (973–1048-yy.) alohida o'rinn tutadi. Mutafakkirning yaratgan 152 asaridan 15 tasi bevosita tarix ilmiga bag'ishlangan. Ayniqsa tarix to'g'risidagi chuqur bilimlarini o'z ichiga olgan «Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») hamda «Hindiston» yoki «Kitab tahqiq molil-Hind min manqula fi-l-aql va-l-marzuma» («Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'lilmotlarining tadqiq etish») va «Kitob ul-musammara fi axbori Xorazm» («Xorazm haqidagi axborotlar haqida suhbatlar») nomli asarlari bilan jahon tarix fani va madaniyat tarixiga katta hissa qo'shdi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Beruniy siymosi haqida so'z yuritar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: «Milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta'riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo'lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasi bilan izohlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Beruniy ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqeа-hodisalarga, o'z zamondoshlariga baho berishda ham o'ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko'p aziyatlar chekkan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo'lgan, ammo har qanday og'ir sharoitga qaramasdan, e'tiqodidan qaytma-

gani uning o‘z ma’naviy ideallariga naqadar sodiq bo‘lganidan dalolat beradi¹».

Abu Rayhon Beruniy va uning tarixiy-ilmiy merosi haqida so‘z yuritib, taniqli olima F.Sulaymonova quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi: «Taqdir taqozosi bilan Beruniy nomi va asarlari to XIX asrgacha ovrupolik olimlar diqqatidan deyarli chetda qolib kelgan. Faqat 1876–1878-yillarda avstriyalik olim Eduard Zaxau Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarining arabcha matnini chop ettirdi, 1879-yilda esa ingliz tiliga tarjimasini ommalashtirdi. Natijada ovrupoliklar kechikib bo‘lsada, Beruniy asarlari bilan tanisha boshladilar»².

Darhaqiqat, Yevropa olimlari, xususan tarixchilarini antik davrda va o‘rta asrlarda yaratilgan tarix kitoblarini chuqur o‘rganish borasida juda katta ishlarni amalga oshirganliklarini e’tirof qilish bilan birga aytib o‘tish kerakki, nafaqat Abu Rayhon Beruniyning, balki Sharqning boshqa tarixchilarining barcha asarlarini ham ilmiy jihatdan mukammal tadqiq qilmaganlar. Buning isboti sifatida zamonaviy tarix fanining nazariy masalalari, metodologiyasiga oid bir qator ilmiy nazariy qarashlar va yondashuvlar, tadqiqot uslublarining turli jihatlari borasida bildirilgan fikrlarda Beruniy va boshqa tarixchilarining qarashlari e’tibordan chetda qoldirilgan.

«Aynan musulmon sharqi tarixchilari bizga o‘zlarining an’anaviy tarixnavisligiga asoslangan holda Hindiston tarixiga oid qimmatli ma’lumotlarni qoldirdilar. XI asrdayoq Beruniy o‘zining Hindiston haqidagi keng ko‘lamdagi asarini yozdi. Bu asar sanskrit tilidagi matnlarga asoslangan bo‘lib, asar muallifning o‘zga xalqlar e’tiqodi, urf-odatlari haqidagi chuqur bilimga ega ekanligi va qimmatli ma’lumotlari bilan e’tiborni tortadi.

Afsuski bu asardan Yevropada tarix fanining rivojlanishida yetarli darajada foydalanilmadi, sharq tarixnavisligida esa buyuk

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008. 42–43-bb.

² Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. – T.: O‘zbekiston. 1997. 238-b.

Xorazmiy [Abu Rayhon Beruniy-Z.I.] o‘zining munosib izdoshlariga ega bo‘lmadi»¹.

Boshqa bir muallif esa Beruniy asarlarining ilmiy natijalariidan turli davrlarda yetarli daraja foydalanilmaganligi haqida afsus bilan ko‘rsatib o‘tadi: «Afsuski, zamondoshlari Beruniy tomonidan amalga oshirilgan ilmiy mehnatning qiyomatini va ilmiy ahamiyatini anglamadilar, «Hindiston» asari va unda keltirilgan ma’lumotlardan foydalanishga arab va fors mualliflarining asarlarida yetarli darajada e’tibor berilmadi»².

Garchi, Beruniyning tarix, etnografiya, ijtimoiy tafakkur kabi fanning bir qator sohalari haqida ilmiy asarlar yaratganligi ko‘pgina mualliflar tomonidan e’tirof etilgan bo‘lsada, uning ay-nan bugungi kundagi tarix fanining nazariy masalalarida asosiy o‘rin tutuvchi bir qator tushunchalarning sharqona so‘zlar bilan tushuntirib ketganligi manbaviy tahlil masalalaridan chetda qol-gan, zamonaviy tarix fanining metodologiyasiga oid nazariy qarashlar va falsafiy yondashuvlarning ilgari surilishida Beruniyning ta’kidlari keltirib o‘tilmaydi. Bu borada olima F. Sulaymonova-ning Beruniy va uning asarlariga nisbatan Yevropadagi munosabatning kech paydo bo‘lganligini ta’kidlash bilan birga XIX asr rus olimi V.R. Rozennenning Beruniyning tarixiy asarlariga bergen yuqori bahosini keltirib o‘tish o‘rinlidir: «... uning fikrlari hayratomuz keng, bir so‘z bilan aytganda, unda zamonaviy tushun-chamizdagi haqiqiy ilm bor»³.

¹ Гринин Л.Е. Теория, методология и философия истории: очерки развития исторической мысли от древности до середины XIX века. Лекция 4. Философско-историческая мысль в Средние века. Византия, Русь, арабский мир, Китай / Философия и общество. Выпуск №2 (58) / 2010. <http://www.socionauki.ru>

² Фролова Е.А. История арабо-мусульманской философии. Средние в.а и современность: Учебное пособие. — М., 2006. С. 114.

³ Шарк ва Farb 245-б. Qarang: Розен В.Р. Рецензии на кн Alberuni’s, India. Записки Восточного отделения импер. Русского Археологического общества. Спб. III, 1889. С.147.

Abu Rayhon Beruniy asarlari orasida «Osor ul-boqiya» asari alohida muhim ahamiyat kasb etib, asarda qadimgi O'rta Osiyo, yunon, eron, hind, nasroniy, yahudiy va boshqa xalqlarning islomiyatgacha bo'lgan tarixi, urf-odatlari, bayramlari va asosan vaqtini hisoblash taqvim-xronologiya to'g'risida mukammal ma'lumot berilgan. Beruniyning Xorazm tarixiga oid asari yuqorida zikr etilgan nomdan tashqari, yana «Tarixi Xorazm» va «Mashohiri Xorazm» («Xorazmning mashhur kishilari») nomlari bilan ham mashhur bo'lib, uning ayrim lavhalari – parchalari Abulfazl Bayhaqiyning 1056-yili yozib tamomlangan «Tarixi Bayhaq» va Yoqut Hamaviyning «Mo'jam ul-buldon» asarlarida saqlanib qolgan.

Sharqning ko'pgina tarixchilari o'z asarlarini yaratish vaqtida Abu Rayhon Beruniy tomonidan yaratilgan asarlardan foydalanganlar, jumladan, Abu Said Abulhay ibn Zahhok ibn Mahmud Gardiziyy «Zayn al-axbor» («Tarixlar bezagi»), Najmuddin Ahmad ibn Umar ibn ali Nizomiy Aruziy Samarqandiy «Chor maqola», Abulfazl Muhammad ibn al-Husayn al-kotib al-Bayhaqiy «Tarixi Mas'udiy», Mavlono Sayyid Muhammad Tohir «Ajoyib at-tabaqot» asarlarining yaratilishida shunday holatlar mayjudligi qayd etilgan¹.

Shubhasiz, Abu Rayhon Beruniy tomonidan yaratilgan asarlar orasida «Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») hamda «Hindiston» yoki «Kitab tahqiq molil-Hind min manqula fi-l-aql va-l-marzuma» («Hind-larning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini tadqiq etish») alohida ahamiyat kasb etadi.

«Ushbu benazir asar ijodkori qomusiy olim Abu Rayhon Beruniydir (973-1048). U tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha 150 dan ortiq asarlar yaratib, asosan tabiiy fanlar sohasida ulkan kashfiyotlarga va muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, o'zining ijtimoiy

¹ Madraimov A., Fuzailova G. Tarixiy manbahunoslik. – T.: 2005. 85–191-bb.

fan, ayniqsa tarix to‘g‘risidagi chuqur bilimlarini «Osor ul-boqiy-a an al-qurun al-holiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») hamda «Hindiston» yoki «Kitab tahqiq molil-Hind min manqula fi-l-aql va-l-marzuma» («Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini tadqiq etish») va «Kitob ul-musammar fi axbori Xorazm» («Xorazm haqidagi axborotlar haqida suhbatlar») nomli asarlari bilan tarix va madaniyat tarixiga katta hissa qo‘shti»¹.

Mazkur kitobda sharq tarixnavisligi va uning asosiy xususiyatlari, tarixiy asarlarning yaratilishi va tarixni tadqiq etish masalalari, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» hamda «Hindiston» asarlarida tarix fani va tarixiy tadqiqotlarning nazariy jihatlari haqida bildirgan fikrlari va zamonaviy tarix fani metodologiyasida uning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi masalalari tadqiq etilgan. Mazkur qo‘llanmada keltirilgan masalalar yuzasidan soha mutaxassislari tomonidan ayrim e’tirozlar va babs-munozarali fikrlar bildirilishi tabiiy. Bu esa albatta, tarix fani va uning tadqiqotlari borasida yanada mukammallikka erishishga xizmat qilishi shubhasiz.

¹ Tarixiy manbashunoslik. 68-b.

ABU RAYHON BERUNIY VA TARIX FANIDA TADQIQOT USLUBLARINING NAZARIY MASALALARI

Tarix va tarix fani ijtimoiy fanlar majmuasi bo'lib, insoniyatning butun o'tmishi davomidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotidagi jarayonlar va voqealarni aniq-konkret holda va turli uslublar yordamida davrlarga bo'lingan va umumiy holda o'rghanadi. Iqtisodiy tarix, siyosiy tarix, madaniyat tarixi, harbiy tarix, diplomatiya tarixi, tarixiy geografiya kabilar tarix fanining tarmoqlari hisoblanadi. Tarix fanining tarkibiy qismlari maxsus tarixiy fanlar hamda arxeologiya va etnologiya bo'lib, fan va madaniyat tarixi, san'at tarixi shu sohalar bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Hozirgi zamon tarix fani alohida bo'limlar va sohalardan tashkil topgan bilimlar majmuyi bo'lib, uning tadqiqot masalalari ham uslublarning murakkabligi va ko'lam jihatdan kengligi bois anchagina murakkablik kasb etadi.

Bugungi kunda zamonaviy tarix fani va uning predmeti sifatida aniq (konkret) jamiyat va uning shakllangandan boshlab tanazzuligacha zamon va makondagi taraqqiyoti bir butun holatda va ayni vaqtida uning ichki tarkibiy tuzilishlari, shuningdek boshqa aniq (konkret) jamiyatlar bilan aloqadorligi va munosabatlari tushuniladigan bo'lsa, bu borada Abu Rayhon Beruniyning fikrlari ham e'tiborga molikdir, uning ta'kidlashicha, «... qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir», ya'ni, Beruniy tarixning boshlanishini kishilik jamiyatining shakllanishi bilan bog'liqligini ko'rsatib beradi¹.

Beruniy asarlarida tarixni o'rghanish va bu jarayonda manbalardan to'g'ri foydalanish haqidagi fikrlarning mavjudligi va ayniqsa ularning aksariyati zamonaviy tarix fani metodologiyasida turli mualliflar tomonidan bildirilgan qarashlar bilan mos kelishi e'tiborni tortadi.

¹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. — T.: Fan. 1968. 50-b.

Zamonaviy tarix darsliklarida Beruniyning tarixiy tadqiqotlar borasidagi amaliy faoliyati haqida bir qator fikrlarni ko‘rish mumkin.

Jumladan, «Ilmiy bilish va anglash tamoyillarining rivojlanshiga o‘rta asrlarning yirik olimi Abu Rayhon Beruniy juda katta hissa qo‘shdi.

Beruniy tarixiy qiyosiy metoddan juda keng foydalangan. U «Hindiston» asarini yozish jarayonida «men hindlarning qonuniyatlarini qanday bo‘lsa shu holicha keltiraman va ayni vaqtida yunonlarda qanday bo‘lganligini ham misol tariqasida keltirib, ularning o‘zaro o‘xhash va yaqinlik jihatlarini aniqlayman», -deb yozgan edi¹.

Tarix va tarix fani yuzasidan bir qator fikrlar bildirib o‘tilganchi, ular biri ikkinchisining mazmunini to‘ldirib keladi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, tarix so‘zi ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan voqelik, hayot, o‘tmishga oid dalil va hodisalar majmuyi – o‘tmish, kechmish, biror voqeа-hodisaning izchil taraqqiyoti haqidagi fan, jamiyat taraqqiyoti haqidagi fan, biror ishning bajarilganligini, biron voqeа-hodisaning qachon bo‘lib o‘tganligini ko‘rsatuvchi aniq vaqt, sanani anglatuvchi ma’nlarda qo‘llanilmoqda².

«Barcha mamlakatlarga tarqalgan xalqlardan har birining alohida tarixi bor, uning podshohlari, payg‘ambarlari, davlatlari yoki men yuqorida aytgan hodisalarning biridan [o‘z tarixinining boshlanishini – Z.I.] hisoblaydi. Shu tarix yordami bilan muomala ishlarida hamda vaqtlarni bilish xususida kerakli [muddatlarni] belgilaydi va bu tarix ularni boshqa xalqlardan ajratadi»³.

¹ Фролова Е.А. История арабо-мусульманской философии. Средние в.а и современность: Учебное пособие. — М., 2006. С.112-114.

² Ibrohimov A. Bizkim o‘zbeklar....: Milliy davlatchiligidimiz asoslari haqida mulohazalar. — T.: «Sharq», 1999. 278–279-bb.

³ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. — T.: Fan. 1968. 50-b.

Bunda Beruniyning har bir xalqning alohida tarixi borligi va bu tarix ularni boshqalardan ajratib turishi, biroq ayni vaqtda aynan ana shu ajratib turuvchi farqlarning yoki tafovtlarning o’sha xalqlarda qanday talqin qilinishini taqqoslash orqali tahlil qilmoqchi bo‘lganligi zamonaviy tarix fani metodologiyasidagi sinxron uslub va tarixiy taqqoslash uslublarini bir vaqtning o‘zida qo‘llash orqali o‘z oldiga qo‘yan maqsadiga, ya’ni yozayotgan kitobining ilmiyligini ta’minlashga harakat qilganligini ko‘rish mumkin. Zamonaviy tarix fani tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etuvchi tarixiy taqqoslash uslubining Abu Rayhon Beruniy ilmiy ijodida tahlil qilib berilishi va ayni vaqtda alloma tomonidan ilgari surilayotgan bunday nazariy qarashlarning ilmiy ahamiyati X asrda ham yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi.

Tarixda, tarixiy manbalarda va asarlarda, ayniqsa sharq tarixnavisligida «ta’rix» talqini alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur fanning izohi keltirilgan boshqa manbada qayd etilishicha, tarix bu tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni va boshqa talqinda insoniyat va uning mahsuli bo‘lgan tamaddunlar rivoji, jamiyat va davlatlar o‘tmishi taraqqiyoti jarayonini o‘rganuvchi fan. Tarix fani insoniyatning butun o‘tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo‘lgan voqeа-hodisalar, jaryonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o‘rganadi¹.

Tarixiy manbalar va mumtoz adabiyotda tarix va ta’rix iboralarining turlicha mazmunda qo‘llanilganligini kuzatish mumkin.

Ta’rix (arab tilida – yuz bergen, sodir bo‘lgan) – mashhur kishilarining tug‘ilishi va vafoti, turli bino-inshootlarning qurilishi, kitoblar ta’lifi va boshqa muhim voqeа-hodisalar vaqtini anglatuvchi ishora, she’riy uslub yoki ma’nosи yashiringan so‘z. Ta’rix ko‘pincha u yoki bu mashhur shaxsning vafoti munosabati bilan, biror-bir tarixiy voqeaning sodir bo‘lgan sanasini anglatish yoki unga ishora tarzida she’riy tilda yozilgan. Ta’rixda qo‘llangan

¹ «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8-jild. 274-b.

so‘z va iboralar, ularni tashkil etgan arab harflarining abjad hisobidagi raqamlari bilan qo‘sib hisoblanganda, ma’lum bir sanani anglatuvchi raqamlar, son kelib chiqadi¹.

Ta’rix sharq tarixnavisligining asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi va «tarix»lar ham muhim manbaviy xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Ta’rixlar mazmuniga ko‘ra manbalardagi axborotni ifodalaydi. Zamonaviy tarix fanining nazariy yondashuvlarida axborot ochiq ifodalangan va yashirin holatda (keyingisi ko‘p uchraydi) bo‘lishi ta’kidlab o‘tilgan bo‘lsa², sharq tarixnavisligidagi ta’rixlarda keltirilgan axborot yashirin holatda ko‘proq uchraydi. Shu bois tarixchi yoki tadqiqotchidan mazkur axborotni matndan aniqlab va ajratib olishi uchun arab alifbosidan va ayniqlsa abjad hisobidan boxabar bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq tarixnavisligining namunalarida kuzatish mumkinki, tarix asarlarini yozish vaqtida muallif ko‘zda tutgan sana so‘z yoki muammo usulida ifodalanadi va ta’rix tarzida talqin etiladi. Shunga ko‘ra, ta’rix sarih (ochiq, ravshan) va ta’miya (berkitilgan, yashirilgan) kabi ikki turga bo‘linadi. Ta’rixning sarih turida sana ochiq ifodalansa, ta’miyada avval ta’rixning moddasi topiladi. Tarix asarlarida va manbalarda ta’rixlar qo’llanilgan holatlar juda ko‘p uchraydi.

Yuqorida har ikki holatdan ko‘rish mumkinki, sharq tarixnavisligida va zamonaviy tarix fani metodologiyasi sohalarida manbalar va matndagi axborotni talqin qilish vaqtida axborotning aniq va ochiq ifodalangan, shuningdek, yashirin holatda (so‘z ichida ma’no jihatdan) ham mavjudligi alohida ta’kidlab o‘tilmoqda.

¹ Arab alifbosi tarkibidagi harflar birikmasi hech qanday ma’no anglatmaydigan «so‘zlar» bo‘lib, ular sakkiztani tashkil etadi va har bir harf tegishli ravishda 1 dan 1000 gacha raqamlarni ifodalaydi. Birinchi so‘zdagi harflar birikmasi «abjad» tarzida o‘qilganligi sababli «abjad hisobi» deb yuritiladi.

² Ковалъченко И.Д. Методы исторического исследования. – М.: «Наука», 1987.

«Adiblardan biri mendan [turli] xalqlar haqidagi tarixlar, ularning boshlanishlari va shoxobchalari, ya’ni oylar va yillari ustida u tarix egalarining ixtiloflari va bu ixtiloflar sabablari ... haqida so‘radi»¹.

Beruniy so‘zlariga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, ko‘rish mumkinki, asosiy so‘ralayotgan narsa bu tarixlar va ular bilan bog‘liq holatlardir. Beruniyning «Hindiston» asari tarjimasining izohlar qismida «tarixlar» iborasiga quyidagicha sharh berilgan, ya’ni, «bu yerda tarix so‘zi yil hisobi, era ma’nosida ishlatilmoqda»². Bizningcha, bu o‘rinda «tarix» emas, balki «ta’rix» tarzida berish maqsadga muvofiq bo‘lardi va bu so‘z yil hisobi yoki era ma’nosini emas, balki tarixiy voqeanning sodir bo‘lgan sanasi ni anglatuvchi so‘z ekanligiga urg‘u berilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Bu fikrimizni Beruniyning boshqa so‘zlari tasdiqlaydi, ya’ni tarixiy jarayonlarning zamon va makon bilan bog‘liqlik masalasida Beruniy quyidagi so‘zlarni keltirib o‘tadi: «Biror o‘tib ketgan yilning avvalidan hisobga olinadigan ma’lum bir muddatga tarix deyiladi. O’sha yilda turli alomatlar va dalillar bilan [qandaydir] ... biron muhim narsa yuz bergen bo‘lishi kerak, bular uzoq asrlar va ko‘p zamonlarsiz paydo bo‘lmaydi (tarix makonda va zamonda sodir bo‘ladi, degan tushunchaning dalili – Z.I.). Bunday hodisalar orqali ma’lum vaqtlar, tarixlar aniqlanadi (bu yerda hodisalar jumlasini tarixiy jarayonlarni aniqlovchi yoki isbotlovchi dalillar sifatida ham tushunish va qabul qilish mumkin – Z.I.)...»³.

Beruniy so‘zlariga e’tibor berib qaralsa, zamonaviy tarix fani metodologiyasidagi mavjud asosiy maxsus tадqiqot uslublaridan biri – diaxron uslub haqida so‘z borayotganligini anglash mumkin. Bu so‘zlarda diaxron uslub bilan turli davrlar va ularning davr

¹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Hindiston. – T.: Fan. 1968. 40-b.

² Qarang: Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Hindiston. – T.: Fan. 1968. 214-b.

³ O’sha joyda.

sifatida ajratilishi uchun asos bo‘lgan tarixiy voqeа yoki hodisalarni aniqlashtirish, u yoki bu xalqlar (yoki hududlar)da bu davrlarning boshlanishida ixtiloflar mavjud bo‘lsa, ularning boshlanishidagi asl holati qanday ekanligini mavjud manbalar orqali dalillar asosida ko‘rsatib berish lozimligi ta‘kidlanmoqda.

Zamonaviy tarix fani metodologiyasida diaxron uslub borasida quyidagi jihatlar asosiy o‘rin tutadi. Ya’ni, tarixiy tadrijiylik asosida tadqiqotning amalga oshirilishi, tarixiy voqealarning ketma-ket, bosqichma-bosqich rivojlanishi bo‘yicha tadqiqot amalga oshiriladi.

Vaqt bo‘yicha jarayonlarning eng ahamiyatlari xususiyatlari, yangi bosqichlarning, davrlarning shakllanish holatlari aniqlanib, jarayonlarning boshlanish davridagi va yakuniy davridagi holatlari solishtirilib, taqqoslanadi, taraqqiyot va rivojlanishning umumiy yo‘nalishlari aniqlanadi.

Beruniy asarida quyidagi so‘zlarni o‘qish mumkin: «Meni imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o‘quvchi fahm laydigan, [turli] kitoblarni axarish va u kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qoldirmaydigan [bir asar yozishga] da’vat etdi. Bu ishning [yetishish] qiyin va olinadigan [manbai] uzoq ekanini va uni yaxshi bilgan odam qalbida shubha qolmaydigan aniq fanlar qatoriga qo‘ymoqchi bo‘lgan kishiga bo‘ysunmasligini bildim»¹.

Tarixni davrlashtirishdagi an‘anaviy bo‘lgan «davr», «asr», «yuz yillik» kabi tushunchalar qadimgi Yunonistonda shakllangan.

Tarixni davrlashtirishni interpretatsiyalash metodi va hattoki, tarixiy jarayonlar va voqealarni tushunish va anglash deb ham nomlash mumkin. Tarixni o‘lchash – bu shunchaki mexanik tarzdagi xatti-harakat emas, balki tarixiy hodisalarning tarkibiy qismlarini chuqur tarzda tushuntirib berishga olib boruvchi o‘ziga xos tarzdagi ilmiy tadqiqot deb ham qarash mumkin².

¹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Hindiston. – T.: Fan. 1968. 40-b.

² Лаптева М.П. Теория и методология истории: курс лекций / М.П. Лаптева; Перм. гос. ун-т. – Пермь, 2006. С.182-183

Davrلarning ahamiyatga molik jihatlarini aniqlash uchun davrlashtirish mezonlarini aniq va ravshan belgilab olish va bunda albatta jarayonning sodir bo'lishidagi obyektiv sharoitlar va jarayonning o'zini inobatga olish zarur. Davrlashtirishning bir mezonini boshqa bir mezon bilan almashtirish mumkin emas. Ayrim hollarda u yoki bu voqeа va jarayon yoki bosqichning boshlanish sanasini aniq ko'rsatish imkonsiz bo'lib qoladi, chunki jamiyatdagi barcha jarayonlarning chegaralari harakatlanuvchi va ayni vaqtida shartli holda belgilangandir. Bu tadqiqot jarayonida barcha jarayonlar va voqealarning turli xususiyatlarga egaligi, bir taxlitda sodir bo'lmasligi va vaqt nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ularni aniq bir «qolip»ga solib chegaralab qo'yish maqsadga muvofiq emas va tarixchi tadqiqot jarayonida bu jihatlarni albatta inobatga olishi zarurdir. Qachonki bir nechta tizim va mezonlar mavjud bo'lib, ular tadqiqotga jalb etilsa, tarixiy bilish jarayonining ko'lami va mazmunan boyligi ham ortib boradi.

«Meni imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o'quvchi fahmlaydigan, [turli] kitoblarni axarish va u kitob egalarini surish-tirishga ehtiyoj qoldirmaydigan [bir asar yozishga] da'vat etdi...»¹.

Beruniy o'z oldiga qo'yayotgan maqsadining qanchalik murakkab ekanligini juda yaxshi anglagan holda asosiy e'tiborni qiyosiy taqqoslash uslubi yordamida yozilishi kerak bo'lgan, ya'ni amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadqiqotning ilmiyligini ta'minlash va xulosalarning obyektiv ravishda asoslاب berilishiga qaratmoqda. Bu holat zamonaviy tarix fani ilmiy tadqiqotlarida tarixiy jarayonlarning obyektivlik, ilmiy va tarixiylik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilishiga qo'yilayotgan talablar bilan ayanan bir xillik ksb etadi.

«... [butun] kuchimni yig'ib, [bor] imkoniyatimni ishga solib, goh eshitish, goh ko'rish va qiyos qilish orqali bilimim yetgani-cha, u narsalarни bayon etishga bel bog'ladim»².

¹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Hindiston. — T.: Fan. 1968. 40-b.

² Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Hindiston. — T.: Fan. 1968. 40-b.

Yig‘ilgan manbalarni qiyoslash va solishtirish, bir-biri bilan taqqoslash orqali tarixiy jarayonni va tarixiy hodisani tavsiflab berish yoki talqin mumkinligini shu tariqa ko‘rsatmoqda. Zamnaviy tarix fani metodologiyasida tarixiy taqqoslash uslubi quyidagi sharhlanadi:

Tarixiy jarayon tafsilotlari aniq va ravshan bo‘lmasganda uning mohiyatini ochishga, shuningdek, umumiylilikni, qonuniylilikni, takrorlanuvchanlikni aniqlash hamda umumlashtirishga va tarixiy parallellikni yuzaga chiqarish uchun qo‘llaniladi¹.

Taqqoslash uslubi dastlab ma’rifatparvarlar tomonidan qo‘llanilgan. F.Volter birinchilardan bo‘lib o‘zi tomonidan yaratilgan tarixiy kitoblarida taqqoslash uslubini qo‘llagan, biroq bunda bu uslub tarixiy uslubga nisbatan ko‘proq vosita sifatida qo‘llanilgan. XIX asr oxirlariga kelib bu uslub tarixiy tadqiqotlarda, ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy tarix sohalarida ancha keng o‘rin tuta boshlandi. Ikkinchisi jahon urushidan keyingi yillarda ayniqsa komparativ uslub keng qo‘llanila boshlandi. Amalda biron ta ham tadqiqot bu uslublarni qo‘llamasdan amalga oshirilmaydigan bo‘ldi.

Bundan ko‘rish mumkinki, zamnaviy tarix fani tadqiqotlari-da muhim o‘rin egallagan tarixiy taqqoslash uslubining fanda keng qo‘llanishi lozimligi tushunchasi XX asrga kelib to‘laqonli shakllandi. Aslida bu uslubning qo‘llanishi va qo‘llashning ahamiyati, shuningdek, uslubning amalda qo‘llanganligini yanada chuqraroq aniqlashtirishga harakat qiladigan bo‘lsak, uning amaliyotini X asrda Abu Rayhon Beruniy tomonidan «Hindiston» va «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlarining yaratilishi jarayonida qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan, bugungi tarix fani tadqiqot uslublarining shakllanishiga X asrdayoq ilmiy jihatdan asoslanib berilgan va ayni vaqtida amalda ham qo‘llanilgan.

Aytish kerakki, tadqiqotchi sifatida Beruniy olingan bilimni tajriba bilan tekshirib ko‘rishni ta’kidlab o‘tgan: tadqiqot jarayo-

¹ Qarang: Ilhomov Z. Tarix fani metodologiyasi. Tadqiqot uslublari va terminlarining izohli lug‘ati. – T.: 2013.

nida yuzaga kelgan shubhani «tajriba va takroriy sinov bartaraf etishi mumkin» («Minerologiya»), boshqa asarida «kuzatuvchidan e'tiborli bo'lish talab etiladi, o'z tadqiqotlarining natijalarini diqqat bilan qayta ko'rib chiqishi va ayni vaqtida o'zini qayta tekshirishi» kerakligini ko'rsatib o'tadi («Geodeziya»)¹.

Daliliy materiallarni, ma'lumotlarni yig'ish, dalillarni tizimlashtirish va tahlil qilish jarayonida tarixchi ko'pgina jarayonlarning mazmunidagi o'xshashlikni, biroq ayni vaqtida jarayonlarning zamon va makon bo'yicha turliligi, bir-biridan farqlanishi omillari sababli turlilik kasb etishini va yana ayni vaqtida shaklan umumiylilikni ko'rishi mumkin. Mazkur uslubning bilish jarayonidagi mohiyati uning tarixiy jarayonlarning mohiyatini tushuntirib berish uchun yo'naltiradigan imkoniyatlaridadir. Jarayonning mohiyatini anglash va tushunish uchun uning o'xshashlik va farqlanuvchi xususiyatlarini tushunish kerak. Bu uslubning mantiqiy asosini analogiya tashkil etib, tadqiqot obyektidagi biror-bir o'xshashlik asosida jarayonning boshqa jihatlari haqida ham xulosalar chiqarilishi mumkin.

Tarixiy taqqoslash uslubi tarixiy jarayon tafsilotlari aniq va ravshan bo'limganda uning mohiyatini ochishga, shuningdek, umumiylilikni, qonuniylilikni, takrorlanuvchanlikni aniqlash hamda umumlashtirishga va tarixiy parallelilikni yuzaga chiqarish uchun imkon beradi. Bunda albatta bir qator talablarga rioya etishga to'g'ri keladi. Jumladan, avvalo taqqoslash tarixiy jarayonning shaklan o'xshash jihatlarini emas, balki mohiyatini aks etiruvchi aniq va konkret dalillar (faktlar) bilan amalga oshirilishi lozim, ikkinchidan, hodisalar va jarayonlarning tipologiyasi va davrini yaxshi bilish va tushunish lozim. Taraqqiyotning bir bosqichida yoki turli bosqichlarida bo'lgan bir xil va turli xil hodisalarni taqqoslash mumkin. Bir holatda mohiyat o'xshashlik asosida ochiladigan bo'lsa, boshqa holatda turlilik asosida aniqlanishi

¹ Фролова Е.А. История арабо-мусульманской философии. Средние в.а и современность: Учебное пособие. — М., 2006. С. 114.

mumkin. Biroq ayni vaqtida tarixchidan tarixiylik tamoyilini unutib qo'ymaslik talab etiladi.

Tarixiy taqqoslash uslubini qo'llashda bir qator chekhanish-larga duch kelish mumkin. Bu uslub real vogelikning turliligi ni tushunishga imkon bersada, konkret shakldagi xususiyatini ko'rsatib berolmaydi. Shuningdek, tarixiy taraqqiyot sur'atining tadqiqida ham tarixiy taqqoslash uslubidan foydalanish maqsad-ga muvofiq emas. Mazkur uslubning rasman (shunchaki qo'llash, qo'llanishi «kerak» bo'lganligi uchun qo'llash) qo'llanilishi xatoliklarga olib kelishi, ko'pgina tarixiy hodisalar mohiyatining noto'g'ri talqiniga va tavsiflanishiga olib kelishi mumkin. Tarixiy taqqoslash uslubidan boshqa tadqiqot uslublari bilan birgalikda foydalanish mumkin. Afsuski, tarixchilar tomonidan tarixiy taqqoslash uslubi ko'p hollarda analogiya va solishtirish bilangina qo'llaniladi, u tadqiqotlar jarayonida to'liq yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan jihatlarini inobatga olgan holda kamdan kam qo'llaniladi.

«...so'z va e'tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi. Ana shu aytib o'tganim haqiqiy maqsadga yetkazuvchi eng yaxshi yo'l va bunga dog' tushuruvchi shak-shubhani yuvib tashlash uchun eng kuchli yordamchidir»¹.

Bunda Beruniy mavjud axborotni yoki dalillarni bir-biriga solishtirish orqali, ya'ni tarixiy taqqoslash usuli yordamida aniq natijaga erishi mumkinligini, bunda asosiy masala turli manbalarda uchragan axborotning turlichaligi va ulardagi bir-biridan farqlanuvchi jihatlari, ixtiologlarni imkon qadar kamaytirish va tadqiqot oldiga qo'yilgan aniq maqsadga yo'naltirilgan eng ishonchli ma'lumotlarni yoki dalillarni ajratib olish lozimligigi ko'rsatib o'tmoqda. Bu so'zlardan ko'rish mumkinki, zamonaviy tarix fani tadqiqotlarining eng asosiy uslublaridan biri – tarixiy taqqoslash uslubining asosiy mohiyati X asrdayoq Abu Rayhon Beruniy tomonidan ko'rsatib berilgan va keyingi o'n asr davomida tarix tadqiqotlarida, tarixnavislikda qo'llanilib kelingan.

¹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Hindiston. – T.: Fan. 1968. 40-b.

TARIXIY ONG, TARIXIY XOTIRA VA TARIXIY MEROS

Xotira. Tarixiy xotira. Tarixiy ong – o'tmish haqidagi xotira. Tarixiy ong yoki jamiyatning umumiy xotirasi. Tarixiy ongni shakllantiruvchi omillar. Xalq xotirasi.

Tarix o'tmish haqida ma'lumot to'plovchi va saqlovchi xususiyatlarga ega bo'lgan va uni anglash jarayoni bo'lib, ajdodlar, inson va insoniyatning tarixiy tajribasi haqida mushohada yuritishni aks ettiruvchi ijtimoiy xotiradir.

Zamonaviy ijtimoiy fanlar sohasida tarixiy xotira tushunchasi va tamoyiliga talab kuchayib bormoqda. Tarixiy xotira masalasiga nafaqat tarixchilar, balki sotsiologlar, madaniyatshunoslar, yozuvchilar va boshqa soha vakillari ham katta e'tibor qaratmoqdalar va unga murojaat qilmoqdalar. Zamonaviy tarix fanida tarixiy xotira alohida mavjud tamoyil emas, balki fanlararo yondashuv asosida shakllanib borayotgan alohida maxsus fan sohasiga aylanib bormoqda. Tarixiy xotira nazariyasi faol tarzda rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, tarix darslarining o'qitilishi jarayonida tarixiy xotira tushunchasining amalda qo'llanilishiga katta urg'u berilmoque.

Tarixiy xotira nafaqat o'tmish haqidagi tushunchalardir, balki insonning o'z-o'zini anglashi jarayonidagi asosiy omildir.

Xotira inson uchun xos bo'lgan yuksak xususiyatlardan biri bo'lib, o'z o'tmishiga (ajdodlar o'tmishiga) mushohadaviy yondashish va xulosalar chiqarish orqali o'zlikni anglash va aniqlashning asosiy omilidir.

Xotirasidan mahrum bo'lgan inson o'zini va o'zligini anglash imkoniyatidan ham mahrum bo'ladi.

Xotira abstrakt bilishdan farqlangan holda, bu bilim inson tomonidan kechirilgan va his qilingan bilim bo'lib, u insonning hayotiy tajribasi hisoblanadi¹.

¹ Репина Л.П. История исторического знания: пособие для вузов. 2-е изд., – М.: Дрофа, 2006. С. 10–1.

Tarixiy xotira – jamiyatning tarixiy tajribasini saqlash va musho-hada qilish bo‘lib, u umumiy xotira sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid ayrim adabiyotlarda tarixiy ong yoki jamiyatning umumiy xotirasi inson (insonlarning) xotirasining (xotiralari-ning) turli va bir-biridan farqlangani kabi ular ham turlicha bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilib, tarixiy ongning shakllantirilishi uchun qu-yidagi uch omil bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi:

- o‘tmishning unutib yuborilganligi;
- ayni bir voqeа (fakt, jarayon, hodisa)ning turlicha talqin qilinishi va uslublarining mavjudligi;
- hozirgi kunda o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealarga bo‘lgan qiziqish va uni o‘rganishning bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etishi¹.

Aksariyat hollarda tarix va tarixiy xotira tushunchalari birdek qabul qilinadi va tushuniladi, aslida esa bunday emas va aksincha, ayrim hollarda olimlar tomonidan bu tushunchalar bir-biridan alohida o‘rganiladi. Tarixni o‘rganish o‘tmishni aks ettirish xususiyatiga ko‘ra birmuncha aniq yo‘naltirilgan holda tadqiq etiladigan bo‘lsa, o‘tmish haqida og‘zaki axborotlarning bugungi kunlargacha yetib kelishi afsonalar va rivoyatlar mazmunida kelishi mumkin².

Tarix va tarixiy xotira o‘rtasidagi farqlardan yana biri o‘tmishni anglash imkoniyatlarining interpretatsiyalash jarayonidir.

Intellektual tarix sohasidagi eng muhim jarayonlardan biri sifatida tarixiy ong tushunchasini ta’kidlab o‘tish lozim. Tarixiy ongning dinamik holati uning professional-elitar va kundalilik-ommaviy kabi ikki darajasida namoyon bo‘ladi³.

Tarixiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida tarixiy voqelik hodisalari, jarayonlarini aks ettiruvchi bilimlar yig‘indisidangina

¹ История исторического знания. С. 10–11.

² Tarixiy xotiraga berilgan ta’riflardan biri aynan o‘tmish haqidagi ma’lumotlarning afsonalar va rivoyatlar ko‘rinishida avloddan-avlodga o‘tib borishi, deb ko‘rsatiladi. Tarixiy xotira masalasi bilan XX asrda fransuz tadqiqotchilari Moris Xalvaks va Pyer Noralar shug‘ullanganlar.

³ История исторического знания. С. 215.

iborat deb tushunish ilmiy haqiqatga to‘la mos kelmaydi. Tarixiy ong ana shu voqealar, jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hamda bu bog‘liqlikning hozirgi tarix va kelajak tarixga ta’sirini ham aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan tarixning tub burilish pallalarida, ayniqsa millat, xalqning mustaqillik, istiqlolga erishgan davrlarida tarixiy ongning yangilangan mazmun-mohiyatini anglash va uni shu davr talablari asosida tarbiyalash ehtiyojlari oshadi.

Tarixiy ong moddiy va ma’naviy madaniyat, ularning taraqqiyot qonunlarini, jumladan ma’naviy merosimizning vorislik, tarixiy davomiylik qonunini aks ettiruvchi ong shakllaridan biridir.

Tarixiy ongning nazariy darajasi tarixiy taraqqiyotning eng umumiyligi va xususiy qonuniyatlarini, jumladan madaniy, ma’naviy hayot rivojlanishi qonuniyatlarini, xalqimizning o‘tmish, hozirgi tarixga taalluqli ilmiy tushunchalar, kategoriylar bilan tarixiy voqealari, hodisa, jarayonlarning dialektik aloqadorliklarini aks ettiradi.

Tarixiy ong – o‘tmish haqidagi xotira va ayni vaqtida unga bo‘lgan qiziqishni anglatadi. Ayni vaqtida o‘tmishga bo‘lgan munosabatning o‘zi va unga taalluqli bo‘lgan turli-tuman axborotlarning o‘zlashtirilishi tarixiy ong va tarixni tushunishning turli talqinlari mavjudligini ko‘rsatadi. Ularni bir-biridan farqlashning ikki omili mavjud:

- o‘tmishga bo‘lgan munosabatdagi miqdoriy va emotsiyonal mutanosibliklikning turlichaligi;
- alohida tarixiy dalillar asosida tiklangan tarixiy tasavvurning haqqoniyligi darajasi¹.

Tarix eng avvalo jamiyatning o‘zligini anglash va identifikatsiyalash omilidir. Tarix turli shakllarda, ya’ni affsonalar, rivoyatlar tarzida namoyon bo‘lsada, hamma vaqt mavjud bo‘lgan.

Qadimgi Rim tarixshunosligida tarixiy xotira va tarixiy bilish «Historia magistra vitae» – tarix hayot murabbiyi, ibrat xazinasi kabi tushunchalar bilan izohlangan edi².

¹ История исторического знания. С. 18.

² Смоленский Н.И. Теория и методология истории. С. 33.

Tatsit (55–120-yy.) esa – «Men annallarning eng asosiy vazifasi sifatida eng yaxshi fazilatlarning yuzaga kelishi va ular haqidagi xotiralarning saqlanishi hamda ularning avlodlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday illatlarga qarshi qo‘yilishi deb hisoblayman», – degan so‘zlarni yozib qoldirgan edi. Tatsiting fikricha o‘tmish haqidagi haqiqat kelajakdagi yaxshi fazilatlarga o‘rgatadi¹.

Tarix fanining ijtimoiy funksiyalari haqida zamonaviy qarashlarning mohiyati qanday? Tarix saboqlari nima va uni qanday anglash mumkin?

Eng avvalo aytish kerakki, tarix «hayot murabbiyi» sifatida o‘rgatadi, biroq bu o‘rganuvchi uchun majburiy xususiyatga ega emas va tarix bunga majburlamaydi ham. Biroq, kimda-kim tarixdan o‘rganmasa va undan xulosa chiqarmasa, vaqt kelib u xato qilganini anglashi mumkin.

Tarixdan saboq olish o‘tmishga bog‘liq emas, balki konkret tarixiy vaziyat va tarixiy sharoitning ehtiyojlariga bog‘liqdir. Bunda o‘tmishda sodir bo‘lgan va undan tarixiy saboq sifatida xulosalar chiqarilishi mumkin bo‘lgan va ayni vaqtdagi tarixiy holatdagi voqelikning umumiy o‘xhash xususiyatlari katta ahamiyatga ega. G.V.Gegelning aytishicha, agar umumiy mutanosiblik mavjud bo‘lmasa, o‘tmishga suyanish uchun asos bo‘lmaydi².

Insoniyatning butun o‘tmishi xush-noxush xotiralardan, kelajak avlodlar yo‘lini yorituvchi, adolatli yo‘llarga boshlovchi saboqlardan iborat. Ular yillar o‘tgani sari mazmun-mohiyatiga ko‘ra ezgulik va taraqqiyotga, tinchlik-totuvlikka xizmat qiluvchi muhim xulosalarga aylanadi. Millatning kelagini, jamiyatning taraqqiyotga yuz burishi, ma’naviy-axloqiy darajasi, xalq turmush tarzining farovonlashuvi, orzu-umidlarning ro‘yobga chiqishi mana shu saboq va xulosalarni anglash va ularga og‘ishmay amal qilishga bog‘liq.

¹ Тацит. Анналы. – Л.1969. – III, 65.

² Смоленский Н.И. Теория и методология истории. С. 34.

Xotira faqat insonlarga xos bo'lib, jamiyat har bir a'zosining o'tmishdan, voqeа-hodisalardan xabardorligi, o'z ajdodlarining yuksak insoniy fazilatlari, ezgu amallari, kelajak nasllarga qoldirgan ma'naviy-ma'rifiy merosidan bahramandligi alal-oqibat milliy xotira va qadriyatga, jamiyatning ma'naviy poydevoriga aylanadi. Xotiraning uyg'oqligi deganda, eng avvalo, shu poydevorni, uning nechog'li mustahkamligini tushunmoq kerak.

Tarixiy ongning eng asosiy xususiyatlaridan biri — shaxsda moziy sarvaraqlari va xalqning ma'naviy merosidagi komil inson qiyofasini anglatadi, o'z subyekti (tarixiy ong egasi)da komillikka intilish tuyg'usini uyg'otadi. Insondagi barkamollik mezonlari u yoki bu tarixiy shaxs, buyuk allomalar, mutafakkirlar faoliyatini, ularning aqliy, axloqiy jihatlarini bilish orqali o'rganuvchining dunyoqarashi, ongida yaxlit holda o'z aksini topadi. Bunday mezonlar ilmiy-amaliy ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida tarixiy ong yaqqol namoyon bo'laadi. Ijtimoiy amaliyotni o'rganish jarayonida inson o'z-o'zini anglaydi, shunday sifatda o'z ijtimoiy hayotining xilma-xilligini, uning munosabat va aloqalarini har tomonlama anglashga harakat qiladi.

«Tarix» tushunchasining turli ma'nolarda qo'llaniladi. Tarix — bu eng avvalo insoniyatning real o'tmishi, ajdodlar tajribasidir. Inson tarixning subyekti bo'lish bilan birga uning «ijodkori»dir. Inson jamiyatda sodir bo'lib o'tgan va sodir bo'layotgan barcha jarayonlarning faol va bevosita ishtirokchisidir. Inson faoliyati obyektiv tarixiy jarayonlarining mazmunini tashkil qiladi¹.

Inson ijtimoiy mayjudot sifatida jamiyat to'g'risidagi o'z bilimlarida faqatgina obyektiv hodisa, voqeа, yakka faoliyat va ijtimoiy jarayonlarinigina belgilab qolmasdan, balki bu hodisalarga o'zining bahosini beradi.

O'zbekistonda tarixiy ong, tarixiy xotirani shakllantirish milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, umuminsoniy qadriyatlар ustuvorligi tamoyillarini hisobga olgan holda olib borilmoqda.

¹ Историческое познание сегодня. <http://istoriya-s-drevneyshih-vremyon>.

Mustaqillikning dastlabki qadamlaridan boshlaboq xalqimizning asrlar davomida bosib o'tgan shonli tarixini, ozodlik uchun olib borgan tengsiz kurashlarini, milliy-ozodlik harakatlariniadolat tarozisiga qo'yib o'rganish, ulug' bobokalonlarimiz nomini tiklash, yosh avlodni ular bilan faxrlanish, tomirlarida oqayotgan muqaddas qonni his etish, alloma ajdodlarga munosib vorislar bo'lisch, buyuk yaratuvchanlik ishlarini davom ettirish ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov o'zining bir qator asarlarida ularning mohiyati haqida ko'plab marotaba to'xtalib o'tganki, xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniy merosi, urf-odat va an'analarini asrab-avaylash va rivojlantirish, mustabid tuzum davrida taqiqlab qo'yilgan Navro'z bayrami, Ramazon va Qurban hayitlarini nishonlash, dinga hurmat bilan munosabatda bo'lishni qaror toptirish, Imom Buxoriy, Imom Termizi, Bahouddin Naqshband va boshqa aziz-avliyolarimiz, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur singari ulug' ajdodlarimiz xotirasiga nisbatan tarixiyadolatni tiklash haqidagi fikr-mulohazalar, qaror va farmonlar shular jumlasidandir¹.

I.A.Karimovning o'zbek xalqi tarixi va davlatchiligi, madaniyati va ma'nnaviyati, ma'nnaviy merosining chuqur bilimdoni ekanligini mashhur adib Ch.Aytmatov quyidagicha ta'riflagan edi: «Bu zot o'z xalqining, o'z davlatining tarixini teran biladigan, madaniyat va san'atning turli tarmoqlari bo'yicha chuqur tasavvurga ega bo'lgan tom ma'nodagi davlat arbobi ekan»².

¹ Qarang: Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998; Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'nnaviyat, 2008; O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.

² Aytmatov Ch., Shoxonov M. Qoyada qolgan ko'z yoshlar. / Hokimiyat va ma'nnaviyat yoki podshohlar, xonlar, qirollar, prezidentlar faoliyatiga bir nazar. – «Jahon adabiyoti» jurnali, 1997-yil, №1. 7-56-bb. Qarang: O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishi ostonasida» kitobini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2012. 105-b.

«Mening nazarimda, avvalambor Yaratganimizning o‘zi har bir mavjudotga jasorat ko‘rsatish imkonini beradi va ong-tafakkur sohibi bo‘lgan insonlar bundan ibrat olib yashaydi»¹.

Ijtimoiy taraqqiyotda tarixiy ong insonning tarixiy o‘rnini isbotlashga urinadi. Kishilarning ijtimoiy ongida o‘zлari yashab turgan jamiyatning milliy iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy munosabatlari o‘z aksini topadi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir: «Hech shubhasiz, yurtimizda erkin, adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o‘ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma’no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas. Binobarin, bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik prinsiplar mohiyatiga, o‘z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyatni talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor»².

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.Karimovning «tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda» degan iborrasidan, hozirda, shu kunlarda milliy qadriyatlarini, milliy iftixorni, milliy o‘zlikni anglashda tarixiy ongning vositachi sifatidagi o‘rni naqadar muhimligini payqash mumkin. «Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniylari xini tiklash milliy o‘zlikni anglash, ta’bir joiz bo‘lsa milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi».

Milliy ma’naviyat va tarixiy ong masalalarida so‘z yuritib, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi:

¹ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 75-b.

² Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 58–59-bb.

«Agarki mendan, hozirgi kunda ma’naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo‘yish kerak, deb so‘rasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o‘zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimizning merosi ni chuqurroq o‘zlashtirishi, bugungi tez o‘zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyormizdagи barcha o‘zgarishlarga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashi zarur, deb javob bergen bo‘lardim.

Ishonchim komilki, ana shunday noyob insoniy fazilatlarga, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan xalq hech kimga hech qachon qaram bo‘lmaydi, o‘zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi»¹.

Tarix va tarixiy xotira haqida «Tarix falsafasining nazariy asoslari» kitobidan quyidagi fikrni o‘qish mumkin:

«Aslini olganda, tarix faqat o‘tmish haqidagi ma’lumotlar yoki xotiralar ham emas. Uning buyuk qudrati, tarbiyaviy kuchi, murabbiylik mohiyati o‘tmishni o‘rganish, tadqiq etish orqali bugungi baholash, bugunni anglash, bugungi odamlarni tushunish va ularni yo‘naltirish borasidagi fikrlarni, g‘oyalarni o‘zida mujassam etganida!»²

Tarixiy ong tushunchasi faqatgina fanning muammolaridan birigina bo‘lib qolmasdan, har qanday jamiyat hayotidagi eng muhim va zarur masalalardan biri hisoblanadi. Har qanday jamiyat barqarorligining, ayniqsa ma’naviy yuksakligining eng muhim omillari qatorida mustahkam ko‘rinishdagi tarixiy ong tushunchasi ham turadi.

O‘zbekistonda tarixiy ong, xotirani shakllantirish milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyillarini hisobga olgan holda olib borilmoqda. Tarixiy ongni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Dunyo tajribasida bu noyob hodisa.

¹ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch 9-b.

² Tarix falsafasining nazariy asoslari. 24-b.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so‘zlari muhim ahamiyat kasb etadi:

«Xo‘s, tarixning ma’naviyatimizda tutgan o‘rnı qanday? Tarixni yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma’naviyatga erishish mumkinmi? Albatta, mumkin emas! Ma’naviyatini tiklashi, tug‘ilib o‘sigan yurtida o‘zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko‘tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak. Har qaysi inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo‘lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni o‘ziga berishi tabiiy»¹.

Xotira insonning dunyoni anglash, turli davrlar va sivilizatsiyalar hayotining ko‘plab jihatlarini bilish va anglash, tushunishdan tortib o‘zi tushishi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlardagi holatini tushunish va ularga nisbatan munosabatini aniqlashda, axborotni qabul qilish va avvalgilarga nisbatan uni tahlil qilishda, avvalgi odamlarning tajribasidan xulosa chiqarib o‘zining keljakdagisi faoliyatini izga solish kabi ko‘plab holatlarda va inson faoliyati bilan bog‘liq vaziyatlarda insonning ilmiy bilishini ta’minlashda katta o‘rin tutadi.

«Movarounnahr sarhadlariga uzoq tariximiz davomida ne-ne bosqinchilar kirib kelmagan, ko‘p yillar, balki, asrlar davomida yurtimizda ne-ne o‘zga sulolalar hukmronlik qilmagan, deysiz. Bir so‘z bilan aytganda, ming yillar davomida yurtimizga kelib-ketganlar ozmi? Erondan Axmoniyalar, Yunonistondan Aleksandr keldi, Arabistondan Qutayba, Mo‘g‘ulistonidan Chingizzon keldi, rus istilochilari keldi. Lekin xalq qoldi-ku. Xo‘s, bunda qanday sir-sinoat bor? Xalq qanday ichki kuch-qudratga tayanib o‘zligini saqlab qoldi? Qadim-qadim zamonlardan o‘troq yashagani, ilm-ma’rifatga intilgani, buyuk madaniyatga ega bo‘lgani, o‘z urf-odatlarini muqaddas bilgani uchun emasmi?»².

¹ Tarixiy xotirasiz keljak yo‘q. 8–9-bb.

² Tarixiy xotirasiz keljak yo‘q. 16–17-bb.

Har bir millat o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tadi. Bu yo‘lda turli holat va hodisotlarga duch keladi, ularni tahlil qilib, sabab-oqibatini anglab olg‘a intiladi, xato-kamchiliklarni takrormaslik tadorigini ko‘radi. Binobarin, ulug‘ ajdodlarni unutmaslik, ularning ma’naviy-axloqiy merosidan bahramandlik el-yurtni balo-qazolardan asraydi, yo‘lini chiroq yanglig‘ yoritib turadi, ezgu amallar sari undaydi. O‘tmish xotirasidan, milliy va diniy qadriyatlaridan, necha ming yillar davomida shakllangan, odamlarning qon-qoniga singib ketgan urf-odatlardan judo qilin-gan xalq tanazzulga yuz tutadi, jamiyat rivojlanishdan to‘xtaydi.

Tarixiy xotira haqida so‘z yuritar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quydagilarni ta’kidlaydi:

«Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o‘z maqsad muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yantuqlari asosida rivojlantirib, ma’naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, tarixiy xotira tuyg‘usi to’laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o‘tgan yo‘l o‘zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo‘qotish va qurbanlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o‘rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo‘ladi»¹.

Insoniyat tarixi bu har birimizga bog‘liq bo‘lgan, o‘zligimizni ko‘rsatadigan, bizning olis shajarimizni, naslu nasabimizni, insoniy qadru qimmatimizni belgilaydigan, muqaddas va mo‘tabar voqelik. Biz uni shunday tushunishimiz va shunday qabul qilishimiz kerak. Agar o‘tmishimizga shunday munosabatda bo‘lsak, ana shu yuksaklikdan turib unga qarasakkina, tarix ayni tafakkur mahsuliga aylangan taqdirdagina bizni ma’naviy jihatdan boyitishi, ruhiyatimizga qudrat baxsh etishi mumkin bo‘ladi².

Sobiq tuzum davrida milliy respublikalarning tarixi qasddan soxtalashtirildi, dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo‘shtigan

¹ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 45-b.

² Tarix falsafasining nazariy asoslari. 25-b.

buyuk ajdodlarimizning nomi qoralandi, milliy madaniyatlar, urf-odatlar, ma’naviy-axloqiy hamda diniy qadriyatlar oyoqosti qilindi.

«Bularning barchasi zamirida sovet mafkurasiga xos bo‘lgan, odamzotni tarixiy xotira, Vatan tuyg‘usidan judo qilishga qaratilgan g‘arazli intilishlar mujassam ekanini anglash, tushunish qiyin emas»¹.

Vatan tarixidan bexabarlik va uni bilmaslik milliy urf-odatlar va qadriyatlardan uzoqlashish oqibatida jamiyatimizda avlodning ayrim vakillari shakllandiki, ularda milliy ong, milliy g‘urur barham topa boshladi, istiqlol tafakkuri, milliy o‘zlik tushunchasi so‘na boshladi. Ularning ongida Vatan taqdiriga, O‘zbek millati taqdiriga, ona tilimiz, dinimiz, madaniyatimiz va tariximiz taqdiriga befarqlik munosabati qaror topdi.

«Marksistik nazariya metodologiyasiga asoslangan va kommunistik mafkura bilan tish-tirnog‘igacha qurollangan tarixnavislik metodologiyasi butun o‘tmishimizni soxtalashtirib yubordi. Milliy o‘zligimizni unutishga, ajdodlarimizni xotiramizdan o‘chirishga majbur qildi. Faqat o‘z maqsadi va g‘oyalariga mos keladigan jihatlarnigina saqlab qolib, qariyb uch ming yillik tariximizni xaspo‘shab keldi. Tarixiy xotiradan, tarixiy tafakkur dan ayirib qo‘yish oqibatida insonni oliy mavjudot sifatidagi qadriyatini poymol etdi»².

Mustaqillikning dastlabki qadamlaridan boshlaboq xalqimizning asrlar davomida bosib o‘tgan shonli tarixini, ozodlik uchun olib borgan tengsiz kurashlarini, milliy-ozodlik harakatlariniadolat tarozisiga qo‘yib o‘rganish, ulug‘ bobokalonlarimiz nomini tiklash, yosh avlodni ular bilan faxlanish, tomirlarida oqayotgan muqaddas qonni his etish, alloma-ajdodlarga munosib vorislar bo‘lish, buyuk yaratuvchanlik ishlarini davom ettirish ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor berila boshlandi.

¹ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 43-b.

² Tarix falsafasining nazariy asoslari. 2008. 30-b.

«Kimgadir voris bo‘lish kerak bo‘lsa, biz Beruniylarga, Buxoriylarga, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Boburlarga voris bo‘lamiz. O‘zbekning fe’l-atvori barchaga ayon. U yerni, tabiatni sevadi. Do‘ppisida suv tashib bo‘lsa ham, daraxt ko‘kartiradi. O‘zbek tom ma’noda bunyodkordir»¹.

Bugungi kunda har birimiz yuksak g‘urur va iftixor bilan anglashimiz lozimki, tarixan qisqa davr davlatimiz uchun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy sohalarda, ayniqsa, davlat va jamiyat qurilishi borasida har tomonlama rivojlanish va yuksalish davri bo‘ldi.

Xalq xotirasi deganda kishi ko‘z o‘ngidan Vatan ibtidosidan buguniga qadar shu yurt, shu xalq deb kurashgan, kuch-qudrati, aql-zakovatini ayamagan, kerak bo‘lsa, shu yo‘lda jon fido qilgan ne-ne buyuk zotlar bir-bir o‘tadi.

Xalqimiz tarixiy taraqqiyoti jarayonlaridagi eng asosiy jihatlardan yana biri hamjihatlikda yashash, bir-biriga mehr-oqibat ko‘rsatish, ma’naviy va ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, og‘ir damlarida har tomonlama yelkadosh va madadkor bo‘lish, jamoaga, uning talablariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni e’tirof etib o‘tish mumkin. Bu jihatni nafaqat bir jamoa atrofida, balki tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida turlicha xo‘jalik yuritgan vodiylari va vohalar aholisi, o‘troq va ko‘chmanchi aholi, qo‘yingki, bir xalq va qardosh xalqlar ko‘lamida ham alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

«Bizning ajdodlarimiz, xalqimiz qadim-qadimdan o‘troq yashagan, millatimizning iligi o‘troq madaniyat sharoitida qotgan. Xalqimizdagi «iligi to‘q, baquvvat» degan tushuncha, men, hatto, qonuniyat degan bo‘lardim, bejiz paydo bo‘lmagan. O‘zbek xalqining iligi to‘q, baquvvat demoqchiman. Yana tilimizda «taglli-tugli», «palagi toza» degan iboralar ham bor. Bu bir joyda muqim yashagan, o‘z turmush tarziga, axloq-odob mezonlariга, aqidalari va tafakkur tarziga ega bo‘lgan xonadonlarga nisba-

¹ Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. 16-b.

tan aytildi. Butun ommani, bir necha yuz minglab, millionlab aholini birlashtirgan aqidalarga, mezon va qoidalarga ega bo‘lgan xalqni qanday izohlash, ta’riflash mumkin?! Ana shu hayotiy va ijtimoiy mantiqdan kelib chiqsak, ta’rif va izoh bitta bo‘ladi – milliy borlig‘imiz, madaniyatimiz ildizi, tomiri o‘troq bo‘lgan.

Masalaga boshqa tomondan yondashib ko‘raylik. Bugungi boy madaniyatimiz qaysi sivilizatsiyaning mahsuli? Shunday madaniyat bor ekan, uni shu zaminda yashagan xalq yaratganmi yoki u bo‘m-bo‘sh joyda paydo bo‘lganmi?

Demoqchimanki, tariximiz kabi, qadim madaniyatimizning yaratilishida ham unga ko‘plab etnik guruhlar, el-elatlar o‘z ulushini qo‘shegan. Bu – tabiiy hol. Chunki, hech qachon, hech qayerda faqat bitta millatga mansub madaniyat bo‘lmaydi. Har qanday sivilizatsiya ko‘pdan ko‘p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta’sirining mahsulidir. Bir so‘z bilan aytganda, ko‘chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq bo‘qiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi»¹.

Xotira va qadrlash insonning ezgu va muqaddas fazilatidir. Bu fazilat hayotimizning ko‘rki hisoblanadi. Ulug‘ bobolarimiz, mo‘tabar vatandoshlarimizni xotirlash bilan birga, ularning jassoratli, savobli ishlarini davom ettirish, ularga munosib vorislar bo‘lish inson ma’naviyatining yuksalishi va ayni vaqtda yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. E’tirof etish kerakki, O‘zbekiston o‘tganlar yodi va xotirasiga chuqur hurmat ko‘rsatib xotira va qadrlash fazilatlarini umumxalq miqyosida «Xotira va qadrlash kuni» sifatida nishonlaydigan dunyodagi kam sonli davlatlardan biridir.

Hozir mustaqil yurtimiz hayotining barcha sohalarida tub islohotlar, yangiliklar jadal ro‘y bermoqda. Tarixchi tadqiqotchi ham tadqiqotlarga yangicha ko‘z bilan qarashi, ularning ortidan ergashmasligi, fikrni isloh qila bilishi, tadqiqotda vatanimiz tarixi muammolari ko‘rilayotgan bo‘lsa, milliy g‘oya tamoyillari

¹ Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. 20–21-bb.

nuqtayi nazaridan yondashib, o'zi kashf etgan tarix saboqlarini ko'rsata bilishi kerak. U shunday xolisona ish yozishi kerakki, bu jihatdan uning ilmiy xulosalari asrlar davomida ham ahamiyatini yo'qotmasligi kerak, buning uchun esa tarixiy jarayonlar haqqoniy ko'rsatilishi kerak. Tadqiqotchilar yosh avlodni vatanparvarlikka, ularda milliy g'urur uyg'otishga xizmat qilishi, ajdodlarimizning ishlarini davom ettirishga undashi kerak. Lekin bundan shovinizm, millatchilik, aqidaparastlik kelib chiqmasligi, tadqiqotlar umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida yozilgan bo'lishi kerak, tarixiy tadqiqotlar tom ma'noda istiqlol yalovbardori bo'lishi kerak. Xolisona tadqiqot yoza bilish tadqiqotchining mukammal bilim egasi ekanligi va ma'naviy komilligini ko'rsatadi.

Insoniyatning ming yillardagi tarixi va tarixiy taraqqiyoti jarayonlariga hamda madaniyati va ma'naviy, ilmiy hazinasiga be-baho hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizga, xalqimizning minglab farzandlarining yurt mustaqilligi, taraqqiyoti, tinchligi va osoyishtaligi yo'lidagi faoliyati va ular qoldirgan merosga munosib bo'lish istagi jamiyatimiz a'zolari orasida tarixiy xotira va tarixiy ong sifatida keng yoyilishi, har bir fuqaroning ongidan mustahkam joy olishining ta'minlanishi zamonaviy tarix fanining muhim vazifalaridan biridir. Zero O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Xotirasni bo'lmagan, tarixini unutgan, o'z ajdodlarining qadriga yetmaydigan millatning istiqboli yo'q».

Tayanch tushunchalar: Xotira, tarixiy xotira, tarixiy ong, moddiy va ma'naviy madaniyat, ma'naviy meros, miqdoriy va emotsional, mutanosiblik, tarixiy ong egasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xotira nima?
2. Tarixiy xotira nima?
3. Tarixiy ong qanday tushuncha?

4. Tarixiy ong yoki jamiyatning umumiy xotirasi ekanligini tushuntirib bering.
5. Tarixiy ongni shakllantiruvchi omillarni sharhlab bering.
6. Xalq xotirasi tushunchasi haqidagi tushunchangiz?

Mavzuga aloqador so‘zlarning izohli lug‘ati:

Tarixiy ong va tarix fani tarixiy ong – o‘tmish haqidagi xotira va ayni vaqtida unga bo‘lgan qiziqishni anglatadi. Ayni vaqtida o‘tmishga bo‘lgan munosabatning o‘zi va unga taalluqli bo‘lgan turli-tuman axborotlarning o‘zlashtirilishi tarixiy ong va tarixni tushunishning turli talqinlari mavjudligini ko‘rsatadi. Ularni bir-biridan farqlashning ikki omili mavjud:

- o‘tmishga bo‘lgan munosabatdagi miqdoriy va emotsiyal mutanosibliklikning turliligi;
- alohida tarixiy dallilar asosida tiklangan tarixiy tasavvurning haqqoniyligi darajasi.

Tarix eng avvalo jamiyatning o‘zligini anglash va identifikatsiyalash omilidir. Tarix turli shakllarda, ya’ni affsonalar, rivoyatlar tarzida namoyon bo‘lsada, hamma vaqt mavjud bo‘lgan.

Tarixiy xotira – jamiyatning tarixiy tajribasini saqlash va mushohada qilish bo‘lib, u umumiy xotira sifatida namoyon bo‘ladi. O‘tmish haqidagi ma’lumotlarning afsonalar va rivoyatlar ko‘rinishida avloddan-avlodga o‘tib borishi.

TARIXIY BILISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Tarix fanmi yoki san'atmi? Ijtimoiy va tabiiy fanlar uslublarining o'zaro bog'liqligi. Tadqiqot obyektining o'ziga xosligi. O'tmish haqidagi tasavvur. O'tmish va hozirgi kun. Bilishning retrospektiv xarakteri. Tarixni o'rganishda mafkurani, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyatga ta'sir etgan omillar. Ikki karra subyektlangan bilim. Fikrlar xilma-xilligi. Tarix fanining kompleks xarakterliligi.

Tarixning fan yoki badiiy ijodning bir ko'rinishi ekanligi borasida tarixchilar va faylasuflar o'rtasidagi bahs va munozaralar uzoq vaqt davom etib keldi. Keyingi fikrni asoslashga ko'proq postmodernistlar moyillik bildiradilar. Tarixchilar esa ayrim holdarda ssiyentistlar (tarixni fan deb hisoblovchilar) hamda antissiyentistlar (tarixning ilmiy emasligini isbotlashga harakat qiluvchilar) bilan munozaraga kirishgan holda, odatdagidek tarixiy tadqiqotlarni amalga oshiradilar.

Har ikki qarashning orasida uchinchi bir qarash mavjudki, bunda tarixning fan ekanligi, biroq boshqa tabiiy va aniq fanlardan alohida xususiyatlari bilan ajralib turishi ta'kidlanadi.

Pozitivistlar tabiiy fanlar va gumanitar fanlar metodlari o'rtasida prinsipial farqlar mavjud emas degan qarashdan kelib chiqqan holda o'z qarashlarini ilgari suradilar. Bunda ular sotsiologiya fanini jamiyat qonuniyatlarining muvofiqlashtiruvchi sifatiga alohida urg'u berib, tarix fanini ham «pozitiv» bilim berishga la-yoqatli deb hisobladiilar.

Neokantchilar esa pozitivistlarga qarshi fikr bildirib, tarixning asosiy vazifasi qonuniyatlarni ochish emas, balki tarixni tashkil qiluvchi alohida, individual, takrorlanmas hodisalarini o'rganishni taklif qildilar. Marksistlar esa jamiyatdagi bilish qonuniyatlari g'oyasini ilgari surib, tarixni o'rganishga bo'lgan boshqa qarashlarni soxtalashtirilgan ijtimoiy hodisalarini o'rganish deb hisobladiilar.

XX asr oxirlarida ham tabiiy fanlar tadqiqot usullarining (matematik modellashtirish, tartibsizlik nazariyasi (xaos nazari-

yasi – biror-bir narsa yoki voqeanning turli aralash unsurlardan yoki aralash voqealardan kelib chiqqanligini asoslashgaga harakat qiluvchi nazariya va boshqalar) tarix fani tadqiqotlarida ham qo'llanilishining qanchalik to'g'riliqi va samara berishi haqida bahs va munozaralar davom etib keldi.

K.Yaspersning fikricha, tarix fanining eng muhim savollari dan biri bu – «aslida bu qanday sodir bo'lgan edi?» tarzida emas, balki, «biz aslida qanday holatdamiz (yoki qayerdamiz)?» tarzida, ya'ni, boshqacha so'zlar bilan aytganda, tarix bilimlarining maqsadi – bizning bugunimizni (aslimizni) aniqlashdir. Shundan ke lib chiqqanda tarix – bu zamonaviy muammolarni hal etishga va anglashga yo'naltirilgan qator hodisalar va jarayonlardir¹.

«Annallar maktabi»ning eng yirik yutug'i Brodelsing sivilizatsiyalar va iqtisodiy jarayonlarga bag'ishlangan uch tomlik kitobi bo'lib, muallif tomonidan unda jamiyat hayotining barcha sohalari yuzasidan umumlashtirilgan tadqiqot bajarilgan holda tarixiy sintez amalga oshirildi².

Brodelsing tarixiy geografiyani nazariy jihatdan asoslab berdi. Geografiya fani tarix faniga nisbatan yordamchi fan sifatidagi faoliyatini to'xtatdi³.

R.Aronning fikricha, tarixiy bilish – bu mayjud bo'lgan, bo'lib o'tgan [voqeal]larning rekonstruksiyasidir. Tarix – bu yagona va yaxlit jarayon bo'lib, u [tarix] insonni, uning fikrlashini tushunishi lozim. Tarixiy bilishning bir-biriga mosligi yoki aynanligi bilish subyektiga, uning tafakkuriga bog'liqdir⁴.

R.Aronning tarixiy bilish haqidagi fikrining tarafdarlaridan biri tarixchi Pol Ven bo'lib, u ham tarix va tarixiy bilish haqida

¹ Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М., 1991.

² Лаптева М.П. Теория и методология истории: курс лекций / М.П. Лаптева; Перм. гос. ун-т. – Пермь, 2006. С. 110.

³ Бродель Ф. История и общественные науки. Историческая деятельность // Философия и методология истории. Благовещенск, 2000. С. 133.

⁴ Лаптева М.П. Теория и методология истории: курс лекций / М.П. Лаптева; Перм. гос. ун-т. – Пермь, 2006. С. 113.

bir qator fikrlarini bildirib o‘tgan. P.Venning fikricha, tarix – bu real voqealarga asoslangan tushunish muammosi bo‘lsa, metodlar yoki uslublar – bu tajribadir. P.Venning yana ta’kidlashicha, tarixiylik metodi mavjud emas va bu tushunchani tanqidiy yondashuv deb ko‘rsatish kerak, nazariya esa - bu chalkashlik mohiyatining qisqacha bayon etilishidir¹.

Bugungi kundagi axborotlashtirish jarayonlari turli fan tarmoqlarini bir-biriga yaqinlashtira boshladi. Shuningdek, bugungi kunda fanning o‘ziga qarashlar va fan haqidagi tasavvurlar ham o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy va gumanitar fanlarda bo‘lgani kabi tabiiy fanlar qarshisida ham bugungi kunda eng dolzarb muammo bo‘lib turgan masala mutlaq, obyektiv haqiqatga erishish muammosidir.

Tarixga bo‘lgan munosabat va qarash fanga bo‘lgan munosabat va qarash kabi bo‘lishi kerak va zarurdir. Biroq bunda har bir fan kabi tarix fanining ham o‘ziga xos xususiyatlarini mavjudligini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozimdir. Uning asosiy xususiyati tadqiqot obyektidir, ya’ni u o‘tmishda sodir bo‘lganligidir. Tarix fani vaqt nuqtayi nazaridan olis o‘tmishdagi obyektni harakatga keltirishi kerak. Biroq bunda tadqiqotchi tadqiqot obyektni kuzatish va tajribalar o‘tkazish imkoniyatidan mahrum etilgan. Tabiiy fanlarda ham bunday jarayonlarni kuzatish imkoniyati cheklangan bo‘lishi tabiiy, tarixchida esa bunday vaqt-da mantiqan, fikrflash va tafakkuri yordamida voqealar tizimini shakllantirishi va modellashtirish imkoniyati mavjud. Ayni vaqt-da tarixchida manbalar, uslublar hamda tadqiqotlar usullari mavjudki, bu uning tadqiqot sohasidagi katta ustunligidir. Tarixiy bilishning ikkinchi xususiyati shundaki, tarixchi hozirgi zamonda turgan holda o‘tmishni tadqiq etadi. Hozirgi zamon o‘tmishning bir qancha hodisalari va tarixiy jarayonlarini interpretatsiyalaydi. Biroq bunda hozirgi zamon o‘tmishni aynan shakllantirmaydi, balki o‘tmish bizning tasavvurimizda hosil bo‘ladi. Madaniyat,

¹ Вен П. Как пишут историю: опыт эпистемологии. – М., 2003.

mafcura, ayni jamiyatning ma'naviy boyliklari, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar ham bunda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tarix fani madaniyatning darajasi va xususiyatlarini aks ettirgan holda uning bir qismini o'zida namoyon etadi. Tarixchi ana shu madaniyat maydonida faoliyat ko'rsatib, hozirgi zamon-da turgan holda tadqiq etilayotgan o'tmish davr madaniyati bilan muloqotga kirishadi. Hozirgi zamon omili tadqiqotning cho'qqisi, bilimning darajasi va saviyasi, boshqa gumanitar fanlarning taraqqiyotini aniqlab beradi.

Zamonaviylik va zamon talablariga moslikning tarixchiga ta'siri kuchlidir. Totalitar tuzumlar hukmronligi vaqtida tarix fani hech qanday takalluflarsiz o'sha tuzum mafkurasiga va tartib-qoidalalariga bo'y sunishga majbur qilingan.

Ayrim tarixchilar o'tmishning bugungi kunga ta'sir ko'rsatgan jarayonlarini o'rganish kifoyadir, degan fikrni ham ilgari surgandalar, biroq bugungi kun jarayonlarini bilish va uni tushunish, teran anglash uchun o'tmish tarixni to'laligicha o'rganish talab etiladi.

«Prezentistlar»ning fikricha, tarix barcha davrlarda ayni o'sha zamon nuqtayi nazaridan yozilgan, ya'ni ayni o'sha vaqt yozilgan tarix uchun zamonaviylik kasb etgan, shu sababli turli vaqtarda yozilgan tarix o'tmish haqida hech qanday obyektiv tushuncha va tasavvur yoki ma'lumot bera olmaydi, deb hisoblaydilar. O'tmish va hozirgi zamon, moziy va kelajak bir-biri bilan bog'liq va biri-biriga mosdir. Agar o'tmishda sodir bo'lgan voqealari yoki tarixiy jarayon bir guruh insonlar manfaati yoki davlatlar qarashlari uchun zarur bo'lsa u yana qaytadan faollashtiriladi. Misol uchun, agar urush harakatlari olib borilayotgan bo'lsa, urushlar tarixiga, sarkardalar faoliyati tarixiga, shu sohalarga bog'liq islohotlar tarixiga qiziqish ortadi. Prezentizm tarixni modernizatsiyalashga, ya'ni o'tmish tarixiy voqealarining zamonaviylashtirilishiga olib keladi.

E.Xobsboumning fikricha, biz hozirgi kun nuqtayi nazaridan o'tmish haqida xulosa chiqaramiz, biroq bu bilan cheklanib qolsak, o'tmishni ham, kelajakni ham to'liq tasavvur qila olmaymiz. Bu bilan u juda to'g'ri fikrlagan edi.

Tarixiy bilish retrospektiv xususiyat kasb etadi. Bunda tarixiy tadqiqot jarayonida zamonaviylikdan o'tmishga tomon, ya'ni oqibatlarning sabablarini izlashga asosiy e'tibor qaratiladi. Bunda tarixiy jarayonlar va hodisalarни avvalgi va keyingi holati bo'yicha butun boricha tasvirlash imkoniyati yuzaga keladi. To'g'ri bunda o'tmishni modernizatsiyalash, ya'ni tarixiy voqelarning zamonaviy talablarga moslashtirilishi yoki arxaiklashtirish, ya'ni tarixni ayni eski holatining xususiyatlarini ilgari surishga yo'l qo'yilishi mumkin. Ayni vaqtida zamonaviy tarixchi uchun o'tmish haqida va o'tmishni tasavvur qilish va his etish murakkablik tug'diradi, chunki o'sha davr tarixchilarining o'zлari ham o'z zamonlari va o'zlaridan avvalgi davrlarni tushunishda va tafsiflashda xuddi shunday qiyinchiliklarga duch kelganlari tabiiy.

Tabiatdan farq qilgan holda jamiyatda ongi va tafakkuri jihatdan yuksak iqtidorga ega bo'lgan hamda o'z oldiga aniq bir maqsad qo'yib unga erishishga harakat qiladigan insonlar harakatda bo'ladi va faoliyat yuritadi. Bundan tashqari tabiiy fanlarda obyekt va subyekt bir-biriga qarama-qarshi turadigan bo'lsa, tarix fanida o'zaro munosabatlar birmuncha murakkab jarayondir. Tarix fanida subyekt, ya'ni tadqiqotchining o'zi ayni vaqtida tarixiy jarayonlarning ishtirokchisi hamdir. Bu holatda tarixchi, ya'ni subyekt tarixiy jarayonlarni chetdan turib kuzata olmaydi va bunda insonning o'z-o'zini, o'zining faoliyatini bilish va tahlil qilish jarayoni kechadi. Tarixchi tadqiqotchi tadqiqot davomida tarixiy jarayonlarda faoliyati muhim ahamiyat kasb etuvchi insonlar faoliyatini tadqiq qilar ekan, uning tarixiy bilish darajasi qiyosiy xususiyatga ega bo'ladi va bunda tarixiy jarayonlardagi insonlar faoliyati turli darajada baholanib boriladi. Tarixchi tarixiy jarayonlar va voqealarning ahamiyatini aniqlagan holda, ayni vaqtida insonlar faoliyatiga ham baho beradi. Bu tarix fanining o'ziga xosligidir. Tarix fani haqida fikr yurituvchilarining ko'pchiligi odatda qo'lga kiritilgan natijalarining subyektivligi haqida fikr bildirib, buni mutlaq haqiqatga erishishdagi eng katta to'siq deb hisoblaydilar.

Haqiqatan ham, I.Kovalchenkoning fikr bildirishicha, tarixiy bilish ikki karra subyektlangan bo'lib, birinchidan tarixchi subyektiv xarakterdagi tarixiy manbalar bilan ishlaydi va ikkinchidan, ayni vaqtida manbalardagi faktlarning, ulardagi tarixiy voqealar va tarixiy jarayonlarning tavsiflari keltirilgan ma'lumotlarning interpretatsiyasi jarayonida ham umumiy xulosalarni berishda o'zining shaxsiy, subyektiv fikrlarini berishga majbur bo'la-di. Adabiyotlarda tarixchining subyektivligini obyektiv haqiqatga erishishdagi asosiy to'siq sifatida ko'rsatilsada, bu yerda subyektivlikning sifati aksincha, uzoq o'tmishta kirib borish imkonini beradi. Buning o'ziga xosligi va isboti shundaki, Geradotdan boshlab barcha buyuk tarixchilarining asarlari va ularning tarixiy ma'lumotlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va barcha tarixchilar uchun qimmatli manbalar bo'lib sanaladi, ayni vaqtida ular tarix fanining rivoji va taraqqiyoti uchun bugungi kunda ham xizmat qilmoqda.

Plyuralizm tarafдорлари ayni bir tarixiy voqeа yoki jarayonning turli asoslari va qonuniyatlar mavjud deb fikrlaydilar. Bunday turli-tumanlik qarashlarining mavjudligi tarixiy tadqiqot obyekting murakkabligini, ya'ni tarixiy voqelikning yuz berishining turli holatlari bilan izohlaydilar. Tarixiy reallikning o'zini turlichadir, uning yuzaga kelishi va turli o'zaro aloqalarini o'rganish kerak, deb hisoblab, tarixiy voqelik yoki tarixiy reallikni tarixiy manbalar yordamida tiklanadigan ayrim ma'lumotlar tarzida tushuntirishga harakat qiladilar. Plyuralizm g'oyasi tarixchining dunyoqarashidagi turlichalik va uning metodologik bilimlari bilan bog'liqlikni ilgari suradi.

Tarixda barcha tarixchilar tomonidan birdek isbotsiz qabul qilinadigan biror-bir nazariya, hattoki eng ahamiyatli va eng dolzarb tarixiy tushunchalar va kategoriylar borasida ham tarixchilar o'rtasida yagona kelishuv mavjud emas. Shundan tarix fani metodologiyasidagi polisemantlilik tushunchasi kelib chiqadi. Buni esa ayni bir tarixiy voqeа va hodisa yoki jarayonning turlicha interpretatsiyalanishi bilan tushunish mumkin. Bu esa tarix

fanini chuqurroq anglash va bilish imkoniyatini beradi. Barcha interpretatsiyalar o‘zaro umumiylit kasb etib, o‘tmish voqealari va jarayonlar haqida mukammal tasavvurning yaratilishiga imkon beradi. Buning asosiy jihat shundaki, u keyingi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlarni aniqlab beradi. Tadqiqotlar jarayonida avvalgi tadqiqotlarning xulosalariga aniqlik kiritiladi va xulosalar mukammallashtiriladi va ilmiyligi oshiriladi. Bu esa bilish jarayonining tugallanmasligini ko‘rsatadi va turli fikrlar to‘qnashuvi natijasida ishonchliroq xulosalarning chiqarilishiga imkon beradi.

Tarixiy bilishning asosiy maqsadi – obyektiv va xolis, tizimli, konkret jamiyatning taraqqiyotidagi tarixiy jarayon haqidagi konkret bilimga va ilmiy jihatdan asoslanilgan tarixiy haqiqatga erishish hisoblanadi¹.

Tarixchidan o‘ziga ortiqcha ishonmaslik va ortiqcha baho bermaslik, balki bilish jarayonida qiyinchiliklarni yengib o‘tish talab etiladi. Chunki tarix fanining shunday xususiyati borki, bu barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarning ilmiy sohadagi yutuqlarini umumlashtirgan holda integrallashtirish va ularni tarix fani tadqiqotlarida kompleks qo‘llashdir. Bu tarixchi uchun g‘oyatda mu-rakkab vazifadir.

Tayanch tushunchalar:

Determinizm, indeterminizm, (sababiylit) tamoyili, marksizm, postmodernistlar, relyativizm, subyektivlik, tamoyillar, bilish tamoyillari, tizimlilik (sistemalilik) tamoyili, sistema, dialektika, tizimlilik uslubi, xolislik (obyektivlik) tamoyili, tadqiqot obyekti, o‘tmish haqida tasavvur, retrospektiv, ikki karra subyektlangan bilim, fikrlar xilma-xilligi, tarix fanining kompleks xarakterliligi, postmodernistlar, ssiyentistlar, antissiyentistlar, pozitivistlar, neokantchilar, marksistlar, interpretatsiya, prezентistlar,

¹ Баринова Е.П., Иполлитов Г.М., Бобкова Е.Ю. Основы теории и методологии исторической науки: Учебное пособие в схемах. 2010.

modernizatsiyalash, arxaiklashtirish, plyuralizm, mutlaq haqiqat, qiyosiy xususiyat, polisemantlilik.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarixiy bilish tamoyillarini sharhlab bering.
2. Bilish tamoyillari va ularning regulyativ funksiyalari tushunchalarining mazmuni.
3. Bilishning subyekti nima?
4. Bilish subyektining faolligi nima?
5. Obyektivlik tamoyilini sharhlab bering.
6. XX asrda obyektivlik tamoyiliga xujum qanday tushuncha?
7. Sababiylilik tamoyilini tushuntirib bering.
8. Tasodiflar, tartibsizliklar, tarixiy voqealarning sabablari tush unchalarining mazmuni.
9. Sabab va oqibat aloqalarini ochishning murakkabligi nima?
10. Tarixiylik tamoyilini tushuntirib bering.
11. Dialektik uslub qanday uslub?
12. Tarixni materialistik tushunishning mohiyati?
13. Tuzilish va jarayon tushunchalari.
14. Tarixning fan yoki san'at ekanligi borasidagi qarashlar haqidagi fikringiz.
15. Ijtimoiy va tabiiy fanlar uslublarining o'zaro bog'liqligi qanday holatlarda ko'rindi?
16. Tadqiqot obyektining o'ziga xosligi.
17. Bilishning retrospektiv xarakteri deganda nimani tushunasiz?
18. Ikki karra subyektlangan bilim nima?
19. Fikrlar xilma-xilligining ahamiyati.
20. Tarix fanining kompleks xarakterliligi nimalarda aks etadi?

Mavzuga aloqador so'zlarning izohli lug'ati:

Volyuntarizm — falsafada vogelikning negizi irodadadir deb biluvchi va obyektiv taraqqiyot qonunlarini rad etuvchi idealistik yo'naliш. Psixologiyada irodani psixik hayotning asosiy omi-

li deb qarash. Tarix fanida esa tarixiy taraqqiyotning obyektiv qonunlari bilan hisoblashmay, o‘z bilganicha ish tutish. Volyuntarislarning ta’kidlashicha, inson tarixni ijod qiluvchi, uni shakllantiruvchi omildir, inson tarixiy jarayonda o‘ziga zarur va o‘zi xohlagan jamiyatni barpo eta olishi mumkin deb hisoblaydilar.

Determinizm – (lotin. «aniqlayman») – moddiy va ma’naviy olam hodisalarining obyektiv qonuniyatli o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi, narsa va hodisalarning sababiy bog‘lanishlari haqidagi falsafiy ta’limot. Determinizmning markaziy o‘zagini sababiyatning, ya’ni hodisalar o‘rtasida bir hodisa (sabab) muayyan sharoitlarda muqarrar ravishda boshqa hodisani (oqibatni) keltirib chiqaradigan aloqadorlik mavjudligi haqidagi qoida tashkil qiladi. Determinizmning aksi indeterminizm bo‘lib, u umuman sababiyatni yoki loaqal uning umumiyligini xususiyatini tan olishni rad etadi. Tarix fanida determinizm (sababiylilik) tamoyili fransuz va nemis olimlari tomonidan ilgari surilgan. Ular tarix faqat tasodiflardan iborat degan g‘oyaga qarshi chiqqanlar. Sababiylilik tamoyili tarixiy voqelikning o‘z sababiga egaligiga e’tibor beradi. Determinizm (sababiylilik) tamoyili tadqiqotchining e’tiborini tarixiy hodisalar va voqealarning shartli ravishda o‘zaro bir-biriga bog‘liq ravishda sodir bo‘lishiga qaratadi. Bu tamoyilga ko‘ra barcha voqealar va hodisalar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘ladi va bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim tarixchilar sababiylilik tamoyilini tan olmaydilar, chunki tarixiy voqealarning sababini ochib berish juda murakkabdir.

Dialektika – mavhumlik keng ma’noda bilimning «qashshoqligi», bir tomonlamaligi, konkretlik esa uning to‘liqligi, mazmendorligi sifatida tushuniladi. Shu ma’noda mavhumlikdan konkretlikka o‘tish ilmiy bilish jarayonining umuman olganda kam mazmunli bilimdan ko‘proq mazmunli bilimga harakatini bildiradi.

Interpretatsiya – sharhlash, izohlash, tushuntirib berish, talqin qilish, ochish.

Marksizm – tarixiy-falsafiy yo‘nalish sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada shakllandi. Marksizm yo‘nalishining asoschilari germaniyalik K.Marks (1818–1883) va F.Engels (1820–1895) hisoblanadi. Ular tarixiy materializm g‘oyasini asoslab, barcha tarixiy jarayonlarning asosini ishlab chiqarish munosabatlari tashkil etadi mazmunidagi o‘z fikrlarini ilgari surdilar. Marksistlar (marksizm tarafдорлари)ning qarashlariga ko‘ra jahoning umumiy tarixi bu iqtisodiy va siyosiy hokimiyat (hukmonlik) uchun kurash jarayonidan iborat, bunda sinfiy kurash tarixiy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchi va iqtisodiy munosabatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida birinchi o‘ringa qo‘yiladi. XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib bu qarashdan voz kechildi.

Pozitiv – tajribaga, faktlarga asoslangan.

Polisemantizm – ko‘p ma’nolilik.

Postmodernistlar – tadqiqot obyektni subyektdan, dalillarni uydirmadan alohida ajratmaydilar va obyektiv haqiqatga erishishni shubha ostiga qo‘yadilar.

Relyativizm – relyativistik - Relyativistik yondashuv (relyativistlar) voqelikni obyektiv ravishda bilish mumkinligini inkor etadigan metodologik g‘oya, unga nisbiylik asosida yondashish tarafдорлари.

Sistema – muayyan tarzda o‘zaro bog‘langan va bir qadar yaxlitlikni tashkil etadigan elementlar majmuyi. Tarmoq, shoxobcha, birlik, butunlik tashkil etuvchi narsalar majmuyi. Tarix fanida umumiy yaxlit tarixiy jarayonlarning tarkibini tashkil etuvchi tarixiy jarayonlar, voqealar, hodisalar majmuyi.

Subyektivlik – falsafa fanida tashqi, moddiy dunyo mavjudligini inkor etib, ular faqat odamlarning ongidagina mavjud deb qaraydigan falsafiy oqim; tarix fanida esa tarixiy voqelik va tarixiy jarayonlarga, ularning tadqiqi va talqini jarayonida xolis (obyektiv) bo‘lmagan, o‘z mansubligi va dunyoqarashi jihatidan kelib chiqqan holdagi ilmiy bo‘lmagan yondashish.

Tamoyillar – tadqiqotchiga nisbatan qo‘yilgan talablar. Bilish tamoyillari tadqiqotchiga tadqiqot jarayonidagi vazifalarni bir maromda ma’lum tartiblarga asoslangan holda amalga oshirishi-da zarur bo‘ladigan omillardir. Ular tadqiqotchining u yoki bu tarix maktablari, falsafiy yo‘nalishlarga mansubligi va dunyoqarashi, fikrlashi va tafakkuridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Tamoyillar uslublar bilan mustahkam o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lganligi uchun ayrim hollarda ularni bir-biri bilan adashtirish holatlari ham uchraydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish o‘rinligi, tamoyillar uslublarga nisbatan birmuncha murakkab va keng tushuncha bo‘lib, bir tamoyil o‘ziga bog‘liq holda bir necha uslublarni shakllantirishi mumkin, ayni vaqtida esa bir uslub bir necha tamoyillarga xizmat qilishi mumkin.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyili – XIX asrda tarixchilar jamiyatni, tarixiy voqealarni tizimlilik asosida (sistemalashtirib) o‘rgana boshlagan bo‘lsalar, XX asrga kelib barcha fanlar tadqiqotlarida tizimlilik uslubidan foydalanish asosiy o‘rin tutib borra boshladi, bunda tadqiqot obyektiغا sababiylig va kelib chiqishidagi hamda vazifaviy aloqadorligi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkab tuzilmali tizim sifatida qaraldi.

Xaos nazariyasi – biror-bir narsa yoki voqeaneing turli aralash unsurlardan yoki aralash voqealardan kelib chiqqanligini asoslashga harakat qiluvchi nazariya.

TARIXIY MANBA. AXBOROT VA UNING XUSUSIYATLARI

Axborotning nazariy manba sifatidagi o'rni. Manba axborot tashuvchi. Axborot. Yaqqol va yashirin axborot. Belgilangan va belgilanmagan axborot. Axborotning yetishish va yetishmaslik muammosi. Ilk manba. Birinchi axborot. Manbaning axborotli tugullanmasligi. Manbalarning mazmuniga sistemali yondashuv. Manbaning matni. Asosiy va qo'shimcha manbalar. Tarixchining manbalardan tashqari bilimi.

Tarixchi bugungi kungacha yetib kelgan manbalarga asoslangan holda o'tmishni tasvirlab, uning ayrim ko'rinishlari ni «tiklab» beradi. Agar tarixiy manbashunoslik kursida manbashunoslikning turlari, klassifikatsiyasi, ularni tahlil qilishning tanqidiy usullari o'qitilsa, tarix fani metodologiyasi kursida esa tarixiy manbalarning nazariy asoslari muammolari, uning tabiatи, reprezentativ imkoniyatlari, manbalarning tadqiqotlardagi biliш vazifalari o'rganiladi.

Tarixiy manba tushunchasi tarix fanlari orasida alohida, muhim ahamiyatga ega tushunchalardan sanaladi. Manba o'tmish haqida xabar (guvoqlik) berib, o'tmish tarixiy jarayonlarni o'rganishda xoh yozma shaklda, xoh ashyoviy (marosimlar, suratlar, belgilar, urf-odatlar va boshqalar) ko'rinishda eng asosiy va muhim omillardan sanaladi. Tarixchilarning umumiy e'tirof etishicha, tarixiy manbalarsiz tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirish mumkin emas.

Manbalardagi axborotga asosan tarixchi o'tmish qiyofasini (tarixiy jarayonlarni, hodisalarni, voqealarni, shaxslar va ular bilan bog'liq jarayonlar haqidagi ma'lumotlar kabilarni) shakllantiradi. Ko'п hollarda o'tmish manzarasining aks ettirilishi tarixchi tomonidan tanlab olingen manbalarga, ularning ilmiy va axborot salohiyatiga bog'liq bo'ladi.

Turli davrlarda tarixiy manbalarga turlicha baho berilganligini kuzatish mumkin. Masalan, XIX asr tarixchi pozitivistlari aso-

san manbalarning rasmiyligi darajasiga (qonuniy aktlar, diplomatiq mazmundagi hujjatlar, huquqiy hujjatlar kabilar) asosiy e'tibor qaratganlar va bunday manbalar tarixiy jarayonlarni eng to'laqoni li va ishonchli aks ettiradi deb hisoblaganlar¹.

XIX asrning birinchi yarmidagi «klassik manbashunoslik»da (B.Nibur, L.Ranke) manbalarga o'tmishning haqiqiy guvohi sifatida munosabatda bo'lingan. Bunda tarixchi tomonidan manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni tavsiflash bilangina cheklanganilgan va tarixchining ijodiy fikrlashi va tafakkuriga e'tibor qaratilmagan yoki yetarli baho berilmagan. Tarixchilar tor doiradagi manbalardagi ma'lumotlar bilan cheklangan holda tadqiqotlarda asosiy urg'uni manbalardagi hujjatlarga qaratilgan.

Pozitivistlar tarixni «ijobiy» fanlar qatoriga ko'tarish maqsadida harakat qilib, tarixchidan hujjatlar ichidagi dalillarni ajratib olishni asosiy vazifa sifatida ko'rsatdilar. Manbalarning tahlili metodlarini yaratish dolzarb vazifalardan biriga aylanib, falsafiy masalalar «chetga surib» qo'yildi. «Manba» iborasi o'rniga insonlarning faoliyati va fikr-qarashlari natijasida yuzaga kelgan «iz» iborasi qo'llanila boshlandi. Bunda faoliyat e'tibordan chetda qolib, hissiyotlar va fikrlarning aksi haqida gapirila boshlandi, natijada tarixchi tadqiqot jarayonida manba muallifining fikrlari bilangina cheklanib qolib, uning taassurotlarini qaytadan shakllantira boshladi. Pozitivistlar manbalarning birlamchiliginini tarixchining tafakkuri va fikrlashidan ustun qo'ydilar, «hujjat yo'q bo'lsa, tarix ham mavjud emas» g'oyasini ilgari sura boshladilar. Nazariyaga yetarli baho berilmasligi empirizmga olib keldi, tarixchiga faktlarning qayd etuvchisi deb qaraldi. Hujjatlar esa o'tmish haqida real obyektiv ma'lumot beruvchi manba hisoblandi.

XIX asrning oxirlariga kelib fandagi mavjud vaziyat o'zgaridi. Manbalar va real voqelik o'rtasidagi, tarixchining manbalarga bo'lgan munosabati avvalgi davrlarga qaraganda birmuncha murakkablashdi. Bu vaqtga kelib tarixchilar hech qanday

¹ История исторического знания. С. 32.

fakt yoki dalil manbalarda tayyor holda uchramasligi va mavjud bo‘lmasligini tushunib yetdilar. «Dalilga sig‘inish» va «hujjatlar-ga sajda qilish»ni tanqid qila boshladilar. Manbalar va dalillarga munosabatning bu tarzda o‘zgarishi esa manbalarning obyektivligini shubha ostida qoldira boshladi. Ko‘pgina tarixchilar va hatto faylasuflar ham manbalarning tahlili jarayonida ijodiy yondashuv zarurligini tan ola boshladilar. Manbalarni chuqurroq o‘rganish ko‘proq ma’lumot olish imkonini bera boshladi. Biroq endi bu holatda, ya’ni «dalillarning ilohiyashtirilishi»ni tanqid qilish jarayonida tarixchilar ikkinchi boshqa bir muammoga, ya’ni endi tarixchining fikrlarini «ilohiyashtirilishi» va aksincha manbalardagi obyektivlik xususiyatining inkor qilinishiga olib keldi. Manba mazmunining tarixchi tafakkuridan kelib chiqqan holdagi bog‘liqlik haqida ta’kidlana boshlandi. Bu yo‘nalish tarix falsafasining «tanqidiy» yo‘nalishi hisoblanadi. B.Kroche tarixiy manbalar tarixchining tafakkuri va ongidan tashqarida mavjud bo‘lmaydi, deb hisobladi. Tarixchining fikrlarisiz hujjatlar o‘lidir, amalda tarixiy manba tarixiy ong ichida, uning tarkibiga aylanib ketadi. Biroq, B.Kroche fikrining tarafдорлари tarixiy manbaning obyektiv mazmunini inkor qilgan holda uni tarixchining fikriga va tafakkuriga bog‘liq qilib qo‘ydilar.

Angliyalik tarixchi A.Marru pozitivistlarning tarixchini faktlarning qayd etuvchisi sifatida bergen bahosiga keskin qarshi chiqib, tarix bilish subyektining, tarixchining ijodiy mehnati mahsuli, deb baho berdi. Biroq bu fikri bilan u ham xatolikka yo‘l qo‘ydi, ya’ni tarixchi manbani yaratadi, deb aytgan fikrini ko‘pgina tarixchilar inkor qildilar.

E.Karr tadqiqotlarida tarixchining o‘rnini bo‘rttirishga qarshi chiqib, bu obyektiv xulosalar chiqarilishini shubha ostiga qo‘yadi, deb fikr bildirdi.

XX asr fransuz tarixchisi Lyusyen Fevr manbalar haqida so‘z yuritib, quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi: «Tarix, shubhasiz yozma manbalar asosida yaratiladi. Qachonki ular mavjud bo‘lsa. Biroq tarix yozma manbalarsiz ham yaratilishi mumkin, qachonki

ular mavjud bo'lmasa. Qachonki kerakli gul bo'lmasa, asal boshqa mavjud gullardan ham yig'ilishi mumkin. Shu kabi tarixchi ham boshqa manbalardan ma'lumot olishi mumkinki, bular so'z yoki belgilar, manzara yoki tasvir, Oy tutilishi yoki bo'yinchanning shakli, toshlar, metall yoki geologik tekshiruvlar, qo'yingki, insonga va uning faoliyatiga taalluqli bo'lgan barcha narsalar bo'lishi mumkin»¹.

Tarixchining manbadan qanday axborot olishi uning mazkur manba yuzasidan amalga oshirayotgan tadqiqoti oldiga qo'yilgan savollardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Manba hech qachon «o'zi haqida o'zi gapirmaydi», biroq ayni vaqtida manbaning o'zi haqidagi ma'lumotlarni aynan o'sha manbaning o'zidan ham olinishi mumkin. Biroq bu ma'lumotlar aynan shu manba yoki uning muallifi (mualliflari)ga taalluqli bo'lgan holda, tadqiqot muammosiga aloqador bo'lmasligi mumkin.

Ingliz tarixchisi va faylasufi R.Kollingvudning fikricha, «dunyodagi barcha narsalar u yoki bu haqdagi muayyan ma'lumotlarni o'zi aks ettiradi»². Biroq shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, bu narsalar qachonki tarixchi tomonidan unga aniq bir «savol» berilgan taqdirdagina «guvohga» aylana olishi mumkin.

Ayrim tarixchilar esa manbani ijtimoiy faoliyat mahsuli hamda obyektiv tarixiy voqelik aksining shakli deb hisobladilar. Ularning fikricha, manbalar ijtimoiy hodisa bo'lib, ularda ijtimoiy munosabatlar aks etadi, manbaning o'zi esa obyektiv voqelikning subjektiv obraz (siymosi, qiyofasi, shakli)dir. Bu nuqtayi nazar tarafdarlarining e'tirof etishicha, manba tarixchiga bog'liq bo'lmanan holda mavjud bo'ladi, faqatgina manbaning bilish jarayoniga jalb etilishi tarixchiga bog'liqdir. Tarixchi manbani yaratmaydi, balki undan ma'lumotlarni ajratib oladi.

N.Jo'rayevning fikricha, tarixiy manbani o'rganish, uning asosli yoki asosli emasligini aniqlash tarixiy tadqiqot uchun

¹ Февр Л. Бои за историю. – М., 1991. С. 22.

² Коллингвуд Р. Идея истории. Автобиография. – М.: 1980. С. 235.

alohida mas’uliyatli jarayondir. Chunki tarixiy manbani yaratganlar, turli hujjatlarni bitganlar yoki to‘plaganlar o‘z manfaatlari doirasida, o‘z maqsadlari va qiziqishlari chegarasida dalil to‘playdilar. Barcha insonga xos bo‘lgan bunday illat, jumladan tarixchilarni ham istisno etmaydi¹.

Manbaning axborot nazariyasi ekanligi. Manba tarixchiga o‘ta zarur bo‘lgan axborot tashuvchidir. Ko‘p hollarda manbalardan olinayotgan ma’lumotlar tarixchini qoniqtirmaydi. Bunday holatlar tadqiqotchi va tarixnavis yoki manba muallifining maqsadlari bir-biriga mos kelmaganda, shuningdek tadqiqotchi uchun zarur ma’lumotlar manbada mavjud bo‘lmaganda yuzaga keladi. Bunday holatda tarixchi yoki tadqiqotchi tomonidan boshqa manbalar tadqiqot uchun jalb etilib, ma’lumotlarning yetarli, asosli va ishonchli bo‘lishi ta’minlanishiga harakat qilinadi. Manbalar ijtimoiy ma’lumotlar va axborotlar tashuvchisi bo‘lganligi uchun bunda axborot haqidagi bilimlarni qo‘llash o‘rinlidir.

I.Kovalchenkoning fikricha axborot – dunyoda sodir bo‘lgan turli hodisalarining tasviridir. Axborotning doimiy almashinushi jamiyat hayoti va inson hayotini izga solib turilishining asosiy shartlaridan biridir.

Axborot ochiq ifodalangan va yashirin holatda (keyingisi ko‘p uchraydi) bo‘ladi. Axborot belgilar orqali, ko‘p hollarda til (yozuv) tizimlari orqali ifoda etilishi, ayni vaqtda esa saqlanishi va yetka-zib berilishi mumkin. Obyektiv ma’lumotlarning qo‘lga kiritilishi subyektning bilish xususiyatlari, idrok eta olish layoqatiga bog‘liq holda hamda qo‘llanilayotgan tadqiqot metodlarining samarasiga bog‘liq ravishda cheklanishi mumkin. Ayrim hollarda buzilgan, noto‘g‘ri talqin etilgan va xato ma’lumotlarni ham olish mumkin.

Axborot qayd etilgan va qayd etilmagan (og‘zaki) bo‘lishi mumkin. Turli narsalarga (tosh, charm (pergament), yog‘och, sopol, qog‘oz va boshq.) qayd etilgan ma’lumotlar albatta og‘zaki ma’lumotlarga nisbatan ishonchliroq bo‘lishi tabiiy. Ma’lu-

¹ Tarix falsafasining nazariy asoslari. 81-b.

mot qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi, biroq muhim bo‘lмаган ва аhamiyati kam bo‘lgan ma’lumotlar tadqiqotchi tomonidan aniqlanib, ularni asosiy ma’lumotlardan ajratib qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bundan axborotning yetarliligi masalasi kelib chiqadi va bularning hammasi manbalarning tahlili va tadqiqoti jara-yonida e’tiborga olinishi lozim.

I.Kovalchenkoning ta’kidlashicha, manbaning yuzaga kelish jarayonining o‘zi axborotlashish va axborotlashtirish jarayonidir. Manbaning yaratuvchisi yoki tarixnavis manbani yozish jarayonida aniq maqsadni qo‘yadi va bir qator vazifalarni amalga oshiradi. Manba muallifining o‘zi voqelikning bir qismidir. Yaxshi yoki yomon manbalar bo‘lmaydi, bular tadqiqotchining tahlilga yondashuvi va qo‘llayotgan tadqiqot metodlarining samaradorligiga bog‘liqdir.

Har qanday manba ikki tomonlama axborot tashuvchi xususiyatiga ega hisoblanadi. Birinchidan, muallifning tafakkuri va ongi mahsuli sifatida biz tadqiqot obyekti haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz, ikkinchidan, manbalar axborot beruvchi subyektni belgilaydi.

Statistikaga manba sifatida baho berar ekan, I.Kovalchenko manbalardan statistikaga oid ajratib olingan har qanday ma’lumot axborotning yo‘qotilishiga olib keladi.

Manbalarning eng qimmatlisi dastlabki ma’lumotlar yoritib berilgan manbalar, ya’ni birlamchi manbalardir.

Abu Rayhon Beruniyning qayd etishicha, «xabar xabarchilar sababli rost va yolg‘on tusini oladi»¹.

Har qanday manbada o‘tmish taassurotlari va voqealarning tafsilotlari saralangan holda qayd etilishi tabiiydir. Bunda voqealarning to‘laqonli tafsilotlari haqidagi tasavvurlar cheklanadi, bunday holatda tarixchi yoki tadqiqotchi umidsizlikka tushmasdan, manbalardagi axborotlarning tugallanmasligiga e’tibor qa-

¹ Qarang: Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat. – T.: «Fan». 1993. 15-b. Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: «Ma’naviyat». 2008. 81-b.

ratishi lozim. Bunda tadqiqotchi tomonidan manbalardagi qayd etilmagan va yashirin axborotlarni izlash va ularni tadqiqotga jalb eta olishi layoqati alohida o'ringa ega. Bu o'rinda yozma manbalardagi asosiy xususiyatlardan biri bo'lgan manbaning tili masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

I.Kovalchenko yashirin axborotlarni aniqlash imkonini beruvchi manbalarni tahlil qilishning tizimli yondashuvi metodini ilgari surdi. (Mantiqiy yondashuv ham yashirin axborotni aniqlash imkonini beradi—Z.I.) Manbalarni tizimli tahlil qilish orqali axborotlarning ishonchli ekanligini ham tekshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Postmodernistlarda manbaning matni. Keyingi yillarda manbaga matn sifatida qarash fikri yuzaga kelgan. Matnlar o'tmishda sodir bo'lgan voqealarni mantiqiy, til, notiqlik qonuniyatlarasi asosida «qaytadan so'zlab» berishi mumkin. Natijada tarixiy voqelik shakli, mazmuni hamda mohiyati jihatidan o'zgarishga «uchradi». Y.Lotman tildagi mavhumlik yoki umumiylilik va uning tavsifga va tavsiflanayotgan obyektga ta'siridan kelib chiqadigan til muammosiga e'tiborni qaratadi. Bu yerda manba tilining tadqiqotchi tiliga tarjima qilish muammosi ham mavjud¹.

Biz biladigan o'tmish – bu tarixchining konstruksiyasidir. Bunda manbani o'z ichida barcha haqiqatni yashirib turgan idishga o'xshatish mumkin. Uning og'zini ochib, ichidan ana shu tarixiy haqiqatni, ya'ni tarixiy voqeliklar va ularning tafsilotlarini, sabab va oqibatlarini anglatuvchi axborot va ma'lumotlarni olish mumkin. Biroq tarixiy manbasiz tarixiy tadqiqotni amalga oshirish mumkin emas yoki manbaga asoslanmagan tadqiqot tadqiqot hisoblanmaydi. Manbalarga tayangan holda narrativ shakllantiriladi. Biroq bu yerda tarixiy manba narrativini tarixiy ijod narrativiga aylantirish asosiy vazifa emas. Y. Topolskiyning ta'kidlashicha, tarixchi o'tmish bilan muloqotga kirisha olmaydi va ular o'rtasida aloqadorlik mavjud emas, biroq tarixchini voqelik bilan juda zaif bo'lgan «tola» bog'lab turadiki, uni inkor qilish mumkin emas.

¹ Лотман Ю.М. Культура и взрыв. – М., 1992.

Ye.Topolskiy manbalarni to‘g‘ri va egri manbalarga ajrata-di. To‘g‘ri manbalarni tarixchi o‘z ko‘zi bilan kuzatish imkoniga egadir (arxeologik yodgorliklar, binolar, ashylolar va boshq.). Egri manbalar esa tarixchi tomonidan emas, balki boshqa bir shaxs tomonidan kuzatilgan holatlardir. Bunday manbalar qatorida xatlar, kundaliklar, yilnomalarni keltirib o‘tish mumkin. Agar axborot interpritatsiyaga ega bo‘lmasa, unda bu axborot asosiy tayanch axborot hisoblanadi. Tarixchi adabiyotshunosdan farqli ravishda dalillarni o‘zicha to‘qib chiqara olmaydi. Dalillar narrativni shakllantirish uchun xizmat qiladi, bunda tarixchi deduksiyaga murojaat qiladi. Bularning barchasi tarixchi tomonidan manbalarga asoslangan bilimlari va manbalardan tashqari bilimlari orqali nazorat qilinadi.

Ye.Topolskiy tarixchining manbalardan tashqari bilimlarini asoslab beradi. Gap shundaki, tarixchi tadqiqotga kirishar ekan, tadqiq etilayotgan davr va tarixiy voqelik haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi, ya’ni bu davr bo‘yicha faktlarga, nazariy bilimlarga ega bo‘ladi. Tadqiqot mavzusini tanlagan vaqtdayoq tarixchi shu bilimlaridan foydalangan holda tadqiqot oldiga va manbalardan foydalanishdagi vazifalarni aniqlashda foydalanadi. Ayni vaqtda u avvalgi tarixchilar mazkur manbalardan qanchalik darajada foydalanishklarini ham aniqlaydi. Bu yerda oxirgi natijaning asoslanganligi muhimdir.

Manbaning tanlanishi va uning tahlili tarixchining ayni vaqt-da tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan qanchalik bilimga va ma’lumotlarga ega ekanligi bilan bog‘liq. Bunda tarixchining tadqiqot jarayonidagi manbadan tashqari bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch tushunchalar: axborot, manba, yaqqol va yashirin axborot, belgilangan va belgilanmagan axborot, axborotning yetishish va yetishmasligi, ilk manba, birinchi axborot, asosiy manbalar, qo‘srimcha manbalar, tarixchining manbalardan tashqari bilimi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Axborotning nazariy manba sifatidagi o‘rni.
2. Manbaning axborot tashuvchi ekanligi.
3. Axborot nima?
4. Yaqqol va yashirin axborot nima?
5. Belgilangan va belgilanmagan axborot nima?
6. Axborotning yetishish va yetishmaslik muammosi nima?
7. Ilk manba qanday manba?
8. Birinchi axborot nima?
9. Manba axborotining tugallanmasligi.
10. Manbalar mazmuniga sistemali (tizimli) yondashuv.
11. Manbaning matni nima?
12. Asosiy manbalar qanday manbalar?
13. Qo‘srimcha manbalar qanday manbalar?
14. Tarixchining manbalardan tashqari bilimi.

Mavzuga aloqador so‘zlarning izohli lug‘ati:

Axborot – dunyoda sodir bo‘lgan turli hodisalarning tasviri-dir. Axborotning doimiy almashinuvi jamiyat hayoti va inson hayotini izga solib turilishining asosiy shartlaridan biridir. Axborot ochiq ifodalangan va yashirin holatda (keyingisi ko‘p uchraydi) bo‘ladi.

Manba – o‘tmish haqida axborot tashuvchilar manbalar hisoblanadi. Manbalar bir necha turli bo‘lishi mumkin: yozma (belgili) manbalar; moddiy manbalar; etnografik manbalar; xalq og‘zaki ijodiga oid manbalar; lingvistik (tilshunoslikka oid) manbalar.

Empirizm – nazariy umumlashtirishni inkor qilib, hissiy idrokni, tajribani bilishning birdan bir manbayidir deb biladigan falsafiy yo‘nalish, nazariyadan ko‘ra amaliy faoliyatga ko‘proq moyil bo‘lishlik, amaliy faoliyatga moyillik.

TARIXIY DALIL VA UNING INTERPRETATSIYASI

Tarixiy dalil va uning interpretatsiyasi. Dalil. Tushuncha to‘g‘risi-dagi bahslar. XIX asrda dalilga sig‘inish. Dalil tadqiqotlarining nati-jasi. Interpritatsiyaning «yumshoqligi» va dalilning «mustahkamligi». Dalilning haqiqiyligi va uni anglash. Dalilning guruhlari va xususi-yati bo‘yicha mohiyati. Tarixiy borliq dalillarining turlari. Tarixiy dalil tizimi, tarixga ta’sir etish omillari va mohiyati.

Tarixiy dalillarni aniqlash va ularning interpretatsiyasi zamonaviy tarix tadqiqotlarining asosiy omillaridan biri sanaladi. Tarixchi nafaqat professional mahoratga ega bo‘lishi kerak, balki tarixiy dalil yuzasidan o‘zining ilmiy qarashlariga ham ega bo‘lishi (qay tarzda qo‘llanilishi, tahlili qilinishi va dalillarni interpretatsiyalashi) talab etiladi. Tarix fani mavjud bo‘lgan barcha davrlarda «tarixiy dalil» tushunchasi yuzasidan bahs va munozaralar ham doimiy ravishda mavjud bo‘lgan. Bu haqda fikrlar shunchalik ko‘pki, ularni tarixiy ijodni shakllantirib beradi-gan «g‘ishtchalar»dan boshlab, tafakkur orgali shakllantiriladigan tasavvurlargacha ko‘rish mumkin. Biroq bu bahslar va munozaralar asoslanmagan quruq safsatalar emas, balki umumiy holatda tarixiy tafakkurni mukammallashtirib, yangi yondashuv-larning yuzaga kelishi va tarixiy tadqiqotlarda yangi uslublarning qo‘llanilishiga yo‘l ochib berdi.

Dalil tushunchasi tarixshunoslik nuqtayi nazaridan alohida maqomni, alohida ta’rifni, o‘ziga xos qoidani talab qiladi. Tarixchi dalil va va uning o‘ziga xos jihatlariga jiddiy yondashishi lozim. Har qanday tadqiqot jarayonida tarix tadqiqotchisi shunday holatlarga duch keladiki, bunda tarixiy tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotgan tadqiqotning mohiyati, uning ilmiy assoslanganligi dalillarga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bunda tadqiqotchi ma’lum bir tarixiy jarayon, vogelik yoki hodisa haqidagi xulosalarni isbot qilish, yoki aksincha uni inkor qilish, uchinchi holatda esa o‘z ilmiy xulosasini inkor qilib bo‘lmaydigan holatda ko‘rsata bila olishi va isbotlay olishida bevosita dalilga

asoslanadi, o‘z-o‘zidan bu jarayonda dalil o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, savol tug‘iladi, dalilning o‘zi nima, tarixiy dalil qanday bo‘ladi, dalilni qanday tushunish lozim?

Tarix fani o‘zining bir necha ming yillik taraqqiyot yo‘lida tarixiy dalilga bo‘lgan munosabatni aniqlashtirib olish uchun birmuncha murakkab, ilmiy tafakkur, ilmiy bilish va ilmiy xulosalar chiqarish tajribalarini o‘tadi. Tarix fanining ibtidosida tarixchining vazifasi asosan dalillarni yig‘ish bo‘lgan. Og‘zaki manbalar, afsonalar, rivoyatlar dastlabki vaqtarda o‘tmishni tasvirlab beruvchi asosiy omillar bo‘lgan bo‘lsa, tarix fanining taraqqiyoti jarayonida dalil va unga bo‘lgan munosabat, dalilni tarix faniga va tarixiy voqealarning asoslab berilishiga jalb etiliishi ham jiddiyashib, murakkablashib bordi. Aniq va muayyan sodir bo‘lgan tarixiy jarayon yoki hodisa haqida aniq dalillarni topish tarixchi oldidagi asosiy vazifalardan va muammolardan biriga aylandi.

Asosiy muammolardan yana biri dalilni izohlab berish edi. Asta-sekinlik bilan dalil va uning izohi borasidagi fikrlar, qarashlar, yondashuvlar shakllana boshladi va ayni vaqtda ularning turli xilligi bu tushunchalar o‘rtasidagi ziddiyatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘ldi.

XIX asrda dalilning «ilohiylashtirilishi», dalilga «sig‘inish» holatlari ro‘y berdi. Dalillarning aniqlanishi va qo‘llanilishi vazifa-si manbalarning tanqidiy tekshiruvi orqali amalga oshirildi. Dalil tushunchasi ostida real tarixiy voqelikni aks ettirib, tasvirlab beruvchi ishonchli bilim tushunildi. Dalillarga fanning ishonchli obyektiv asosi sifatida munosabatda bo‘lindi, dalillarni tavsiflab tarixiy jarayonni umumlashtirishga e’tibor qaratildi. Nemis tarixchisi D.Rankening ta‘kidlashicha, «tarixni qanday sodir bo‘lgan bo‘lsa, shundayligicha yozish kerak».

Pozitivistlar dalillarni umumlashtirishga ishonchsizlik va shubha bilan qarab, uni tarixchining subyektiv qarashlari mahsuli deb hisobladilar. Natija empirizmning yuzaga kelishi va dalillarning mutlaqlashtirilishiga (absolyutlashtirilishiga) olib keldi.

Tarixchining vazifasi sabab va oqibat orqali bir-biri bilan bog'liq bo'lgan dalillarni bir tizimga solish, deb qaraldi.

G.Rikkert bu masalaga neokantchilarning tarixning o'ziga xos xususiyatlarini asoslab bergan nuqtayi nazaridan kelib chiqib yondashdi. U tarixchi dalillarga asoslangan sof haqiqatni o'z fikr-mulohazalariga asoslangan holda bayon qilishi kerak deb hisobladi. Tarixiy dalillar bir marta sodir bo'ladigan holat bo'lib, u individual xususiyatga ega va hech qachon takror sodir bo'lmaydi. Dalillarning saralab olinishi me'yorlari uning «nodir»ligini asoslaydi.

Biroq fanning rivojlanishi shuni ko'rsatdiki, dalillar tadqiqotning faqatgina asosiga emas, balki uning natijasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Dalillarsiz nafaqat umumlashtirish mumkin emas, balki ilmiy dalillarning o'zi ham o'zida umumiylilikni ifodalaydi. Ingliz olimi F.Pauikning qarashicha, fanning dalillari – bu fikr va mulohazalar tizimi bo'lsa, umumlashtirish – mulohazalar haqidagi mulohazalardir.

Tarixchi Y.Topolskiy esa tarixiy dalillarni o'zgaruvchan yaxlit tizim sifatida o'rganib, bu tizim doimiy ravishda o'zgarib va yan-gilanib turadi, dunyoqarashlar kengayib borgani sayin dalil orqali voqelik mohiyatining yangi qirralari ochilib borishi muqarrardir, degan fikrlarni o'rtaga tashlaydi.

Amerikalik olim K.Bekker 1955-yilda har qanday oddiy dalillar o'z tarkibida ko'plab mayda va oddiy dalillarni ifodalaydi, degan fikr bilan chiqdi. Uning ta'kidlashicha, dalil – «bu aqliy shakllantirilgan, belgi, minglab oddiy va sodda dalillarning yagona dalilga birlashtirilishi»dir. Dalillarda hech qanday obyektiv mazmun mavjud emas va u real tarixiy voqelikka mos kelmaydi. Bularning barchasi tarixchining ongida, shuurida, tasavvurida to'qnashadi. K.Bekkerning yaqqol relyativistik (voqelikni obyektiv ravishda bilish mumkinligini inkor etadigan metodologik g'oya) qarashlarini boshqa faylasuflar ham quvvatladiilar. Xususan, fransuz R.Aron: «dalillar o'z holicha mavjud bo'lmaydi, dalil ong va tafakkur orqali shakllantiriladi va ong hamda tafakkur uchun bo'ladi», – deb hisoblaydi. Masalan, tarixchi tasvirlayot-

gan tarixiy jarayonlar va voqealar uning ongida, tasavvurida hosil bo‘ladi, ya’ni tarixchining ongidan tashqari tarixiy reallik mavjud emas, deb hisoblaydi. Uning fikricha dalil (fakt) ixtiyoriy erkin holatda tarixchi tomonidan shakllantiriladi, tarixiy bilish esa nisbiy xususiyatga egadir. R.Aronning bu qarashlari tarixchilarini qoniqtirmadi va ular bu fikrlarni inkor qilib, bu uslubdagi yondashuvni asossiz deb hisobladilar.

Tarixchi E.Karrning ta’kidlashicha, tarixda bo‘lib o’tgan har qanday voqealar emas, balki tarixiy ahamiyatga ega bo‘lganlari gina tarixiy dalil bo‘lishi mumkin. Uning fikricha, tarix bu izoh berishdir, tarixchi va dalil o‘zaro tenglik munosabatida bo‘lishi va har ikkisi ham o‘z hukmiga ega bo‘lishi kerakdir. Tarixchi xolislikka, dalil esa voqelikning asosi sifatida isbotlanganlikka ega bo‘lishi kerak. Shunda ularning tengligi va xolisligi ta’minlanadi, degan fikrlarni bildiradi.

Dalillar haqida o‘z fikrini bildirar ekan, E.Karr: «dalil – interpretatsiyaning yumshoqligiga nisbatan qattiq jism», – deb ko‘rsatadi. Dalillar bizga hech qachon sof holda yetib kelmaydi, ular tarixchining ongida ta’sirga uchrab, dahlsiz holatda tarixchining qarashlari va interpretatsiyasini ifodalaydi. Shuning uchun dalillar alohida ma’lum bir interpretatsiyada mavjud bo‘ladi. Dalillarning saralanishi esa tarixchining faktlarga asoslanmagan qarori natijasidir. E.Karr ko‘rsatib o‘tganidek, tarixchi Ssillaning dalillarning obyektiv ravishdagi aralashligi va dalilning interpretatsiyadan ustunligi to‘g‘risidagi tarix nazariyasi hamda Xaribdaning tarix tushunchasi dalillarni aniqlash va ularni interpretatsiya jarayonida ularni o‘z izmiga bo‘ysundiradigan tarixchining subyektiv ijodi mahsuli sifatida qarashlari o‘rtasida sarson bo‘lib qoladi. Bu haqiqatan ham bir-biridan uzoq bo‘lgan ikki qarash bo‘lib, ular o‘rtasidagi mutanosiblikni izlash davom etmoqda.

G.M.Ivanov dalil tafakkur mahsuli bo‘lib, obyektiv reallikni va tarixiy voqelikni ifodalaydi, deb hisoblaydi. Tarixiy dalil tarixiy voqealar bilan aynan bir xilda emas, ular bir-birini aynan takror-

lamaydi, biroq ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish maqsadga muvofiq emas – subyektivlikka olib keladi. Dalillar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida obyektiv va subyektiv holatda namoyon bo'ladi. Faktning mazmuni predmetning mazmuni va tadqiqot jihatni va xususiyatidan kelib chiqqan holda bir xillikka ega bo'lmaydi.

Vogelikdagi faktlar va tarixiy tafakkur dalillarini hamda ma'lumotdagi dalilni vogelikdagi dalildan bir-biridan farqlay olish tadqiqotlar jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday xabar va ma'lumotni vogelikdagi dalil sifatida qabul qilish va ayni vaqtida vogelikdagi holatlarni ma'lumotlar tarkibiga singdirish maqsadga muvofiq emas.

Shundan kelib chiqqan holda M.Ivanov dalillarni guruuhlariga ajratishni taklif etadi. Bunga ko'ra eng avvalo ular mazmuniiga ko'ra iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy bo'lishi mumkin, ya'ni bunday dalillar jamiyat tuzilishi va vazifalaridagi aloqadorlikni o'rganish imkonini bersa, ikkinchi guruh tarixiy hodisa (voqe) ning tarkibini aniqlab beruvchi mazmunga ega bo'lib tuzilishiga ko'ra alohida guruohni tashkil etadi. Bunga ko'ra dalillar oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Oddiy dalil takrorlanmas va yagona bo'lib, yanada soddaroq guruahlarga va qism-larga bo'linmaydi. Murakkab dalillar esa butun-butun jarayonlar bilan bog'liq bo'lib yoki ayni vaqtida ularni aks ettirib (masalan, xalqlarning kelib chiqishi va shakllanishi, dehqonchilikning kelib chiqish va shakllanishi, taraqqiy etib borish bosqichlari va boshq.) umumiylig kasb etadi. Dalillarni o'rganish tizimli yondashuvni talab etadi. Uchinchidan, dalillarni mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda muhimlik darajasiga asosan, ya'ni tadqiqot jarayonidagi o'ta muhimligi va aksincha, ahamiyatga ega emasligi bilan ham guruahlarga ajratish mumkin. Tarixchi tadqiqot jarayonida eng avvalo muhim ahamiyatga ega mavzulardan birini yoki tarixiy jarayonning eng dolzarb sohalaridan birining tadqiqini tanlashi mumkin. Ayni shu jarayonda dalilarning muhimliligi darajasidan kelib chiqqan holdagi

yondashuv orqali tadqiqotning predmetini va jihatlarini tanlab olishi yoki aniqlashi mumkin. Biroq bir narsaga e'tibor qaratish kerakki, bunda dalillarni muhimligi jihatlarini yoki darajalari ni aniqlab olish nisbiydir, ya'ni ayni bir holatda biror-bir da-lil muhim ahamiyat kasb etsa, ikkinchi bir holatda u e'tiborni tortmasligi yoki ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Ya'ni, biror-bir tarixiy shaxsning hayoti va faoliyati bilan bog'liq dalillar o'sha davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yoki madaniy hayoti tarixi jarayonlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etmaydi, bi-roq o'sha tarixiy shaxsning faoliyati va hayotini o'rganishda behahodir.

I.Kovalchenko dalillarni uchta darajaga bo'ladi: tarixiy vo-qelikka aloqador dalillar, tarixiy manbalardagi dalillar (faktlar), tarixiy-ilmiy dalillar (faktlar). Tarixchi tadqiqotlar jarayonida bu har uchala dalillar darajasini bir-biridan ajrata olishi kerak.

Voqeа va fakt muhim tarixiy kategoriylar hisoblanadi. Ko'rinishidan oddiy mazmunga egadek ko'rinsada, bu tushunchalarning mohiyati va mazmuni birmuncha murakkabdir. XIX asrning ikkinchi yarmidan bugungi kunlarga qadar tarixchilarning bu tushunchalarning mohiyati haqida bahslari davom etib kelayotganligi ham bu ikki tushunchaning tarix fani va uning tadqiqotlari jarayonida alohida muhim ahamiyat kasb etishi va ayni vaqtda ularning murakkabligini ko'rsatib beradi.

Voqeа - qachondir bo'lib o'tgan, sodir bo'lgan holat. Bu holat aksariyat hollarda tarixchining tadqiqot jarayonidagi diqqat-e'tiborining asosiy markazida turadi. Aksariyat hollarda tarixni voqeа bilan bog'liq munosabatda tushuniladi. Ingliz tarixchisi va faylasufi Robin Jorj Kollingvud (1888–1943-yy.)ning ta'kidlashicha, antik davrlardan boshlab tarix «res gestae» (insonlarning o'tmishda amalga oshirilgan faoliyati), ya'ni eng mashhur siyosiy voqealar haqida hikoya qilish sifatida tushunilgan¹.

¹ Коллингвуд Р. Идея истории. Автобиография. – М., 1980. С. 203.

Zamonaviy tarix fanida tarixchining vazifasi sifatida o'tmish voqealarini aniq va ilmiy asoslangan, haqqoniy va xolis yondashgan holda tavsiflash, tasvirlash, talqin qilish tushuniladi.

Tarixiy bilishda voqeaning turlicha interpretatsiyalari mavjud. Shartli ravishda ularni real va konstruktiv interpretatsiyalariga bo'lish mumkin.

Nisbatan keng tarqalgan real interpretatsiyaga ko'ra o'tmishda sodir bo'lgan voqealarning barchasi o'zining tarkibiy qismlari va tuzilishlariga ega bo'lib, turli manbalarda qayd etilgan. Shu tariqa voqealar tarixchi uchun «xomashyo» vazifasini o'taydi. Bu holatda tadqiqotchining faoliyati haqqoniylik nuqtayi nazaridan o'tmish voqealari haqidagi materiallarni va ma'lumotlarni talqin qilishda teng munosabat yondashuviga amal qilishi bilan baholanadi.

Konstruktiv interpretatsiya tarafdarlarining ta'kidlashicha, voqea tadqiqotchidan alohida va unga bog'liq bo'lman holda mavjud bo'lmaydi. Tarixchi turli manbalar bilan ishslash jarayonida muayyan bir xulosaga kelgan holda voqeaning intellektual konstruksiyasini yaratadi. Shu tariqa voqeani tarixchining aqliy faoliyati natijasi sifatida tushunish mumkin.

XIX–XX asr tarixchilarining fikrlariga ko'ra «voqea» tushunchasi aksariyat holatlarda «fakt» tushunchasi bilan to'qnash keladi. Umumiy holda aytish mumkinki, faktga voqeaning tasdiqlovchi omili sifatida qaralgan.

Fakt tushunchasi (lotin tilida factum – bajarilgan, amalgamoshirilgan, sodir bo'lgan) eng kamida ikki mazmunni ifodalaydi:

- biror-bir ishning, faoliyatning bajarilganligi;
- sodir bo'lgan holatning haqiqiyligi, uni tasdiqlovchi omil.

XIX–XX asrda tarix haqida shunday tushuncha yuzaga kelди, bunga ko'ra professional tarix o'z talqinda faktlarga asoslangan asosiy fan sifatida o'tmish haqida boshqa turdagи hikoyalar, afsonalardan farqlanishi ta'kidlana boshlandi.

XIX asr pozitivistlar tarixshunosligida o'ziga xos faktlarga «sig'inish», faktlarni «ilohiylashtirish» holatlari yuzaga kelди. Tadqiqotchining asosiy vazifasi manbalardagi eng zarur fakt-

larni izlab topish, ularni boshqa zarur bo'limgan ma'lumotlardan ajratib olish bo'lib qoldi (arxeolog topilgan ko'za sinig'iga yopishgan tuproqni tozalab tashlagani kabi...).

Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, faktlarsiz tarix o'zining tomiridan mahrum bo'ladi, faktlar tarixga obyektivlik, isbotlanganlik, ilmiylik kabi omillarni ta'minlab beradi. O'z navbatida tarixchining faoliyatjisiz fakt ham hech qanday ahamiyatga ega bo'lmasligi va o'zining mohiyatini yo'qotishi mumkin.

Ishonchli fakt tushunchasi XIX asrda professional tarix fannida asosiy tushunchalardan biriga aylanib bordi. Nemis tarixchi L. Fon Rankening ta'kidlashicha, tarixning guvohligi (tarixiy fakt) Valter Skott kabi yozuvchilarining romanlaridan ham qiziqarliroqdir. Rankening fikricha, eng ahamiyatsiz tuyulgan tarixiy fakt ham har qanday to'qib yozilgan buyuk romanlardan ham kattaroq ahamiyatga egadir¹.

Pozitivizmning XX asrdagi birmuncha nufuzli tanqidchilari dan B.Kroche, R.Kollingvudlar G.Gegeldan so'ng tarixiy jaryonni tarixiy ma'naviy rivojlanish jarayoni sifatida talqin qiladilar.

Ularning ta'kidlashicha, tarix tabiatdan farqli o'laroq tad-qiqotchining ongida obyektiv tarzda aks etmaydi. Tarixga va tabiatga aloqador faktlar tushuncha sifatida aynan bir xil ma'noni anglatmaydi.

Tabiatga aloqador faktlar shunday faktlarki, olim yoki tad-qiqotchi ularni ayni ko'rinishida qabul qilishi yoki laboratoriya da hosil qilishi mumkin.

Tarixiy faktlar esa o'tmishda va ma'lum bir vaziyatlarda sodir bo'lgan va takrorlanmas hodisalar sifatida namoyon bo'ladi. Ular bevosita muomalaga kiritilgandan so'nggina tarixiy mushohada obyektlariga aylanadi. Bu holatda tarixchining ixtiyorida faqatgina hujjatlar va boshqa qadimgi davrlar qoldig'i sifatida saqlanib kelgan narsalar yoki hodisalar bo'lib, tarixchi ularga asoslangan va tayangan holda faktlarni qayta shakllantirishi lozim. Aynan

¹ История исторического знания. С. 38.

mana shu jarayonlarda tarixiy bilishning o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi¹.

Tarixiy voqelikka aloqador dalillar (faktlar). Pozitivistlar tadqiqot jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan oddiy va alohida dalillarni (faktlarni) haqiqatan mavjud va to‘g‘ri deb hisoblaganlar. Biroq ayni vaqtida tarixchi tomonidan bunday dalillar (faktlar)dan tashqari murakkab jarayonlar, tizimlar ham tadqiqot jarayonida o‘rganilishiga jiddiy e’tibor qaratmaganlar. Tarixchi esa makon va zamon hamda vaqt chegaralarini va me’yorlarini hisobga olgan holda murakkab dalillarning sifatini aniqlaydi.

Har qanday tarixiy dalil (fakt) ayni vaqtida boshqa dalillar (faktlar) tizimi tarkibida va ayni vaqtida ular bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi. Dalillar (faktlar) tizimi ko‘p ma’nolidir. Shuning uchun ham tarixchilar ayni bir dalillar (faktlar)dan tarixiy voqelikni turlicha tasavvur qilishlari mumkin. Tarixchilar tarixiy voqelikni turlicha tasavvur qilsalarda, biroq dalil (fakt)ning haqiqiy mazmuni o‘z obyekтивligini saqlab qoladi. Tarixiy dalillar (faktlar) alohida tarixiy voqelik darajasida takrorlanmasdir, biroq jamiyat tizimi taraqqiyoti jarayonida mazmunan va mohiyatan takrorlanishi mumkin.

Tarixiy manbalar dalillari (faktlari, ma’lumotlari). Tarixiy manbalarning tarixiy voqelik haqida nechog‘lik haqqoniy va obyektiv ma’lumot bera olishi hamda bu tarixiy manbaning tarixiy voqelikka nisbatan ma’lumotlarining imkoniyatlari darajasini tarixchi aniqlab berishi mumkin. Bunda germenevtika, ya’ni manbalar va dalillarni (faktlarni) tushuntirib berish, sharhlab berish, talqin qilish muhim o‘rin tutadi. Manbalar ma’lumotlaridagi subyekтивlik va to‘qima ma’lumotlarni (xayoliy ma’lumotlar) aniqlash va ularni tarixiy tadqiqotlarda asosiy o‘ringa qo‘ymaslik, ularga asoslanib qolmaslik va ularning shunday jihatlarini aniqlab berish manbashunoslik fanining vazifalaridan biridir.

¹ История исторического знания. С. 208.

Tarixiy-ilmiy dalillar (faktlar). Bunday dalillar (faktlar) tarix-chining o‘zi tomonidan shakllantiriladi. Biroq bu dalillar (faktlar) tarixiy manbadan alohida ajratib olingan dalil (fakt)ning o‘ziga bo‘lib qolmasdan, M.Bargning fikricha ular «mohiyatan tizim-lashtirilgan», ya’ni tarixiy nazariyaning mahsuli sifatida shakllantirilgan dalillardir. Aniqlangan dalillar (faktlar)ning majmuyi yoki jamlanmasi qo‘yilgan muammoning yechimini topishda va aniqlashda aniq va ravshan ifodalangan bo‘lishi lozim. Dalillar (faktlar)ning aniqligini ta’minlovchi asosiy tamoyillardan biri dalilar (faktlar)ning tizimliligidir. Bunda dalillar (faktlar)ning nafaqat jamlanmasi, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi mazmunan yaxlitligi jihatidan tizimliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy manbalardagi ma’lumotlarning yetishmasligi va bo‘sqliqlarni esa mavhum ma’nodagi nazariy tahlil to‘ldirishi mumkin.

Shu o‘rinda taklif etilayotgan boshqa bir fikr ilgari suriladiki, bu ham bo‘lsa tarixiy manbalar va dalil interpretatsiyasida mantiqiylik nazariyasidir, quyida shu haqda so‘z yuritiladi¹.

Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro‘y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta omil sanaladi. Turli davrlarda yaratilgan tarixiy ilmiy asarlarda mualliflarning tadqiqot masalalariga turlicha yondashuvlari fikrlar va xulosalarning ham turlicha bo‘lishiga olib kelgan. Ularni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va tarixiylik, ilmiylik va xolislikka asoslanilgan eng to‘g‘ri xulosalarni chiqarish tarixchi mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Bugungi kunda tarix fani metodologiyasida mayjud bo‘lgan tarixiy dalil va uning interpretatsiyasi tushunchasi tarixiy dalillar, yozma va moddiy manbalardagi ma’lumotlar va o‘ziga xos jihatlarni tahlil qilgan holda tarixiy jarayon va vogelarni tahlil qilish, ular yuzasidan ilmiy xulosalar berishda aniq dallilarga asoslanshini ko‘zda tutadi.

¹ Qarang: Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. – T., 2013.

Tarixiy faktlarni aniqlash, ularni talqin qilish tarixga oid tadqiqotlarning muhim vazifasidir. Tarixchi nafaqat professional mahoratga ega bo‘lishi, shu bilan birga tarixiy faktlarni aniqlash, tahlil va talqin qilishda o‘zining obyektiv qarashlariga ham ega bo‘lishi kerak.

Tarixni o‘rganishda eng birlamchi manba sifatida tarix yoki tarixiy jarayonning o‘zini asosiy o‘ringa qo‘yish, yozma manbalar, moddiy manbalardan foydalanish jarayonida uning mohiyatini ochib berishda, ularga baho berishda yoki talqin qilishda esa ularning o‘ziga xos subyektiv xususiyatlarini va ayni vaqtida tadqiqotchi tomonidan subyektivlikka yo‘l qo‘yilishi mumkinligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Manbalar mualliflari tomonidan tarixiy jarayonlarni tavsiflashda ko‘proq umumiylit asosiy o‘rin tutadi. Voqealarning keilib chiqishi, jarayonlarning sodir bo‘lishi, natijalari va oqibatlari hamda ular bilan bog‘liq qator ma’lumotlar keltiriladi. Bir muallif ma’lum bir tarixiy jarayon, voqeа, davlat yoki boshqalar haqida ma’lumotlar keltirgan vaqtدا o‘z qarashlari va tafakkuri, tarixiy jarayonni qay tarzda ko‘ra olishiga asoslangan holda tarixiy faktlarni tizimlilik asosida shakllantiradi va tarixiy manbani yaratadi. Shuning uchun ayni bir davr, davlat yoki voqealar haqida yozilgan bir qancha manbalar va ularning mualliflari tomonidan yaratilgan asarlarda umumiylit mavjud bo‘lsada, ayni vaqtida voqealarning turlicha talqinini kuzatish mumkin. Shuningdek, bir tarixiy jarayon tavsifi keltirilgan, biroq turli davrlarda yaratilgan tarixiy manbalarda ham shunday holatni kuzatish mumkin. Biroq keyingi davrlarda yaratilgan manbalardagi ustunlik jihatи ham mavjudki, ular o‘zlaridan avvalgi mualliflar tomonidan yaratilgan manbalardagi ma’lumotlarni tahlil qilib, umumlashtirib, ma’lum ma’noda tadqiqotni amalga oshiradilar. Shunday ekan, manbalarning tarixni o‘rganishda eng asosiy o‘rin tutishini e’tirof etgan holda aytish mumkinki, har qanday manbada umumiylit tarixiy jarayonning u yoki bu holatlari e’tibordan chetda qoladi va har qanday manba o‘ziga xos tarzda subyektivlik

kasb etadi. Albatta bunda manbalardagi ma'lumotlarning bir-birini to'ldirib kelishi muhim omildir. Aytaylik, qadimgi Misr, Xitoy yoki o'rta asrlar Yevropa davlatlaridagi hukmdorlar huzurida-gi yilnomachilar ko'proq saroy bilan bog'liq siyosiy jarayonlarni yoritish vaqtida xalqning umumiy iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, ma'naviy hayoti bilan bog'liq ma'lumotlarni asosiy e'tibordan chetda qoldirgan bo'lsalar, turli ijtimoiy toifaga mansub tarix-chilar tomonidan yaratilgan asarlarda esa saroy hayotiga, davlat tuzilishi va boshqaruvidagi jihatlar umumlashtirilgan. Bunday xilma-xillikni ayniqsa antik davr mualliflari asarlarida yaqqol kuzatish mumkin. Demak, manbalar ma'lum ma'noda subyektivlik xususiyatida bo'lib, ular orqali tarixiy jarayonlarni to'laqon-li tavsiflash imkoniyati ma'lum ma'noda cheklangan yoki bosh-qacha aytganda, tarixchining tadqiqot jarayonidagi imkoniyati manbalardagi ma'lumotlarga bevosita bog'liq ekan, manbalar-da tavsiflangan tarixiy jarayonlar va ularning tavsiflanmagan ji-hatlarini aniqlash hamda o'rganishda tarixiylik va obyektivlik nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ilmiy jihatdan mantiqiy izchillik asosida yondashuv muhim o'rin tutadi.

Tarixning turli davrlarida yaratilgan moddiy manbalar ham tarixiy davr va tarixiy jarayonlarning umumiy holatiga ko'ra hududiy va davriy jihatdan ma'lum darajada subyektiv xususiylikka egadir. Ma'lum bir moddiy manba umumiy holat va jarayonning ma'lum bir qismini yoritish, sharhlash yoki tavsiflash imkonini beradi. Bu orqali umumiy tarixiy jarayonlarning ma'lum bir qismi, misol uchun me'morchilik ishlari haqida, yoki sopol parchasi yoki buyumlar ijtimoiy hayotning ma'lum bir qismi haqida tasavvur qilish imkonini beradi. Bunda umumiy tarixiy jarayonlar ma'lum ma'noda e'tibordan chetda qolishi yoki boshqacha aytganda, ayni bir manba bu haqda to'la tasavvur hosil qilish imkoniyatini bermasligi mumkin.

Tarixchi uchun ana shu davr tarixiy jarayonlari, iqtisodiy ja-rayonlar, jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti va madaniy holati ha-qida mantiqiy fikr yuritish orqali bilimlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday tadqiqotning asosida eng avvalo birlamchi manba bu tarixning o‘zi, ya’ni ana shu tarix jarayonlari sodir bo‘lgan vaqt, jarayonlarni yuzaga keltirgan tarixiy sharoit va hududiy omillar bo‘lishi kerak. Bunda tarixiy davrning va hududning siyosiy va iqtisodiy holati, jamiyat ma’naviy hayotining asosiy jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tarixchidan tegishli davr tarixiy jarayonlarini chuqr bilishni, shu davrga oid manbalar va dalillarni tadqiqotga jalb etish va ulardan foydalanishda va ayni vaqtda ularga nisbatan mantiqiy fikrlay olishi mahoratiga ega bo‘lish talab etiladi.

To‘g‘ri, bunda ayrim tarixchilar tomonidan tadqiqot jarayonida bunday yo‘l tutilishi subyektivlikka olib keladi, degan fikr bildirilishi tabiiy. Biroq bundagi ustuvor mohiyat tarixchining subyektiv jihatdan o‘z fikrini va xulosasini tarixiy jarayonga yoki uning mazmun-mohiyatiga singdirishi emas, balki tarixiy jarayondan kelib chiqqan holda mavjud voqelikni mantiqiy fikrlab, tarixiy jarayonlarni va voqealarni tasavvur qilish orqali manbalardagi ma’lumotlarga tayanib, ilmiylikka asoslangan mantiqiy xulosani bera olishdir.

Tarixchi tomonidan tadqiqot davomida manbalardagi ma’lumotlarni aniqlab, ularni umumiylar tarixiy jarayonlarni aniqlashda va tavsiflashda faqatgina faktlarning o‘ziga emas, balki shu bilan bir qatorda tarixiy jarayonlarning yuz berishidagi mantiqiy izchillikdan kelib chiqqan holdagi ilmiy yondashuv umumiylar ilmiy xulosalarning mantiqiy jihatdan to‘laqonli bo‘lishidagi muhim omildir.

Tarixiy jarayonlarning tadqiqi asnosida manbalar asosiy o‘rin tutsada, ulardagi ma’lumotlarni aynan qanday bo‘lsa shundayligicha emas, balki tarixiy jarayonlarning umumiylar holatidan mantiqiylikka asoslangan holda ilmiy xulosalarni tanlab olish maqsadga muvofiqdir. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlab o‘tilganidek, faktlarsiz, dalillarsiz tarix yo‘q. Tarixchi tadqiqot mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda yozma va moddiy manbalarni, ulardagi ma’lumotlar, ya’ni faktlar va dalillarni tanlash asnosida ularni saralaydi, ularni sharhlash orqali «jonlantiradi», o‘zi-

ning ilmiy nuqtayi nazardan tasavvuri, tavsifi va sharhlari orqali ilmiy tizimga kiritadi va ma'lum bir tarixiy jarayonning bir qismini yorita oladi. Bunda birinchidan, tarixiy manbalarning tahlili orqali undagi ma'lumotlar, faktlar orqali tarixiy jarayonlarning tavsifi va tahlili shakllantirilsa, ikkinchidan yozma manbalardagi mavjud ma'lumotlar orasidagi mavhumlik, yozma va moddiy manbalarni solishtirish va mantiqiy xulosalar chiqarish yordamida esa tarixiy jarayonlarning tavsifi va tahlilidagi uzilishlar va mavhumliklarni to'ldirish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa sifatida quyidagi fikrlarni aytib o'tish o'rinnlidir.

Birinchidan, tarixiy tadqiqotlar jarayonida ko'rindiki, barcha manbalar ham tarixiy jarayonlar tafsilotlarini o'z tarkibida to'liq qamrab ololmagan.

Ikkinchidan, tarixiy jarayonlar, voqealar, hodisalarning barcha xususiyatlarini o'zida aks ettirgan va ularning barcha mohiyatini aks ettira oladigan moddiy manbalarning ham, yozma manbalarning ham mavjud bo'lishi ham mantiqan, ham amalda mumkin emas.

Uchinchidan, har qanday yozma va moddiy manbalarning yaratilishi bilan bog'liq aksariyat holatlarda subyektivlik nisbatan mavjud va bu tarixiy jarayonlarning mazmun jihatdan butun borligicha aniq, mohiyat jihatdan obyektiv yoritilishini aksariyat hollarda shubha ostiga qo'yishi mumkin (rasmiy hujjatlar va huquqiy mazmundagi hujjatlarni istisno qilgan holda).

To'rtinchidan, manbalarda keltirilgan ma'lumotlar, dalillar va faktlar orqali tarixiy jarayonni o'rganish chog'ida o'rganilayotgan masalaning ayrim jihatlari mualliflar e'tiboridan chetda qolishi yoki muallif ongi va dunyoqarashiga mos kelmasligi natijasida tarixiy jarayonlar tafsilotlarining tavsifida uzilish va ayni vaqtida mavhumlik yuzaga keladi. Bu esa manbalarda tarixiy jarayonlarning to'liq tavsiflab berila olmasligining yana bir sababidir.

Demak, tarix tadqiqotlarida yozma va moddiy manbalardan foydalanish chog'ida ularning o'ziga xos subyektiv xususiyat-

larini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bunda shu vaqtgacha tadqiqotlar jarayonida manbalardan foydalanish uslublarini to'laqonli qo'llagan holda, tarixchi nazariyachilarning ta'kidlab o'tishicha, unga qo'shimcha ravishda tarixiy jarayonlarning o'zini mantiqan shakllantirish, modellashtirish va bir tizimga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng asosiysi tarixiy manbalar va dalil interpretatsiyasida mantiqiylik asosidagi yondashuv manbalarda aks ettirilmagan tarixiy jarayonlar tafsilotlaridagi bo'shliqlarni to'ldirish va tarixiy jarayon haqidagi to'liq va yaxlit umumiy tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bundagi eng murakkab jarayon esa eng birlamchi manba sifatida tarix yoki tarixiy jarayonning o'ziga murojaat qilishdir, ya'ni umumiy tarixiy jarayonlarni aniqlashda va tavsiflashda faqatgina faktlarning o'ziga emas, balki shu bilan bir qatorda tarixiy jarayonlarning yuz berishidagi mantiqiy izchillikdan kelib chiqqan holdagi ilmiy yondashuv umumiy ilmiy xulosalarning mantiqiy jihatdan to'laqonli bo'lishidagi muhim omil ekanligini inobatga olishdir.

Bunda tarixchining tadqiqot jarayonidagi professionalligi, tarixiy jarayonlarni butun mohiyati bilan chuqur anglamog'i, dallilar va faktlarning haqqoniyligini ilmiy jihatdan va ayni vaqtda mantiqan qo'llay bila olishi, xulosalarni chiqarishda ilmiylikka va obyektivlikka amal qilishi eng asosiy omildir.

Agar tarixchi ixtiyorida ko'plab manbalar va dalillar (faktlar) mavjud bo'lsa, bunda tanlab olish uslubi qo'llaniladi va tanlab olish jarayoni reprezentativ bo'lishi talab etiladi.

Tarixiy-ilmiy dalillar (faktlar) fanning rivojlanishi bilan bog'liq holda, yangi manbalarning aniqlanishi, yangicha yondashuvlarning shakllanishi ta'sirida voqelikni to'laqonli ravishda yoritib berilishi uchun imkon yaratadi. Bu jarayonda uning interpretatsiyasi o'zgarib boradi. Aynan ana shu holat manbalardagi ma'lumotlarni ilmiy dalillar (faktlar)ga aylantiradi. Biroq, turli tarixchilar manbalardagi ma'lumotlarni turlicha talqin qiladilar, bu esa relyativistlar (nisbiylik tarafдорлари)ga dalillar (faktlar)ning obyektiv maz-

mini yuzasidan buzilishi borasidagi bahslari va munozaralariga sabab bo'ladi. Postmodernistlarning ta'kidlashicha, interpretatsiyalarning ko'pligi tarixiy bilimning obyektivligiga putur yetkazadi. Biroq bu birmuncha bo'rttirib yuborilgan nuqtayi nazardir. Chunki, birinchidan aynan bir hodisa yoki jarayonga bog'liq ma'lumotlar va dalillar (faktlar)ning interpretatsiyasi unchalik ham ko'p emas. Tarixchi har qanday tadqiqot jarayonida o'zidan avvalgi tarixchilarning aynan bir voqeaga aloqador dalillarni (faktlarni) qanday talqin qilgani yoki sharhlagani yoki qo'llaganligi, o'zi esa nima uchun uni boshqa mazmunda talqin etayotganligini ko'rsatib beradi (sharhlab beradi). Aynan mana shu holat fanning chegarra bilmas taraqqiyotini belgilab beruvchi omillardan biridir. Ikkinchidan, aniq, konkret obyektiv mazmunga ega bo'lgan dalillar (faktlar)ning o'zi interpretatorlar (manbalar, dalillar, ma'lumotlarni o'rganuvchilar va u yoki bu nuqtayi nazardan sharhlovchilar va talqin etuvchilar, tarixchi tadqiqotchilar (tarixni buzib ko'rsatuvchi va dalillarni soxtalashtiruvchi «tarixchi»lar bunga kirmaydi)) ning sharplash va talqin qilish jarayonidagi imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Manbalarni chuqur o'rganish, dalillar (faktlar)ni atroflicha tahlil qilish, ularni tarixiy tadqiqotlarga jalb etish jarayonida tarixiylik, ilmiylik, obyektivlik tamoyillariga amal qilish tarix fani taraqqiyotining garovidir.

Tayanch tushunchalar: Tarixiy dalil va uning interpretatsiyasi, dalil, interpretatsiyaning «yumshoqligi» va dalilning «mustahkamligi», oddiy dalil, murakkab dalillar, tarixiy vogelikka aloqador dalillar, tarixiy manbalar dalillari, tarixiy-ilmiy dalillar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarixiy dalil nima?
2. Dalil interpretatsiyasi nima?
3. Dalilning «ilohiyashtirilishi» va dalilga «sig'inish» holatlari ni tushuntirib bering.
4. F.Pauikning dalillar haqidagi fikrini tushuntirib bering.

5. Nima uchun R.Aronning dalillar haqidagi yondashuvi o‘zini oqlamadi?
6. G.M.Ivanovning dalillar haqidagi fikrlari va dalillarning guruhlari haqida ma’lumot bering.
7. «Oddiy» va «murakkab» dalillar.
8. Dalillarni o‘rganishda tizimli yondashuvni nima?
9. I.Kovalchenko tomonidan taklif etilgan dalillarning darajalari haqida ma’lumot bering.
10. Tarixiy voqelikka aloqador dalillar qanday dalillar?
11. Tarixiy manbalardagi dalillar qanday dalillar?
12. Tarixiy-ilmiy dalillar qanday dalillar?

Mavzuga aloqador so‘zlarning izohli lug‘ati:

Interpretatsiya – sharhlash, izohlash, tushuntirib (izohlab) berish, talqin qilish.

Mantiq (mantiqiylik) – mantiq ilmi, mantiqiy fikr (fikrlash), inkor qilib bo‘lmaydigan mantiq (mantiqan to‘g‘ri xulosa yoki fikr), ichki (mantiqiy) qonuniyat – voqealarning ichki qonuniyatlar asosida (mantiqiy bog‘lanishda) kechishi, mantiqiy xulosa, mantiqiy izchillik, mantiqan to‘g‘ri mulohaza qilmoq, mantiqiy fikr yuritmoq.

Relyativistik yondashuv (relyativistlar) – voqelikni obyektiv ravishda bilish mumkinligini inkor etadigan metodologik g‘oya, unga nisbiylik asosida yondashish tarafdarlari.

Tarixiy manbalar – kishilik jamiyatni o‘tmishini hamda tarixiy jarayonlarni o‘rganish imkonini beradigan barcha obyektlar, ya’ni inson qo‘li bilan yaratilgan narsalarning hammasi, shuningdek atrof-muhit bilan munosabati natijalari, moddiy madaniyat namunalari, yozma yodgorliklar, urf-odatlar, marosimlar va boshqalar. Tarixiy manbalar miqdori chegarasiz, biroq turli tarixiy davrlarga oid bo‘lgan manbalar miqdori bir-biridan farqlanadi.

TARIXIY QONUNIYAT VA TARIXIY ZAMON KATEGORIYALARI

Tarixiy qonuniyat. Tarixiy rivojlanishda muqobililik. Tarixiy zamон kategoriyalari. O'tmishni to'ldirishning xilma-xilligi va xronologik jadvalarning tuzilishi, subyektivligi. Tarixiy rivojlanish davrlari.

Tarix fani qonuniyatlarni shakllantiradimi yoki individual, yakka holdagi, takrorlanmas tarixiy jarayonlarni tavsiflash bilan cheklanadimi? Bu tarixiy bilishning eng asosiy muammolari dan biri sifatida tarixchilar tomonidan e'tirof etilgan masalalardan biridir.

Agar tarix fan bo'lsa, u holda jarayonlarning mohiyatiga kirib borgan holda ularning obyektiv qonuniyatlarga asoslanganlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatib bera olishi kerak. Ayni vaqt da tarixiy bilish jarayonining murakkabligini hisobga olgan holda ko'pgina faylasuflar tarixiy jarayonlarning tasodifiy ekanligiga urg'u beradilar va qonunlarni ochish vazifasini sotsiologlarga yukladilar. Bu vazifaning hal etilishi va o'z yechimini topishi tarixdagi zaruriyatlar va tasodiflar haqidagi savollarga javob topishga imkon beradi. Fatalistlarning ta'kidlashicha, tarix o'zining avvaldan ma'lum yo'lida davom etib kelaveradi, unda hamma narsa qonuniy va zaruriy, inson esa shiddat bilan sodir bo'layotgan bu jarayonda mayda va arzimas payrahadir (ya'ni inson tarixiy jarayonning sodir bo'lishida hech qanday rol o'ynamaydi va unga ta'sir ko'rsa ta olmaydi) deb hisoblaydilar. Volyuntaristlar esa aksinchcha, inson tarixni ijod qiluvchi, uni shakllantiruvchi omil deb bilib, inson bu jarayonda o'ziga zarur va o'zi hohlagan jamiyatni barpo eta olishi mumkin deb hisoblaydilar. Bundan ko'rindaniki, bu masala akademik fan doirasidan chetga chiqib ketmoqda va ayni vaqtida insoniyatni o'ylantiradigan eng dolzarb savollarni o'rta tashlamoqda.

Tarixiy jarayonlarni qonuniyatlashtirish g'oyasi yangi zamondagi mushohadalarni yuzaga keltirib, ma'rifatparvarlar tomonidan o'rta asrlardagi ilohiyatchilik, tarixning yoki inson taqdirining «avvaldan

belgilab qo'yilishi» g'oyasini inkor qildi. Bu yondashuv natijasida tarixga dunyoviy xarakter berilib, ratsionalistik yondashuv, ya'ni har qanday tarixiy jarayonni aql-idrok, mulohazakorlik va ilmiylikka asoslangan holda tushunish va talqin qilish qaror toptirildi.

Pozitivistlar jamiyatning taraqqiyot qonunini turlicha talqin qildilar: goh ularni tabiat qonunlari bilan aynan o'xhash deb o'z fikrlarini ilgari sursalar, goh inson axloqiy taraqqiyotining asosiy qonuniyati deb tushuntirdilar.

XX asr boshlarida nemis tarixchisi E.Meyer shu vaqtgacha (ya'ni XX asr boshlarigacha) hech bir tarixchiga tarix sohasida biron-bir qonuniyatni ochganligi va kashf etganligi nasib etmaganligini qayd etib o'tgan edi.

Marksistlar esa qonuniyatlar g'oyasida qat'iy turib oldilar. Biroq ularning maqsadlari bilan inson faoliyatining natijalari bir-biriga mos kelmadidi. Jamiyatda ko'plab qonuniyatlar mavjud va ular doimiy harakatda bo'lib, natijada ular jamlanib bir maromda ishlay boshlaydi va obyektiv qonuniyatlar sifatida namoyon bo'ladi. Marksistlar tomonidan taklif etilgan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasi jamiyat tarixiy taraqqiyotini qonuniyatlar asosida ro'y berishi haqida umumiylasavvurlarni berdi, biroq ko'pgina tarixchilar tomonidan bu g'oya qabul qilinmadidi, shunga qaramasdan XX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida jahonning ko'pgina davlatlarida bu nazariyaga amal qilish keng tus olib, XX asrning 90-yillariga kelib bu nazariya o'z ahamiyatini yo'qotdi.

A.Toynbi, O.Shpengler kabi ayrim tarixchilar va faylasuflar taraqqiyotning «davriy» nazariyasini qabul qildilar. Har qanday madaniyat va sivilizatsiya shakllanish, taraqqiyot, inqiroz va butkul yo'q bo'lib ketish davrini boshdan kechirgan. Biroq bu tamoyil ham tarixchilar o'rtasida birdek qabul qilingan g'oya hisoblanmaydi. Ko'pchilik rasmiy mantiq, psixologiya qonunlarini tan olib, hattoki bilishning o'zini ham tan oladilar, biroq tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini birdek qabul qila olmaydilar.

XX asrning so'nggi choragida rus tarixchilari pozitivistlarning qonunlarni sotsiologiya ochadi (shakllantiradi, yuzaga

chiqaradi), tarixchi esa ularni tarixiy materiallarda aks ettiradi xolos, degan fikriga qarshi bahsga kirishdilar. M.A.Barg o‘zining «*Категории и методы исторической науки*» (1984) nomli kitobida tarixiy qonuniyatlarni sotsiologik qonuniyatlardan alohida ajratib ko‘rsatishga harakat qildi. Ulardan har biri bilish faoliyatining tegishli darjasidagina ishlashi mumkin. Tarixiy qonuniyatlar o‘zining abstraktlik darajasiga ko‘ra mazmunliroqdir va ayni vaqtida sotsiologik qonuniyatlardagi abstraktlik darajasidan bir necha barobar pastroqdir. Agar sotsiologik daraja umumiy holatda namoyon bo‘ladigan bo‘lsa, tarixiy daraja alohida maxsus holatda aks etadi. Biroq bu tezislar tarix fanining umumiy qonuniyatlarni qabul qilish va bilish darajasini pasaytirishni hohlamagan tarixchilar tomonidan qabul qilinmadni. Biroq ayni vaqtida M.A.Bargning mazkur fikrlarining o‘zi tarix fani uchun samarali fikrlar bo‘lib, eng avvalo u tarixiy qonuniyatlarning sotsiologik qonuniyatlar bilan bir emasligini, qolaversa tarixiy qonuniyatlarning aniq va konkretligi, turliligi va mazmun jihatdan boyligini ko‘rsatib berdi. Tarixchiga sotsiologik qonuniyatlarni va qonunlarni bilishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi, balki tadqiqotlar mobaynida tarixiy jarayonlarning o‘zaro sodir bo‘lishida ta’sir ko‘rsatgan bir qator «xususiy» qonuniyatlarni ham jalb etish maqsadga muvofiqliroqdir.

Tarixiy qonuniyat (qonun) – bu turli ko‘rinishdagi «xususiy-tarixiy» qonuniyatlarning birlashgan ko‘rinishi bo‘lib, ularning o‘zaro tenglikda bir-biri bilan kesishish nuqtasidir. Jamiyat hayotida sotsiologik qonuniyatlarning yuzaga kelishidan chekinish yoki tizimlarga xos bo‘lmagan holatlar ham uchraydi. Tarix fani tarixiy jarayonlarni «to‘g‘rilash yoki izga solish» uchun sotsiologiga imkon bermaydi. M.Barg tarixiy qonunlarni vaqt bo‘yicha, faoliyat ko‘lami, yuzaga kelish yoki sodir bo‘lish shakllari va sodir bo‘lish holatlariga ko‘ra turlarga bo‘ladi. Ular an’analalar va statistik qonunlar sifatida o‘zlarini namoyon qiladi.

1889-yilda B.G.Mogilnitskiy faqatgina umumiy qonunlarga asoslangan holda tarixiy jarayonlarning turlichaligini ko‘rsa-

tib bo‘lmaydi deb, ta’kidlagan edi. Tarixiy voqelik har qanday eng to‘g‘ri va eng mukammal qonundan ham mukammalroqdir.

Tarixiy qonuniyat (qonun) — bu tarixiy jarayonlarning ichki o‘xhash holatlarini o‘zaro bog‘liqlikda aks ettiruvchi zaruriy, muhim ahamiyatga ega, barqaror holatda takrorlanuvchi aniq va konkret munosabatlardir.

Tarixiy qonuniyatlar (qonunlar) aniq-umumiyligi, individual-boshqaruvchi, shartli (ehtimoliy) bo‘ladi. Ular tarixiy jarayoni hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlik mohiyatiga asosan tushuntirib beradi. B.Mogilnitskiyning fikricha faqatgina sotsiologik qonuniyat (qonun)larning mavjudliginigina tan olish yoki e’tirof etish fatalizmga va apologetika (ko‘r-ko‘rona himoya qilish, barchasi oldindan belgilangan va ma’lum qonuniyatlarga asoslangan)ga olib keladi.

Tarixiy taraqqiyotda muqobililik masalasining qo‘yilishi ma’lum bir ahamiyat kasb etdi. Dastlab XX asrning 50–80-yillarida fanda qonuniyatlarning qo‘llanilishi bo‘yicha qat’iy qarashlar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarga kelib jamiyat taraqqiyotining turli ko‘rinishlari haqidagi so‘z yuritish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu vaqtda Yevropa tarixshunosligida jamiyat taraqqiyotining turli muqobil ko‘rinishlari bor va ulardan birining ustunligi va jamiyatda qaror topishi faqat tasodifga bog‘liq ekanligi e’tirof etilgan edi.

Biroq, taraqqiyot jarayonida turli g‘oyalar va an‘analarni o‘z-o‘zidan qo‘llash mumkin emas. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan har bir muqobil holat obyektiv real voqelikda ma’lum darajada o‘z asosiga ega bo‘ladi. Tarixchi ularni o‘ylab topmaydi, to‘qib chiqarmaydi, balki haqiqiy, real voqelikdan qidiradi. Jamiyat qarama-qarshiliklardan, xilma-xilliklardan iborat bo‘lib, unda turli g‘oyalar, bir-biriga bilan raqobatlashuvchi va kurashuvchi sis-yosiy partiyalar, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar faoliyat ko‘rsatadi. Tarixchi o‘z tadqiqotlari jarayonida qarama-qarshiliklar va muqobilliklardan nima uchun aynan bitta muqobillik ustunlikka erishdi yoki g‘alaba qozondi, degan holatni o‘rganishi va

aniqlashi kerak bo‘ladi. Qonuniyat ana shu tarixiy imkoniyatdan foydalana olgan qarama-qarshilik natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tarixchi esa ana shu imkoniyatlardan qanday foydalanilganligi va u qanday natijalarga yoki oqibatlargacha olib kelganligini o‘rganadi. Aksariyat hollarda vogelik sodir bo‘layotgan holatda uning natijalari yoki oqibatlarini zamondoshlari payqamasligi mumkin, tarixchi esa ana shu holatlarning u yoki bu jihatlarini tarixiy xulosalash orqali ma’lum ma’noda oldindan «ko‘ra olishi» kerak.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, biror-bir muqobillikning jamiyatdagi ustunligi qonuniyatlarning amal qilishini inkor qilmaydi, chunki subyektiv omillarning faoliyati obyektiv shart-sharoitlar bilan cheklangan bo‘ladi yoki boshqacha aytganda muqobillik har doim bo‘lishi mumkin. Biroq bu holatning inkor qilinishi obyektiv tarix haqidagi tasavvurlarni kamaytiradi va fatalizmga hamda mavhumlikka olib keladi. Albatta muqobillikni yo‘q joyda ham ma’lum ma’noda ko‘rish mumkin, biroq bu tarixchining tafakkuri, tarixiy jarayonlarga obyektiv ravishda yondasha olishi va tarixiy bilimlariga bog‘liqdir.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tarix fanining maxsus qonuniyatlar haqidagi fikrlarga xulosa sifatida aytib o‘tish kerakki, ko‘pgina yevropalik faylasuflar tomonidan bu masalaga umuman muammo sifatida munosabatda bo‘linmagan, chunki ular tarix fanidagi qonuniyatlar (qonunlar)ning mavjudligini inkor qilganlar va uning bilish imkoniyatlarini yetarli baholamaganlar. Ularning fikricha, tarixchi sotsiologik qonuniyatlardan foydalanyaptimi, demak tarix ham «sotsiologiyalashtirilmoqda» (ijtimoiylashtirilmoqda), o‘tmishdagi tarixiy jarayonlar va hodisalar haqidagi aniq va konkret tarixiy yondashuvlar esa yo‘qqa chiqariladi.

Umuman bu fikrlardan ko‘rinadiki, tarix fanining qonuniyatlar (qonunlari) masalasi hali yana yangi fikrlar va ilmiy xulosalariga ehtiyoj sezmoqda va bu boradagi bahs-munozaralar yana davom etadi.

Tarix fanidagi qonuniyatlar bilan uzviy bog‘langan yana bir jihat tarixni davrlashtirish va tarixiy zamon kategoriyalari masalaridir.

Tarixchilar I.M.Savelyeva va A.V.Poletayevning ta’kidlashicha, tarix fanida zamon (vaqt) kategoriyalari metodologiya fani uchun uning tarix fani predmeti va tarix fani metodlari kabi o‘ta muhim o‘rin tutadi¹.

F.Brodelning tarixiy vaqt masalalari yuzasidan bildirgan o‘xshatishiga ko‘ra «Tarixda vaqt tarixchining fikrlariga bog‘bonning belkuragiga yopishgan tuproq kabi yopishadi». Vaqt haqidagi tasavvurlar asosida farazlar va tadqiqotlarning xulosalari shakllanadi.

Falsafiy mazmundagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish nati-jasida yuqoridagi mualliflar vaqtini ikki qismga bo‘ladilar, ya’ni bunga ko‘ra birinchi vaqt guruhiga statistik, diskretik, bir xil xususiyatli (gomogen) va tasodify-ta’sirsiz bo‘lsa, ikkinchi vaqt guruhiga o‘zgaruvchan, kontinual, har xil xususiyatli (geterogen), tasodify-samarali turlarga bo‘lingan. Bu yondashuv yevropa madaniyatida bir necha yuz yillardan buyon amal qiladi.

Tarixchilarning ta’kidlashicha, tarixchi vaqt bo‘yicha (vaqtga asoslangan holda va vaqt omilini hisobga olgan holda) faoliyat ko‘rsatadi, ayni zamondan xulosalar chiqargan holda o‘tmishni to‘ldiradi. O‘tmishni to‘ldirishdagi vaqt bo‘yicha xilma-xilik va subyektivlik tarixiy bilishning alohida belgilari (xususiyatlari)dan biridir. Masalan, xronologik jadvallar turli ko‘rinishda (kunlar, oylar, yillar, asrlar, davrlar, bosqichlar va boshq.) shakllantiriladi. Bunda ko‘rsatilgan sanalar oralig‘idagi bo‘sqliq davrlarda qanday voqealar sodir bo‘lgan, bu voqealar yoki jarayonlar davrlarga oid voqealarga qanday ta’siri bor, bog‘liqligi bor – bu masalalar ochiq qolishi mumkin. Shunga ko‘ra sanalarni bir tizimga keltirish, voqealarni va ularning sanalarini tanlash

¹ И.М.Савельева, А.В.Полетаев. «История и время». 1997.

va xronologik jadvalga kiritish ko‘p hollarda subyektiv xususiyatga ega bo‘ladi. Ayrim hollarda manbalarning mavjud emasligi yoki yetishmasligi va mustahkam emasligi sababli vaqtini dalillar (faktlar) bilan boyitish yoki mustahkamlashning imkonini bo‘lmay qoladi. Ayrim hollarda esa vaqtini tanlash va to‘ldirish holatlari mafkuraviy omillarga ham bog‘liq bo‘lib qoladi. Ba’zan esa keng tarqalgan ijtimoiy nazariyalar (sotsiologik nazariyalar – ziddiyatlar, modernizatsiyalar, hokimiyat-hukmronlik) ham vaqtini to‘ldirish va xronologik tizimga solishga ta’sir ko‘rsatadi. Shu tariqa tarixchi tarixiy tadqiqotlar jarayonida tarixiy voqealarni va hodisalarni vaqt bo‘yicha, qismlargacha bo‘lgan holda, turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilgan holda amalga oshirishiga to‘g‘ri keladi. Turli tarixiy davrlar, geografik mintaqalar va hududlar tarixini o‘rganishdagi tartibsizlik, tarqoqlik, tengsizlik, xilma-xillik tarixiy vaqt tushunchasidagi «oq dog‘lar»ga aylanadi.

Yuqoridagi mualliflarning fikricha tarixchi «vaqt bilan ishlaydi». Bunda u yashab turgan zamон (davr, vaqt)dan kelib chiqqan holda, tarixchining qanday ijtimoiy guruhga mansubligi (professional yoki siyosiy) kabi omillar ta’sirida «vaqt bilan ishlash»i, qo‘yiladigan vazifalar – ya’ni haqiqatni izlash, yoshlarni tarbiyalash, u yoki bu siyosiy tizim yoki siyosiy yo‘nalishning tarixiy asoslarini aniqlash va asoslab berish kabi jarayonlarda «vaqt bilan ishlash»i, shuningdek eng asosiysi, tarixchining o‘z mehnati, o‘z tadqiqoti va uning natijalariga qanchalik jiddiy munosabatda bo‘lishi nuqtayi nazaridan «vaqt bilan ishlash»i mumkin.

Tarixchilar tomonidan vaqt va uning jihatlari haqida bildirilgan fikrlar unchalik ham ko‘p emas. Biroq bular orasida fransuz tarixchisi F.Brodelning «tarixiy vaqtning turli o‘lchamlari» tushunchasi alohida e’tiborni tortadi. U diqqat-e’tiborni «tarixiy jarayonlarning arxitekturasi» deb nomlangan tizimga qaratadi. Bunda muallif bu tizimni xayoliy, o‘ylab chiqarilgan konstruksiyaga (tuzilishga), real (barqaror, sekin o‘zgaruvchan) voqelikni esa mustahkam konstruksiya (tuzilish)ga qiyoslaydi.

F.Brodel vaqtning uchta «qatlami»ni ajratib ko'rsatdi. Bu qatlamlarning eng quyidagi asosiy elementlari inson, yer va koinot bo'lgan ijtimoiy hayot qavatida barqaror tuzilish mavjudligi, bunda vaqt «juda sekin» o'tishi, tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yuz yillar davomida asta-sekinlik bilan o'zgarib borishi bilan xususiyatlanadi va «uzoq vaqt» hisoblanadi. Ikkinchi «qavat» iqtisodiy va ijtimoiy vogelik bo'lib, davrlar takrorlanuvchi xususiyatga ega (siklik xarakter), ular orasidagi vaqt masofasi qisqadir. Uchinchi «qavat» sifatida muallif siyosiy voqealarning xronologiya bilan aniqlanishini ko'rsatadi¹.

F.Brodelning «uzoq davom etuvchi vaqt» tushunchasi tarixchiga «voqealar ichidan» chiqib, jarayonlarga boshqacha ko'z bilan qarash imkonini beradi. Uning bu fikrlari keyinchalik Le Rua Ladyuri tomonidan ham davom ettirildi.

Yuqoridaqilarga xulosa qilib aytish kerakki, tarixchi hamma vaqt yangi yondashuvlar va g'oyalarni qo'llashga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi, yangi va sog'lom fikrlarni qo'llab-quvvatlashi, biroq ayni vaqtda ularning imkoniyatlarini obyektiv ravishda aniqlab olishi va tadqiqotlar jarayonida eng samarali va eng to'g'ri yondashuvlardan foydalanishi maqsadga muvofiqlimdir.

Tayanch tushunchalar: tarixiy qonuniyat, tarixiy rivojlanishda muqobililik, tarixiy zamon kategoriyalari, o'tmishni to'ldirishning xilma-xilligi va xronologik jadvallarning tuzilishi, subyektivligi, tarixiy rivojlanish davrlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarixiy qonuniyat va tarixiy qonun tushunchalarini izohlab bering.
2. Tarixiy rivojlanishda muqobililik qanday tushuncha?
3. Tarixiy zamon kategoriyalari.

¹ И.М.Савельева, А.В.Полетаев. «История и время». 1997.

4. Tarixni davrlashtirish masalalariga izoh bering.
5. Tarixiy zamon kategoriyalari haqida tushuncha bering.
6. O‘tmishni to‘ldirishning xilma-xilligi.
7. Xronologik jadvallarning tuzilishi.
8. Xronologik jadvallarning subyektivligi.
9. Tarixiy rivojlanish davrlari.

Mavzuga aloqador so‘zlarning izohli lug‘ati:

Apologetika – diniy ibora bo‘lib, ayrim hollarda tarix fanida ham qo‘llaniladi va ko‘r-ko‘rona himoya qilish ma’nosida tarixiy voqealarning va jarayonlarning barchasi oldindan belgilangan va ma’lum qonuniyatlarga asoslangan holda sodir bo‘ladi degan teologik tushuncha.

Volyuntarizm – falsafada voqelikning negizi irodadadir, deb biluvchi va obyektiv taraqqiyot qonunlarini rad etuvchi idealistik yo‘nalish. Psixologiyada irodani psixik hayotning asosiy omili deb qarash. Tarix fanida esa tarixiy taraqqiyotning obyektiv qonunlari bilan hisoblashmay, o‘zboshimchalik bilan ish tutish. Volyuntaristlarning ta’kidlashicha, inson tarixni ijod qiluvchi, uni shakllantiruvchi omildir, inson tarixiy jarayonda o‘ziga zarur va o‘zi xohlagan jamiyatni barpo eta olishi mumkin deb hisoblaydilar.

Pozitivistlar – (pozitiv – tajribaga, faktlarga asoslanish). Pozitivistlar tarixni «pozitiv» bilimga aylantirishga harakat qildilar. Bu tushunchaning mohiyati shundaki, pozitivistlar hamma haqiqiy, pozitiv bilimlar konkret fanlarning mahsulidir, falsafa esa bunday bilimlarni bera olmaydi, shuning uchun uning keragi yo‘q, degan g‘oyaga asoslangan subyektiv qarashga ega edilar. Ular tarixiy dalillar bilan qanday ishslash, manbalarni tahlil qilish bo‘yicha bir qancha metodlarni ham taklif qilganlar.

Ratsionalist – hayotga aql ko‘zi bilan qarovchi, mulohazakor, aql-idrokka asoslangan hukm (fikr). Falsafada ratsionalizm – tafakkurni hissiy tajribadan ajratib qo‘yadigan va aqlni bilishning

birdan-bir manbayi deb hisoblaydigan falsafiy oqim. Tarix fanida har qanday tarixiy jarayonni aql-idrok, mulohazakorlik va ilmiy-likka asoslangan holda tushunish va talqin qilish.

Fatalist — taqdirga ishonuvchi, taqdir, peshanaga yozilgani, qismatga bitilgani sodir bo‘ladi, deb hisoblaydi, fatalistlar (tarix fanida) — voqealar sodir bo‘lishi muqarrar, uni muhokama qilish maqsadga muvofiq emas deb hisoblovchilar. Fatalistlarning fikricha, tarix o‘zining avvaldan ma’lum yo‘lida g‘ildirab kela-veradi, unda hamma narsa qonuniy va zaruriy, inson esa shiddat bilan sodir bo‘layotgan bu jarayonda mayda va arzimas payrahadir (ya’ni inson tarixiy jarayonning sodir bo‘lishida hech qanday rol o‘ynamaydi va unga ta’sir ko‘rsata olmaydi) deb hisoblaydilar.

TARIXIY BILISH TAMOYILLARI

Anglash. Tarixiy bilish tamoyillari. Bilish tamoyillari va ularning regulyativ funksiyalari. Bilishning subyekti. Bilish subyektining faolligi. Haqiqatni izlash. Obyektivlik tamoyili. XX asrda obyektivlik tamoyiliga xujum. Sababiylilik tamoyili. Tasodiflar, tartibsizliklar, tarixiy voqealarning sabablari. Sabab va oqibat aloqalarini ochish murakkabligi. Tarixiylik tamoyili. Dialektik uslub. Tarixni materialistik tushunish, voqealarning genetik aloqasi. Tuzilish va jarayon.

Bilish tamoyillari tadqiqotchiga tadqiqot jarayonidagi vazifalarni bir maromda ma'lum tartiblarga asoslangan holda amalga oshirishida zarur bo'ladigan omillardir. Ular tadqiqotchining u yoki bu tarix maktablari, falsafiy yo'nalishlarga mansubligi va dunyoqarashi, fikrlashi va tafakkuridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Tamoyillar uslublar bilan mustahkam o'zaro bog'liqlikda bo'lganligi uchun ayrim hollarda ularni bir-biri bilan adash-tirish holatlari ham uchraydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish o'rinlikni, tamoyillar uslublarga nisbatan birmuncha murakkab va keng tushuncha bo'lib, bir tamoyil o'ziga bog'liq holda bir necha uslublarni shakllantirishi mumkin, ayni vaqtida esa bir uslub bir necha tamoyillarga xizmat qilishi mumkin.

Tarixiy bilish tamoyillari deganda nimalarni tushunish yoki tushuntirish kerak, degan savol tarixchilar o'rtasida uzoq vaqt mobaynida bahs-munozaraga sabab bo'lib keldi. Mavjud barcha tamoyillardan tarix fanining deyarli hamma yo'nalishlari va tamoqlarida ustuvor tamoyillar sifatida foydalaniladi. Quyida tarixchilar tomonidan tadqiqotlar jarayonida ko'proq qo'llaniladigan va nisbatan samaraliroq bo'lgan tamoyillar haqida so'z yuritiladi. Biroq ularni umumiy qabul qilingan tamoyillar deb qat'iy fikr bildirish mumkin emas. Har bir tarixchi o'z tadqiqotlari jarayonida tadqiqot mazmunidan va mohiyatidan kelib chiqqan holda tadqiqot natijasi uchun samaraliroq bo'lgan tamoyillardan foydalanishi mumkin.

Xolislik (obyektivlik) tamoyili. Mazkur tamoyilga ko‘ra tarixiy voqelik obyektivdir, tarixiy faktlar (dalillar) va manbalar obyektiv mazmunga ega bo‘lib, tarixiy tafakkur yordamida obyektiv haqiqatga erishish mumkindir. Agar tarixchi bu tamoyilga amal qilmasa, tarixiy tadqiqotni amalga oshirishidan samara bo‘lmaydi va xatolikka yo‘l qo‘yishi mumkin. Bu masalada dastlab XIX asrda nemis tarixchisi L.Ranke tarixchilarga murojaat qilib, tarixni obyektiv (xolislikka amal qilgan holda, xolisona yondashib) o‘rganishga chaqirdi. Uning fikricha, «tarixchi o‘tmishni taffish qilib (aynan «sud qilib») kelajak foydasi uchun zamondoshlarni o‘rgatish emas», balki faqatgina tarixiy jarayonlarni tadqiqot uslublaridan foydalangan holda va tarixchilarning tanqidlariga amal qilgan holda qanday bo‘lsa shundayligicha ko‘rsatib berishi kerak. Bu amalga oshishi murakkab bo‘lgan ideal tadqiqot, biroq uni to‘liq ravishda amalga oshirishga harakat qilish tarixchi uchun zarurdir». L.Rankening Germaniyadagi kasbdoshlari uning bu fikrlariga qo‘shilmadilar va tarixchi siyosatdan chetda turishi mumkin emas, degan qarshi fikr bildirdilar. G.Treychkening fikricha, «tarixchi «faqatgina qabrda yotganida» siyosatdan (yoki siyosiy mansublikdan) xoli bo‘lishi mumkin».

Marksistlar tarixchilarning siyosatga aloqadorligini sinfiy qarama-qarshilik (yoki sinfiy mansublik) nuqtayi nazaridan ko‘rsatishga harakat qildilar. Bunda ularning aksariyat ko‘pchiligi boshqa bir marksist G.Plexanovning tarix fani biror-bir partiya yoki siyosatga bog‘liq bo‘lishi mumkin emas, faqatgina tarixchining o‘zi bunday holatga mansub bo‘lishi mumkin, degan qarashlarini ham inkor qildilar. XX asr dastlabki choragida bu qarama-qarshilik asta-sekin so‘nib bordi va asosan sobiq sovet tarixchilaridan «so‘nggi tarixiy jarayonlar haqida tarix faniga o‘zgartirishlar kiritish» va tarixchilarni «mafkuraviy front jangchilari» sifatida shakllantirilishi talab dara-jasiga ko‘tarildi. Bunday vaziyatda bu tarixchilar tomonidan tarixiy haqiqatni izlash va xolisona tarixiy tadqiqot olib borish amalda o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Sovet mafkurasi tarix fanini o‘z ta’siriga olib uning fan sifatidagi mavqeiga ham putur yetkaza boshladi.

XX asr davomida yevropalik faylasuflar tomonidan ham obyektivlik (xolislik) tamoyilini inkor qilish va uni turlicha talqin qilish holatlari davom etdi. Subyektivlik va relyativizm keng tarqalib, ommalasha boshladi. Biroq XX asrning 70-yillaridan boshlab postmodernistlarning tarix fani haqidagi fikrlari va qarashlari, bir qator ilmiy-nazariy yondashuvlari ilgari surila boshlagach obyektivlik (xolislik) tamoyiliga qarshi yana bir «hujum» yuzaga kel-di, ya’ni, postmodernistlarning «tarixchilar hech qachon obyektiv haqiqatga erisha olmaydilar va bu boradagi harakatlari samarasiz yakun topadi» deb ta’kidlaydilar.

Biroq tarixchilar postmodernistlarning bu fikrlarini to‘liq inkor qiladilar va hech qachon tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishi va uni amalga oshirishdan to‘xtamaydilar, bu asrlar davomida tarixchilar tomonidan amalga oshirilgan tarix asarlari ning yaratilishi va ulardagi tarixiy jarayonlarning yoritilishi va keyingi davrlarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari va ularning ilmiy xulosalaridan ham anglash mumkin. Agar tanqid asosli bo‘lsa, u har doim tarixchilar tomonidan inobatga olinadi va bunda tarixchilar albatta tarixiy haqiqatning (tarixiy xolislikning) qaror topishi va ilmiy jihatdan asoslanishi hamda tadqiqot oldiga qo‘yilgan maqsadlarining amalga oshirilishi uchun yangi uslublarni izlab topishga (shakllantirishga) va ularni ilmiy jihatdan asoslashga harakat qiladi. Bunda tarixchiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan bir qator omillar (siyosiy, milliy, diniy, ijtimoiy va boshqalar) ham borki, ular ham ba’zida tarix tadqiqotlarida o‘z ta’sirini ko‘rsatishi mumkin, bunday hollarda bildiriladigan tanqidlar tarixchiga eng to‘g‘ri yo‘nalishni tanlab olishi uchun turtki bo‘lishi shubhasizdir.

Tarixchi tadqiqot obyekti, tarixiy voqelik yoki jarayon va hodisalarni har tomonlama o‘rganishi lozim. Bilish obyekti har doim tarixiy jarayonning bevosita ishtirokchisi bo‘ladi, jarayonning butun mohiyatini o‘zida aks ettiradi.

Tadqiqot jarayonida xolislikka (obyektivlikka) erishish uchun bilish subyektining faolligi hamda kuzatuvchanligi, keng musho-

hada yurita olishi, tafakkuri va bilishga intilishi, tadqiqotlardagi barcha uslublarni, ayniqsa fanlararo yondashuv uslublarini qo'llashi katta yordam beradi.

Tarixchiga zarur bo'ladigan omillar bu – yuqori darajadagi professionallik (yuqori darajadagi kasbiy mahorat va bilim), keng tafakkuri va chuqur aql-zakovatga egaligi, tadqiq etilayotgan davr (tadqiq etilayotgan tarixiy davrlar) insonlari (insoniyat) oldidagi javobgarlik hissining yuqoriligi va ayni vaqtida mas'uliyatni his eta olishi, ayni vaqtida kasbdoshlari oldida va qolaversa, zamon-dosh kishilar oldidagi javobgarlik hissining yuqoriligi va mas'uliyatni his eta olishi hisoblanadi. Shu bilan birga tarixchining faoliyi, manbalardagi ma'lumotlarni ilmiy muomalaga jalg qilinishi, modellashtirish va boshqalar jarayonida o'zboshimchalik va xatolikka yo'l qo'ymaslik ham tarixchi oldiga qo'yiladigan muhim tabablardan sanaladi.

Tadqiqotchi agar tarixiy tadqiqot obyekti yoki tadqiq etilayotgan material bilan yakkama-yakka qolgandagina (boshqa ta'sirlarga uchramagan holda) uning tadqiqot jarayonidagi o'rni muhim ahamiyatga ega bo'ladi, bunda tarixchi tadqiqotchining haqqoniyligi va iste'dodidan tadqiqotning natijasi yuzaga chiqadi.

B.Kroche, R.Kollingvudlarning ta'kidlashicha, tarix tabiatdan farqli o'laroq tadqiqotchining ongida obyektiv tarzda aks etmaydi. Tarixga va tabiatga aloqador faktlar tushuncha sifatida aynan bir xil ma'noni anglatmaydi.

Tabiatga aloqador faktlar shunday faktlarki, olim yoki tadqiqotchi ularni ayni ko'rinishida qabul qilishi yoki laboratoriya-da hosil qilishi mumkin.

Tarixiy faktlar esa o'tmishda va ma'lum bir vaziyatlarda sodir bo'lgan va takrorlanmas hodisalar sifatida namoyon bo'ladi. Ular bevosita muomalaga kiritilgandan so'nggina tarixiy mushohada obyektlariiga aylanadi. Bu holatda tarixchining ixtiyorida faqatgina hujjatlar va boshqa qadimgi davrlar qoldig'i sifatida saqlanib kelgan narsalar yoki hodisalar bo'lib, tarixchi ularga asoslangan

va tayangan holda faktlarni qayta shakllantirishi lozim. Aynan mana shu jarayonlarda tarixiy bilishning o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi¹.

Determinizm tamoyili. Sababiylit g‘oyasi yangi davrda o‘rta asrlardagi Uyg‘onish davriga xos bo‘lgan bashoratchilik g‘oyasi va voqealarning «tasodifiyligi» g‘oyasi o‘rniga paydo bo‘ldi. Sababiylit tamoyili fransuz va nemis ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan. Ular tarix — tartibsiz tasodiflardan iborat degan g‘oyaga qarshi chiqdilar. Ma’rifatparvarlarning determinizm tamoyili qat’iy mazmunga ega bo‘lib, u tarixda tasodiflar bo‘lishi mumkin degan qarashlarni butkul inkor qilib xatolikka yo‘l qo‘ydi. XIX asrda shakllangan evolyutsion (tadrijiylik) uslubi (pozitivistlar va marksistlarning qarashlarida) sabab va oqibatlarning uzluksiz ketma-ketligiga asoslangan edi.

Determinizm tamoyili tadqiqotchining e’tiborini tarixiy hodisalar va voqealarning shartli ravishda o‘zaro bir-biriga bog‘liq ravishda sodir bo‘lishiga qaratadi. Bu tamoyilga ko‘ra barcha voqealar va hodisalar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘ladi va bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Tarixchi tadqiqot jarayonida tarixiy voqealar va hodisalarning sababi — oqibatlariga ko‘ra aloqadorligini, u yoki bu hodisalarning sodir bo‘lishiga turtki bo‘lgan omillarni aniqlashga e’tibor qaratish talab etiladi. Bunda tizimli yondashuv yordamida tuzilishdagi aloqadorlik o‘rganiladi.

Ko‘pgina tarixchilar o‘z tadqiqotlarida tarixiy voqealarning sababini aniqlashga harakat qiladilar va bu tarixdagi zaruriyatlar va qonuniyatlar aloqadorligi mavjudligining e’tirof etilishidir. Biroq bugungi kungacha tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarining mavjudligini inkor etuvchilar determinizm tamoyilini ham inkor qiladilar va tarixiy voqealarning, hodisalarning tasodifiy ekanligiga urg‘u berib, determinizm (sababiylit) tamoyili inson erkinligi omili bilan mos kelmasligini ko‘rsatadilar. To‘g‘ri, tarixda tasodifiy va oldindan aytib bo‘lmaydigan voqealar va hodisalar

¹ История исторического знания. С. 208.

ham ro'y berishi mumkin, inson tanlash huquqiga ham ega, biroq u o'z oldiga qo'yan maqsadiga erishishi uchun imkon bermaydigan yoki murakkablashtiradigan boshqa insonlar va jamiyatdagi turli tizimlar bilan to'qnash kelishi yoki munosabatga kirishishi ni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Determinizm tamoyiliga ishonchsizlikning asosiy sabablari dan yana biri tarixdagi voqealarning sabab-oqibat aloqadorligini ochib berishning murakkabligidir. Kamdan kam hollarda tarixiy voqealar bir yoki ikki sabab bilan bog'liq bo'lishi mumkin va bunda bir qator omillarni ko'rsatib berish va aniqlash talab etiladi. Shu o'rinda aytish kerakki, pozitivistlar «teng huquqli» omillar (iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va boshqalar) nazariyasini ilgari surganlar. Ularning ta'kidlashicha, bu omillar tarixchi tomonidan birdek o'rganilishi kerak (ya'ni tadqiqot jarayonida bu omillarning barchasiga birdek, teng va mutanosib munosabatda bo'lish kerak) va tadqiqot jarayonida u yoki bu omilni bir-biriga nisbatan darajasini pasaytirishi yoki birontasi boshqasidan ustun bo'lishi yoki asosiy va hal etuvchi omil sifatida ko'rsatilishi mumkin emas. Amalda esa pozitivistlar tarixiy taraqqiyotning sodir bo'lishini belgilab beruvchi omillarga mukammal omillar sifatida yondashganlar.

Aslida bu tushunchalar birmuncha murakkabdir. Sabablarning bir qancha darajalari mavjud. Masalan, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq (alohida) konkret, aniq va ravshan, tushunarli sabablar (masalan, XIX asrning 60-yillarida Rossiya imperiyasining Qo'qon xonligiga (keyinroq Buxoro amirligi va Xiva xonligiga) qarshi urush e'lon qilishi va uni bosib olishi) bo'lsa, ikkinchidan alohida maxsus sabablar ham mavjud (yuqoridagi misoldan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, XIX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi hududlarining kengayti rib borishi siyosati) bo'lib, shuningdek umumiy sabablar (masalan, Rossiya imperiyasining XIX asrda boshqa mustamlakachi mamlakatlar kabi dunyoni ta'sir doiralariga bo'lib olish siyosati) mavjuddir. Albatta yuqorida aytib o'tilganidek, iqtisodiy, siyosiy, strategik,

psixologik, mafkuraviy va boshqa sabablar bu jarayonlarning sodir bo'lishida omil (sabab) bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda tarixchilar tarixiy jarayonlarning kelib chiqish va sodir bo'lish jarayonlarini o'rganar ekanlar, bir omil yoki sababni asosiy omil yoki sabab sifatida ko'rsatmaydilar (yoki asoslanmaydilar), balki bir qancha omillar (sabablar) yoki ayni vaqtida bir guruh sabablar va omillarga asoslanadilar, shu sababli bir tarixiy voqeа va jarayonlar yuzasidan tadqiqot olib borgan tadqiqotchilarining fikrlari tadqiqot uchun omil bo'lgan asosiy sabablardan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi (birida siyosiy jarayonlarga asosiy e'tibor qaratilgan kengroq tahlil etilgan bo'lsa, boshqasida iqtisodiy, yana birida ijtimoiy va madaniy va h.k.) mumkin.

Tarixiy jarayonlarning sabablarini aniqlash borasidagi davlatlar o'rtasidagi munosabatlardan ham murakkabroq bo'lgan holatlar bu eng mashhur davlat va jamoat arboblarining xatti-harakatlari va faoliyatlarining sabablarini aniqlash jarayonidir. Chunki tarixning borishidagi ayrim holatlarga ma'lum darajada ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan bunday arboblarining o'zlariga ham u yoki bu omillar ta'sir o'tkazib turadi. Shu sababli ham tarixda biron-bir tarixiy shaxsning faoliyatini o'rganish eng murakkab jarayonlardan biri sanaladi. Bunday holatlarda ham tarixchilarning fikrlari bir-biridan farqlanishi mumkin.

Yuqoridaqilarga xulosa qilib aytish mumkinki, tarixiy vogelikni aniqlashda uning sabablari va oqibatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash tarixiy jarayonlarni tushuntirib berishning eng asosiy vositasi sanalgan. U juda murakkab tushuncha bo'lib, bugungi kungacha tarixiy muammolarda uning mohiyatini tugal ma'nda va mukammal darajada ta'riflash imkonи bo'lмаган. Postmodernistlar determinizm tamoyilini qat'iy ravishda inkor qiladilar va tarixgauzuq-yuluq, bir-biri bilan bog'lanmagan tarqoq jarayonlar sifatida munosabatda bo'lib, tarixchilar bunday tarzda kechuvchi jarayonlar va ularning mohiyatini hech qachon anglay olmaydilar, degan g'oya bilan munosabatda bo'ladilar. Biroq bunday qarashlar tarixchilar tomonidan hech qachon ma'qullanmagan.

Tarixiylik tamoyili. Tarixiylik tamoyilining shakllanishi va taraqqiy etib borishiga bir qator mutafakkirlar o‘z hissalarini qo‘sghanlar, biroq ularning orasida asosiy fikrlar nemis «huquq tarixi maktabi» vakillari, fransuz restavratsiyasi davri tarixchilari va G.Gegel tomonidan bildirilgan. G.Gegelning tarixiylik tamoyilining rivojlanishiga qo‘sghan hissasi dialektik uslubni asoslab bergenligida edi.

K.Marks tarixni materialistik tushunish g‘oyasini shakllantirib, G.Gegelning dialektik uslubini materialistik asosga yo‘naltirdi, nemis «huquq tarixi maktabi»ning tarixiylik tamoyilini «kengaytirgan» holda jamiyatning qayta shakllanishi (boshqa shaklga o‘tishi – formatsiya) va «kapitalizmning tanazzuli» haqidagi fikrlarni ilgari surdi.

Nemis «huquq tarixi maktabi» vakillari bu masalada amaldagi davlat va huquq shakllari siyosatchilarining volyuntarizmi (tarixiy taraqqiyotning obyektiv qonunlari bilan hisoblashmay, o‘z bilgаниcha ish tutish) oqibatlari emas, balki uzoq davom etgan «jonli» (organik) taraqqiyot va nemis «ruhi»ning paydo bo‘lishidan kelib chiqib yondashganlar. Zamonaviy davlatni tushunish va uning faoliyatini anglash uchun eng avvalo uning tarixini o‘rganish lozim. Aynan ana shu tushuncha tarixiylik tamoyili edi, ya’ni har qanday hodisani, tarixiy vogelikni, davlat muassasalarining ta’sis etilishini tushunish uchun eng avvalo ularning tarixini o‘rganish va tarixiylikdan kelib chiqqan holdagina ularni anglash mumkin, degan tushuncha shakllangan edi.

Tarixiylik tamoyiliga qo‘yiladigan asosiy talablar haqida so‘z yuritganda quyidagilarni alohida ko‘rsatib o‘tish kerak:

- hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va ularning kelib chiqishi hamda ro‘y berishidagi umumiy bog‘liqlik va kelib chiqish sabablaridagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlash;
- hodisalarning sodir bo‘lishi bosqichlaridagi o‘zaro aloqadorlik, bir hodisa yoki jarayonning ikkinchi hodisa yoki jarayoning kelib chiqishidagi ta’sirini o‘rganish va aniqlash;
- barcha hodisalar va jarayonlarni o‘rganishda ularga tarixiylik nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda yondashish;

— hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlashda jarayonlarning tarixiy ahamiyatini ko‘rsatib berish.

Bu hozirgi tarixiylik tamoyili va uslublarining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Tizimlilik tamoyili. XX asrga kelib barcha fanlar tadqiqotlari-da tizimlilik uslubidan foydalanish asosiy o‘rin tutib bora boshladi, bunda tadqiqot obyektiga sababiylig va vazifaviy aloqadorligi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkab tuzilmali tizim sifatida qaraldi. M.A.Barg tomonidan fanga tizimlar (sistemalar) va tuzilishlar (strukturalar), tizimlar tarkiblari (pod-sistema) haqidagi tushunchalar kiritildi. Tuzilish — bir tizimni tashkil etuvchi hodisalar aloqadorligi va ularni bir tartibga solish shakllari bo‘lib, u tarixchi e’tiboridan yashirin holda bo‘ladi. Shu o‘rinda mazkur tarixchi tomonidan «tuzilishi va jarayon» tushunchasi ham ilgari suriladi, bunda tuzilish o‘zgarmas va barqarorlik holat sifatida, jarayon esa o‘zgaruvchan va beqaror, doimiy harakatdagi holat va ular bir-birini to‘ldirib keladi, deb ko‘rsatiladi.

Tayanch tushunchalar: anglash, tamoyillar, bilish tamoyillari, reguliyativ funksiyalar, bilishning subyekti, bilish subyektining faolligi, obyektivlik tamoyili, sababiylig tamoyili, tasodiflar, tarixiylik tamoyili, dialektik uslub, tarixni materialistik tushunish, voqealarning genetik aloqasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xolislik (obyektivlik) tamoyilini tushuntirib bering.
2. Subyektivlik nima?
3. Relyativizm nima?
4. Tarixchiga zarur bo‘ladigan omillar qaysilar?
5. Determinizm tamoyilini tushuntirib bering.
6. Tarixiylik tamoyilini tushuntirib bering.
7. Tizimlilik tamoyilini tushuntirib bering.

Mayzuga aloqador so‘zlarning izohli lug‘ati:

Xolislik (obyektivlik) tamoyili – tarixiy vogelik obyektivdir, tarixiy faktlar (dalillar) va manbalar obyektiv mazmunga ega bo‘lib, tarixiy tafakkur yordamida obyektiv haqiqatga erishish mumkindir. Agar tarixchi bu tamoyilga amal qilmasa, tarixiy tadqiqotni amalga oshirishidan samara bo‘lmaydi va xatolikka yo‘l qo‘yishi mumkin. Bu masalada dastlab XIX asrda nemis tarixchisi L.Ranke tarixchilarga murojaat qilib, tarixni obyektiv (xolislikka amal qilgan holda, xolisona yondashib) o‘rganishga chaqirdi. Uning fikricha, «tarixchi o‘tmishni taftish qilib (aynan «sud qilib») kelajak foydasi uchun zamondoshlarni o‘rgatish emas», balki faqatgina tarixiy jarayonlarni tadqiqot uslublaridan foydalanigan holda va tarixchilarining tanqidlariga amal qilgan holda qanday bo‘lsa shundayligicha ko‘rsatib berishi kerak. Bu amalga oshishi murakkab bo‘lgan ideal tadqiqot, biroq uni to‘liq ravishda amalga oshirishga harakat qilish tarixchi uchun zarurdir». L.Rankening Germaniyadagi kasbdoshlari uning bu fikrlariiga qo‘silmadilar va tarixchi siyosatdan chetda turishi mumkin emas, degan qarshi fikr bildirdilar. G.Treychkening fikricha «tarixchi «faqatgina qabrda yotganida» siyosatdan (yoki siyosiy mansublikdan) xoli bo‘lishi mumkin».

Marksistlar – tarixchilarning siyosatga aloqadorligini sinfiy qarama-qarshilik (yoki sinfiy mansublik) nuqtayi nazaridan ko‘rsatishga harakat qildilar. Bunda ularning aksariyat ko‘pchiliги boshqa bir marksist G.Plexanovning tarix fani biror-bir partiya yoki siyosatga bog‘liq bo‘lishi mumkin emas, faqatgina tarixchining o‘zi bunday holatga mansub bo‘lishi mumkin, degan qarashlarini ham inkor qildilar. XX asr dastlabki choragida bu qarama-qarshilik asta-sekin so‘nib bordi va asosan sobiq sovet tarixchilaridan «so‘nggi tarixiy jarayonlar haqida tarix faniga o‘zgartirishlar kiritish» va tarixchilarni «mafkuraviy front jangchilari» sifatida shakllantirilishi talab darajasiga ko‘tarildi. Bunday vaziyatda bu tarixchilartomonidan tarixiy haqiqatni izlash va xolisona tarixiy tadqiqot olib borish amalda o‘z ahamiyatini

yo‘qotdi. Sovet mafkurasi tarix fanini o‘z ta’siriga olib uning fan sifatidagi mavqeiga ham putur yetkaza boshladi. XX asr oxirlari- ga kelib tarix fanida bu qarashlardan voz kechildi.

Determinizm tamoyili — sababiylilik g‘oyasi yangi davrda o‘rta asrlardagi Uyg‘onish davriga xos bo‘lgan bashoratchilik g‘oyasi va voqealarning «tasodifiyligi» g‘oyasi o‘rniga paydo bo‘ldi. Sababiylilik tamoyili fransuz va nemis ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan. Ular tarix — tartibsiz tasodiflardan iborat degan g‘oyaga qarshi chiqdilar. Ma’rifatparvarlarning determinizm tamoyili qat’iy mazmunga ega bo‘lib, u tarixda tasodiflar bo‘lishi mumkin degan qarashlarni butkul inkor qilib xatolikka yo‘l qo‘ydi. XIX asrda shakllangan evolyutsion (tadrijiylik) uslubi (pozitivistlar va marksistlarning qarashlarida) sabab va oqibatlarning uzluk- siz ketma-ketligiga asoslangan edi. Determinizm tamoyili tad- qiqotchingin e’tiborini tarixiy hodisalar va voqealarning shartli ravishda o‘zaro bir-biriga bog‘liq ravishda sodir bo‘lishiga qaratadi. Bu tamoyilga ko‘ra barcha voqeja va hodisalar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘ladi va bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Tarixchi tadqiqot jarayonida tarixiy voqeja va hodisalarning sababi — oqibatlariga ko‘ra aloqadorligini, u yoki bu hodisalarning sodir bo‘lishiga turki bo‘lgan omillarni aniqlashga e’tibor qaratish talab etiladi. Bunda tizimli yondashuv yordamida tuzilishdagi alo- qadorlik o‘rganiladi.

Tarixiylik tamoyili — tarixiylik tamoyilining shakllanishi va taraqqiy etib borishiga bir qator mutafakkirlar o‘z hissalarini qo‘shganlar, biroq ularning orasida asosiy fikrlar nemis «huquq tarixi maktabi» vakillari, fransuz restavratsiyasi davri tarixchilari va G.Gegel tomonidan bildirilgan. G.Gegelning tarixiylik tamoyilining rivojlanishiga qo‘shgan hissasi dialektik uslubni asoslab bergenligida edi. Tarixiylik tamoyiliga qo‘yiladigan asosiy talablar haqida so‘z yuritganda quyidagilarni alohida ko‘rsa- tib o‘tish kerak, ya’ni hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va ularning kelib chiqishi hamda ro‘y berishidagi umumiy bog‘liq- lik va kelib chiqish sabablaridagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlash,

hodisalarning sodir bo‘lishi bosqichlaridagi o‘zaro aloqadorlik, bir hodisa yoki jarayonning ikkinchi hodisa yoki jarayonning kelib chiqishidagi ta’sirini o‘rganish va aniqlash, barcha hodisalar va jarayonlarni o‘rganishda ularga tarixiylik nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda yondashish, hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlashda jarayonlarning tarixiy ahamiyatini ko‘rsatib berish masalalarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bu hozirgi tarixiylik tamoyili va uslublarining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Tizimlilik tamoyili – XX asrga kelib barcha fanlar tadqiqotlari-da tizimlilik uslubidan foydalanish asosiy o‘rin tutib bora boshladi, bunda tadqiqot obyektiga sababiylit va kelib chiqishidagi hamda vazifaviy aloqadorligi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkab tuzilmali tizim sifatida qaraldi. M.A.Barg tomonidan fanga tizimlar (sistemalar) va tuzilishilar (strukturalar), tizimlar tarkiblari (podsistema) haqidagi tushunchalar kiritildi. Tuzilish – bir tizimni tashkil etuvchi hodisalar aloqadorligi va ularni bir tartibga solish shakllari bo‘lib, u tarixchi e’tiboridan yashirin holda bo‘ladi. Shu o‘rinda mazkur tarixchi tomonidan «tuzilishi va jarayon» tushunchasi ham ilgari suriladi, bunda tuzilish o‘zgarmas va barqarorlik holat sifatida, jarayon esa o‘zgaruvchan va be-qaror, doimiy harakatdagi holat va ular bir-birini to‘ldirib kela-di, deb ko‘rsatiladi.

TARIX FANI METODOLOGIYASIDA ASOSIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA TARIXIY TADQIQOT USLUBLARI

Tarix falsafasi haqida tushuncha. Tarixni bilishning avtonom xarakteri. Falsafiy maktablarning va yo‘nalishlarning ta’siri. Pozitivizm. Tarixda sabab va oqibatlarni chuqur anglashni inkor qilish. Jamiyat evolyutsiyasi. Tarixni materialistik tushunish. Tarix – bu sinflar kurashi. Ishlab chiqarish va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiyoti dialektikasi. Neokantchilik. Linguistik burilish. Matn tahlili. Tarixni o‘rganishda obyektiv fikr bo‘la olmaslik g‘oyasi. Tarixni adabiyotga almashtirishga urinish. Poststrukturalizm. Dalillarga bo‘lgan munosabat. Ichki munosabatlar. Postmodernizm. Strukturalizm. Tizimli uslub va funksiyaviy tahlil. Ekzistensionalizm. Shaxsning fojiasi. Neopozitivizm. Tarixning diniy falsafasi.

Tarixni ilmiy jihatdan tahlil qilish, uni idrok etish, yuz berган ijtimoiy-siyosiy jarayonlar orqali muayyan davrning siyosiy va ma’naviy muhitini baholash, har bir davr kishilari ruhiyati, ma’naviy axloqiy mezonlari, voqeа-hodisalarga munosabatini o‘rganish, uni falsafiy idrok etish tarix falsafasi tushunchasining mazmunini belgilaydi¹.

Tarix va uni tushunish, uni anglash, uni idrok etish, uni tushuna olish va uni tushuntirib berish turli davrlarda turlicha nuqtayi-nazarlar va yondashuvlar asosida amalga oshirilganligi bois, turli davrlarda tarix va tarix fani hamda unga bo‘lgan munosabat ham turlicha bo‘lgan.

Aslida tarix falsafasi tushunchasi Sitseron (yunon faylasufi, miloddan avvalgi 106–43-yy.) tomonidan «tarixning otasi» deb ulug‘langan qadimgi yunon tarixchisi Gerodot (lot. Herodotus, yunon. Irodotos, miloddan avvalgi taxminan 484-yil, Kichik Osiyo, Galikarnas — miloddan avvalgi taxminan 426-yil, Yunoniston, Furiya) hamda Fukidid asarlaridan boshlangan.

¹ Tarix falsafasining nazariy asoslari. 35-b.

Shunday tarixchilardan yana biri antik davrda yashab ijod qilgan yunon tarixchisi Diodor (miloddan avvalgi 90–21-yy., Sitsiliyaga qarashli Argiriya shahri) bo‘lib, yirik tarixchi olim sifatida «Tarixiy kutubxona» nomli 40 kitobdan iborat asar yozib qoldirgan. Bu tarixchilar o‘z qarashlarida insoniyat taraqqiyotida asosan tarixni harakatlantiruvchi kuch sifatida tavsiflagan bo‘lsalar, Avgustin denga e’tiqod qiluvchilar qarashlarini aks ettirgan holda ilohiy davlat tarixi falsafasini yarattdi. Avgustin qarashlariga ko‘ra jamiyat va insoniyatning taraqqiyoti ilohiy mazmunga ega bo‘lib, u xristian cherkovi va uning faoliyati misolida davlat va unda sodir bo‘layotgan barcha jarayonlar avvaldan belgilab qo‘yilgan ilohiy qonuniyatlar asosida amalga oshib boradi va boshqalar bu jarayonga ta’sir etishi mumkin emas (ilojsiz), mazmunidagi ilohiy davlat tarix falsafasini ilgari surgan edi. Keyinchalik Avgustinning izdoshlari tarixni ilohiylashtirishga, tarixiy tafakkurni va tarixni ilohiy tafakkur orqali idrok etish va tushunishga chaqirdilar. Bu qarashlar asosida keyinchalik apologetika tushunchasi, ya’ni tarixiy voqealarning va jarayonlarning barchasi oldindan belgilangan va ma’lum qonuniyatlarga asoslangan holda sodir bo‘ladi degan teologik tushunchaning paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. Tarixni bu tarzda tushunish va anglash XVIII asrgacha ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadni. Bu davrga kelib fan sohalarida va ularni ilmiy tushunish borasida bir qator yangi tushunchalar va qarashlar shakllanib bordi. Ular orasida tarix va uni tushunish borasida ham bir qator maktablar yuzaga kela boshladi va bu jarayon XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr o‘rtalarigacha davom etdi.

Tarixni anglash va uni bilish nazariyasining shakllanishi borasida ma’lum ma’nodagi jiddiy qarashlarni ilgari surgan nazariyachilardan biri nemis faylasufi va «absolyut idealizm» tizimining asoschisi Georg Vilgelm Fridrix Gegel (1770-yil 27-avust, Shtutgart —1831-yil 14-noyabr, Berlin) edi. Gegel dunyoziy aql-zakovat, umuminsoniy tafakkur, insoniyat xatti-harakati va aql-idroki uyg‘unligi asosida yuzaga kelgan, ong va tafakkur hukmron bo‘lgan yaxlit borliqni tarix deb tushuntiradi.

Gegelning tarixni anglash va bilish borasidagi fikrlari bilan tarix falsafasi va uni bilish, anglashga yo'naltirilgan falsafiy qarashlar shakllanishining yangi bosqichini boshlab berdi. Gegel tarix falsafasiga hayot qonuniyati, ma'naviy shakllanish jarayoni va inson rivojlanishining ma'naviy ehtiyoji sifatida qaradi. Uning qarashlari tarix – inson tafakkurining, ma'naviy-ruhiy va axloqiy kamolotining mahsuli degan xulosaga kelishga imkon berdi.

F.Bekon tarixiy haqiqatni aniqlashda eng avvalo tadqiqot obyekti o'rganilayotgan predmet yoki hodisaning aynan o'zi emas, balki, uning mohiyati va uni yuzaga chiqaruvchi oddiy tabiiy omillar bo'lishi shartligini ta'kidlasa, E.Kondilyak bilishni eng oddiy – his etish va fikrlash orqali amalga oshirish kerak, degan fikrni ilgari suradi. Aksariyat nazariyotchilar o'zлari taklif qilgan va nazariy jihatdan asoslab bergan uslublari haqiqatni anglash va bu borada har qanday xatoliklardan xoli bo'lishda asosiy ekanligini ta'kidlab o'tganlar. Eng asosiysi bu g'oyalar va yondashuvlar aksariyat hollarda biri ikkinchisini to'ldirib, mukammallashtirib kelsa, boshqa holatlarda tarixiy haqiqatni anglashda eng maqbul yo'l va uslubni tanlab olish imkoniyatini ta'minlaydi.

N.Jo'rayevning fikricha, «Tarix – tafakkur mahsuli. O'tmishimizda bo'lgan har bir hodisa, ma'lum ma'naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy muhit ta'sirida yuz bergen. Unga nazar solganda, voqealar zamiridagi mantiq, falsafa, ruhiyat, siyosat, iqtisod, qo'yingki, har bir davrning o'ziga xos shukuhi-u tashvishlari, sevinch-u iztiroblari ko'zga yaqqol tashlansin. Ongimiz va shuurimizga mustahkamroq o'rashsin. Ana shunda kishini fikrlashga, o'tmishni idrok qilib, kelajakni aql yo'rig'i bilan belgilashga yordam beradi. Tarixning tafakkur mahsuli va ulug' murabbiyligi, oliy qadriyat ekanligi ana shu bilan belgilanadi...»

Tarixga to'g'ri yondashish, uni to'g'ri tushunib, to'g'ri tadqiq etish uchun biz o'zimizni tarixiy taqdirga qo'shib yuborishimiz, uning ichida yashashimiz kerak. Ana shunda uning tirikligini, yaxlitligini tushunamiz, butun ko'lami va miyosi bilan qamrab olamiz, mohiyatini anglab yetamiz. Tarixiy taqdir bilan taqdir-

doshlik, tarixiy taqdir jarayonini ongimiz, qalbimiz va tafakkurimiz orqali o'tkazib, vorislik hissini tuyganimiz sayin konkret shaxs taqdiri, zamon va makon qiyofasi ko'zga yorqinroq tashlanadi. Inson, zamon va makonning yaxlit qiyofasi to'laligicha butun salmog'i bilan gavdalanadi. Inson ma'naviyati, uning shaklu shamoyili orqali qaysidir darajadagi tarixiy voqelik va taqdirga daxldorlik aniqlanadi. Tarixni o'rganishda muarrixlarimiz sanalar va voqealarni tahlil etish bilan birga, ularning ortida turgan taqdirlar, kechinmalar, ruhiyatlar, manfaatlar va hokazolar gir-dobida ham yashamog'i kerak. Ana shunda tarixi haqidagi fikrimiz, xulosamiz asosli, so'zimiz ta'sirli, g'oyalarimiz yashovchan bo'ladi»¹.

Tarixiy bilish avtonom xususiyatga ega bo'lib, falsafiy mакtablar va falsafiy yo'nalishlarning ta'sirini bilvosita va shartli ravishda (zaruriy holatlarda) qabul qilishi mumkin. Falsafa tarix faniga biliшhning uslublari va yondashuvlarinigina berishi mumkin. Tarixchilar ko'p hollarda falsafiy yo'nalishlar va ularning mohiyatini tarix fanida tadqiqotlarida keng ravishda qo'llamaydilar va shu sababli ularning uslublarni tanlashi ko'p hollarda erkin-empirik (tajribadan kelib chiqqan holdagi) xususiyatga ega bo'ladi.

Ko'pincha tarixchilar tadqiqot uslublarini tanlashda eklektik uslubda ham yondashadilar, ya'ni tanlangan uslublarning qanday falsafiy mакtablar va yo'nalishlarga mansubligini e'tiborga olma-gan holda tarixiy tadqiqot uchun zarur bo'lган tadqiqot uslublarini tanlab oladilar va tadqiqotlarga jalb etadilar va bunda asosiy maqsad tadqiqot jarayonida erishiladigan natijaga qaratiladi. Bunda shuni anglash mumkinki, tarixchilar falsafaning u yoki bu yo'nalishiga qat'iy rioya etishga majburiyat his etmaydilar. Shunga ko'ra tarix fani kumulyativdir, ya'ni u eskirgan uslublarni chetga surib qo'ymaydi va tadqiqot uslublarini doimiy ravishda yan-gilari bilan to'ldirib boradi. Tabiiyki, agar tarixchi falsafa fanidan ham chuqr bilimga ega bo'lsa, u tadqiqot yo'nalishlari va uslub-

¹ Tarix falsafasining nazariy asoslari. 37-b.

larni tanlash va tadqiqotga jalb etishda ko‘proq natijaga erishish mumkin, shuning uchun bir qator yirik tarixchilar falsafa sohasida ham katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. Ayni vaqtida tarixchi falsafaning u yoki bu tamoyillarining eng nozik jihatlariga-cha e’tibor qaratmaydi, chunki bu falsafa fanining xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi va tarixchi ulardan faqat tadqiqot uchun va o‘z ilmiy tadqiqot mavzusining mazmunidan kelib chiqqan holdagina zarur bo‘lganlari va samarali hisoblanganlarini olishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda quyida tarix fanining rivojlaniishi uchun jiddiy ta’sir ko‘rsatgan bir qator falsafiy yondashuvlar va falsafiy uslublar haqida so‘z yuritiladi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asaridagi quyidagi fikrlari alohida e’tiborga molikdir:

— «Albatta, bunday falsafiy yondashuvlarning har biri o‘z davridagi mavjud siyosiy-ijtimoiy vaziyat, hukmron mafkura, jamiyatning huquqiy va madaniy saviyasi, turli sotsial guruh va toifalarning qarashlarini ifoda etishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida bunday bahslar sof nazariy masala doirasidan chiqib, ma’lum bir tuzum yoki davlatning rasmiy mafkurasi maqomini ham olgan. Buning tasdig‘ini uzoqqa bormasdan yaqin tariximizda — sho‘ro zamonida materialistik qarashni ustun qo‘yish natijasida materiya birlamchi, ong esa ikkilamchi, degan tamoyilning hukmron dunyoqarash darajasiga ko‘tarilgani, buning oqibatida insonning ma’naviy qadriyatlari, ayniqsa, uning milliy va diniy tuyg‘ulariga bepisand qarab kelingani misolida ham ko‘rish mumkin.

Ushbu masalaga chuqurroq va atroficha nazar tashlaydigan bo‘lsak, avvalo shuni aytish kerakki, bu ko‘hna dunyo, biz yashayotgan hayot yagona, yaxlit bir voqelikdir. Shunday ekan, moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo‘yish, ularning birini ustun deb bilgan holda, tiriklikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilish qandaydir biryoqlama qarash ifodasi, deb aysak, xato bo‘lmaydi.

Qolaversa, bu masalaga bunday keskin yondashuv, xususan, odamning ruhiy dunyosini mensimaslik, uni ikkilamchi o‘ringa qo‘yish oxir-oqibatda jamiyat hayotida inqirozga olib kelishi muqarrar ekanini tarix ko‘p marotaba isbotlagan»¹.

Pozitivizm. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarixshunoslik sohasida ingliz olimi O.Kontning «pozitiv» falsafasi katta ta’sirga ega bo‘la boshladi. Uning izdoshlari tarix fanini ham «pozitiv» fanga aylantirishga harakat qildilar. Tarixchi turli xil «keragi yo‘q, kulgili» tizimlardan voz kechishi, aniq dalillarni qaror toptirish va ularni tavsiflab berish, dalillarni tekshirish va manbalarni tanqidiy tahlil qilishga e’tibor qaratishi kerak, deb hisobladilar.

Pozitivistlar tarixni «pozitiv» bilimga aylantirishga harakat qildilar. Bu tushunchaning mohiyati shundaki, pozitivistlar hamma haqiqiy, pozitiv bilimlar konkret fanlarning mahsulidir, falsafa esa bunday bilimlarni bera olmaydi, shuning uchun uning kera-gi yo‘q, degan g‘oyaga asoslangan subyektiv qarashga ega edilar. Ular tarixiy dalillar bilan qanday ishslash, manbalarni tahlil qilish bo‘yicha bir qancha metodlarni taklif qildilar.

«Pozitiv tarix» g‘oyasiga nemis tarixchilari va neokantchilari V.Vindelband va G.Rikkertlar darhol qarshi chiqib, tarixni jamiyatning rivojlanib boruvchi qonuniyatları asosida emas, balki, alohida va takrorlanmas holatlar, ko‘rinishlar asosida o‘rganishni tarixchi oldiga vazifa qilib qo‘ydilar.

Pozitivistlarning fikricha, jamiyatning taraqqiyot qonunlari bu tabiat qonunlarining davomidir. O.Kont sotsiologiyaning asoschisi sanalib, evolyutsion yondashuvni (oddiylikdan murakkablikka qadar) jamiyat taraqqiyoti qonuniyatining asosi ekanligini himoya qildi.

Jamiyat evolyutsiyasiga bir qator omillar ta’sir o‘tkazadi, ya’ni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, geografik, mafkuraviy, biologik, psixologik va boshqalar bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyoti jarayonida teng

¹ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 66–67-bb.

o‘ringa va ahamiyatga ega bo‘lib, bir vaqtida harakatda bo‘ladilar, ya’ni ularning har biri jamiyat hayotida bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lib turadi. Tarixchilar esa bu omillarni alohida yoki bir vaqtida bir nechasinigina o‘rganib, tadqiq etganlar. Hozirgacha tarixchilarning tadqiqotlarida bu holatni kuzatish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga qiziqish va statistik uslublarni qo‘llash alohida o‘rin tuta boshladi. Bu ham o‘z o‘rnida tarix fani tadqiqotlarida ilgarilashga intilish bo‘lib, ishlab chiqarish tarixi, qishloq xo‘jaligi tarixi, savdo-iqtisodiy munosabatlar tarixi tarixiy tadqiqotlarning obyektiga aylanib bordi. Asosiy e’tibor intellektual taraqqiyot, aqliy rivojlanishga qaratildi. Tarixchi pozitivistlar ilgari surgan uslublardan biri bu tarixiy taqqoslash uslubidir. Pozitivistlarning asosiy kamchiliklari — tarixda hodisalarning ichki sabab-oqibat aloqadorligi imkoniyatlarini inkor qildilar va tarixchining asosiy vazifasi tarixiy hodisalar sodir bo‘lishining «nima uchun sodir bo‘ldi» degan savolga emas, balki «qanday sodir bo‘ldi» degan savolga javob berishdan iborat deb hisobladilar.

Pozitivizm barcha tarixchilar tomonidan birdek qabul qilinmaganligi sababli uni turli tarixchilar turlicha nuqtayi nazaridan qo‘llaganlar va tarixshunoslik sohasida o‘ziga xos iz qoldirgalar.

Ulardan biri Buyuk Britaniyalik G.Bokl jahon sivilizatsiyalari tarixini yaratish maqsadida 19 ta tilni o‘rganib, 20 mingdan ortiq kitobga ega bo‘lgan kutubxona tashkil qildi, biroq u faqatgina ikki kitobdan iborat «Angliya sivilizatsiyalari tarixi» nomli kitobi ni yozishga ulgurdi. Bu kitobning ahamiyati shundaki, tarixchilar G.Bokl tomonidan yozilgan va qo‘llangan uslublar va tadqiqotdagi yondashuvlarni pozitivizm yondashuvining etalonii sifatida e’tirof etdilar. U tarixga eng mardonavor hamda murakkab va qiyin mashg‘ulot sifatida ta’rif bergan. G.Bokl aqliy taraqqiyot jarayonining asosiy omili sifatida qonuniyatlarni izlab, ularni ikkilanish va shubhalanish aqliy taraqqiyotning harakatlantiruvchi manbayi deb ko‘rsatadi. Tarixiy hodisalarni aqliy taraqqiyot jarayonlariga ta’sir ko‘rsatish nuqtayi nazaridan baholadi.

XIX asr oxirlariga kelib pozitivizm asta-sekin o‘zining ilg‘or qarashlarini yo‘qota boshladi va tarixchilar ko‘proq empirizmga e’tibor qarata boshladilar. Shunga qaramay XIX asrnning ikkinchi yarmini tarix fanining rivojlanishi davri sifatida baholanadi va bunda pozitivistlarning ham o‘ziga xos hissasi bo‘lgan.

Marksizm. Pozitivizm bilan bir qatorda bu davrda yangi qarash, ya’ni tarixni materialistik tushunish g‘oyasi shakllandı. Bu g‘oya dastlab K.Marks va F.Engelsning «Kommunistik partiya manifesti» (1848) nomli kitobida, keyinchalik «Kapital» asarida ko‘rsatib berildi.

Marksistlar va marksizm tarafidolari tarixni falsafiy umumlashtirish, uning asosiy qonuniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan o‘zlariga xos «ilmiy» g‘oyani ilgari surdilar.

Bu g‘oyaning mazmuniga ko‘ra kishilik jamiyatı taraqqiyotining asosini ishlab chiqaruvchi kuchlarning va ishlab chiqarish munosabatlarining dialektikasi tashkil etadi. Bu yerda gap pozitivistlar kabi faqatgina iqtisodiy omillar haqida emas, balki moddiy ne’matlarning yaratilishi va moddiy farovonlik haqidada ham bormoqda. Marksizmga ko‘ra jamiyat taraqqiyotining asosida ishlab chiqarish shakllarining almashinushi, ya’ni ibtidoiy jamoa shakli, antik, feodal, burjuacha va kommunistik ishlab chiqarish shakllari ketma-ketligi yotadi. Tarix – bu sinflar o‘rtasidagi kurashdan iborat, deb ko‘rsatiladi. Tarixda sodir bo‘lgan har qanday voqeя va jarayonlardan sinfiy kurash omilini izlash kerakligi ko‘rsatilib, K.Marks bu g‘oyaning yuzaga kelishi o‘ziga tegishli emasligini ham ta’kidlab o‘tadi. Haqiqatan ham bu boradagi dastlabki fikrlar O.Tyerrining «Завоевание Англии норманнами» («Angliyaning normannlar tomonidan zabit etilishi») asarida istilochilarni (normannlarni) hukmron sinf, mag‘lubiyatga uchraganlarni esa eziluvchi, jabrlanganlar sifatida ko‘rsatib o‘tadi. Keyinchalik F.Gizo sinflarga bo‘lishda mulkiy farqlanish omilini ham ko‘rsatib o‘tadi. K.Marks esa sinflarning ishlab chiqarish tizimidagi o‘rnini ko‘rsatib berdi. Uning sinfiy bo‘linishga barham berishda proletariat (ishchilar sinfi) diktatu-

rasining muqarrarligi haqidagi fikrlari va g‘oyalari jamiyat hayoti uchun o‘ta darajada keskinligi (radikalligi) sababli o‘z davrining ko‘pgina tarixchilari va mutafakkirlari tomonidan qat’iy ravishda rad etildi. Biroq ayrim hollarda xorij tarixchilari tomonidan tarix fanida sinfiy yondashuvning qisman o‘zgartirilgan holatdagi ko‘rinishlari bo‘yicha, ya’ni mulkiy daromadi darajasiga qarab o‘rganish ham uchrab turdi.

F.Engels K.Marksning tarixni materialistik tushunish borasidagi qarashlari haqida fikr bildirar ekan, bunda xatoliklar ham mavjudligini ta’kidlab o‘tgan. Bu vaqtida ayrim tarixchilar tomonidan iqtisodiy omilga tarixiy jarayonlarni belgilab beruvchi taraqqiyotning yagona omili sifatida qaralgan, bu esa «soxtalashtirilgan materializm» tushunchasining shakllanishiga olib keldi. Aslida esa, iqtisodiy omil taraqqiyotning yakuniy bosqichida muhim o‘rin tutgan bo‘lsa, ayni vaqtida tarixiy jarayonlarni belgilab beruvchi va jamiyat taraqqiyotiga ta’sir o‘tkazuvchi siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, falsafiy, diniy, adabiyot va san’at kabi asosiy omillarning mavjudligini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

XX asrning 90-yillariga kelib marksizm qarashlari asosidagi «tarixni materialistik tushunish» g‘oyasi tarixchilar tomonidan rad etildi va bu tamoyillar asosida amalga oshirilayotgan tarixiy tadqiqotlar ham barham topdi, endi tarixchilar tadqiqotlar jarayonida ilmiy ijodiy erkinlikka erishib, shu vaqtgacha «yagona va to‘g‘ri» deb hisoblab kelingan tarixni materialistik tushunish g‘oyasi va tadqiqotlarni ham shu qarashdan kelib chiqqan holdagi «ilmiy xulosalarga moslashtirish»dan voz kechib, tarixni umumfan tadqiqotlari tamoyillaridan kelib chiqqan holda ilmiy va tarixiy, obyektiv jihatdan tadqiq qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar va bu jarayonlar hozirgi kunda ham takomillashtirib va mukammallashtirib borilmoqda.

Neokantchilik. Neokantchilik pozitivistlarning qarashlariga qarshi tarzda shakllanib, XIX asrning 80-yillarda V.Diltey tomonidan ilgari surilgan. Ularning qarashlaricha ijtimoiy hayotda hech qanday qonuniyatlar mavjud emas, tarixchining subyektiv

xatti-harakatlari (boshidan kechirganlari, ko‘rgan-bilganlari) bilishning eng asosiy vositasiidir, tarixiy dalillar – bilishning asosiy dalillaridir deb hisoblaydilar. Fandagi (ilmdagi) ong, aql, idrok haqidagi (bunga tarixni ham qo‘sadilar) bilishning eng asosiy vositasi bu – tushunish va intuitsiya (sezgirlik)dir deb ko‘rsatadilar. Neokantchilarning ta’kidlashicha, tarix individual, alohida konkret holatlar bilan bog‘liq bo‘ladi, tarix poeziyaga va san’atga yaqin bo‘lib, ko‘proq tavsifiy xususiyatga egadir. V.Dilteyning «ong, idrok haqidagi fan»ning tabiiy fanlarga qarama-qarshi qo‘yishi tushunchasi neokantchilarning Baden mакtabida V.Vindelband va G.Rikkertlar tomonidan yanada rivojlantirildi. G.Rikkertning ta’kidlashicha tabiiy fanlar uchun asosiy uslublar yetakchi mavqeda (generallashgan) bo‘lib, umumlashtiruvchi (ya’ni jarayonlarni o‘rganishdan boshlab tizimlarni o‘rganishgacha, tafsiflashdan tahlilga o‘tishi kerakligi to‘g‘risidagi fikr) xususiyatga ega. Tarix uchun esa uslublar individual xususiyatga (alohida yakka jarayonni yoki holatni tadqiqot jarayonida ustun qo‘yish) egadir. Neokantchilar tomonidan ilgari surilgan eng asosiy uslub – dalillarni qadriyatlarga tenglashtirishdir. Bunda qadriyatlar sifatida hodisalar yoki dalillarning ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Bu o‘rinda davlat, san’at, din kabilar tushunilgan. Tarixning predmeti sifatida esa insoniyatning madaniy hayoti ko‘rsatilib, tarixni individuallashtiruvchi empirik fan deb hisoblanadi.

Garchi bu qarashlar barcha tarixchilar tomonidan birdek qabul qilinmagan bo‘lsada, ayrim hollarda ularning o‘zgargan va yangilangan holatdagi elementlari tarixiy tadqiqotlarda uchrab turadi. Ko‘plab faylasuflar va tarixchilar tarix fanida nazariyaning muhimligini inkor qiladilar va garchi tarixning fan sifatida maqomini asoslab berishda yetarli bo‘lmasada tarixdagi takrorlanmaslikka va individuallikka urg‘u beradilar hamda buni o‘z o‘rnida tarixni «soxtalashtirilgan sotsiologiyalashtirish»dan ma’qul deb hisoblaydilar.

Strukturalizm. Tarixiy voqelikni o‘rganish va tadqiq etishdagi individuallashtirish uslubiga qarama-qarshi ravishda struktura-

listlar strukturali-vazifaviy va strukturali-tizimli tahlil uslubini taklif qilib chiqdilar. Bu uslub borasida ish olib borgan fransuz lingvisti F. De Sossyur dastlabkilardan bo'lib «dixaxron» va «sinxron» atamalarini tarix fani tadqiqot uslublari doirasiga kiritdi. 1973-yil tarixchilarning xalqaro kongressida strukturalizm va uning tarixiy tadqiqotlardagi imkoniyatlari haqida ilk bor ma'ruba qilindi.

Struktura (tuzilish) obyektning muhim xususiyatlari va jihatlarini aniqlab beruvchi ichki mustahkam va barqaror munosabatlarning tizimi sifatida tushuniladi. Shuningdek bu uslub tarixda tarixiy voqelik, hodisa va jarayonlarni ularning ichki tarkibiy jarayonlari va hodisalari tizimi, ularning o'zaro bog'lanishi va munosabatlarni tekshiruvchi sifatida qarashni anglatadi. Ichki bog'lanishlar va munosabatlardagi buzilishlar yoki bo'shliqlar bu tizimning mukammalligiga putur yetkazadi. Jamiatda makrostrukturalar va mikrostrukturalar mavjud bo'ladi. Tarixchi nafaqat taraqqiyot darajasini o'rganishi, balki, sinxron ravishda sabab-oqibatli aloqadorlik bilan bir qatorda vazifaviy aloqadorlikni ham o'rganishi lozim. Biroq strukturalistlarning barcha qarashlari ham tarixchilar tomonidan to'liq qabul qilinmagan, ayrim tarixchilar esa strukturaviylik tarixdan shaxsni siqib chiqardi va tarixiy jarayonlarning tavsifi shaxs ishtirokisiz aks ettirishi mumkin, degan fikr ham bildirganlar. Biroq strukturaviylik uslublari orasidan tarix tadqiqotlari uchun qabul qilingan matematik uslublar tarixni ilmiy o'rganishda ma'lum muvaffaqiyatlariga erishdi va tadqiqotlarda qanday uslubdan kengroq foydalanish tarixchinig o'ziga bog'liqidir.

Postmodernizm (poststrukturalizm). XX asrning 70-yillariga kelib tarixiy bilishning bir qator nazariyalari qayta ko'rib chiqila boshlandi. Natijada nazariyalar qatoriga «lingistik burilish» hamda «semiotik yondashish» nazariyalari (uslublari) qo'shildi. Yangi yondashuvga ko'ra tarixiy bilishning obyekti hisoblangan tarixiy voqelik til va talaffuz amaliyotiga asosan shakllantirilishi ko'zda tutildi. Til omiliga faqatgina muloqot vositasi sifatida

emas, balki fikrlash, ma’naviylikning asosi bo‘lувчи омил, фикрларни о‘заро bog‘lovchi омил сифатида ham qaraldi. Til vogelikni aks ettirmaydi, «aks ettiruvchi» har doim ham «aks ettiriluvchi» bilan aynan bir xilda bo‘lmaydi. Bu tushunchadan kelib chiqadigan fikr shuki, manbaning matni va tarixiy narrativ (tarixiy vogelikka (tarixiy manbalar va fakt (dalil)larga) umumiy yaxlitlikda qarash (qabul qilish)ga ishonchsizlik paydo bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda matnlarning ma’nolarini ochib berish (o‘qiy olish), mazkur matnlardagi madaniy xususiyatlarni ko‘rsatib bera olish, ayni vaqtida esa manba matnidagi til xususiyatlarining o‘zgarib borishiga diqqatni qaratish talab etildi.

Tarixchi-postmodernistlar matnni obyektlashtirilgan belgi sifatida emas, balki narsaning shartli ravishdagi shakli bo‘lgan va ayni vaqtida ko‘plab izohlarga va ta’riflarga asos bo‘lувчи belgili kod (harflardan tuzilgan maxsus belgi, ishoralar)lar sifatida ta’kidlaydilar. Bundan esa matnlarni deshifrovka (noma’lum harflar bilan yozilgan narsani o‘qish, ochish) va axborotni yetkazib berilishi masalasiga e’tibor kuchaytirildi. Manbaning tili o‘tmishni va o‘tmish obrazlarini gavdalantiradi. Tarixchi o‘z taassurotlarini so‘zlarga aylantiradi, tarixchi tadqiqotchi (manbani o‘quvchi) esa uni so‘zlar vositasida obrazlarga aylantiradi, biroq ayni shakllantirilgan obrazlar o‘rtasidagi farq, ya’ni tarixchi (manbani yozuvchi) va tadqiqotchi (manbani o‘quvchi)larning shakllantirgan obrazlari bir-biridan keskin farqlanishi mumkin.

Matn dekonstruksiya moyildir, matndan tashqarida hech narsa yo‘q – ya’ni, empirik materiallar mayjud emas va tarixiy tajriba ham yo‘q. Tarixchi faqatgina matnga bog‘langan holda va undan kelib chiqib voqealarga nisbatan o‘zining tavsiifini keltirishi va munosabatini bildirishi mumkin. Bunda har qanday tanqidiy tahlil va interpretatsiya tarixchining matnga aloqador emasligidan kelib chiqib inkor qilinadi. Amerikalik olim D.Lekarp postmodernistlarning yuqorida fikrlari va qarashlarini o‘zining «matnning o‘zida ham hech narsa mayjud emas» degan tushunchasi bilan «boyitdi». Shu o‘rinda I.M.Savelyev va

A.V.Poletayevlarning bir fikri o‘rinlidir, ular kinoyalı tarzda «bir narsa ko‘ngilni xotirjam qiladiki, u ham bo‘lsa ko‘pgina tarixchilarning o‘zları ham postmodernistlar diskursini tushunmaydilar».

Postmodernistlarning fikrlari agar yuqoridagi qarashlar bilan cheklanganda ham tarixchilarning jiddiy qarshiligiga duch kelmagan bo‘ldi. Postmodernistlar o‘z qarashlarida logotsentrizm – ratsionallik g‘oyalarini, maorif va taraqqiyotni, «katta» narrativlar (tarixiy voqelikka (tarixiy manbalar va fakt (dalil)larga) umumiy yaxlitlikda qarash (qabul qilish)ni inkor qilgan holda g‘oyalarni ilgari surdilar. Shuningdek, fanning mavqeini ham qayta ko‘rib chiqib, uni «diskurs» tushunchasi bilan almashtirishga harakat qildilar. Ular tarixchi mutaxassisligining mutaxassislik sifatidagi mavqeini, tarixiy bilish tamoyillarining mavjudligini, tarixiy voqelikning haqqoniy (obyektiv) bilish imkoniyatlarini ham shubha ostiga oldilar. Biroq tarixchilar postmodernistlarning bir qator fikrlarini inkor qildilar va ularni qo‘llamadilar. Ya’ni, postmodernistlar tomonidan ilgari surilgan «matndan tashqarida hech narsa mavjud emas», «tildan tashqari» reallik mavjud emas» degan qarashlar qat’iy ravishda inkor qilindi. Biroq ma’lum davr oralig‘ida tarixchilar bu qarashlarni «yumshatib» bordilar, ayrim uslublarning samarali jihatlaridan, xususan tarixiy manbalarning tahlili va narrativlardan tadqiqotlarda foydalana boshladilar, biroq ayni vaqtida yuqorida inkor qilingan jihatlarni ham nazardan chetda qoldirmadilar.

Yuqoridagilarga xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur qismda barcha falsafiy tamoyillar haqida ham so‘z yuritildi. Jumladan, ekzistensializm va uning jamiyatdagi shaxs fojeasi masalalari, shuningdek tarixning diniy falsafasi masalalari haqidagi ham to‘xtalib o‘tilmadi. Bu va bu kabi bir qator yondashuvlar turli-tuman tarixchilarning dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazib kelgan. Agar tarixchi, ayniqsa yosh tadqiqotchi o‘z ilmiy tadqiqotlari jayronida bu kabi masalalarga duch kelsa, eng avvalo mazkur yondashuvlar borasidagi ilmiy adabiyotlarga murojaat qilishi va ko‘rilayotgan masala yuzasidan hamda yuqoridagi yondashuvlarning

tadqiqot uchun samara berishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlari yuzasidan xulosa chiqara olishi, yetarlicha bilimga ega bo‘lishi tablab etiladi.

Tayanch tushunchalar – «tarixning otasi», tarixni harakatlantiruvchi kuch, ilohiy davlat tarixi falsafasi, apologetika, «absolyut idealizm», ong va tafakkur hukmron bo‘lgan yaxlit borliq, haqiqatni anglash, tarixiy bilish, empirik, pozitivizm, aniq dalillarni qaror toptirish, manbalarni tanqidiy tahlil qilish, «pozitiv tarix», tarixiy taqqoslash uslubi, marksizm, neokantchilik, individual, strukturalizm, struktura, postmodernizm, poststrukturalizm, «lingvistik burilish», «semiotik yondashish», deshifrovka, logotsentrizm

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarixni bilishning avtonom xarakterini izohlab bering
2. Pozitivizm nima?
3. Tarixda sabab va oqibatlarni chuqur anglashni inkor qilishni tushuntirib bering.
4. Tarixni materialistik tushunish nima?
5. Neokantchilik haqida tushuncha bering.
6. Lingvistik burilish qanday tushuncha?
7. Matn tahlili qanday amalga oshiriladi?
8. Poststrukturalizmni sharhlab bering.
9. Postmodernizmni sharhlab bering.
10. Strukturalizmnинг mohiyatini aytib bering.

Mavzuga aloqador so‘zlarning izohli lug‘ati:

Diskurs (diskursiv) – falsafada mantiqiy fikrlashga asoslanilgan, diskursiv bilish – mantiqiy fikrlash asosida shakllantirilgan bilish.

Narrativ – hikoya qilish, aytib berish, xabar qilish. Tarixiy voqelikka (tarixiy manbalar va fakt (dalil)larga) umumiy yaxlitlikda qarash (qabul qilish).

Neokantchilik – neokantchilarning qarashlaricha ijtimoiy hayotda hech qanday qonuniyatlar mavjud emas, tarixchining subyektiv xatti-harakatlari (boshidan kechirganlari, ko‘rgan-bilganlari) bilishning eng asosiy vositasidir, tarixiy dalillar bilishning asosiy dalillaridir deb hisoblaydilar. Fandagi (ilmdagi) ong, aql, idrok haqidagi (bunga tarixni ham qo‘sadilar) bilishning eng asosiy vositasi bu – tushunish va intuitsiya (sezgirlik)dir deb ko‘rsatadilar. Neokantchilarning ta’kidlashicha, tarix individual, alohida konkret holatlar bilan bog‘liq bo‘ladi, tarix poeziyaga va san’atga yaqin bo‘lib, ko‘proq tavsifiy xususiyatiga egadir.

Pozitivism – XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ingliz olimi O.Kont tomonidan ilgari surilgan. Pozitivistlar hamma haqiqiy, pozitiv bilimlar konkret fanlarning mahsulidir, falsafa esa bunday bilimlarni bera olmaydi, shuning uchun uning kera-gi yo‘q, degan g‘oyaga asoslangan subyektiv qarashga ega edilar. Pozitivistlar aniq dalillarni qaror toptirish va ularni tavsiflab berish, dalillarni tekshirish va manbalarni tanqidiy tahlil qilishga e’tibor qaratishi kerak, deb hisobladilar. Pozitivistlarning fikri-chi, jamiyatning taraqqiyot qonunlari bu tabiat qonunlarining davomidir. Tarixchi pozitivistlar ilgari surgan uslublardan biri bu tarixiy taqqoslash uslubidir. Asosiy kamchiliklari – pozitivistlar tarixda hodisalarning ichki sabab-oqibat aloqadorligi imkoniyatlarini inkor qildilar va tarixchining asosiy vazifasi tarixiy hodisalar sodir bo‘lishining «nima uchun sodir bo‘ldi» degan savolga emas, balki «qanday sodir bo‘ldi» degan savolga javob berishdan iborat deb hisobladilar.

Strukturalizm – tarixda tarixiy voqelik, hodisa va jarayonlarni ularning ichki tarkibiy jarayonlari va hodisalari tizimi, ularning o‘zaro bog‘lanishi va munosabatlarni tekshiruvchi sifatida qarash.

TARIX FANI TADQIQOTLARIDA UMUMFAN USLUBLARI

Mantiqiy va tarixiy uslub. Tarixiy uslub, voqeа sabablarining ochilishi. Taxminlardan aniqlikka o‘tish. Tizimli yondashuv va tizimli tahlil. Induksiya, deduksiya. Tahlil va sintez. Modellashtirish. Matematik modellashtirish.

Tarixiy tadqiqotlarning amalga oshirilishida tadqiqotning mazmuni va tadqiqot obyektining xususiyatlariga bog‘liq holda barcha tadqiqot uslublarining qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot uslublari esa o‘z o‘rnida bir necha turlarga bo‘linadi. Bu borada bugungi kungacha ko‘pgina tarixchilar o‘z fikrlarini bildirib o‘tganlar.

Pozitivistlarning fikricha, ilmiy tadqiqot uslublari barcha ijtimoiy va gumanitar fanlar uchun birdek xos bo‘lishi kerak. Neokantchilar esa tarix fani tadqiqot uslublarini tabiiy fanlar tadqiqot uslublariga qarama-qarshi qo‘yanlar. Biroq amalda bu holatning tushunilishi birmuncha murakkablik kasb etadi, ya’ni, birinchidan barcha fanlar tadqiqotlari uchun xos bo‘lgan umumfan uslublari mavjud bo‘lsa, ikkinchidan u yoki bu konkret fanlarning hamda fanlar komplekslarining tadqiqotlari uchungina xos bo‘lgan fanlarning maxsus tadqiqot uslublari ham mavjud. Tarix fani metodologiyasiga oid ilmiy va o‘quv adabiyotlarida (I.Kovalchenko) mazkur uslublarning tadqiqotlar jarayonida qo‘llanilishi borasida bir qator fikrlar berib o‘tilgan. Quyida ana shu uslublarning qo‘llanilishi borasida bildirilgan ayrim holatlar haqida so‘z yuritiladi.

Mantiqiy va tarixiy uslub. Tarixda tadqiqot obyektining makondagi tizimliligi, uning tuzilishi va vazifalari (mantiqiy uslub) hamda tadqiqot obyektining vaqt (zamon)dagi mavjudligi (di-axron – tarixiy uslub) birgalikda, ya’ni sinxron holatda o‘rganiladi. Tadqiqot jarayonida yuqoridagi har ikki uslubdan alohida holda hamda har ikkisini umumlashtirgan holda ham foydalanish mumkin. Natijada fanning makondagi va vaqt (zamon)dagagi holatini bir vaqtning o‘zida o‘rganish imkonini yuzaga keladi.

Mantiqiy uslub tizimli yondashuv asosida obyektning tuzilishi va vazifalarining tahlili nuqtayi nazaridan o‘rganish imkonini beradi.

Tarixiy uslub tarixiylik tamoyillarini aks ettirib, taraqqiyot jarayonlari tadqiqot obyektining turli vaqtlardagi holatini alohi-da-alohida tahlil etish orqali o‘rganiladi. Bunda avval tadqiqot obyektining strukturasi va vazifalari o‘rganilib, so‘ngra tarixiy tahlil amalga oshiriladi. Bu ikki uslubni bir-biridan ajratib tashlash maqsadga muvofiq emas. Agar faqatgina tarixiy uslubning o‘ziga asoslanib xulosa chiqariladigan bo‘lsa, o‘rganilayotgan davrning faqatgina mayjud tarixiy holatini anglash mumkin, biroq bu holatni mantiqiy jihatdan, ya’ni tizimli yondashuv asosida strukturaviy jihatdan tahlil etilsa, o‘rganilayotgan tarixiy davr yoki tarixiy jarayon haqida atroflicha to‘liqroq xulosalarga ega bo‘lish mumkin.

Konkretlikdan abstraktlikka (aniqlikdan mavhumlikka) o‘tish va abstraktlikdan konkretlikka (mavhumlikdan aniqlikka) o‘tish. Bu uslub tadqiqotlar jarayonida tadqiqotning yo‘nalishini aniqlashtirish xususiyati bilan ahamiyatlidir.

Konkretlik bilish obyektini unga xos bo‘lgan barcha jihatlari bilan idrok qilishdir. Abstraklashtirish esa reallikning u yoki bu jihatlarini fikrlash yordamida tasavvur qilishdir.

Konkretlikdan abstraktlikka (aniqlikdan mavhumlikka) o‘tish uch usulda amalga oshiriladi.

Birinchi usul – e’tiborni chetga tortish, chalg‘itish vositasida, tadqiqot obyektining u yoki bu tarkibiy jihatini boshqalardan alohida ajratgan holda yoki obyektning u yoki bu belgilarini jamlagan holda, mazmun-mohiyati hamda rasmiy-miqdoriy model-lariga asoslangan holda tadqiq etish.

Ikkinci usul – turli hodisalarni aynan o‘xshash hodisalar si-fatida abstraklashtirish usuli bo‘lib, obyektga o‘ziga xos va taal-luqli bo‘lmagan holatlar orqali baho beriladi. Bu holat turli xilda-gi klassifikatsiyalash (voqealarни tasniflash) va tipologiyalashda (jismlar va hodisalarni umumiy alomatlariga asoslanib guruhlar-ga, turkumlarga ajratish) qo‘llaniladi.

Uchinchi usul – ideallashtirish bo‘lib, obyekt ayrim ideal (mukammal) xususiyatlariga asoslanib shakllantiriladi. Ular obyekting o‘zigagina xos bo‘lib, biroq obyektda yetarli darajada ifoda-lanmagan yoki obyektda yetarli darajada o‘z aksini topmagan. Bu uslub deduktiv-integral modellashtirish imkonini beradi. Abstrakt-lashtirish obyekt mohiyatini chuqurroq tushunishda yordam beradi.

Biroq alohida konkret hodisalarining mohiyatini tushunish va anglash uchun ikkinchi uslub – abstraktlikdan konkretlikka (mavhumlikdan aniqlikka) o‘tish uslubi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunda konkret-nazariy bilim ilmiy tushunchalar, qonunlar va nazariyalar sifatida o‘zini aks ettiradi. Bu uslub birmuncha murakkab bo‘lib, unchalik keng tarqalmagan.

Tizimli yondashuv va tizimli tahlil. Tizim – real vogelikda-gi alohida tarkibiy jarayonlarning umumiy yaxlitligi bo‘lib, ularning o‘zaro birgalikdagi faoliyati va mavjudligi ularning tarkibiy qismlariga xos bo‘lmagan yangi umumiylashgan xususiyatlarning shakllanishiga olib keladi.

Har bir tizim o‘zining tartibi, tuzilishi va vazifalariga ega. Tizimning tarkibiy qismlari – ichki tizimlar va elementlardir. Jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy tizimlar birmuncha murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ularni o‘rganish va tadqiq etish tarixchining vazifasidir. Tizimli yondashuv uslubi jamiyat tizimlarini tartibga soluvchi qonunlarni tushunishga yordam beradi. Bunda tadqiqot jarayonida yetakchi uslub tizimli-vazifaviy (strukturaviy-funksional) tahlildir.

Ayrim tarixchilar tomonidan tizimli tahlilda ko‘pincha tizimning muhit bilan birgalikdagi faoliyati inkor qilinadi. Barcha ijtimoiy tizimlarning asosi o‘ta mustahkam bo‘lgan o‘ziga xoslik bo‘lib, buning natijasida struktura (tizim) o‘zgarmas bo‘ladi. O‘zgarmas holatlarni sinxron o‘rganishga bo‘lgan moyillik ko‘p hollarda dinamik diaxron tahlil (turli o‘zgarishlarni tadrijiylik, bosqichlari bo‘yicha tahlil)dan voz kechishga olib keladi.

Induksiya-deduksiya. Induksiya – alohida holatlardan umumiy voqealarga tomon tahlil etish. Deduksiya – umumiy holatlardan alohida, dastlabki voqealarga tomon o‘rganish.

Tarixchi dalillarni (faktlarni) o‘rganish natijasida umumiy tushunchalarga keladi, yoki aksincha, dalillarni (faktlarni) tushuntirishda o‘ziga ma’lum tushunchalarni qo’llaydi. Har bir dalil (fakt) da umumiy holatning ayrim qismlari mavjud bo‘ladi. Dastlab u alohida dalillar (faktlar) sifatida namoyon bo‘lsa, keyinchalik ham shundayligicha namoyon bo‘ladi. F.Bekon aynan induksiyani asosiy uslub deb hisoblaydi. Uning fikricha, deduksiyadagi muayyan bir fikrga kelish va to‘g‘ri xulosa chiqarish ko‘p hollarda xatolika uchraydi. XIX asr tarixchilar aksariyat hollarda induktiv uslubni qo’llaganlar. Hozirgi kunda ham deduktiv uslubga shubha bilan qarash mavjud. D.Elton manbalardagi empirik materiallarga xos bo‘lmagan nazariyalarni qo’llash fan uchun zarar keltirishi mumkin, deb hisoblaydi. Biroq uning bunday keskin nuqtayi nazar boshqa tarixchilar tomonidan ma’qullanmadi. Hodisalarning tub mohiyatiga yetishish va uni anglash uchun o‘zaro yaqin fanlardan hamda tushuncha va nazariyalardan foydalanish lozim. Induksiya va deduksiya bir-biriga bog‘liq va ular bir-birini to‘ldirib keladi.

Analiz (tahlil) va sintez (hodisalarni o‘zaro bog‘langan, bir butun holda tekshirish, olingan natijalarini umumlashtirish, ulardan bir butun xulosa chiqarish) uslublari. Mazkur tadqiqot uslublari ham tarixchilar tomonidan tadqiqotlar jarayonida keng qo’llaniladi. Tahlil obyektning turli tomonlarini alohida ajratib olgan holda, bir butun hodisani alohida qismlarga ajratgan holda o‘rganadi. Tarixchi o‘rganilayotgan davr yoki tadqiqot obyektini tadqiqot jarayonida bir butun, yaxlit holda jalb qila olmaydi yoki tadqiqot ko‘lami tadqiqot obyektni yaxlit holida qamrab ololmaydi. O‘rganilayotgan obyektning yoki davrning turli omillarini hamda tadqiqot obyektini turli nuqtayi nazarlardan tadqiq etayotgan tarixchi tahlil natijasida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni birlashtiradi va umumlashtirgan holda bir butun, yaxlit tushunchaga yoki xulosaga keladi. Tarixda va tarixiy tadqiqotda sintez nisbatan murakkab uslub bo‘lib, tadqiqot obyektni tushunishda sifat jihatdan jiddiy ravishda olg‘a siljishga imkon beradi.

«Tarixiy sintez» tushunchasi A.Berr tomonidan ishlab chiqilgan. U XX asr boshlarida «Tarixiy sintez jurnali»ni va Xalqaro

sintez markazini joriy etib, bir qator mamlakatlarda faoliyat olib borayotgan tarixchilar, sotsiologlar hamda tabiiy va matematika fanlari sohalari olimlarini birlashtirdi. A.Berr madaniy-tarixiy sintez tushunchasini ilgari surib, psixologiya va antropologiyaning yutuqlaridan foydalanish hamda tarix va sotsiologiyani birlashtirish g'oyasini yoqlab chiqdi.

Har bir falsafiy yo'nalish sintez uchun o'z asoslarini ko'rsata boshladilar. Ulardan biri postmodernistlar tushunchasidan kelib chiqqan holda madaniy omillarga asoslangan sintez g'oyasi bo'lib, bugungi kunda ham bu borada aniq va konkret xulosalar mavjud emas.

Biroq shu narsa aniqki, tahlil (analiz) va sintez o'zaro bog'liqdir. Tahlil jarayonida erishilgan muvaffaqiyat sintezsiz ahamiyat kasb etmaydi. Sintez tadqiqot uchun tahlilga yangi bir turkilar berib, uning faolligini ta'minlasa, tahlil o'z navbatida yangi sintezga yo'l oshib beradi. Sintez ham muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsada, biroq ular qisqa va xususiy xarakter kasb etadi. Tarixchilar tomonidan sintezni aniqlovchi aniq bir omillarni ilgari surishda yakdillik yo'q va tadqiqot predmetining ko'lami qanchalik katta bo'lsa, sintez ham shunchalik murakkab bo'ladi.

Modellashtirish. Modellashtirish ilmiy faoliyatning keng tarqalan shakllaridan biridir. Barcha fanlarda modellashtirilayotgan hodisalar haqida ma'lumot olishda, farazlar va nazariyalarni ishlab chiqishda modeldan foydalaniladi. Shu jumladan tarixchilar ham bu uslubdan tadqiqotlar jarayonida keng foydalanadilar. Tarixiy hodisalarini modellashtirish mantiqiy shakllantirish yordamida amalga oshiriladi, ya'ni fikran mazmun-vazifaviy reja shakllantiriladi. Modellashtirish soddalashtirish, ideallashtirish va abstraktlashtirish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. U manbalardagi ma'lumotlarning reprezentativligini tekshirishda, dalillarning ishonchlilagini, farazlar va nazariyalarning haqiqiyligini tekshirish imkonini beradi. Masalan, jamoaning holatini o'rganish uchun uni modellashtiriladigan bo'lsak, bunda sotsiologiya, huquq, psixologiya hamda jamoaning o'ziga xosligi omillarini ham e'tiborga olish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida

da fanlararo yondashuv uslubining qo'llanilayotganligini ham anglatadi. Bu jarayonda bir holatni hisobga olish kerakki, boshqa bir fanning modelini to'g'ridan to'g'ri jalb etish maqsadga muvofiq emas, uni fanning tuzilishi mohiyati nuqtayi nazaridan shakllantirish lozim.

Matematik modellashtirish uslubi ham mavjud. Bunda matematik tartibsizlik nazariyasi, ijtimoiy halokatlar nazariyalardan foydalaniladi.

Intuitsiya. Yaxshi ma'lumki, olimlar ko'pincha ilmiy muammolarni hal etish jarayonida intuitsiyadan foydalanadilar. Tadqiqotchining bunday kutilmaganda yuzaga keladigan xulosasi keyingi jarayonda ilmiy uslublar bilan qaytadan tekshiriladi. Tarixda XIX asr oxiridayoq V.Diltey tarixiy jarayonlarni tushunish va ularni anglashning asosiy uslubi sifatida intuitsiyani ko'rsatgan. Biroq uning bu nuqtayi nazari aksariyat tarixchilar tomonidan qabul qilinmadi, bunday uslub tarix fani tadqiqotlarini inqirozga olib keladi va xulosalar o'ta subyektiv xususiyatda bo'ladi, tarixiy tadqiqotlarda obyektiv uslublar zarur deb hisoblandi.

Biroq bu bilan intuitsiya tarixiy tadqiqotlarda jiddiy o'rinni tutmaydi deb qaramaslik kerak, tarixchida intuitsiya o'z fanini chuqur bilishida va tarixchining bilimdonligida, u yoki bu uslublarni o'z o'rnida qo'llay bila olish malakasida ko'rinishi mumkin. Bilimsiz hech qanday intuitsiya mavjud emas, tarixiy jarayonni tasavvur qilish yoki his qilish uchun albatta tarixchining iqtidori va bilimi zarurdir. Bunday xislatga ega tadqiqotchilar esa mazkur uslubni qo'llab ajoyib ilmiy ishni amalga oshirishlari mumkin.

Tayanch tushunchalar: mantiqiy uslub, tarixiy uslub, taxminlardan aniqlikka o'tish, tizimli yondashuv, tizimli tahlil, induksiya, deduksiya, tahlil, sintez, modellashtirish, matematik modellashtirish, konkretlikdan abstraktlikka o'tish, abstraktlikdan konkretlikka o'tish, tizimli yondashuv, tizimli tahlil, analiz, tahlil, sintez, modellashtirish, matematik modellashtirish, intuitsiy.

Mayzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mantiqiy uslub qanday uslub va uning mohiyati?
2. Tarixiy uslub qanday uslub va uning mohiyati?
3. Taxminlardan aniqlikka o'tish nima?
4. Sistemalik yondashuv va sistemalik tahlil va uning mohiyati.
5. Tarixiy tadqiqotlarda induksiy.
6. Tarixiy tadqiqotlarda deduksiy.
7. Tahlil va sintez hamda uning tadqiqotlardagi ahamiyati.
8. Tadqiqotlarda modellashtirish nima?
9. Matematik modellashtirish va uning tarix tadqiqotlarida-gi o'rni.

Mayzuga aloqador so'zlarning izohli lug'ati:

Abstraktlik – mavhumlik, fikrning mavhumligi.

Analiz – tahlil, obyektiv voqelikni ilmiy bilish, o'rganish uslubi.

Deduktiv-integral modellashtirish – voqealarning xususiyatlari va ko'lamidan hosil bo'lgan umumiylar tushunchalar va xulosalar yordamida tadqiqotchi tasavvurida tarixiy jarayonning tarkibiy jihatdan shaklini shakllantirish.

Deduksiya umumiylar holatdan xususiy xulosalarga kelish yoki xususiy xulosalar chiqarish.

Ideal – mukammal.

Integral – bu yerda kichik tarixiy jarayonlardan yig'indisidan umumiylar jarayonni shakllantirish va uni xulosalash.

Intuitsiya – ichki his, sezgi, sezgirlik, tajriba yordamidan tash-qari bevosita muroqaba yo'li bilan haqiqatni bilish mumkin degan tushuncha.

Klassifikatsiyalash – turlarga ajratish, voqealarni tasniflash.

Konkretlik – muayyan aniqlik, fikrning aniqligi.

Modellashtirish – tarixiy hodisalarning shartli ravishdagi andozasini, shaklini, holatini tuzish, shakllantirish.

Sintez – hodisalarni o'zaro bog'langan, bir butun holda tekshirish, olingan natijalarni umumlashtirish, ularidan bir butun xulosa chiqarish.

TARIX FANI TADQIQOTLARIDA MAXSUS-TARIXIY USLUBLAR

Tarixiy-genetik uslub. Genetik uslub – o'tmishdan bugungi kungacha. Retroprospektiv uslub – bugundan o'tmishgacha. Sinxron uslub. Xronologik uslub – tarixiy hodisalarining ketma-ketligini, vaqtida o'rganish. Diaxron uslub. Tarixiy taqqoslash uslubi. Tarixiy tipologik uslub. Tarixiy tizimli uslub.

Tarix fanining maxsus tadqiqot uslublari falsafiy, umumfan tadqiqot uslublariga asoslangan bo'lib, ular aniq-muammoviy uslublarning asosini tashkil etadi. Tarix fani tadqiqotlarida bunday uslublarning bir nechta qo'llaniladi, ular quyidagilardir: tarixiy genetik uslub; genetik uslub; retrospektiv uslub; sinxron uslub; xronologik uslub; diaxron uslub; tarixiy taqqoslash uslubi; tarixiy metodologik uslub; tarixiy tizimlilik uslubi.

Tarixiy-genetik uslub. Tarixiy genetik uslub va retrospektiv uslublar keng tarqalgan bo'lib, ular tarixiy voqealarning tarkibi, vazifalari va o'zgarishlarni ketma-ket ochib berishga yo'naltirilgan.

Tarixiy-genetik metodning mohiyati shundaki, o'rganilayotgan voqelikning tarkibi, tuzilishi, vazifalari va undagi o'zgarishlarni tarixiy harakat jarayonlarida ketma-ketlikda tadqiq etishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot obyektining real holatiga imkon qadar ko'proq yaqinlashtirilishiga imkon beradi¹.

Tarixchi I. Kovalchenko ta'kidlashiga ko'ra mazkur uslublar «mantiqiy tabiat bo'yicha bu analitik va induktiv, axborotning bayon etilishga ko'ra esa tavsifiydir»².

U sabab va oqibat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, u yoki bu tarixiy jarayonlarning kelib chiqishini tahlil qilishga asoslanadi. Bunda tarixiy voqeal individual, ham konkret holatda ko'rindi.

¹ Ковалченко Д.И. Методы исторического исследования. – М.: Наука. 2003. С.184.

² O'sha joyda.

Bu metoddan absolyutlashtirilgan (mutlaqlashtirilgan) holatda foydalanish ayrim xatoliklarga olib kelishi mumkin. Tarixiy jarayonlarni o'rganishga asosiy urg'u berilgan holda bu jarayonlarning barqarorligini yetarlicha baholash ham mumkin emas.

Shuningdek voqealarning individualligi va takrorlanmasligini ko'rsatgan holda uning umumiyligini kasb etishini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bunda empirizmdan saqlash tavsiya etiladi.

Genetik uslub. Bu uslub tarixiy tadqiqotlarda tarixiy jarayonlarning kelib chiqishini tadqiq etib, tadqiqot yo'naliшини o'tmishdan bugungi kunga tomon yo'naltiradi. Bunda genetik uslub o'tmishdan bugungi kungacha sodir bo'lgan tarixiy jarayonlarning kelib chiqishi, rivojlanib borishi va keyingi holatlariga o'tishi jarayonlarini voqealarning kelib chiqishi sabablarini aniqlashga e'tiborni qaratgan holda amalgalash oshiradi.

Retrospektiv uslub esa bugungi kundan o'tmishga yoki natija va oqibatlardan sabablarga yo'nalgan bo'ladi. O'tmishning saqlanib qolgan elementlari orqali uni rekonstruksiya (qayta tiklash) qilish mumkin. O'tmish bilan tanishish jarayonida bugungi mavjud holatlarni yuzaga kelishi bosqichlari va shakllanishini aniqlash mumkin.

Sinxron uslub – bir vaqtda sodir bo'lgan turli tarixiy voqealarni o'rganishga yo'naltirilgan. Jamiyatda har qanday hodisa o'zaro bog'liqligi sababli bu metoddan tizimli yondashishda foydalanish bu bog'liqlikni ochishga yordam beradi.

Bu esa u yoki bu mintaqada sodir bo'lgan tarixiy jarayonlarni tushuntirishga imkon yaratadi, shu bilan birqalikda ularning iqtisodiy, siyosiy hamda turli davlatlarning xalqaro aloqalariga ta'siriini kuzatish imkonini beradi.

Xronologik uslub – har bir tarixchi tomonidan qo'llanilib, tarixiy jarayonlarning vaqt bo'yicha (xronologik) ketma-ketlikda o'rganish imkonini beradi. Biroq bunda e'tiborga molik faktlarni diqqatdan chetda qoldirmaslik kerak. Ayrim hollarda, ya'ni tarixchilar tomonidan ayrim dalillarning (faktlarning) mazkur tizim-

ga jalb eta olmagan hollarda tarixiy jarayonning tavsifidagi noaniqlikka yo'l qo'yilishi mumkin.

Bu uslubning bir ko'rinishi muammoviy-xronologik uslub bo'lib, yirik tadqiqot mavzusini tadqiqot jarayonida bir necha qismga bo'lib, ularning har biri bo'yicha alohida xronologik jihatdan ketma-ketlikda tadqiqot amalga oshiriladi.

Diaxron uslub (davrlashtirish metodi). Vaqt muammosi ko'pgina fanlar, jumladan tarix fani nuqtayi nazaridan ham eng dolzarb muammolardan biri sanalib, ayrim tarixchilarining tushunchasiga ko'ra «umumi takrorlanmas (zamon va makonda) jarayon juda ko'plab takrorlanuvchi (zamon va makonda) ichki tarkibiy jarayonlardan tashkil topadi»¹.

Vaqt bo'yicha jarayonlarning eng ahamiyatli xususiyatlari, yangi bosqichlarning, davrlarning shakllanish holatlari aniqlanib, jarayonlarning boshlanish va yakuniy davridagi holatlari solishtirilib, taqqoslanadi, taraqqiyot va rivojlanishning umumiyo yo'naliishlari aniqlanadi.

1990-yilda Madridda bo'lib o'tgan tarixchilarining XVII xalqaro kongressida Yevropa va Osiyoda yaratilgan tarixiy tadqiqotlarda ko'tarilgan tarixdagi vaqt masalasi muammolari muhokama etildi. Mazkur kongressda M.Barg tomonidan vaqt kategoriyalarining tarixiy bilish tamoyillaridagi o'rni haqida ma'ruza qilindi².

M.Bargning qarashlariga ko'ra, kalendar yil tarixiy vaqt tu-shunchasiga ko'ra «tashqi» vaqt, ijtimoiy-tarixiy vaqtini esa «ichki» vaqt sifatida talqin qilish mumkin. Bunda kalendar yil mutlaq doimiy va davomiydir, ijtimoiy-tarixiy vaqt esa qiyosiy va tanafuslar bilan namoyon bo'ladi, unda davriylik va takrorlanuvchanlik, turg'unlik holatlarini kuzatish mumkin³.

¹ Сорокин П.А. Голод как фактор. — М., 2003. С. 4.

² Лаптева М.П. Теория и методология истории: курс лекций / М.П. Лаптева; Перм. гос. ун-т. — Пермь, 2006. С.176.

³ Барг М.А. «Историческое время»: методологический аспект // Новая и новейшая история. 1990. № 1. С. 66–67.

Davrlarning ahamiyatga molik jihatlarini aniqlash uchun davrlashtirish mezonlarini aniq va ravshan belgilab olish va bunda albatta jarayonning sodir bo‘lishidagi obyektiv sharoitlar va jarayonning o‘zini inobatga olish zarur. Davrlashtirishning bir mezonini boshqa bir mezon bilan almashtirish mumkin emas. Ayrim hollarda u yoki bu voqeja va jarayon yoki bosqichning boshlanish sanasini aniq ko‘rsatish imkonsiz bo‘lib qoladi, chunki jamiyatdagи barcha jarayonlarning chegaralari harakatlanuvchi va ayni vaqtida shartli holda belgilangandir. Bu tadqiqot jarayonida barcha jarayonlar va voqealarning turli xususiyatlarga egaligi, bir taxlitda sodir bo‘lmasligi va vaqt nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ularni aniq bir «qolip»ga solib chegaralab qo‘yish maqsadga muvofiq emas va tarixchi tadqiqot jarayonida bu jihatlarni albatta inobatga olishi zarurdir. Qachonki bir nechta tizim va mezonlar mavjud bo‘lib, ular tadqiqotga jalb etilsa, tarixiy bilish jarayonining ko‘lami va mazmunan boyligi ham ortib boradi.

Tarixiy taqqoslash uslubi. Taqqoslash uslubi dastlab ma’rifatparvarlar tomonidan qo‘llanilgan. F.Volter birinchilardan bo‘lib o‘zi tomonidan yaratilgan tarixiy kitoblarida taqqoslash uslubini qo‘llagan, biroq bunda bu uslub tarixiy uslubga nisbatan ko‘proq vosita sifatida qo‘llanilgan. XIX asr oxirlariga kelib bu uslub tarixiy tadqiqotlarda, ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy tarix sohalarida ancha keng o‘rin tuta boshladi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda ayniqsa komparativ uslub keng qo‘llanila boshlandi. Amalda bironta ham tadqiqot bu uslublarni qo‘llamasdan amalga oshirilmaydigan bo‘ldi.

Aslida bironta ham ilmiy tadqiqot taqqoslash uslubini qo‘llamasdan amalga oshirilmaydi. Taqqoslash metodi eng muhim va shu bilan birga tarixiy bilish jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladigan metoddir¹.

¹ Мелконян Э.Л. Проблемы сравнительного метода в историческом знании. Ереван. 1981.

Daliliy materiallarni, ma'lumotlarni yig'ish, dalillarni tizimlashtirish va tahlil qilish jarayonida tarixchi ko'pgina jarayonlarning mazmunidagi o'xhashlikni, biroq ayni vaqtida jarayonlarning zamon va makon bo'yicha turliligi, bir-biridan farqlanishi omillari sababli xilma-xillik kasb etishini va yana ayni vaqtida shaklan umumiylikni ko'rishi mumkin. Mazkur uslubning bilish jarayonidagi mazmuni uning tarixiy jarayonlarning mohiyatini tushuntirib berish uchun yo'naltiradigan imkoniyatlaridadir. Jarayonning mohiyatini anglash va tushunish uchun uning o'xhashlik va farqlanuvchi xususiyatlarini tushunish kerak. Bu uslubning mantiqiy asosini analogiya tashkil etib, tadqiqot obyekti dagi biror-bir o'xhashlik asosida jarayonning boshqa jihatlari haqida ham xulosalar chiqarilishi mumkin.

Tarixiy taqqoslash uslubi tarixiy jarayon tafsilotlari aniq va ravshan bo'limganda uning mohiyatini ochishga, shuningdek, umumiylikni, qonuniylikni, takrorlanuvchanlikni aniqlash hamda umumlashtirishga va tarixiy parallelilikni yuzaga chiqarish uchun imkon beradi. Bunda albatta bir qator talablarga rioya etishga to'g'ri keladi. Jumladan, avvalo taqqoslash tarixiy jarayonning shaklan o'xhash jihatlarini emas, balki mohiyatini aks ettiruvchi aniq va konkret dalillar (faktlar) bilan amalga oshirilishi lozim, ikkinchidan, hodisalar va jarayonlarning tipologiyasi va davrini yaxshi bilish va tushunish lozim. Taraqqiyotning bir bosqichida yoki turli bosqichlarida bo'lgan bir xil va turli xil hodisalarni taqqoslash mumkin. Bir holatda mohiyat o'xhashlik asosida ochiladigan bo'lsa, boshqa holatda turlilik asosida aniqlanishi mumkin. Biroq ayni vaqtida tarixchidan tarixiylik tamoyilini unutib qo'ymaslik talab etiladi.

Funksional-tuzilishli tahlil tarix fani tadqiqotlarida boshqa tadqiqot metodlariga nisbatan birmuncha samarali hisoblanadi. Funksional-tuzilishli tahlilning asosiy jihat shundaki, u mavhumlik (abstraktlik)dan aniqlik (konkretlik)ka o'tish uchun asos bo'la oladi, bu metodni tadqiqot jarayonida qo'llash ilmiy bilimlarning eng yuqori darajasi bo'lgan aniq nazariy bilimga

yo‘naltirish imkoniyatini beradi¹. Biroq bunda o‘rganilayotgan voqelik yoki tarixiy tizimlarni konsruksiyalashda subyektiv yondashuv hamda haddan tashqari abstraktlashtirish (mavhumlash-tirish) maqbul emas.

Tarixiy taqqoslash uslubini qo‘llashda bir qator cheklanishlarga duch kelish mumkin. Bu uslub real voqelikning turliligini tushunishga imkon bersada, konkret shakldagi xususiyatini ko‘rsatib berolmaydi. Shuningdek, tarixiy taraqqiyot sur‘atining tadqiqida ham tarixiy taqqoslash uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Mazkur uslubning rasman (shunchaki qo‘llash, qo‘llanishi «kerak» bo‘lganligi uchun qo‘llash) qo‘llanilishi xatoliklarga olib kelishi, ko‘pgina tarixiy hodisalar mohiyatining noto‘g‘ri tal-qiniga va tavsiflanishiga olib kelishi mumkin. Tarixiy taqqoslash uslubidan boshqa tadqiqot uslublari bilan birgalikda foydalanish mumkin. Afsuski, tarixchilar tomonidan tarixiy taqqoslash uslubi ko‘p hollarda analogiya va solishtirish bilangina qo‘llaniladi, u tadqiqotlar jarayonida to‘liq yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan jihatlarini inobatga olgan holda kamdan kam qo‘llaniladi.

Tarix fani tadqiqotlarida tipologik uslub. Tipologiya tarix fani-da tarixiy hodisalar va jarayonlarni umumiy alomatlari, jihatlari, mohiyatiga qarab ilmiy asosda guruhlarga ajratish, tasnif (klas-sifikatsiya) etishdir. Tipologik uslub tarixiy jarayonlarning mohiyatiga asosan tahlil qilishdir (I.Kovalchenko). Pozitivistlarning ta’kidlashicha, rasman tavsifiy klassifikatsiyalash natija bermaydi. Subyektiv yondashuv tarixchi tafakkuridagina tiplarni shaklantirishga olib keladi. M.Veber tomonidan ilgari surilgan «ideal tiplar» nazariyasi sotsiologlar tomonidan uzoq vaqtgacha qabul qilinmadи va soddalashtirilgan holda talqin qilindi. Bunda asosan gap bugungi kunda ma‘lum bo‘lgan modellashtirish haqida borib, hozirgi vaqtda tarixchilar bu uslubdan samarali foydalanmoqdalar.

¹ Ковалченко Д.И. Методы исторического исследования. – М.: Наука. 2003. С.204–205.

I.Kovalchenko tomonidan taklif etilgan guruqlar (turlar) de-duktiv yondashuv va nazariy tahlil jihatlari bilan ajralib turadi. Sifat xususiyati bilan aniqlashtirishning belgilari ajratib ko'rsatilib, tadqiqot obyekting u yoki bu tipga mansubligini aniqlash mumkin ekanligi ta'kidlanadi. Bu yondashuv keyinchalik unga matematik uslublarni tadqiqot jarayonida qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qilgan edi.

Tarix fani tadqiqotlarida tizimli uslub. Tarixiy-tizimli uslub tarix fani tadqiqotlarida matematik uslublarni va modellashtirishni qo'llash bilan bog'liq holda qo'llanila boshlandi. Mazkur uslub turli darajadagi ijtimoiy-tarixiy tizimlarning mavjudligidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo'lib, vogelikning asosiy komponentlari (tarkibiy qismlari) - individual va takrorlanmas hodisalar, voqealar, tarixiy vaziyatlar va jarayonlar ijtimoiy tizimlar sifatida ko'rib chiqiladi. Ularning barchasi vazifalari va bir jarayonda sodir bo'lish (namoyon bo'lish) ketma-ketligi jihatdan bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu uslubdan foydalanishning dastlabki bosqichida tadqiq etilayotgan tizimni tizimlar umumiyligidan va uning tarkibidan ajratib olish kerak. Tadqiq etilayotgan tizim ajratib (belgilab) olingandan so'ng uni tuzilish jihatdan tahlil qilish va tizimlarning tuzilishi hamda tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligini aniqlab olish kerak bo'ladi. Bu jarayonda mantiqiy va matematik uslublar qo'llaniladi. Ikkinchi bosqichda o'rganilayotgan tizim (tuzilish)ning shu tizim (tuzilish) ga mansub bo'lgan umumiyligi tizim (tuzilish) bilan bog'liqligi va uning tarkibiy qismidagi o'rni va vazifaviy mohiyati hamda ahamiyati aniqlanadi. Mazkur uslubni tarixiy tadqiqotlar jarayonida qo'llashning murakkabligi shundaki, ijtimoiy tizimlarning murakkab tuzilishga ega ekanligi va oddiy tizim (tuzilish)dan murakkab tizim (tuzilish)larga (turar joy – qishloq – viloyat kabi) o'tib borish jarayonlaridir. Tadqiqotlar jarayonida agar hodisalarning mohiyatini yoritish yoki aniqlash imkonni bo'lмаган holda umumfan uslublari va maxsus tarixiy uslublardan foydalanish tavsiya etiladi. Sinxron tahlilda nisbatan ko'proq samaraga erishi-

shi mumkin, biroq bu holda taraqqiyot jarayoni ochilmay qolishi mumkin. Tizimli tuzilish jihatdan va funksional jihatdan tahlil esa haddan tashqari abstraktlashtirishga va formallashtirishga olib kelishi mumkin.

Yuqorida tarixiy tadqiqotlarning eng asosiy ko‘p hollarda qo‘llaniladigan usslublari haqida so‘z yuritildi. Shunga alohida e’tibor qaratish kerakki, ularning birortasi ham tadqiqotlar jarayonida barcha tadqiqotlar uchun xos (universal) va mutlaq uslab bo‘lishi mumkin emas. Ulardan tadqiqotlar jarayonida umumlashtirilgan holda va tadqiqotning turli mazmuni hamda qismalaridan kelib chiqqan holda eng samarali hisoblanganlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ularning falsafiy va umumfan xususiyatlarini ham nazardan qochirmaslik kerak, bu esa tarixchiga tadqiqotlar jarayonida turli xatoliklar va noaniqliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun asos bo‘ladi.

Tayanch tushunchalar: Tarixiy-genetik uslab, genetik uslab, retroprospektiv uslab, sinxron uslab, xronologik uslab, diaxron uslab, tarixiy taqqoslash uslubi, tarixiy tipologik uslab, tarixiy tizimli uslab, muammoviy-xronologik uslab, davrlashtirish metodi, deduktiv yondashuv, nazariy tahlil, mantiqiy uslab, matematik uslab.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Uslub nima?
2. Tarixiy tadqiqotlar usslublari nima?
3. Tarixiy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan uslublar haqida tushunchangizni asoslab bering.
4. Tarixiy-genetik uslab haqida tushunchangiz.
5. Genetik uslab haqida tushunchangiz.
6. Retroprospektiv uslab haqida tushunchangiz.
7. Sinxron uslab haqida tushunchangiz.
8. Xronologik uslab haqida tushunchangiz.
9. Diaxron uslab haqida tushunchangiz.

10. Xronologik uslub haqida tushunchangiz.
11. Tarixiy taqqoslash uslubi haqida tushunchangiz.
12. Tarixiy tipologik uslub haqida tushunchangiz.
13. Tarixiy tizimli uslub haqida tushunchangiz.
14. Tarixiy tadqiqotlarda tadqiqot uslublaridan foydalanishda qanday jihatlarga e'tibor qaratish lozim?

Mavzuga aloqador so‘zlarning izohli lug‘ati:

Analogiya – o‘xshashlik; tarix fanida o‘xshashligi asosida xulosa chiqarish, taqqoslab, qiyoslab xulosaga kelish, hodisa va jarayonlarning, davrlar va bosqichlarning biror jihatdan o‘xshashligiga asosan (yoki farqlanishi) fikrlash, xulosa chiqarish, tahlil qilish, tadqiqot obyektidagi biror-bir o‘xshashlik asosida jarayonning boshqa jihatlari haqida ham xulosalar chiqarilishi mumkin.

Genetik uslub – genezis (kelib chiqish) bilan bog‘liq bo‘lgan, kelib chiqishini (genezisini) o‘rganadigan uslub bo‘lib, tarixiy jarayonlarning kelib chiqishi, voqealarning shakllanishidagi o‘zaro bog‘liqlik holatlarini o‘rganish nuqtayi nazaridan tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan tadqiqot uslubi.

Diaxron uslub (davrlashtirish uslubi) – tarixiy tadrijiylik asosida tadqiqotning amalga oshirilishi, tarixiy voqealarni ketma-ket, bosqichma-bosqich rivojlanishi bo‘yicha tadqiqot amalga oshiriladi.

Modellashtirish – bilish obyektlarini (ko‘pincha fizikada) ularning modellari yordamida tadqiq qilish. Modellashtirish asosida tadqiqot obyekti bilan uning modeli o‘rtasidagi o‘xshashlik, muvofiqlik yotadi. Hozir bu metod ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi.

Retrospektiv uslub – retrospektivlik, o‘tmishga qaratilganlik. Tarixiy tadqiqotlarda bugungi kundan o‘tmishga yoki natija va oqibatlardan sabablarga yo‘nalgan holda tarixni tadqiq etish uslubi.

Sinxron uslub – sinxronlik xususiyatiga ega bo‘lgan, sinxron ravishda (bir vaqtda, baravar) sodir bo‘ladigan. Bir vaqtda sodir

bo‘lgan turli tarixiy voqealarni o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqot uslubi.

Tarixiy-tizimli uslub – turli darajadagi ijtimoiy-tarixiy tizimlarning mavjudligidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, voqelikning asosiy komponentlari – individual va takrorlanmas hodisalar, voqealar tarixiy vaziyatlar va jarayonlar ijtimoiy tizimlar sifatida ko‘rib chiqiladi.

Tarixiy taqqoslash uslubi – tarixiy jarayon tafsilotlari aniq va ravshan bo‘lmaganda uning mohiyatini ochishga, shuningdek, umumiylikni, qonuniylikni, takrorlanuvchanlikni aniqlash hamda umumlashtirishga va tarixiy parallellikni yuzaga chiqarish uchun qo‘llaniladi.

Tarixiy-tipologik uslub – tipologiya tarix fanida tarixiy hodisalar va jarayonlarni umumiylaralomatlari, jihatlari, mohiyatiga qarab ilmiy asosda guruahlarga ajratish, tasnif (klassifikatsiya) qilish. Tipologik uslub tarixiy jarayonlarning mohiyatiga asosan tahlil qilishdir.

Tipologiya – tarix fanida tarixiy hodisalar va jarayonlarni umumiylaralomatlari, jihatlari, mohiyatiga qarab ilmiy asosda guruahlarga ajratish, tasnif (klassifikatsiya) qilish.

Xronologik uslub – voqealarning ketma-ket sodir bo‘lishiga asoslangan, voqea va hodisalarni xronologik tartibda bayon qilishga yo‘naltirilgan tarixiy tadqiqot uslubi.

TARIX FANI TADQIQOTLARIDA MATEMATIK USLUBLARNING QO'LLANILISHI

Matematik uslublar. Ommaviy jarayonlarning rivojlanishida qonuniyatlarni va tendensiyalarni aniqlashda matematik uslublar. Uslublarning reprezentativ tanlanishi. Matematik modellashtirish. Rasmiy son uslubi. Ikki turi: imitatsion modeli va ko'rsatish-o'rganish modeli.

Tarix fanida matematik uslublardan foydalanishning boshlanishi XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Tarixchilar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning statistik tahlili bilan shug'ulana boshladilar.

Matematik uslublardan foydalanishning yangi bosqichi ikkinchi jahon urushidan so'ng, XX asrning 50–60-yillarda EHM lari paydo bo'lgandan boshlandi. 1962-yilda AQSH dagi bir qator universitetlar va kollejlar siyosiy tadqiqotlar konsorsiumini tashkil etdilar va bu faoliyat davomida AQSH tarixini ham o'rganib ma'lumotlar to'plashni boshladilar. Yangi tadqiqot uslublariiga asoslangan holda «yangi iqtisodiy tarix», «yangi siyosiy tarix», «yangi ijtimoiy tarix» tushunchalari shakllandi. «Kliometriya» deb nom olgan yangi fan haqida fikrlar paydo bo'la boshladi va dasturlar hamda ma'lumotlar bazalari yaratildi. Bu faoliyat natijasida ikki nafar kliometrist D.Nort va G.Fogel Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Ulargacha va ulardan keyin ham bunday nufuzli mukofotga biron-bir tarixchi musharrraf bo'limgan. Bu uslublarni qo'llash borasida strukturalistlar dastlabkilardan bo'ldilar. Ayni vaqtida «tavsifiy» tarix tarafдорлари tarixiy jarayonlarni haddan tashqari abstraktlashtirishga qarshi chiqdilar va manbalarда miqdoriy ma'lumotlar (dalillar, faktlar)ning yetarli emasligini asos sifatida ko'rsatib, tarixning fan sifatida o'z qiyofasini yo'qotishi mumkinligini ta'kidladilar.

Keyinchalik bu masaladagi bahslar to'xtadi, kliometristlar tarix fanini tarixiy tafsiflashlarsiz matematikalashtirish va unga bog'liq fan sifatida ko'rsatish g'oyasidan voz kechdilar. Biroq ayni vaqt-

da an'anaviy tarix tarafdlari va mutaxassislar esa bu masala-
ga boshqacha yondashib, matematik uslublar yordamida tarix
fani tadqiqotlaridagi bir qator masalalarni hal etish mumkinligini
ko'rsatib berdilar. Bu esa XX asrning 60-yillarida tarix fani tad-
qiqotlarida matematik uslublardan foydalanishni kuchaytirdi va
ayni vaqtida matematiklar tarix fani tadqiqotlarida bag'ishlangan
ishlarga o'z takliflarini krita boshladilar, matematik uslublarga
berilayotgan urg'u kuchayib bordi. Biroq bu jarayonlarda tarixchi-
lar tarixda barcha narsani miqdor jihatdan asoslab berish mumkin
emasligini va tadqiqotlar jarayonida tarixiy uslublar hech qachon
o'z ahamiyatini yo'qotmasligini yaxshi tushunib turardilar. Ayni
vaqtida tarixchilar tarix fani tadqiqotlari sohasida yaxshi sama-
ra berishi mumkin bo'lган matematik uslublarni ham o'zlashti-
rish kerak deb hisobladilar. Bundan kelib chiqadiki, tadqiqotlar
jarayonida matematik uslublardan zarur hollarda boshqa maxsus
tarixiy va umumfan uslublaridan ham foydalangan holda foyda-
lanish maqsadga muvofiqdir, aks holdagi qo'llashlarda esa tarixiy
jarayonlarni tushunishda xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Matematik uslublar umumiy jarayonlarning rivojlanishida-
gi qonuniyatlar va an'analarini aniqlab berishi mumkin. Ko'plab
iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayonlar matematik uslublar yordami-
da o'rganilmoqda. Matematik uslubsiz tizimli yondashuv tad-
qiqot yuzasidan keng va atroflicha tushuncha bermasligi mum-
kin. Tipologik klassifikatsiya (tasniflash) jarayonida u bir xilda
bo'lmay ko'p tomonlama (turli xil) bo'lishi mumkin va bunda shu
taxlitda yondashuv va tahlil talab etiladi.

Oddiy raqamlarni, foizlarni va oddiy hisobli guruhlarni tad-
qiqot jarayonida qo'llash bu matematik uslublardan foydalanish
degani emas. Hozirgi vaqtida dispersion, korrelyatsion, faktor
(omil, muhit)li, klasterli tahlil, axborot nazariyasi elementlari va
differensial (o'zgaruvchan) tenglashtirish, matematik modellash-
tirish uslublari tarix fani tadqiqotlarida qo'llaniladi.

Matematik uslublar turli holatlar va omillar, u yoki bu ho-
disalarning sabablari, asosiy faktlar (dalillar)ni aniqlash, ular-

ning qiyosiy ahamiyatini aniqlashda qo'l keladi. Shuningdek, bu uslublar gneseologik muammolar – manbalardagi ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirish, manbadan ko'proq axborotlarni olish darajasini oshirish kabilarni hal etishda ham yordam beradi. Ayni vaqtda mazkur uslublardan foydalanishning me'yollarini va tadqiqotlardagi o'rnini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki uning tadqiqot obyektining xususiyatlari, ayni vaqtda tarix fanining va matematika fanining taraqqiyoti bilan holatlarini ham diqqat-e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Matematik uslublardan tadqiqot jarayonida eng zarur holatlar-da va qo'llash imkoniyati mavjud bo'lgan holatlarda foydalanish mumkin va qo'lga kiritilgan natijalarni va xulosalarni an'anaviy uslublardan foydalangan holdagi natijalar bilan taqqoslab borish maqsadga muvofiqdir. Bunda tarixchining matematika fani so-hasidan ham yetarli bilimga ega bo'lishi muhim o'rinni tutadi va har ikki fan yuzasidan yuqori darajadagi bilimga ega tarixchi mutaxassislar tadqiqotlar jarayonida katta natijalarga erishishlari mumkin.

Shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi va ilmiy tadqiqotlar jarayoniga kirib kelishi bilan matematik uslublardan foydalanishning yangi bosqichi boshlandi.

Matematik modellashtirish. Modellashtirish – tarixiy hodisalarning shartli ravishdagi andozasini, shaklini, holatini tuzish, shakkantirishdir. Har qanday model (andoza, shakl) – bu tadqiq etilayotgan hodisalar va jarayonlar mohiyatining abstraktlashgan ko'rinishidir. Modellashtirish asosida o'xshashlik nazariyasi yotadi, bunda model (andoza, shakl) tadqiq etilayotgan hodisalar va jarayonlarning yaqinlashtirilgan o'xshashligidir.

Modellashtirish o'z tarkibiga sifat va miqdor jihatdan tuzilgan modellashtirishni kiritadi (ya'ni mohiyat-mazmun jihatdan va tuzilish-miqdoriy jihatdan).

Tuzilish miqdoriy modellashtirish – bu mohiyat-mazmunli shaklning (andozaning) tuzilish shaklidir. Uning aniq-konkret

ma'lumotlar bilan to'ldirilishi va bu ma'lumotlarning matematik uslublar yordamida tahlil qilinishi tadqiq etilayotgan hodisalar haqida yangi ma'lumotlar berishi mumkin.

Qo'lga kiritilgan bu ma'lumotlarni talqin qilish va tushuntirib berish mohiyat-mazmunli shakl orqali amalga oshiriladi va bunda tadqiq etilayotgan hodisaning mohiyati ochib beriladi.

Tuzilish – miqdoriy model (andoza, shakl) ikki ko'rinishda bo'ladi: birinchisi aks ettiruvchi – (mezonli) o'lchamli (tarixiy hodisalarning haqiqiy tuzilishini aks ettiradi va uni o'lchovchi, mezonini aniqlab beruvchi sifatida namoyon bo'ladi) bo'lib, ikkinchi turi imitatsion model (andoza, shakl) bo'lib, tadqiqot obyektining tuzilishini asliga taqlidan talqin qilishga imkon beradi va bunda u modellashtirishning muqobil ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Aks ettiruvchi – (mezonli) o'lchamli model (andoza, shakl) tadqiqot jarayonida tadqiqotchi uchun samarali va zarur bo'ladigan muhim uslublardan biri bo'lib, tarixiy jarayonlarning ichki ro'y berish hodisalarini tushunish imkoniyatini beradi, manbalardagi ayrim yetishmaydigan ma'lumotlarning o'rnnini to'ldirishda duch kelinadigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi. Imitatsion-muqobillik modeli tushunishni chuqurlashtirishning muhim vositalaridan biri sanalib, tushunishning rivojlantirib borilishi turlarini va qo'llanilishi mumkin an'analarni tushunishda yordam beradi. Shuningdek holatlар va jarayonlarni muqobil holatda imitatsiyalash ham mumkin.

Asosiysi, tarixchi model (andoza, shakl)ni qanday shakllantirishni o'zi o'zlashtirib olgan bo'lishi talab etiladi. U yoki bu sohadagi tayyor model (andoza, shakl)larni to'g'ridan to'g'ri qo'llash maqsadga muvofiq emas, bunday model (andoza, shakl)lar tarixiy tadqiqotlar uchun moslashtirilishi kerak. Bu murakkab jarayon ma'lum bilim va malaka hamda ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi va tadqiqot jarayonida bundan foydalana olgan tarixchi ilmiy jihatdan katta samaralarga erishishi mumkin.

Tayanch tushunchalar: modellashtirish, matematik modellashtirish, imitatsion model, aks ettiruvchi model, o'lchamli model, matematik uslublar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Matematik uslublar haqida tushunchangizni sharhlab bering.
2. Matematik uslublardan ommaviy jarayonlarning rivojlanishida qonuniyatlarni va an'analarni aniqlashda qanday foydalanish mumkin?
3. Matematik modellashtirish nima?
4. Modellashtirishning aks ettiruvchi – (mezonli) o'lchamli shakli nima?
5. Modellashtirishning imitatsion shakli nima?

Mavzuga aloqador so‘zlarning izohli lug‘ati:

Dispersiya – yoyilish, ajralish, bo‘linish, parchalanish. Tarix fanida tarixiy jarayonlarning tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish.

Korrelyatsion – o‘zaro bog‘liqlik, bog‘langanlik, munosabat-dorlik; tarix fanida voqealarning o‘zaro bog‘liqligi, o‘zaro munosabatda bo‘lganligi.

Modellashtirish – tarixiy hodisalarining shartli ravishdagi andozasini, shaklini, holatini tuzish, shakllantirish.

Tarixda matematik uslublar – matematikalashtirish (matematisatsiya) va kompyuterlashtirish (kompyuterizatsiya) ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlaridir. Matematik uslublardan tarix fani tadqiqotlarida foydalanish haqida maxsus asarlar ham yozilgan (М.Ковальченко. Количествоные методы в историческом исследовании. – М., 1984; Математические модели исторических протестов. – М., 1998). Matematik uslublar tarixiy jarayonlaridagi qonuniyat va an'analarni aniqlash va o‘rganish va xulosalar chiqarishga yordam beradi (masalan, iqtisodiy taraqqiyot darajasini aniqlash, aholini ro‘yxatga olish, saylovlarning natijalarini tahlil qilish). XIX asr oxiri–XX asr boshida fransuz olimi Seminon fransuz xalqining oylik statisti-

kasini hisoblab chiqib matematik uslublarga asos solgan. XX asrda bu usul rivojlanadi. II jahon urushidan keyin AQSH olimlari bu usuldan foydalana boshlaydilar. Ular matematik uslublardan elektron hisoblash mashinalari bilan bog'liq holda foydalanganlar. Yangi fanlar paydo bo'la boshlagach, tarix yangi uslublarda ko'rib chiqila boshlagan. D.Nort va G.Fogel matematik uslublardan foydalangani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lishgan. Ba'zi olimlar agar hamma jarayon raqamlarga aylantirib yuborilsa, tarixda tirik inson qolmaydi, boshqalari matematik uslublar-siz umumiy xulosaga kelib bo'lmaydi degan fikrlarni bildirganlar. XX asrning 60-yillaridan boshlab matematik uslublar tarix fani tadqiqotlarida keng ko'lamda qo'llanila boshlandi. Matematik uslublardan foydalanib, tarixiy jarayonlar, voqealarни matematik modellashtirish (tiklash) mumkin.

TARIX FANI TADQIQOTLARIDA FANLARARO YONDASHUV

Tarixning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatlari – ijtimoiy va gumanitar fan davriy jarayoni. Tarix va jamiyatshunoslik. Yangi ijtimoiy tarix. Tarix va psixologiya. Madaniy antropologiya. Tarix va adabiyot. Tilshunoslik. Semiotika va tarix. Tarix va tabiiy fanlar. Sinergetika, tartibsizlik nazariyasi.

Tarix fani har doim boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatda bo'lgan. Antik davrlarda va o'rta asrlarda – mifologiya, dinshunoslik, adabiyot bilan, Uyg'onish davrida – geografiya, san'at, siyosiy nazariya, XVII-XIX asrlarda – siyosat, geografiya, adabiyot va madaniyat bilan doimiy ravishda aloqadorlikda bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmida falsafa fani bilan aloqaga kirishgan bo'lsa, keyingi davrlarda lingvistika va arxeologiya fanlari bilan aloqaga kirishgan. Hozirgi vaqtida tarix fanining boshqa fanlar aloqadorligi – fanlararo yondashuv ko'lami ancha kengaygan. Tarix fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi fanning va fan tadqiqotlari uslublarining aksariyat hollarda umumlashuviga ta'sir ko'rsatdi. Tarixchilar va jamiyatshunoslар tomonidan zamonaviy tarix tadqiq etilayotgan bo'lsada, tarixchi o'rganilayotgan davr xususiyatidan kelib chiqqan holda ularga doimiy ravishda tuzatishlar kiritib boradi. Tadqiqot maqsadida shakllantirilgan modellar va nazariyalar o'z-o'zidan (mexanik tarzda) tadqiqot uchun jalb etilishi mumkin emas, chunki bu holda ular kutilgan natijani bermaydi, shuning uchun tanlab olingan va shakllantirilgan bunday nazariyalar va modellar tarixchi tomonidan doimiy ravishda tarixiy tadqiqotlarga moslashtirilishi lozim.

Tarix va sotsiologiya. Tarix va sotsiologiya fanlarining o'zaro aloqadorligining shakllanishi murakkab jarayonlar orqali amalga oshirilgan. Sotsiologiya XIX asrda shakllangan bo'lib, uning asoschisi O.Kont hisoblanadi. Pozitivistlar sotsiologiyani tarix faniga qarama-qarshi qo'ymadilar va bu har ikki fanning pozitiv bilimlar berishini ta'kidladilar. Marksistlar ham sotsiologiya va

tarix fanlariga nisbatan xuddi shunday qarashda bo‘lganlar. Biroq an’anaviy nemis tarixchiligi va neokantchilar bu har ikki fanni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ydilar, ularning ta’kidlashicha tarix alohida, takrorlanmas hodisalarni va jarayonlarni o‘rganadi, sotsiologiya esa abstrakt (mavhum) fandir.

XX asr boshlariida Fransiyada tarixshunoslikda «sotsiologik» yo‘nalish paydo bo‘ldi (A.Berr va uning «tarixiy sintez» nazariyasi). Ikki jahon urushi oralig‘i yillarida esa «Annallar maktabi» tarix va sotsiologiya fanlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ko‘rsatish borasida faollik ko‘rsata boshladi. Davlatchilik tarixi bilan bog‘liq, huquq, siyosiy tashkilotlar va muassasalar tarixi bilan bog‘liq an’anaviy mavzularni bu maktab vakillari tabiiy muhitda, ishlab chiqarish, aholi va uning joylashuvi, ko‘chishi va boshqa jihatlari bilan bog‘lagan holda o‘rganishni taklif qildi. Bu jarayonda «Annallar maktabi» taqqoslash va qiyoslash uslubidan keng foydalanish g‘oyasini ilgari surdi. F.Brodel ijtimoiy fanlar sohalaridagi aloqadorlikni kuchaytirishni taklif qilib chiqib, o‘zi sotsiologiya va tarix fanlarining o‘zaro aloqadorligidagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirdi.

Ikkinci jahon urushidan so‘ng tarix va sotsiologiya fanlari o‘rtasidagi aloqadorlik jarayonlari kuchayib borib, AQSHda sotsiologlar tarixchilarga o‘z fani tadqiqot uslublarini taklif qildilar. Biroq bu jarayonda shu narsa oydinlashdiki, sotsiologiya fanning barcha tadqiqot uslublarini ham tarix fani tadqiqotlari jarayonida qo‘llab bo‘lmasligi, unga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish va ularni absolyutlashtirmaslik (mutlaqlashtirmaslik) haqida mulohazalar bildirildi. Tarixchilar tadqiqotlarda empirik sotsiologiyaning eng yangi yondashuvlarining o‘zlashtirgan holda sotsiologiyaning nazariyalarini ham qo‘llay boshladilar.

Biroq bu vaqtida an’anaviy tarixchilik yetakchi bo‘lgan va uning qatorida yangi yuzaga kelgan «ijtimoiy tarix» mavjud bo‘lgan Germaniyada sotsiologiya va tarix fanlarining o‘zaro yaqinlashuvi va aloqadorligining kuchayib borishiga qarshi qat’iy fikrlar bildirildi. Bulardan ko‘rish mumkinki, tarix va sotsiologiya fanlarining alo-

qadorligi hozirgi vaqtgacha turli munosabatlarga uchradi va bungini kunda ularning aloqadorligi kuchayib bormoqda.

Tarix va sotsiologiyaning o‘zaro aloqadorligi – bu konkretlik va abstraktlik o‘rtasidagi, tarixiylik va mantiqiylik o‘rtasidagi munosabatlardir. Agar tarixchiga konkret, aniq dalillar zarur bo‘ladigan bo‘lsa, sotsiologiyaga umumiy vaziyat, hodisalarning mantiqiy aloqadorligi zarur bo‘ladi. Sotsiologik tamoyillar va unga bog‘liq ayrim tushunchalarini o‘zlashtirmsandan turib tarixchiga tizimlar va jarayonlarni o‘rganish murakkablik tug‘diradi. Umumi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda, murakkab tizimlarni tadqiq etishda sotsiologiyaning ko‘magi zarur bo‘ladi. O‘ylangan eksperiment va deduktiv mulohazalar chiqarish, manbalardagi yashirin axborotlarni ajratib olish tarixchilar uchun bahslarga sabab bo‘ladi. Bu vaziyatda sotsiologiya tarixi tadqiqotlariga tizimli tahlil, ilmiy izlanishning dasturiy shakllari bilan yordam berishi mumkin. Biroq bir narsani yodda tutish lozimki, ya’ni sotsiologiyaning zamонавиylikni tadqiq etishga yo‘naltirilgan bir qator tushunchalari va uslublarini to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘tmishni o‘rganishga yo‘naltirilgan tarixiy tadqiqotlarga jalb etish qo‘pol xatolikka olib keladi. Sotsiologiyaning tadqiqot uslublarini tarixi tadqiqotlariga jalb etishning murakkabligi ham ana shunda.

Sotsiologik yondashuv tarixiy yondashuvlarning o‘rnini bosmaydi yoki ularni almashtirmaydi, balki ularning mohiyatini va samaradorligini chuqurlashtirib, mukammallashtiradi, bunda u manbalardan ajratib olingan faktlar (dalillar)ga asoslanadi.

Manbalardagi yashirin axborotni aniqlash va ajratib olish uchun kontent-tahlil metodi qo‘llaniladi. Bunday tahlil metodi katta hajmli matnli axborotni, ya’ni maqollarning mazmuни, topishmoqlar, anketalar, traktat (biror-bir mavzuga bag‘ishlangan ilmiy asar) larni, gazeta va jurnallarni, alohida odamlar va guruhlarning yozma va og‘zaki lug‘atlari kabilarni miqdoriy ko‘rsatkichlarga aylantirishda yordam beradi.

Tahlil standartlashtirilgan jarayonlar yordamida amalga oshiriladi, bu jarayonda matnni interpretatsiyalashdagi subyektiv-

lik ma'lum darajada kamayadi. Kontent – tahlil uch bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda matn mazmuniga ko'ra bir necha guruhlarga (kichik matnlarga) ajratiladi, ularning mohiyati, ahamiyati va o'zaro bog'liqligi aniqlanadi va chuqur tarixiy tahlil amalga oshiriladi. Ikkinci bosqichda ma'noviy birliklarining matnda qo'llanilishi va takrorlanishlari miqdori o'rganiladi va bu bosqich miqdoriy bosqich deb ataladi. Uchinchi bosqichda matn tahlili natijalarining interpretatsiyalash amalga oshiriladi, bu bosqichda ham sifatli tahlil amalga oshiriladi. Manba matnining mazmuni bo'yicha tahlili manbaning yashirin axborotlarini aniqlashga va ularni tushunishga ham imkon beradi.

Tarixchilar sotsiologlar tomonidan ishlab chiqilgan va tarixda sodir bo'lgan jarayonlarni tushuntirishda yordam beradigan turli darajalar nazariyalarini ham qo'llaydilar. Sotsiologyaning tadqiqot uslublaridagi yangiliklar tarixchilar tomonidan ham diqqat bilan o'rganiladi, shuning uchun nafaqat amaliy, balki nazariy sotsiologiya ham tarixchi uchun foydali bo'lishi mumkin.

Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda yetakchi o'ringa chiqib borgan «yangi ijtimoiy tarix»ning shakllanishi tarix va sotsiologiya o'rtaqidagi integratsiyaning asosi bo'lib xizmat qildi. Bu tarix fanining kuchli ko'p qirrali tarmog'i bo'lib, doimiy ravishda taraqqiy etib borib, tarix fani predmetining jihatlarini aniqlab berishi va doimiy ravishda tadqiqot uslublarini yangilab borishi, takomillashtirib borishi bilan alohida ahamiyatga ega bo'ldi. «Yangi ijtimoiy tarix»ning mazmuni va uning muammolari L.P.Repina tomonidan ko'rsatib berilgan «Yangi ijtimoiy tarix» tarixiy o'tmishni, jamiyatning ichki holatini ko'rsatib beruvchi, undagi alohida guruhlarning, shaxslarning va ular o'rtaqidagi munosabatlarni ijtimoiy terminlarda interpretatsiyalash vazifasini ilgari surdi¹.

Bu soha fanlararo yondashuvning «oltin asri» va fanlarning integratsiyasi boshlangan XX asrning 60-yillarida shakllangan edi.

¹ Репина Л.П. «Новая историческая наука и социальная история». – М., 1998.

Bu davrda shaharlar tarixi bo'yicha, urbanizatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy nuqtayi nazardan kompleks xususiyat kasb etuvchi mazmunda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar paydo bo'ldi. Ijtimoiy tarix o'zining predmeti etib quyidagi mikrostrukturalarni belgiladi, ya'ni oila, jamoa, turli ko'rinishdagi korporatsiyalar, natijada jamiyatni murakkab tizim (sistema) sifatida ko'rish va yaxlit holda tushunish yuzaga keldi.

Ijtimoiy tarixdagi yangi yo'nalishlar XX asrning 70–80-yillarida antropologiya va ijtimoiy psixologiyadan kirib kelgan yondashuvlar ta'sirida shakllandi. Tarixchilarning qiziqishlari obyektiv jarayonlarni va tizimlarni tadqiq etishdan madaniyat va uning antropologik interpretatsiyasi (mentalitet, ramzlar (simvollar), urf-odatlar va qadriyatlar va boshqalar)ga ham qaratila boshlandi.

Ijtimoiy tarixning yangi turi sifatida u o'z predmeti tarkibiga inson tafakkurini ham qo'shdi. Ijtimoiy tarix madaniy-antropologik tadqiqot mazmunini ham o'zlashtirib, ijtimoiy tarix mazmunini inson omili bilan «to'ldirdi». Tarixni «quyidan» o'rganish, ya'ni ishchilar tarixi, dehqonlar tarixi, ayollar tarixi, mintaqalar va hududlar tarixi va boshqalar yuzaga keldi. 1971-yilda E.Xobsboum tizimlilik va ijtimoiy-madaniy yondashuvni inobatga olish va ijtimoiy tarixni jamiyat tarixi sifatida tushunish, mentalitetni esa turmush tarziga mos keluvchi turli tafakkur va qarashlar (fikrlar) o'rtasidagi aloqadorlik deb tushunishni taklif qildi. J.Dyubi mentalitetni obyekti sharoitlar bilan moslashtirish kerak deb hisobladi. P.Berk 1980-yilda jamiyatdagi munosabatlarni, ijtimoiy tizimlar, kundalik turmush, xususiy (shaxsiy) hayot, ijtimoiy umumiyliliklar va ziddiyatlar kabilarni o'rganishni taklif qildi. E.Briggs esa (1983) ijtimoiy tarix har tomonlama bo'lishi kerak va u hokimiyat egalarni ham nazardan qochirma-gan holda oddiy odamlarning hayotini o'rganishi kerak, degan tushunchani ilgari surdi.

Yuqoridagilardan ko'rindan, turli tarixchilar ijtimoiy tarixni turlicha tushunganlar. Ayni vaqtda tarix faniga sotsiologi-

ya fanining uslublari, modellari va tamoyillari mexanik ravishda kirib kelmoqda, degan tanqidiy fikrlar ham ko‘plab bildirila boshlangan edi. XX asrning 80-yillarida mentalitetni o‘rganishda tarixiylikni ham qo‘llash e’tirof etila boshlandi, shu vaqtda sintezni amalga oshirish uchun ijtimoiy va madaniy antropologiyani birlashtirish g‘oyasi ham shakllandı. Ayollar tarixi gender tadqiqotlari bilan almashtirildi. Shuningdek, XX asrning ikkinchi yarmida lokal tadqiqotlarni (alohida tarixiy tadqiqotlar, ya’ni alohida qishloqlar, shaharlar, hududlar va boshqalarini o‘rganish) milliy tarixga bog‘lash, ya’ni mikrotarixni makrotarixga sintezlash muammosi ko‘tarildi. Yondashuvlar, tamoyillar yangilanib mukammallahib bordi.

Tarix va psixologiya. Tarixchi tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida tadqiqot obyektining turli xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlariga to‘qnash keladi va ularni turli uslublarni qo‘llash orqali mohiyatini anglashga harakat qiladi. Bu uslublar aksariyat hollarda tarix faniga bevosita aloqador bo‘lsa, tadqiqot obyektining holatiga ko‘ra ayrimlari turli boshqa fanlar tadqiqot uslublariga xos bo‘lishi mumkin. Shunday fanlar yoki sohalar qatorida psixologiya fani ham bor.

Tarixchilar o‘z tadqiqotlarida ko‘pincha turli mashhur shaxslar, san‘at namoyandalari, xalq ommasi va boshqa shu kabilarning ruhiyatini ham o‘rganishga harakat qilganlar. Bunday hollatlar ilk tarix asarlarida ham kam bo‘lsada uchraydi va XVIII asrga kelibgina tarixchilar insonning ichki dunyosi va ruhiy hollatini tushunishga harakat qila boshlaydilar. XIX asr oxirlariga kelib psixologiya fan sifatida qaror topgandan so‘ng, eksperimental psixologiya va psixiatriya yuzaga kelib, XX asrning 60-yillarida esa «psixotarix» yuzaga kelgan. Psikoanalizning klinik «tarix» lari tarixchilarga insonning ichki dunyosini teranroq anglashga yordam berdi. Shunday tadqiqotlar doirasida M.Lyuterning, M.Gandining tarjimayi hollarini o‘rgangan E.Erikson ularning hayoti faliyatidagi motivlarini aniqladi. Uning xulosasiga ko‘ra bolalarning o‘z otalarining hayotlaridagi erisha olmagan narsa-

lariga erishishga harakat qilganligi bu shaxslar faoliyatining asosiy motivlari bo‘lganligini aniqlandi. Shu tariqa tarixchilar tomonidan alohida shaxslarning faoliyatiga xos bo‘lgan umumiy holatlar aniqlandi va psixologiyadagi bunday tipologiya tarixchilar tomonidan fanga kiritildi.

Ayni vaqtida tarixchi psixologiya fanining eng so‘nggi ilmiy yangiliklari, uning tadqiqot uslublarini doimiy ravishda o‘zlashtirib borishi kerak bo‘ladi. Tadqiqotlarda psixologiyaning qo‘llanilishi ommaviy harakatlar, inqiloblar, xalqaro munosabatlar, harbiy to‘qnashuvlar va boshqa shu kabi tarixiy jarayonlarning ichki ruhiy holati haqida ham to‘liqroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. O‘tmishni tushunish tobora chuqurlashib bormoqda va ayni vaqtida tarixchi tadqiqot maqsadlaridan chetlashgan holda psixologiyaga «singib» ketishi mumkin emas.

Tarix va madaniy antropologiya. Madaniy antropologiyaning markazida inson va uning madaniyatga asoslangan mentaliteti, hayotiy tajribalari, xulqi-atvori turadi. Antropologiya insonning xulqini aniqlab beruvchi turli marosim (ritual)lar, belgilarga alohida e’tibor qaratadi. Antropologlarning faoliyati tufayli turli davrlarning «notanish» madaniyatları, ularning xususiyatlari va o‘ziga xosliklari o‘rganiladi. Masalan, turli xalq bayramlari, marosimlari, sayillarini o‘rganish orqali xalqning madaniyatini tushunish mumkin. Tarixchilar esa madaniyatning tarixiy jarayonlarga ta’siri va o‘zaro aloqadorligini o‘rganadilar.

Tarix va adabiyot. Tarix va adabiyot uzoq vaqtlar davomida bir-biridan ajralmas yaxlitlikda mavjud bo‘lib kelgan. Antik davr tarixchilarining ayrimlari ham (Tatsit, Livin) adabiyotga yaqin ijod qilganlar. XIX asrning boshlariga kelib tarixni adabiyotdan alohida tushunish g‘oyalari paydo bo‘ldi va bu ikki sohaning bir-biridan alohida sohalarga ajralishi jarayoni shu asrning ikkinchi yarmida to‘la amalga oshirildi. Shu vaqtida bir qator tarixiy asarlar (A.Dyuma, V.Gyugo, V.Skott) yaratildi. Dastlab tarixni tushunishning badiiy uslubi sifatida bu jarayon tushunilgan bo‘lsa, keyinchalik bunday «tarixiy-badiiy ijod»ning ilmiy to-

monlari ham shakllana boshladi. XIX asrning ikkinchi yarmida tarix fan sifatida to'liq qaror topdi. Tarix ilmiy bilish shakli bo'lib e'tirof etilgan bo'lsa, adabiyot madaniyatning tarkibiy qismiga aylandi.

Fan olamida XIX asr «tarix» asri hisoblanib, avvalgi afsonalar, rivoyatlar, tarixiy jarayonlarning badiiy, diniy talqinlari o'rnini tarixning fan sifatida ilmiy xulosalari egallay boshladi. Bu davrda bir qator ilmiy jamiyatlar va ilmiy jurnallar paydo bo'la boshladi. XX asrga kelib esa tarix va adabiyot to'laligicha bir-biridan alohida sohaga aylandi.

Tarix va adabiyot aloqadorligi haqida so'z borganda eslab o'tish o'rinniki, qadimgi yunon donishmandlaridan biri Aristotelning aytishicha, «tarixchi va shoir bir-biridan biri she'riy tarzda, boshqasi nasriy tarzda yozganligi uchun emas, balki biri sodir bo'lganlar haqida yozsa, ikkinchisi sodir bo'lishi mumkin bo'lganlar haqida yozganligi bilan farqlanadi. Poeziya umumiylig haqida ko'proq «gapirsa», tarix esa alohida holatlar haqida «so'zlaydi» degan so'zlarni yozib qoldirgan edi¹.

XX asrning oxirlariga kelib postmodernistlar tomonidan tarixni qaytadan adabiyotga yaqinlashtirish haqida fikrlar bildirila boshlandi. Adabiyotshunoslar va faylasuflarning fikricha, metafora (kinoya, majoziy ma'noda) tarix va adabiyotni birlashtirish mumkin. X.Vayt tomonidan tor ma'nodagi tarixiy va «ko'pchilikka tushunarsiz» bo'lgan fikrlarni tarixiy prozadagi ommabop tushunchalar bilan almashtirish, tarixchining faoliyatini adabiyot sohasidagi bir yo'naliish, tarixiy bilishni esa dunyoni estetik tushunish shakliga aylanadirish g'oyasi ilgari surildi. Tarixchi o'z fanidan, o'tmishni «qanday bo'lsa shundayligicha» tavsiflashdan voz kechishi va bunda eng asosiy o'ringa intonatsiya (so'z ohangi)ni qo'yish kerak, degan fikrlar ilgari surila boshlandi. Postmodernistlar X.Borxesning: «Jahon tarixi bu — ayrim metaforalarni talaffuz qilishdagi intonatsiyalar tarixidir», — degan so'zlariga urg'u berdilar.

¹ Аристотель. Сочинения: В 4 т. — М., 1984. Т. 4. С. 655.

Biroq tabiiyki tarixchilar bunday postulatlarni (isbotsiz qabul qilinadigan qoidalar) qabul qilmadilar va uni jiddiy fikr hisoblamadilar. Postmodernistlarning yuqoridagi qarashlari faqtgina tarixiy romanlarda ishlatila boshlandi. Zamonaviy tarix fanida tarixiy o'tmishning va tarixiy jarayonlarning estetik jihatlariga ham e'tibor qaratilmoqda. Biroq shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, tarixchi va yozuvchini bir jihat doimo ajratib turadi, ya'ni yozuvchi esa o'zining xayoliy fikrlaridan va to'qima obrazlaridan foydalanishi mumkin bo'lgan holda, tarixchi faoliyati jarayonida to'qima, uydirma, xayoliy fikrlarni berishga haqqi yo'q.

Tarix va semiotika. Tarix fanidagi semiotik yondashuvlar XX asrning 70-yillarida yuzaga keldi.

Semiotika – belgilar haqidagi fandir. Semiotika (yoki semiotika) qadimgi yunon tilida belgi, alomat, nishona ma'nolarini bildirib, belgilar va belgilar tizimining xususiyatlarini (tabiiy va sun'iy tillarni) o'rGANADIGAN fanni anglatadi.

Y.M.Lotmanning fikricha, semiotika tushunchasi ostida muomala va muloqot jarayonida qo'llaniladigan kommunikativ tizimlar va belgilar haqidagi fan tushuniladi¹.

Semiotika belgilar tizimida belgilarni o'rganishning uchta nuqtayi nazarini ko'rsatadi:

1. Sintaksis (sintaktika) – interpretatsiyadan qat'i nazar belgilarni tizimining ichki xususiyatlarini o'rganadi.

2. Semantika – belgilarning munosabatlarini alohida belgilab berish masalalarini o'rganadi.

3. Pragmatika – belgilarning «adresat» bilan o'zaro bog'liqligini, ya'ni belgilardan foydalanish jarayonida interpretator uchun foydali bo'lgan interpretatsiya masalalarini o'rganadi.

Belgilarni aynan belgi holicha ham qabul qilish mumkin, ham kommunikatsiya (muomala qilish, aloqaga kirishi, aloqa vositali) tizimi sifatida ham qabul qilish mumkin. Bu yerda belgilar

¹ Лотман Ю.М. Культура и взрыв. – М., 1992.

tizimi va o‘zaro kommunikatsiya tizimining vositasi sifatida til ko‘zda tutiladi. Semiotikada ikki yo‘nalish mavjud bo‘lib, birinchisi mantiqiy yo‘nalish bo‘lsa, ikkinchisi lingvistik yo‘nalishdir.

Birinchi yo‘nalishda belgi «muhofazalangan» belgi bo‘lib, u ramziy ma’nodagi belgi sifatida shakllanishi va belgiga aylanish jarayonini bosib o‘tadi. O‘zining mohiyatiga nisbatan, boshqa belgilarga, belgining alomatlariga va uning tizimiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Keyingi yo‘nalishda esa til axborotni yetkazuvchi, beruvchi vosita sifatida yondashiladi.

Tarix nima, deb qo‘ylgan masalaning turli tushuntirishlari va yechimlari orasida madaniy-semiotik yondashuv ham mavjud. Masalaning yechimini topishdagi va tushunchalarning turlichaligi bir-birini inkor qilish emas, balki bir-birini to‘ldirib keliishi bilan bir nuqtayi nazardan ikkinchisiga va xulosaga kelishda muhim o‘rin tutadi. Madaniy-semiotik yondashuv tarixiy jarayonlar ishtirokchilarining ichki nuqtayi nazarlariga va xususiyatlariiga murojaat qiladi. Bunda jarayonlar subyektiv jihatlarining u yoki bu harakatlari ko‘zda tutilmoqda. Bunda tarixchining faoliyati jarayonlar va ular orasidagi bog‘liqlikning shartli ravishdagi tasavvurida aks etadi. Shuning uchun tasavvurlar tizimini rekonstruksiya qilish kerak. Semiotik istiqbolda tarixiy jarayon kommunikatsiya jarayoni sifatida tasavvur etiladi.

Tarixiy jarayon – sotsium va individ o‘rtasidagi kommunikatsiya, sotsium va tashqi omillar o‘rtasidagi kommunikatsiya. Tarix bu – o‘tmishni semiotik qabul qilishdir.

Tarix va tabiiy fanlar. Sinergetika, tartibsizlik nazariyasi. XX asrning 70-yillariga kelib murakkab tarkibli tizimlarni o‘rganish boshlanishi natijasida fanda yangicha iboralar, anglash yangicha bazaviy modellari shakllana boshladи. Shulardan biri o‘z-o‘zini tashkil qilish haqidagi fan – sinergetika yangi yo‘nalish sifatida paydo bo‘ldi. Sinergetika fanlararo yondashuvning asosiy vositasi (quroli) sifatida ko‘riladi.

Sinergetika – fanning murakkab va o‘zaro nomutanosib bo‘lgan hodisalar va jarayonlarning (ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy

va boshq.) umumiy qonuniyatlarini o‘z-o‘zini tashkil qilishning o‘ziga xos tamoyillari asosida o‘rganadigan fanlararo yo‘nalishi.

Sinergetika dastlab fanlararo yo‘nalish sifatida yuzaga keldi. Ilmiy dunyoqarash nuqtayi nazaridan ayrim hollarda sinergetikani «global evolyutsionizm» yoki «evolyutsiyaning universal nazariyasi» sifatida talqin qilinadi.

Sinergetikaning asosiy tushunchalaridan biri tizimlarning hamda ko‘p sohali muhitning ko‘p variantli va turlicha bo‘lgan jihatlarini aniqlab beruvchi tizimlardir.

Bu fenomen sinergetikada evolyutsiyaning yo‘nalishidagi o‘ziga xoslikni kuzatish sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni oddiy va sodalikdan murakkablikka va birmuncha mukammallikka yo‘nalishni anglatadi.

Xaosologiya sinergetikaning bir tarmog‘i bo‘lib, o‘z predmeti sifatida tizimlarning nomutanosibligi yoki tasodiflar, jarayonlardagi kuchli «tebranishlar» sohalarini o‘rganadi. XX asrning 70–80-yillardan bu yondashuv ijtimoiy-gumanitar bilimlarga ham kirib kella boshladi. Bu nazariya tarixning bir tekisda bosqichma-bosqich sodir bo‘ladigan jarayonlar haqidagi modellarini qarshi tarzda tanlash imkonи kengroq bo‘lgan alternativlik g‘oyasini (qarama-qarshi, zid holatda) ilgari surdi. Shuni ta’kidlash kerakki, faylasuflar va fiziklar xaos nazariyasini faol tarzda taraqqiy ettirib boradilar, biror qo‘shimcha tarix fani sohasida bir qator savollarga sabab bo‘ladi. «Xaos» tushunchasining o‘zi majoziy ma’noda va mavhumdir. Hozirgacha xaos nazariyasi tarixchiga nima berishi yoki tarix tadqiqotlari-da qanday samaraga va ilmiylikka erishishi mumkinligi mavhum qolmoqda.

Tayanch tushunchalar: tarix va jamiyatshunoslik, tarix va psixologiya, madaniy antropologiya, tarix va adabiyot, tilshunoslik, semiotika va tarix, tarix va tabiiy fanlar, sinergetika, tartibsizlik nazariyasi, kontent – tahlil, «yangi ijtimoiy tarix», ijtimoiy-madaniy yondashuv, jamiyat tarixi, lokal tadqiqotlar, intonatsiya, mantiqiy yo‘nalish, lingvistik yo‘nalish,

madaniy-semiotik, xaosologiya, alternativlik g‘oyasi, xaos, postulat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fanlararo yondashuv va uning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Tarix va jamiyatshunoslik fanlari o‘rtasidagi aloqadorlikni tus huntirib bering.
3. Tarix va psixologiya o‘rtasidagi aloqadorlikni tushuntirib bering.
4. Madaniy antropologiya nima?
5. Sinergetika tushunchasini izohlang.
6. Tartibsizlik nazariyasi qanday nazariya?
7. Tarix fanining qaysi fanlar bilan aloqadorligini izohlab bering.
8. Fanlararo yondashuv va uning tadqiqotlardagi o‘rni.

Mavzuga aloqador so‘zlarning izohli lug‘ati:

Antropologiya – odamning kelib chiqishi va tadrijiy rivojlanish jarayoni, jismoniy tuzilishi va irqlarning paydo bo‘lishi haqidagi fan.

Mifologiya – (mif – afsona) – afsonalar, miflarni, afsonalarni o‘rganuvchi fan.

Postulat – isbotsiz ham qabul qilinaveradigan dastlabki qoida, faraz.

Semiotika – tibbiyot fanlariga oid atama bo‘lib, kasallik alomatlari haqidagi fandir. Tarix fanida esa tarixiy jarayonlarni ularning ichki belgilari, alomatlari, xususiyatlari, o‘ziga xosliklariga asosan qismlargaga bo‘lib o‘rganish sohasi

Tarix va sotsiologiyaning o‘zaro aloqadorligi – bu konkretlik va abstraktlik o‘rtasidagi, tarixiylik va mantiqiylik o‘rtasidagi munosabatlardir. Sotsiologiya tarix fani bilan umumiy aloqadorlikda bo‘lib, zamonaviy jamiyatning tuzilishi va vazifalari, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy ong mazmuni va o‘zgarishlarini o‘rganadi.

Tarix fanining huquqiy fanlar bilan aloqadorligi – umumiy aloqadorlikda bo‘lib, davlat taraqqiyoti va rivojlanishini umumiy (mukammal) holda o‘rganadi.

Tarix va iqtisodiyotning o‘zaro aloqadorligi – umumiy aloqadorlikda bo‘lib, zamonaviy jamiyatning iqtisodiy hayoti sohasini o‘rganadi.

Tarix va siyosatshunoslikning – umumiy aloqadorlikda bo‘lib, zamonaviy jamiyatning siyosiy hayoti sohasini o‘rganadi.

Tarix va madaniyatshunoslikning o‘zaro aloqadorligi – umumiy aloqadorlikda bo‘lib, madaniy hayot sohasidagi alohida va konkret shakllanishi, tuzilishi va taraqqiy etishini o‘rganadi.

Tarix va falsafa va falsafiy fanlarning o‘zaro aloqadorligi – asosiy nazariy – metodologik yo‘nalishlar bo‘yicha falsafiy dunyoqarashni, tarix fanining gneseologik asoslarini shakllantiradi:

ontologiya – kategoriyalar yordamida jahonning o‘zida umumiy tuzilishini aks ettiruvchi falsafiy manzarasini, jumladan jamiyat va uning aniq va konkret tarixiy taraqqiyoti haqidagi qarashlarni shakllantiradi;

gneseologiya – dunyoni, jumladan tarixiy jarayonlarni anglash, bilishning chegaralari, me’yorlari va imkoniyatlarini asoslab beradi;

mantiq – ilmiy tarixiy bilish uchun zarur bo‘lgan fikrlashing shakllari amalga oshirilishining to‘g‘ri qo‘llanilishini ajratib, asoslab beradi;

epistemologiya – ilmiy bilishdagi umumiyligini o‘rganadi, ilmiy bilish nazariyasini ishlab chiqadi, jumladan ilmiy tarixiy bilish nazariyasini o‘rganadi;

ijtimoiy falsafa – zamonaviy jamiyatning tuzilishi va vazifaviy xususiyatlaridagi umumiyligini o‘rganadi va ayni vaqtida yangi va eng tarixning nazariy asoslarini yaratishda asosiy o‘rin tutadi;

tarix falsafasi – umumjahon tarixiy jarayonlaridagi umumiy mantiqiyligini o‘rganadi, tarixiy jarayon nazariyasi uchun ilmiy dunyoqarash asoslarini yaratadi.

Fenomen — his-tuyg‘u tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi tushuncha.

Xaos — yunon mifologiyasi va filosofiyasida turli elementlarning ibtidoiy betartib aralashmasi, go‘yo hamma mavjudot ana shu aralashmadan kelib chiqqan, deb hisoblanadi. Xaos tu-shunchasi o‘ta tartibsizlik, chalkashlik, alg‘ov-dalg‘ovlik, aralash-quralashlik ma’nolarini anglatadi.

Xaos nazariyasi — biror-bir narsa yoki voqeanning turli aralash unsurlardan yoki aralash voqealardan kelib chiqqanligini asos-lashga harakat qiluvchi nazariya.

TARIX FANI TADQIQOTLARI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

Axborotlashtirish jarayoni. Tarixiy informatika rivoji. Skanning qo'llanilishi. Elektron pochta. Kompyuter va uning tarixiy ta'lim hamda fandagi imkoniyatlari. «Tarixchi va kompyuter» xalqaro uyushma. Ma'lumotlar bazasi va kompyuter texnologiyalari. Internetdagi imkoniyatlar. Kutubxonaning elektron katalogi. Manbalar nashri. Elektron jurnal.

Bugungi kunda fan sohasida, ilmiy tadqiqotlar sohasida amalga oshirilayotgan jarayonlarni kompyuter va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish mushkul.

Davr talabiga ko'ra bugunga kelib kompyuter texnologiyasi jadal rivojlanmoqda. Ma'lumotlarni boshqarish, ayniqsa, hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etib, unga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda.

Jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan jadal o'zgarishlar uning bir qismi bo'lgan informatika sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu ta'sir shunchalik kuchlikni, axborot texnologiyalari sohasida bo'layotgan o'zgarishlar juda qisqa vaqtlar orasida o'zgrib va boyib bormoqda. Yangi axborot texnologiyalarining yoki kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishi bu sohadagi xizmat qilish va ulardan foydalanish, ta'lim tizimida qo'llash uslublarini sifat jihatdan tubdan o'zgartirdi. Bu tizimda Internet, elektron pochta (E-mail) kabi imkoniyatlarining mavjudligi, Windowsning o'rni beqiyosligidan dalolat beradi. Bu tizimning tarkibida xizmat qilishning yuzlab turlari mayjudki, ularni o'rganish va foydalanish jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, talabalar uchun juda muhimdir.

Axborot texnologiyasi – bu aniq texnik dasturlar vositasining majmuyi bo'lib, ular yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman masalalarni hal etish mumkin.

Informatika keng ma'noda fan, texnika va ishlab chiqarish, ya'ni inson faoliyatining barcha sohalarida axborotni kompyuter

va telekommunikatsiya yordamida qayta ishlash, saqlash, uzatish bilan bog'liq bo'lgan yagona sohadir.

Kompyuter va u bilan bog'liq texnik imkoniyatlardan bugungi kunda barcha sohalar qatorida ilmiy tadqiqotlar va ta'lim sohalarida ham keng va unumli foydalanilmoqda. Boshqacha aytganda kompyuter va kompyuter texnologiyalari, axborot texnologiyalari va ulardan foydalanish fan va ta'limning ajralmas tarkibiy qismlaridan biriga aylanib ulgurgan. Bu borada tarix fani tadqiqotlarida ham bugungi kunda kompyuter imkoniyatlari, InterNET tarmoqlarida joylashtirilgan juda katta hajmdagi axborotlardan to'g'ri va unumli foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan savol tug'iladi: tarix fani tadqiqotlari sohalari va tarix fani ta'limi jarayonlariga kompyuter qachondan kirib kela boshladi, tadqiqotlar va ta'lim jarayoni sohalarida uning imkoniyatlari qanday, qolaversa, kompyuter va uning texnologiyalariidan foydalanish tarix fani va tadqiqotlari uchun qanday samaralar berishi mumkin va hokazo. Quyida shu haqda so'z yuritiladi.

XX asrning 80—90-yillarida keng avj olgan axborotlashtirish jarayoni tarix faniga ham ta'sir ko'rsatdi. 90-yillarga kelib tarix fani tadqiqotlarida kompyuterlardan asosan ilmiy ishlarni terish va tahrirlash ishlarida foydalanila boshlangan bo'lsa, keyinchalik manbalar bilan ishlashdagi yangicha uslublarda ham qo'llanila boshlandi. Manbalar matnlari va boshqa tasvirlar skanerlar yordamida kompyuter xotirasiga kiritila boshlandi, ayni vaqtida optik disklarning paydo bo'lishi bilan kompyuterlarning juda katta hajmga ega bo'lgan ma'lumotlarni saqlash imkoniyatlari oshib bordi. Arxivlarda va boshqa hujjatgohlarda tadqiqotchilar noutbukdan foydalangan holda o'zlarining juda katta ma'lumotlarni o'z ichiga olgan shaxsiy ma'lumotlar bazalarini yarata boshladilar. 90-yillarning oxirlariga kelib esa turli mamlakatlarda tarixiy tadqiqotlar sohasida 20 dan ortiq yirik ma'lumotlar banklari faoliyat ko'rsata boshladilar.

Tarixiy tadqiqotlar sohasidagi axborotlashtirilishning tezkor jarayonlariga «elektron pochta»lar ham moslashib borib, «Inter-

NET» tarmoqlari va undagi juda keng hajmli axborotlar bilan tanishi va ulardan foydalanish imkoniyatlarining yuzaga kelishi bilan axborot almashish borasida ham keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Keyingi ilmiy tadqiqot ishlarida endi «InterNET» ham o‘ziga xos «axborot manbasi» vazifasini bajara boshladi.

1986-yilda «Tarixchi va kompyuter» nomli xalqaro assotsiatsiya tuzildi va 1992-yilda uning tarkibiga bir qator MDH davlatlari tarixchilari ham kirdi.

Shu davrda tarixiy tadqiqotlar va tarix fani tadqiqotlari usslularidan biri sifatida paydo bo‘lgan «tarixiy informatika» yuzaga kelib, kliometriya fanlari tarkibida shakllana boshladi. Ma’lumotlar bazasi hamda tarixiy manbalar tahlilining kompyuter texnologiyalariga bo‘lgan qiziqish kuchayib bordi.

InterNET ning 90-yillardagi rivojlanishiga asosiy sabab World Wide Web (Butun Dunyo Tarmog‘i)ning tuzilishi bo‘ldi. Uning birinchi nusxasini 1990-yilning noyabrida CERN (Yevropa atomni tekshirish markazi) xodimi Tim Berns-Li yaratdi, lekin 1992-yilgacha ishga tushirilmadi. 1993-yilda NCSA (National Center for Supercomputer Applications – Superkompyuterli Hisoblash Milliy Markazi) tomonidan Mosaic programmasi ishlab chiqildi va shu yil oxiriga 200 ta WWW server ishga tushirildi.

Internet va WWW bir xil emas. Internet butun dunyo kompyuterlar tarmoqlarining to‘plamini belgilaydi va turli xil kompyuter xizmatlarini ko‘rsatadi.

Bu – E-mail elektron pochta, Usenet telekonferensiyalari, FTP ma’lumot fayllarini uzatish sistemasi, Telenet uzoqdan terminalga kirish sistemasi, Gopher sistemasi va Butun Dunyo Tarmog‘i – WWW. Demak, WWW Internetning faqatgina bir qismidir. Lekin u juda tez rivojlanmoqda. WWW – Internetning ommabop xizmat turidir. Unga ulanish uchun kompyuter bilan modem yetarlidir. Shuning uchun Butun dunyo tarmog‘i butun olam axborotlar ombori-kutubxonaga aylanib qoladi va u dunyoga yoyiladi. WWW da ma’lumotlar sahifalarda joylashadi.

Ma'lumotlar, manbalar, axborot kabilarning kompyuter texnologiyalar orqali uning tarkibiga kiritish va unda saqlanishining, ma'lumotlardan foydalanishning o'ziga xos texnik jihatlari ham borki, ular odatdagি kitob yoki boshqa ma'lumotlar manbalaridan va ayni vaqtda ulardan foydalanishning xususiyatlariga ko'ra bir-muncha farqlanadi. Agar kompyuterga kiritiladigan ma'lumotlar tartiblangan bo'lsa, kiritishni avtomatlashtirish mumkin. Ma'lumotlar chiziqli, iyerarxik va jadval ko'rinishlarida tartiblangan bo'lishi kerak.

Bunda, masalan, kitobning varaqlari raqamlanmagan va ix-tiyoriy ravishda aralashtirilib yuborilgan bo'lsa, bunday kitob varaqlari tartiblanmagan deyiladi va undan kerakli ma'lumotlarni topish ancha murakkab bo'ladi.

Agar kitobning hamma varaqlari raqamlanib, ular raqam bo'yicha joylashtirilgan bo'lsa, bunday kitobning varaqlari va undan olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar chiziqli tartiblangan, axborot texnikalari fani tilida esa oddiy strukturali ma'lumotlar deyiladi.

Kitobdan kerakli ma'lumotlarni tezroq topish uchun odatda u qismlar, boblar va paragraflarga ajratiladi. Ma'lumotlarni bunday ko'rinishlardan birida tartiblash, ularni iyerarxik strukturada tartiblash deyiladi. Iyerarxik strukturada tartiblangan ma'lumotlarning aniqlik darajasi chiziqli tartiblanganiga nisbatan pastroq, lekin so'nggi usulda ma'lumotning aynan o'zini emas, balki bu ma'lumotni kitobning qaysi qismida joylashganligini topish oson-roq bo'ladi.

Kitobni varaq raqamlari bilan uning qism, bob va paragraflari o'zaro bog'langan bo'ladi, ya'ni kitobning har bir varag'i uning qaysi qismi, bobni yoki paragrafida ekanligini bilsa bo'ladi. Demak ma'lumotlarni iyerarxik va chiziqli strukturalarda tartiblanish qoidalari o'zaro bog'liq bo'ladi. Kitobni qism, bob, paragraflari (iyerarxik tizimda tartiblangan ma'lumotlari) bilan betlarining raqamlari (chiziqli usulda tartiblangan ma'lumotlari) uning mundarijasi orqali o'zaro bog'lanadi. Ayni mundarija chiziqli usulda tartib-

langan ma'lumotlar bilan iyerarxik tizimda tartiblangan ma'lumotlarni bog'lovchi jadval deyiladi. Jadval (matritsa) elementlari tartiblangan (raqamlangan) ma'lumotlar hisoblanadi.

Chiziqli strukturalarga misol qilib biron-bir ro'yxatni olish mumkin. Ro'yxat – ma'lumotlarning oddiy strukturasi, uning ma'lumotlari ro'yxatdagi tartib raqami bilan bir-biridan farq qiladi. Chiziqli strukturalangan ma'lumotlar to'plamini matematika va informatika fanlarida qabul qilingan tushunchalardan kelib chiqqan holda massiv deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ma'lumotlarning chiziqli strukturasi bu – ma'lumotlarning shunday tartiblangan strukturasiki, unda elementlarning adresi (qayerdaligi, koordinatasi, holati)ni tartib raqami orqali to'la aniqlasa, informatsiya olsa bo'ladi.

Tarixiy informatika maxsus fan sifatida shakllantirila borilib, uning jihatlariga aniqlik kiritila boshlandi. Unga ko'ra, tarixiy informatika tarix fani va ta'limi jarayonlarini axborotlashtirishga yo'naltirilgan ilmiy fan bo'lib, uning tarkibiga hamma turdag'i tarixiy manbalarning elektron shakllarini yaratish va shakllantirish borasidagi barcha nazariy va amaliy bilimlar kiritildi. Bunda uning nazariy asosi sifatida nazariy manbashunoslik va axborotning zamonaviy tamoyillari, amaliy asosi sifatida esa kompyuter texnologiyalari va u bilan bog'liq jihatlari ko'rsatildi. Tarixiy informatikaning fan sohasidagi qiziqishlari sifatida maxsuslashtirilgan dasturlash ta'minotlari, ma'lumotlarning banki va tarixiy bazalarining shakllantirilishi, tizimlashtirilgan, matnli, tasviriy va boshqa manbalar va ulardagi axborotni tasavvur qilishda axborot texnologiyalarining qo'llanilishi, tarixiy jarayonlarning kompyuterlashtirilgan modellarini yaratish, InterNETdan foydalanish va tadqiqotlar jarayonlarida uning qo'llanilishi, multimedia vositalaridan (Multimedia vositalari yordamida axborotlarni matnli, tasvirli, tovushli va animatsiyali ko'rinishda namoyish etish mumkin) foydalanish va uni rivojlantrib borish, shuningdek ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish etib belglandi.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanuvchi tadqiqotchilarni bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin, ulardan birinchi guruhi manbalarning tahlilini amalga oshirish uchun turli algoritmlar, dasturlar va texnologiyalarni yaratish bilan ish olib borsa, ikkinchi guruhi yangi texnologiyalar va dasturlarning malakali foydalanuvchilari bo‘lib, ular ana shu yangi texnologiyalar va dasturlarni tadqiqot amaliyotiga jalb etadilar, uchinchi guruh tadqiqotchilar esa, ular yuqoridaq ikki guruhga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etib, yangi texnologiyalardan tadqiqot jarayonida foydalanishni amalga oshiradilar. Bu jarayon amalda aksariyat hollarda quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Dastlab tadqiqot loyihasi shakllantiriladi, o‘rganilishi ko‘zda tutilgan manbalar kompyuterga kiritiladi, shundan so‘ng tarixiy informatika bo‘yicha mutaxassislar tomonidan kompleks tahlil amalga oshiriladi, keyingi bosqichda tarixchi mutaxassislar ishtirokida qo‘lga kiritilgan natijalarning interpretatsiyasi amalga oshiriladi. Yangi yondashuvlarni amalda qo‘llash uni yaratishdan ko‘ra mushkulroq va murakkabroqdir. Biroq bu soha bo‘yicha mutaxassislarning tayyorlanishi zarurdir, chunki hozirgi vaqtida tarixiy informatika tarix fanining ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, u «tarixiy tadqiqotlarning yangi tili» sifatida e’tirof etilmoqda. Shu o‘rinda ingliz tarixchilaridan biri P.Denli fikrini keltirib o‘tish mumkin, ya’ni u: «bizning tez va samarali ravishda tadqiqotni amalga oshira olishimiz muhim emas, balki bizning yangiliklar qila olishimiz va ayni vaqtida eskilarni (ya’ni, avvalgi tadqiqot yondashuvlarini nazarda tutmoqda) yan-gicha amalga oshira olishimiz muhimroqdir», — degan edi.

Tarixiy informatika sohasidagi o‘zgarishlar va yangiliklarning joriy etilishi 22 davlat vakillaridan iborat 150 mutaxassis ishtirokidaq 1996-yil bo‘lib o‘tgan «Tarixchi va kompyuter» xalqaro assotsiatisiyasida qilingan ma’ruzalar bilan yanada keng tus ola boshladi. Ma’ruzalardan biri germaniyalik tarixchi V.Gettingem tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, unda mahalliy arxivlardan birida saqlanayotgan 50 mingdan ortiq hujjatlarning optik disklar-ga elektron tasvirlar orqali joylashtirilganligi, ularning yordami-

da esa o‘rta asrlarga xos manbalar matnlari va ulardagi yozuvlarning eng nozik jihatlarigacha bemalol o‘qiy olish mumkinligi va bu jihatdan imkoniyatlarning oshganligi, bu esa tadqiqotning va tadqiqot natijalarining yanada aniq va ilmiy jihatdan asoslanganligi darajasining oshishiga imkon yaratganligi haqida qilingan edi. Avstriyalik ma’ruzachi tomonidan esa o‘rta asrlar Yevropasining kundalik hayoti aks ettirilgan tasviriylar materiallar bo‘yicha elektron arxiv yaratish taklifi ilgari surilgan edi. Bunday ma’ruzalar bilan bir qatorda asosiyo e’tibor baribir eng muhim jihatlarga, ya’ni elektron matnlar va ma’lumotlar bazasini yaratish masalalariga qaratilgan edi. Bulardan tashqari iqtisodiy va ijtimoiy tarix masalalarida, tarixiy demografiya masalalari kabi bir qator soha yo‘nalishlari tadqiqotlari bo‘yicha ham yangi yondashuvlar va kompyuter texnologiyalari namoyish qilindi. Bunda asosiyo e’tibor modellashtirishga qaratildi va bunda «manbani modellashtirish – tarixni modellashtirish» tushunchasi yuzaga keldi.

Umuman olganda bu davrda tarixiy informatika o‘zining shakllanish bosqichidan qaror topish bosqichiga o‘tdi. Keyingi yillarda tarixiy informatikada turli mакtablar va turlicha yondashuvlarning differensiyasi va integratsiyasi jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu sohada dastlabki vaqtarda Buyuk Britaniyada, Niderlandiyada, Skandinaviya mamlakatlari bir qator muvaffaqiyatlarga erishilgan.

Elektron kutubxona InterNETning ajoyib imkoniyatlaridan biridir. Bu kutubxonaning elektron shaklidir. Kutubxona deganda odatda ko‘z oldimizga kitoblar turgan uzundan uzoq kitob javonli katta xonalar keladi. Elektron kutubxonada «javonlar» vazifasini jiddlar, kitoblar vazifasini InterNET sahifalar bajaradi. Bu kutubxona ma’lumotlari elektron ko‘rinishda bo‘ladi va kompyuterda joylashti. Bu kutubxonadan foydalanish juda qulay. Bunda dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan elektron kutubxona ma’lumotlaridan foydalanish va zarur ma’lumot nusxasini ko‘chirib olish mumkin.

Elektron kutubxonadan foydalanishingiz uchun kompyuter, modem va InterNET tarmog‘i bo‘lishi yetarli. Kompyuter va In-

terNET yordamida ma'lumotni bir necha daqiqada topish mumkin. Ma'lumot dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan juda qisqa soniyalar davomida ekranda tasvirlanadi. Bu virtuallik deb ataladi. Unga faqat kompyuter va maxsus tarmoq orqali erishish mumkin. Elektron kutubxonalarni turlicha nomlar bilan nomlanadi.

Virtual kutubxona o'zi nima? Oxirgi paytda virtual dunyo, virtual olam kabi so'zlar paydo bo'ldi. Virtual so'zining ma'nosi bu tasavvur qilishdir. Virtual kutubxona bu odatdag'i kutubxonalarning abstrakt ko'rinishidir. Bu kutubxona kitoblari, jurnallari va ro'znomalari kitob javonlarda emas, balki kompyuter xotirasiga joylangan bo'ladi. Bu kompyuterda yoki kompyuter maxsus qurilmalarida raqamli formatda saqlanadigan ma'lumotlarning – bosma, audio, video va multimedia ma'lumotlarining to'plamidir. Ma'lumotlar hajmiga qarab serverlar bitta yoki tarmoq bilan bog'langan bir necha kompyuterlardan iborat bo'ladi. Elektron kutubxonada kutubxonachi bo'lmaydi, shuning uchun zarur kitob yoki ma'lumotni kompyuter «javonlari»dan foydalanuvchining o'zi qidiradi.

Elektron kutubxona odatdag'i kutubxonadan bir qancha qulayliklarga ega, bular quyidagilardir:

- joyning tejamlanishi, ya'ni kitoblarni saqlash uchun maxsus joyning zaruratning yo'qligi;
- nodir asar va ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalana olish imkoniyatining mavjudligi;
- foydalanishning qulayligi va yengilligi;
- qidiruv tizimlarining mavjudligi;
- ma'lumotlar hajmining cheklanmaganligi;
- ma'lumotning audio, video va kompyuter grafikasi yordamida sifatli va yaxshiroq aks ettirish mumkinligi, vaqtning tejalsi va cheklanmaganligi, shuningdek qo'shimcha xizmatlarning mavjudligi.

Hozirgi kunda elektron resurslardan tashkil topgan elektron kutubxonalar, yig'ma elektron kataloglar yaratish uchun korporativ kataloglashtirish markazini yaratish ustida ishlar olib borilmoqda.

Axborot kutubxona markazlari oldida nafaqat elektron katalog, balki to‘la matnli ma’lumot bazalari yaratish, yig‘ma elektron katalog orqali axborot resurslarini birlashtirish kabi vazifalar turibdi.

O‘zbekiston Respublikasida ham bu borada bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, keyingi yillarda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini axborotlashtirishni rivojlanishi, uchun katta imkoniyat yaratib berilmoqda. Shuningdek, mazkur soha yuzasidan bir qator huquqiy hujjalarning qabul qilinishidan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri axborot-kutubxona faoliyatini amalga oshirish va rivojlantirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, fuqarolarning axborot-kutubxona va muassasalarida saqlanayotgan axborotlardan erkin foydalanishga bo‘lgan xuquqlari kafolatlarini ta’minlashdan iborat ekanligi bilan mammakatni modernizatsiya qilish, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi uslubdagi kutubxonaning birinchi galdegisi vazifasi o‘z faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, axborot texnologiyalari bo‘yicha malaka oshirish, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, nafaqat doimiy kitobxonlariga, balki axborot iste’molchilarining yangi toifasi – ishbilarmonlar, biznesmenlar, fermerlar va potensial investorlarga ham xizmat qiluvchi va axborot yetkazib beruvchi virtual kutubxonalar tashkil etishdan iborat.

Axborot-kutubxona markazlari zimmasiga qo‘yilgan vazifalardan biri – universal axborot resurlarni, milliy va xorijiy nashrlarning (bosma, audiovizual, elektron va boshqa) fondini shakllantirish, saqlash va foydalanish uchun sharoitlar yaratishdir.

Bugungi kunda axborot-kutubxona markazlari fondi 5 million nusxaga yaqin bo‘lib, ularning elektron katalogi 200 mingdan ortiq yozuvni tashkil qiladi. Barcha axborot-kutubxona va yirik axborot resurs markazlari ZiyonET axborot tarmog‘iga ulangan.

Hozirgi kunda elektron resurslardan tashkil topgan elektron kutubxonalar, yig‘ma elektron kataloglar yaratish uchun korporativ kataloglashtirish markazini yaratish ustida ishlar olib borilmoqda.

Axborot kutubxona markazlari oldida nafaqat elektron katalog, balki to‘la matnli ma’lumot bazalari yaratish, yig‘ma elektron katalog orqali axborot resurslarini birlashtirish kabi vazifalar turibdi.

Axborot-kutubxona muassasalari faoliyatidagi ijobiy natijalar, sohadagi muammolar va ularni hal etish yo’llari O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tomonidan ta’sis etilgan «Kutubxona.Uz» jurnalida chop etib borilmoqda.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, elektron kutubxona bu turli ma’lumotlar jamlangan InterNET sahifasidir. Bu sahifani kutubxonalardagi maxsus markaz mutaxassislari ma’lumotlarni muntazam ravishda kompyuterga kiritadi va yig‘adi, ya’ni ma’lumotlar doimo yangilanib turiladi va kutubxona hajmi kengayib boradi.

Tarixchi va INTERNET. Kompyuterning InterNET global tarmoqlarida bugungi kunda turli tarixiy manbalar va arxiv hujjatlarining minglab elektron nusxalarini topish mumkin. Undan shuningdek tarixiy mazmundagi elektron jurnallar, dolzarb ilmiy muammolarga bag‘ishlangan «doira stollari» joy olgan. Bulardan tashqari jahon kutubxonalarining elektron kataloglari, tarix bo‘yicha yangi adabiyotlar yuzasidan ma’lumotlar kabilar ham o‘rin olgan bo‘lib, bu InterNETning tarixchilar uchun o‘ziga xos axborot manbayi ekanligini ko‘rsatib turibdi. Xorijiy mamlakatlar tarixini o‘rganayotgan tadqiqotchilar uchun yana bir qulayligi shundaki, ular manbalarni o‘rganish uchun o‘scha davlatga bormasdan turib InterNET orqali o‘z tadqiqotlariga oid ko‘plab ma’lumotlarni olishlari mumkin. To‘g‘ri, bu ma’lumotlar tadqiqotchi uchun yoki tadqiqot muammosining yechimini topishda yetarli bo‘imasligi yoki ishonarli bo‘imasligi mumkin. Buning uchun eng birinchi navbatda tadqiqotchi InterNETdan to‘liq foy-

dalana olish malakasini egallashi lozim, chunki bu jarayonda u o‘zi uchun zarur ma’lumotni yo‘qligi uchun topolmasligi emas, balki InterNET tizimi imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmaganligi uchun topolmasligi mumkin. Bugungi axborotlashtirish imkoniyatlari ko‘paygan bir davrda InterNET tarmoqlariga turli ma’lumotlarning joylashtirilishi ko‘p muammolarga uchramaydi. Bu esa bu tarmoqlarda turli mazmundagi sanoqsiz ma’lumotlarning o‘rin olishiga yo‘l ochib beradi. Ayrim hollarda InterNET tarmog‘idagi ma’lumotlarning manbalari ham muhim ahamiyat kasb etadiki, bu mavjud axborotlar yoki ma’lumotlarning obyektiv xususiyatga ega ekanligi yoki aksincha ekanligi bilan bog‘liq. InterNETdan olinayotgan har qanday ma’lumot eng avvalo tanqidiy tahlil orqali sinchiklab o‘rganilishi, boshqa manbalardagi ma’lumotlar bilan solishtirilishi va taqqoslanishi, bu jarayonlarning so‘ngida tadqiqot muammosi yechimini topishdagi eng maqbul va eng samarali, eng ishonchli sanalganlarinigina tadqiqotga jalg etilishi maqsadga muvofiqdir.

InterNET tarmoqlaridan foydalanishning bir qator qulayliklari mavjud bo‘lishi bilan bir qatorda tarixchi tadqiqotchilar uchun bir qator muammolar ham mayjud. Bu borada tarixchilar o‘rtasida o‘tkazilgan yig‘ilishlardan birida bahs-munozaraga sabab bo‘lgan bir nechta muammolar o‘rtaga tashlangan («Istorik. Istochnik. Internet.» / «Novaya i noveyshaya istoriya». №2. 2001). Qatnashchilar InterNETdan maksimal darajada foydalanishning yagona yondashuvini shakllantirish kerak degan xulosaga keldilar va bunga bog‘liq bir necha muammolarni ko‘rsatib o‘tdilar. Bunga ko‘ra birinchi muammo – tarixchilar InterNETga ulangan elektron kutubxonalar kataloglaridan hamma vaqt ham zarur ma’lumotlarni yecha olmaydilar. Buning bir necha sabablari bor. Bulardan biri InterNETga joylashtirilgan kutubxonalar kataloglari va ularda ko‘rsatilgan manbalarning barchasini elektron kutubxonalarga to‘liq hajmlarda joylashtirilmanligi, ma’lumotlarni qidirish vaqtidagi «kalit so‘zlar»ning foydalanuvchilar va kataloglarni tuzuvchilar tomonidan to‘liq o‘zlashtirilmaganligi, bu esa oli-

nayotgan ma'lumotlarning to'liq bo'lmasligiga sabab bo'ladi. Ikkinci muammo — InterNETda manbalarning nashrlarini topish mumkin. Biroq ayrim vaqtarda shunday holatlar ham mavjudki, bu manba matnlari qayerdan olinganligi haqidagi ma'lumotlar uchramaydi. Ayrim vaqtarda esa manbalarning faksimile (o'zgarishlarsiz, aynan berilgan nusxalari) nusxalari ham joylashtiriladi. Tarixchilar tadqiqot jarayoniga manbalarni jalb qilish vaqtida odatda asl manbara yoki uning birinchi nusxalariga murojaat qiladilar va tadqiqotda ham aynan ularga iqtibos beradilar. Agar bunday holatda InterNETga joylashtirilgan manbaning asl nusxa ekanligiga shubha uyg'onsa, unda manbaning odatiy kutubxonalaridagi haqiqiy nusxasiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Shunday holat ham uchraydiki, InterNETga joylashtirilgan ayrim elektron adabiyotlarda manbaning sahifalari ko'rsatilmagan bo'ladi, bu ham manbara iqtibos berishda tadqiqotchi uchun muammolarni keltirib chiqaradi. Ayrim hollarda esa InterNET tarmog'idagi sayt o'z manzilini o'zgartirish mumkin yoki butunlay o'chib ketishi ham mumkin. Bu esa tadqiqotga jalb etilgan ma'lumotlarning keyinchalik ma'lum ma'noda o'z ahamiyatini yo'qotishiga olib keladi. Uchinchi muammo — InterNET tarmoqlarida bir qator tarixiy mazmundagi elektron jurnallar paydo bo'ldi. Ularning orasida joylashtirilayotgan ma'lumotlarga jiddiy talabchanlik bilan yondashuvchilari ham bor, yoki aksincha, berilayotgan ma'lumotlarning asoslanishi, joylashtirilishidan avval mutaxassislarning taqrizlarini talab qilmaydiganlari ham bor. Shu o'rinda savol tug'iladi, bunday holatda tarmoqqa joylashtirilayotgan har bir maqoladan ilmiy tadqiqot jarayonida foydalanish, unga iqtibos berish, agar maqolaning yana avvalgi qismida ta'kidlanganidek, nuqsoni — sahifalarining ko'rsatilmasligi muammo si mavjud bo'lsa, ulardan tadqiqot jarayonida axborot manbayi sifatida foydalanish mumkinmi? Yana shunday muammo borki, bu jurnal yoki maqola mazkur saytda yana qancha vaqt mobaynida saqlanib turilishi mumkin?! To'g'ri, balki bunday holatda tarmoqdan topilgan va tanlab olingen ma'lumotlarni tadqiqotchining

alohida ma'lumotlar bazasiga kiritib qo'yilishi yoki bu ma'lumotlarni diskлага yozib olib, saqlab qo'yish yoki uning boshqa yechimlarini ham yaratish imkoniyati bor bo'lishi mumkin.

Bulardan tashqari InterNETdan foydalanish jarayonida yana bir qator texnik omillarga ham duch kelish mumkinki, ular ham tadqiqotlarning samarali olib borilishiga texnik jihatdan ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, InterNET tarmoqlararo informatsiyalar almashuvini ta'minlovchi magistraldir. Uning yordamida dunyo bilimlar manbayiga kirish, qisqa vaqt ichida ko'plab ma'lumotlarni yig'ish, ishlab chiqarishni va uning texnik vositalarini masofadan turib boshqarish mumkin. Shu jarayonda quydagilarga ham alohida e'tibor qaratish lozim, ya'ni avvalo, InterNETda e'lon qilinayotgan har qanday ma'lumot ham jamiyat uchun foydali bo'lmasiagi mumkin. Ya'ni, InterNET orqali ma'naviyatga, madaniyatga va e'tiqodga zid bo'lgan informatsiyalarning kirib kelish ehtimali ham mavjud. Ikkinchidan, InterNET tarmog'idagi axborotlarga tashqaridan aralashuv va boshqa sabablarga ko'ra undagi axborotlarning to'g'rilinga ishonsizlik yuzaga kelishi mumkin. Uchinchidan, mavjud InterNET tarmog'idan axborotni olish va uzatish tezligi ko'pchilikni qanoatlantirmaydi. Ayniqsa, axborotlarning «virus»lanib qolishi ham texnik kamchiliklardan biri sanaladi.

Bu bilan biz InterNET, uning axborotga boyligi va imkoniyatlarini yo'qqa chiqarmoqchi yoki inkor etmoqchi emasmiz, biroq bularning barchasi tarixchi tadqiqotchi uchun InterNET tarmoqlaridan, uning saytlaridagi axborotdan foydalanish, tadqiqotlarga jalb qilishda bir qator muammolar hali mavjudligini ko'rsatmoqda, vaqt kelib bu muammolar o'z yechimini topishi mumkin. Ayni vaqtda ta'kidlab o'tish lozimki, tarixchi tadqiqotchi uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini chuqur o'zlashtirish talab etiladi, bu tarixchi mehnatining mahsuli bo'lgan tarixiy tadqiqotlarning manbaviy va axborot ta'minotini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etish bilan birga, tarixiy narrativ shakli va mazmunining boyishida ham muhim o'rinn tutadi.

Ayni vaqtida foydalanuvchining professional mahorati qanchalik yuksak bo'lsa, uning tadqiqotlari natijalari ham shunchalik sa-marali bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: axborot, skaner, elektron pochta, kompyuter, texnologiya, elektron katalog, elektron jurnal.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Axborotlashtirish jarayoni haqida tushunchangizni aytib bering.
2. Tarixiy tadqiqotlar jarayonida skanerning qo'llanilishi va uning ahamiyatini izohlab bering.
3. Kompyuter va uning tarixiy tadqiqotlar hamda fandagi imkoniyatlarini bilasizmi?
4. Ma'lumotlar bazasi va kompyuter texnologiyalari haqida ma'lumot bering.
5. Kutubxonaning elektron katalogi nima?
6. Elektron jurnal va u haqdagi fikringiz.

Mavzuga aloqador so'zlarning izohli lug'ati:

Axborot – dunyoda sodir bo'lgan turli hodisalarning tasviri-
dir. Axborot keng qamrovli tushuncha bo'lib, unga quyidagicha ta'riflar ham berish mumkin:

1. Dalil, voqeа, hodisa, predmet, jarayon kabi obyektlar haqidagi bilim hamda tushunchalar yoki buyruqlar.
2. Ma'lum xos matnda aniq ma'noga ega tushunchalarni ichiga olgan dalil, voqeа, hodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi obyektlar haqidagi bilimlar majmuyi.
3. Qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan, saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo'lgan jami dalil va ma'lumotlar. Kitob matni, ilmiy formulalar, bank hisob raqamidan foydalanish va to'lovlar, dars jadvali, o'lchash majmularining yer va fazo stansiyasi o'rtaсидagi masofa to'g'risidagi ma'lumotlar va hokazolar axborot bo'lishi mumkin.

Axborotning doimiy almashinuvi jamiyat hayoti va inson halyotini izga solib turilishining asosiy shartlaridan biridir. Axborot ochiq ifodalangan va yashirin holatda (keyingisi ko‘p uchraydi) bo‘ladi.

InterNET tizimida axborot tushunchasi xususiyatiga ko‘ra o‘z mazmuniga ega, ya’ni axborot manbalari va iste’molchilar ning har xilligi axborot shaklining quyidagicha ko‘rinishlarda bo‘lishiga olib keladi:

Belgili – turli ishoraviy belgilardan iborat axborotlar.

Matnli – harf, raqam va belgilarni to‘plamidan tarkib topgan axborot.

Grafik – tasvirlardan iborat bo‘lgan tasavvur ko‘rinishidagi axborot.

Axborotning turlari: matn, tasvir, animatsiya, audio va video.

Internet (InterNET) tushunchasi – Internet bu yagona standart asosida faoliyat ko‘rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog‘idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya’ni «International Network» – xalqaro tarmoq va «Interconnected networks» – tarmoqlararo degan ma’noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot tizimi bo‘lib, o‘zining alohida axborot maydoniga ega bo‘lgan virtual to‘plamdan tashkil topadi.

Internet konferensiyalar – bu muayyan muammoni hal qilayotgan guruh ishtirokchilarining Internet tarmog‘i orqali konferens muloqoti yordamida o‘zaro axborot almashinish jarayonidir.

Kompyuter – hisoblarni bajarish, shu jumladan elektron shakldagi axborotni oldindan belgilangan algoritm bo‘yicha qabul qilish, qayta ishslash, saqlash va ishlov berish uchun mo‘ljallangan elektron mashina. Kompyuter so‘zi ingliz tilidagi «to compute», «computer» so‘zlarining hosilasi bo‘lib, ular «hisoblash», «hisoblagich» deb tarjima qilinadi.

Kompyuter tizimi – ma’lumotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish tizimi hamda xotira tizimi.

Kompyuter quyidagi asosiy bloklardan iborat:

asosiy xotira; protsessor; tashqi qurilmalar

Ma'lumot tashuvchi vositalar – Kompakt disk yurituvchilarinining quyidagi turlari mavjud:

CD-RW – kompakt disklarni o'qish va ularga ma'lumotlar yozish qurilmasi.

DVD-RW – DVD disklarni o'qish va ularga ma'lumotlar yozish qurilmasi.

Ma'lumot tashuvchi disklarning turlari:

CD – katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlashga mo'ljallangan disk.

DVD – katta hajmdagi multimedia ma'lumotlarni saqlashga mo'ljallangan disk.

Multimedia vositalari – Multimedia vositalari yordamida axborotlarni matnli, tasvirli, tovushli va animatsiyali ko'rinishda namoyish etish mumkin.

Multimedia vositalari bu:

nutqli axborotni kiritish-chiqarish qurilmalari (mikrofon, kuchaytirgichlar, tovush kolonkalari).

Animatsion va video ma'lumotlarni kiritish va chiqarish qurilmalari (videokameralar, videoproyektor va ekranlar).

tovushli va video ma'lumotlarni saqlovchi optik disklar

Printer – ma'lumotlarni qog'ozga chiqaruvchi qurilma (ingl. printer – chop qiluvchi) ma'lumotlarni qog'ozga chiqarish qurilmasi. Printerlarning uch xili mavjud: bosma, purkovchi va lazerli. Bosma printer iga yordamida, purkovchisi naycha yordamida, lazerli printer esa maxsus baraban yordamida chop qiladi. Purkovchi hamda lazerli printerlar yordamida rangli ma'lumotlarni chop etish mumkin. Barcha printerlar matnli ma'lumotlarni, ko'pchiligi esa rasm va grafik ma'lumotlarni rangli ko'rinishda qog'ozga chiqaradi.

Skaner – (ingl. skaner – o'qib oluvchi) qog'ozdagi ma'lumotlarni nurli lampa yordamida rasmlni ko'rinishda kompyuter xotirasiga o'qib uzatuvchi qurilma. Axborot kiritish qurilmasi, kompyuterga matn, rasm, slayd, fotosurat ko'rinishida ifodalan-

gan tasvirlar va boshqa grafik axborotlarni avtomatik ravishda kiritishga mo’ljallangan qurilma.

Skanerlarning asosan ikki turi mayjud: stol usti skanerlari va qo‘l skanerlari. Skanerlar kompyuter xotirasiga ma’lumotlarni tezkor kiritish imkonini beradi va ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Elektron pochta (E-mail - electronic mail) – InterNETdan foydalanuvchilarning InterNET tarmog‘idagi elektron manzillari, axborot berish, axborotni olish va saqlashda foydalanish mumkin. Elektron pochta maxsus programma bo‘lib, uning yordamida dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron adresga xat, hujjat va umuman ixtiyoriy faylni jo‘natish va qabul qilib olish mumkin. Elektron pochtadan foydalanish uchun maxsus pochta tarmog‘i yoki InterNET tarmog‘iga bog‘lanish va elektron adresga ega bo‘lish kerak.

Elektron hujjat – elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikasiya qilish (tanib olish) imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga (ma’lumotlarga) ega bo‘lgan axborot elektron hujjatdir.

TARIX FANI ILMIY TADQIQOT ISHLARINI TASHKILLASHTIRISH TAMOYILLARI VA VAZIFALARI. TADQIQOTLARNING ILMIY METODOLOGIK JIHATLARI

Tadqiqot obyektining tanlanishi va tadqiqot vazifalarining qo‘yilishi. Tadqiqotning axborot-manbaviy asoslarini aniqlash va tadqiqot uslublarini tanlash. Tarixiy voqelikni bilishning rekonstruktiv va empirik darajasini aniqlash. Tushuntirish va nazariy bilishning darajasi. Nazariyaning tarixiy tadqiqotlardagi o‘rni.

Tadqiqot obyektining tanlanishi va tadqiqot vazifalarining qo‘yilishi

Tarix fani ilmiy tadqiqot ishlarini tashkillashtirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich. Tadqiqot obyektining tanlanishi va tadqiqot vazifalarining qo‘yilishi.

2-bosqich. Tadqiqotning axborot-manbaviy asoslarini aniqlash va tadqiqot uslublarini tanlash.

3-bosqich. Tarixiy voqelikni bilishning rekonstruktiv va empirik darajasini aniqlash.

4-bosqich. Tushuntirish va nazariy bilishning darajasi.

Har qanday tarixiy tadqiqot voqealar, jarayonlar, insonlar faoliyati kabilardan iborat o‘z tadqiqot obyektiga ega bo‘ladi. Tarixiy voqelikni to‘lig‘icha bir tarixchi tomonidan tadqiqot obyekti sifatida belgilab olinishi maqsadga muvofiq emas. Bu bir tarixchi yoki bir necha tarixchilar tomonidan amalga oshirib bo‘lmaydigan ishdir. Shuning uchun ilmiy muammoning yechimiga yo‘naltirilgan tadqiqot vazifalarining belgilab olinishi muhim ahamiyatga egadir. Ilmiy muammo bilish obyektida savollar ko‘rinishida mavhumlikdan iborat bo‘lib, tarixchi tadqiqot jarayonida bu savollarning javobini topishi lozim. Tadqiqot vazifalari nafaqat jarayonlarning ko‘lamini, balki tadqiqotning maqsadi va nuqtayi nazarlari hamda jihatlarini ham aniqlab berishi lozimdir. Tadqiqot jarayonida tadqiqotchi tomonidan tadqiqotning bu jihatlariga aniqliklar kiritilib borilishi mumkin.

U yoki bu ilmiy muammoning dolzarbligi fanning mantiqiy jihatlaridan kelib chiqib aniqlanadi va belgilanadi, shuningdek mazkur muammoning zamonaviy jamiyat talablaridan kelib chiqqan holdagi ahamiyati ham muhim o'rinni tutadi.

Tadqiqot dolzarbligini aniqlashda ikki holatga alohida e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, mavzuning dolzarbligi bizga ya-qin bo'lgan davr nuqtayi nazaridan belgilanmaydi, balki qadimgi davr yoki o'rta asrlar davri tarixi ham zamonaviy tarixiy davrdan kam bo'lmanan dolzarblik kasb etishi mumkin. Ikkinchidan, agar tadqiqot uchun tanlangan mavzu avval tadqiqot obyekti bo'lmanan bo'lsa, u holda shuning o'ziyoq tadqiqot obyektining dolzarb ekanligi uchun yetarli bo'la olmasligi va bu mavzuning o'rganilishi ham maqsadga muvofiq bo'lmasligi mumkin. Tadqiqotchi tomonidan tanlangan mavzuning jiddiy ilmiy muammolarning yechimida yordam berishi mumkinligini isbotlab bera olish tablab etiladi.

Tadqiqotning boshlanish vaqtidagi mazkur masala yuzasidan tarix fanida erishilgan va qo'lga kiritilgan yutuqlarni aniqlash tadqiqotning alohida muhim jihatidir. Bunda gap tadqiqotning yoki unga aloqador adabiyotlarning tarixshunoslik masalalari ha-qida bo'lib, ular tadqiqotning vazifalarini ochib berish bilan birgalikda, ilmiy tadqiqot muammosining asosiy yo'nalishlari va bosqichlarini aniqlab berishi, shuningdek, tadqiqotning manbaviy asoslarini ochib berishi va ularning tadqiqot jarayonidagi ilmiy ahamiyatini ko'rsatib berish uchun xizmat qilishi kerak. Bu tarzdagi tahlil bungacha hal etilmagan va tadqiqot doirasiga kiritilmagan muammolarni aniqlab berilishiga, shuningdek avval amalga oshirilgan tadqiqotlar uslublarining qanchalik sama-ra bergenligi va tadqiqot jarayonida ularni tahlil qilish orqali eng maqbul uslublarni aniqlab berishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, bu tahlil ilmiy tadqiqot ishining maqsadi va vazifalarini ham aniqlab berishga xizmat qilib, tadqiqotning umumiy tadqiqotlar doirasidagi o'rnini ham belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan ham bu jarayon ishning muvaffaqiyatini belgi-

lab beradi. Shuningdek, muammoning tarixshunoslik masalalari yoritilishining mukammalligiga qarab, ishga aloqador muammolar yuzasidan tadqiqotchining qanchalik bilimga ega ekanligi hamda muammoning to‘g‘ri qo‘yilganligi darajasini ham aniqlash mumkin. Bunda tadqiqotchilar tomonidan o‘zidan avval yozilgan adabiyotlar va ular mualliflarining fikrlari va ilmiy xulosalarining obyektiv tahlili talab etiladi. Bunda o‘tmish tarixchilar va avvalgi davrda yaratilgan adabiyotlar va ularning mualliflariga nisbatan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish, ularning fikrlarini (garchi ular ancha eskirgan bo‘lsa ham) mensimaslik va to‘g‘ridan to‘g‘ri inkor etish maqbul emas. Tadqiqotchi tomonidan zamonaviy fanga qo‘yilgan talablardan kelib chiqqan holda avvalgi tarixchilarining ishlarida nima bor-u, nima yo‘q, qabilida emas, balki ulardagi fikrlar va xulosalarni to‘g‘rilash natijasida tarix fani nimaga erishadi, qanday yangi qarashlar va yangi ma’lumotlarga ega bo‘ladi, degan qarash asosida tarixiylik tamoyiliga rioya etgan yondashuv maqsadga muvofiqdir. Ayni vaqtda esa muammolarni turli holatlarda qo‘yilishiga, zamonaviy fan yutuqlaridan foydalangan holda muammoning yechimini topishda yangi uslublardan foydalanish va ularni taddiqot jarayoniga jalb etish, fanlararo yondashuvdan keng foydalanish hamda yangi va yangi manbalarni ishga jalb etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning axborot-manbaviy asoslarini aniqlash va tadqiqot uslublarini tanlash

Har qanday tarixiy muammo bilish obyekti mazmuniga oid ma’lumotlarni o‘z tarkibiga olgan manbalardan foydalanmay turib o‘z yechimini topishi mumkin emas. Tarixchi o‘zidan avvalgi tarixchilar tomonidan foydalilanigan manbalarni yangi uslublardan foydalangan holda o‘z tadqiqotiga jalb etishi lozim, bunda tadqiqotchi ilmiy muammoning maqsadi va mazmunidan kelib chiqqan holda yangi axborotlarni va ma’lumotlarni ham ajratib olishi mumkin. Odatda tarixchilar tomonidan yangi-yangi man-

balar ilmiy muomalaga kiritilib, tarix fanining manbashunoslik sohasi doimiy ravishda boyitib boriladi. Biroq buning uchun tarixchi o'rganilayotgan davr tarixiga oid mavjud tarixiy asarlar va boshqa manbalar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi tablab etiladi.

Tadqiqotchi tomonidan manbashunoslik sohasidagi barcha bilim doirasini, ya'ni manbalarni qidirish, izlash, tanlab olish, haqiqiyligi va ishonchlilagini aniqlash kabi bilimlarini tadqiqot jarayoniga jalb etilishi kerak. Tadqiqotchi tarixchilar tomonidan to'plangan tajribalardan keng foydalangan holda manbashunoslik sohasida yaratilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqishi lozim.

Qo'yilgan ilmiy muammoning hal etilishida qancha manba zarur bo'lsa tadqiqot uchun shuncha manbani to'plash va ularning ma'lumotlari bilan tanishib chiqish, aniq va konkret ma'lumotlarni sifat-mazmuni jihatdan va miqdori jihatdan ta'minlash zarurdir. Bunda manbalarning rasmiy miqdori emas, balki ularning axborotga boyligi muhimdir. Ilmiy jihatdan katta ahamiyat kasb etmaydigan faktlar va dalillarni tadqiqotga keragidan ortiq jalb etilishi tavsiya etilmaydi. Keragidan ortiq manbalar va ular-dagi ma'lumotlar keyingi tadqiqotlarda asqotishi mumkin, biroq ayni tadqiqot jarayonida ular muammoning hal etilishi hamda maqsadga erishida ortiqchalik qilishi mumkin.

Ayni vaqtda manbalar qo'yilgan muammoning yechimini hal etish uchun yetarli bo'lishi kerak. Tarixchining ilmiy tadqiqot muammoси yuzasidan qanchalik darajada yetarli va atroflicha tasavvurga ega bo'lishi tarixiy jarayonlarning va jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikning mohiyatini ko'rsata bila olishida namoyon bo'ladi.

Tarixchi tadqiqot jarayonida bevosita tadqiqot obyekti yuzasidan avvalgi olgan bilimlariga tayanadi. Manbalardan foydalananish jarayonida agar ulardagi dalillar va tadqiqotning manbaviy asoslari yetarli bo'lмаган holatda tadqiqot vazifalarini tahrir qilishi va unga o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Agar manbalar tad-

qiqotni amalga oshirish uchun yetarli bo'lmagan holda esa tad-qiqotni davom ettirish maqsadga muvofiq emas.

Zamonaviy postmodernistlarning ta'kidlashicha, manbalar tarixiy voqelik haqida to'la tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi, ayni vaqtda ta'kidlab o'tish ham lozimki, manbalarsiz il-miy tadqiqotni ham amalga oshirib bo'lmaydi, bu esa doimiy ravishda manbalardan foydalanish va ularni ilmiy tadqiqotga jalg etish uslublarini takomillashtirib borishni talab etadi.

Tadqiqotning bu bosqichida tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan uslublar tizimini shakllantirish va aniqlashtirib olish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, tarixchining manbalardan tashqari bilimi, metodologik zaxirasi tadqiqot uchun manbalarni tanlashda, ularni saralab olishda, uslublarni tanlashda hal etuvchi omil hisoblanadi.

Umumfalsafiy, umumfan va umumtarixiy uslublar asosida tarixchi tadqiqotning aniq-muammoiy uslublarini aniqlaydi. Ular ko'pchilikni tashkil qilib, maqbullarini tanlab olish tadqiqot mavzusi hamda qo'yilgan muammoning xususiyatidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Ayni vaqtda fanlararo yondashuv uslublari qo'llaniladi, sotsiologiya va boshqa fanlarning tadqiqotni amalga oshirish jarayoniga mos keluvchi eng zarur uslublaridan foydalaniladi. Bu jarayonda eng asosiysi qo'llaniladigan maxsus tarixiy uslublar hisoblanadi. Ko'p hollarda miqdoriy uslublardan ham foydalanish talab etiladi, biroq manbalarda va tadqiqot materiallarida miqdoriy ma'lumotlar yetarli bo'lmasa, u holda tavsifiy uslublardan foydalanish tavsiya etiladi.

Albatta, bu jarayon tadqiqotning eng asosiy va eng murakkab holati sanalib, bunda tarixchi tomonidan tadqiqotni amalga oshirish uchun eng maqbul bo'lgan va samarali uslublarni tanlab olish talab etiladi. Bunda tarixchiga faqatgina uning ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshira olish malakasi va tajriba-si, shuningdek uning bilimdonligi va aql-zakovatigina yordam beradi.

Tarixiy voqelikni bilishning rekonstruktiv va empirik darajasini aniqlash

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan bosqichlardagi tadqiqot faoliyati amalga oshirilgandan so'ng tadqiqotning asosiy bosqichlaridan biri, ya'ni tarixiy voqelikni voqealari va hodisalarini tadqiq etish boshlanadi. I.Kovalchenko bilishning ikki darajasini, ya'ni empirik bilish va nazariy bilishni alohida ajratib ko'rsatadi.

Empirik bilishda tarixiy hodisalarни bilish anglansa, nazariy bilishda tarixiy voqelikning mohiyati ochiladi va nazariy bilim shakllantiriladi. Bilishni bunday tarzda ajratilishi shartli ravishda bo'lib, tarixchining tadqiqot amaliyotida ular aralashib ketadi, ya'ni bиринчи holatda tarixchi nazariy bilimlarsiz tadqiqotga yondasha olmasa, ikkinchi holatda empirik materialgarsiz tadqiqotni amalga oshira olmaydi. Biroq shu narsa aniqki, ikki holatga ham me'yordan ortiq moyillik bildirish, ya'ni umumlashtirishga imkon bermaydigan va umumiylar xulosalarning chiqarilishini to'laqonli ta'minlay olmaydigan faktlar hamda dalillarni yig'ish va ularni tadqiqotga jalb qilish sifatida empirik yo'lni tanlash yoki aksincha, tarixiy dalillardan ajralib qolgan holda sotsiologik tahlil yo'li bilan tadqiqotga yondashish tarixiy tadqiqotning ahamiyatini pasaytirib yuborishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadidan hamda mavjud ilmiy farazlardan kelib chiqqan holda empirik darajada tarixiy voqelikning hodisalar ko'lami, ilmiy dalillarni aniqlashtirish va tizimga solish aniqlanadi. Bunda tarixiy tadqiqotdagи faktlar va dalillar o'ziga xos xususiyatga va mazmunga ega bo'ladi, biroq keyingi jarayonlar uchun mos kelmasligi mumkin. Tarixchi o'z ixtiyorida bo'lган ma'lumotlarni u yoki bu ilmiy kategoriyalarga yaqin keltirgan holda tasniflab chiqadi, tarixiy voqelik, hodisalar va jarayonlarni ifoda etuvchi dalillar va faktlarni aniqlaydi. Empirik dalilar tizimga solinadi, taqqoslanadi, qiyosiy tahlil etiladi. Bilish obyektini o'rGANISH uchun dalillar tizimi zarur bo'ladi va bunda dalillar tizimining taxminiy ta'minotini, manbalarini

shakllantirish zarur bo‘ladi. Bu jarayonda yashirin ma’lumotlarni mantiqiy ajratib olish, intuitsiya, tasavvur qilish, zakovat hamda tarixchining mavjud bilimlari muhim o‘rin tutadi va uni amalga oshirish uchun yordam beradi. Shu holatda ham dalillar tadqiqotni amalga oshirish uchun yetarli darajada bo‘lmasa, u holda tadqiqot vazifalarini qaytadan tahrir qilish yoki bu tadqiqotni amalga oshirishdan voz kechish kerak. Ayrim hollarda manbaviy asoslari yetarli bo‘lmagan tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida nazariy darajadagi abstraktlangan mantiqiy tahlil ham yordam berishi mumkin.

Tushuntirish va nazariy bilishning darajasi

Tarix fanida tarixiy tadqiqotlarning yakuniy maqsadi haqidagi bahslar mavjud bo‘lib, har qanday fanda bu maqsad – tushuntirish deb ko‘rsatiladi. Biroq, V.Dilteyning fikricha, tarixchi tarixni tushuntirib bera olmaydi, uni faqat tushunishi mumkin.

XX asrda shunday xulosa shakllandiki, unga ko‘ra tarixchi tarixiy voqealarni tasvirlash va tavsiflash bilangina cheklanib qolmasdan, balki uni tushuntirib berishi lozimdir. K.Gempel tarixiy voqelikni ilmiy tushuntirish uni qandaydir qonuniyatga bog‘liq qilib qo‘yadi, degan xulosa berdi. Albatta, bu aniq va yaxlit bir tarixiy jarayonni tushuntirib berish emas, balki uni biror bir nuqtayi nazardan yondashib tushuntirishdir. K.Gempel bilan bu borada munozaraga kirishgan U.Drey u yoki bu odamlar xatti-harakatlari yoki faoliyatlarining maqsadga muvofiqligini dalilar asosida tushuntirib berishni himoya qilib chiqadi.

Bulardan tashqari tushuntirishning boshqa shakllari ham mavjuddir.

1. Sabab-oqibatga bog‘liq holda (favqulodda yuz beradigan, tasodifan sodir bo‘ladigan) tushuntirish, bunda inson faoliyati natijasida voqealar sodir bo‘lishining obyektiv va subyektiv sabablari ochib beriladi.

2. Genetik tushuntirish, bunda tarixiy jarayonlarning mohiyati ularning vaqtdagi ifodasida yoki vaqtga bog‘liq holda aks

etishi orqali tushuntirib beriladi. Genetik tushuntirish tarixiy voqealar va tarixiy jarayonlarning sodir bo‘lishini tushuntirib beradi.

3. Tizimli tushuntirish, bunda tarixiy jarayonlarning mohiyati ijtimoiy tizimlar tahlili orqali ochib beriladi, tizimli-tashkiliy belgilar, tizimning elementlari va ular orasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlanadi.

4. Vazifaviy tushuntirish, tizimli tushuntirishning boshqacha shakli bo‘lib, tizimning vazifaviy nuqtayi nazardan tushuntirish imkonini beradi.

Tadqiqot boshlanishida tadqiqotning farazi (gipoteza (nazariy sxemasi)) ilgari suriladi. U tarixchining imkoniyati doirasida mavjud bo‘lgan tushunchalar va nazariyalar dalillari yordamida tekshirib chiqiladi. Agar bu fikrlar ilmiy jihatdan o‘z asosini topa olmasa, yangi faraz shakllantirilishi va yangi g‘oyalar paydo bo‘lishi mumkin. Tushuntirishning tugallangan shakli tarixiy nazariya bo‘ladi.

Nazariyaning tarixiy tadqiqotlardagi o‘rni

Tarixiy voqealarni tushuntirishda tarixiy nazariya hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Tarixda nazariya tushuncha asosidagi bog‘liqlikni, g‘oyalar va qonunlarni hamda dalillar (faktlar)ni umumlashtirib, ularni tushuntirib beradi. Nazariyada dalil (fakt)lar o‘z holicha mavjud bo‘lmasdan, tushuncha holida mavjud bo‘ladi. Bunda yuzaga keltirilgan g‘oya dastlabki umumlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Nazariyalarning tuzilishi va mukammalligi aksariyat hollarda tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan model-larning ishlanmasi va ayni vaqtida uning ijodiy barkamolligi hamda bilimining yuqori darajada ekinligiga bog‘liq bo‘ladi.

Nazariya tadqiqot vazifalarining qo‘yilishini aniqlashda, tadqiqot jarayonini amalga oshirishga yo‘naltirilgan manbalar va dalillarni tanlashda qo‘llanilib, muhim metodologik vazifalarni bajaradi. Nazariyani faqatgina faktlarga tayangan holda va unga asoslanib shallantirish mumkin emas. Deduktiv yo‘l bilan naza-

riyani faktlarga bog‘lash mumkin, biroq faktlar yordamida nazarriyani tahlil qilishni amalga oshirish mumkin emas. Mantiqchilarning qarashicha, nazariya murakkab tizim bo‘lib, uni to‘liq isbotlab berish va ayni vaqtida uni to‘liq inkor qilish ham mumkin emas, chunki hamma vaqt nazariyani qo‘llab-quvvatlovchi hamda ayni vaqtida uni inkor qiluvchi faktlar mavjud bo‘ladi. Har qanday nazariya asosan aniq hodisalarga bog‘liq bo‘lib, uni boshqa hodisalarga hamma vaqt ham qo‘llash maqsadga muvofiq emas.

Tarix fani metodologiyasida barcha tarixchilar tomonidan birdek qabul qilinadigan va e’tirof etiladigan tarixiy jarayonlarning yagona aksiomatik nazariyasi mavjud emas. Tarixchilar kamdan kam hollarda o‘z nazariyalarini ishlab chiqadilar, tadqiqot jarayonida ayrim hollarda ular sotsiologiya, antropologiya va boshqalarga xos modellarni ham qo‘llaydilar.

Fundamental va xususiy nazariyalar

Fundamental nazariyalar bu ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga bog‘liq nazariyalar, sivilizatsiyalar nazariyasi, tarixiy jarayonlarning davriy (siklik) nazariyalari, modernizatsiya nazariyasi va boshqalardir.

Xususiy nazariyalar esa o‘rta asrlar shaharlari nazariyasi, imperiyalar nazariyalari kabi bo‘lib, alohida hodisalarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Tadqiqotlar jarayonida aholi mobilligining sotsiologik nazariyasi, konfliktologiya va boshqa bir qancha nazariyalar ham qo‘llaniladi. Nazariyada uning predmetga bog‘liqligi, to‘liqligi va mukammalligi, aynan bir xillikka moslik va tenglik darajasi (adekvatnost), interpretatsiyaga moyilligining darajasi va uning tekshirilishi imkoniyati darajalari kabilar muhim ahamiyatga egadir. K.Popperning ko‘rsatib o‘tishicha, har qanday nazariyaning muallifi eng avvalo o‘z nazariyasini o‘zi inkor qilishga urinib ko‘rishi lozim (soxtalashtirish prinsipi), qachonki u o‘z nazariyاسining qo‘llanilishi uchun yaroqliliginini aniqlay olgandan so‘nggina uni amalda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Nazariyaning aniq qo‘yilishi tadqiqotning natijasiga bevosita bog‘liq bo‘la-

di, shuningdek bunda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar ham aynan nazariyaning mukammalligiga bog'liqdir. Bunda tadqiqot jarayonida aniqlangan faktlar, dalillar, voqealar o'rtasidagi bog'liqliklar va boshqa shu kabi omillardan kelib chiqqan holda amalda qo'llanilayotgan nazariya boshqasi bilan almashtirilishi yoki uni qaytadan takomillashtirish talab etiladi.

Tushuntirishda tushuncha va kategoriyalarning o'rni. Tushuncha bilishning nazariy darajasida shakllanadi. Tarixchilarda o'ziga tushuncha-kategoriya apparati mavjud bo'lib, bu tushuncha doimiy ravishda rivojlantirilib boriladi. Aniq fanlardan farqli ravishda tushuncha kuchsiz aniqlikda bo'lib, uning belgilari va hajmi tarixchining o'zi tomonidan aniqlanadi. Shuning uchun tushuncha ko'p ma'noli bo'lib, har bir tarixchi yoki tadqiqotchi tomonidan doimiy ravishda takomillashtirilib boriladi. G.Frege har qanday bilishning uch birligini ko'rsatib beradi, ya'ni bular nom, predmetlik ahamiyati (denotat), ma'no, ilmiy qarashlar.

Tarixiy tushuncha real voqelikning bir qismi yoki parchasi yoki o'ylab chiqilgan yoki to'qima tushuncha emas, balki tarixchining bilish faoliyati natijasi bo'lib, bir vaqtning o'zida bilish vositasi sifatida ham tushuniladi. U tarixiy tadqiqot materialiga uyg'unlashgan holda bo'lib, mustaqil mantiqiy tahlil predmeti bo'lishi ham mumkin, biroq bunda bilimning mazmun jihatiga ta'sir etuvchi mantiqiy tahlilni predmet tahlilidan ajratib olish maqsadga muvofiq emas.

Tarixiy tushuncha (tasavvur) hech qachon haqiqiy (real) voqelik bilan mos kelmaydi. Tarixiy tushunchada hodisalar (voqealar, jarayonlar)ning asosiy va ixchamlashgan mohiyati mavjud bo'ladi. U o'z tarkibida obyektning barcha xususiyatlarini emas, balki uning faqatgina eng muhim tomonlarini qamrab oladi. Tushuncha (tasavvur)ning haqiqiy (real) voqelik bilan mos kelmasligini tarixiy voqealar (hodisalar, jarayonlar)ning individualligida (aynan shu voqea (hodisa, jarayon)ning o'ziga xosligida) deb tushuntirish mumkin, ular kamdan kam hollarda bir-biri-

dan farqlanuvchi shakllarda takrorlanishi mumkin, biroq hech qachon «aynan o‘zi»dek takrorlanmaydi. Tarixiy reallikning turlichaligi va mukammalligi tushuncha (tasavvur)da to‘liq aks etmaydi. Tarixiy jarayonlarning nosinxronligi (bir xilda, aynan o‘xshash, baravar sodir bo‘lmasligi)ni ham tushuncha (tasavvur) va tarixiy reallikning bir-biriga mos kelmasligida anglash mumkin. Tushuncha (tasavvur) konkret-tarixiy reallikka nisbatan ancha zaif bo‘lib, voqelikni asosan umumiyligini nuqtayi nazardan qamrab oladi va tarixiy voqelikni bir tizim sifatida o‘rganadi. Tarixchi (tadqiqotchi) tushunchaning erishilgan bilim darajasiga mos kelmasligiga ishonch hosil qilsa, tushunchani aniqlashtirishga va konkretlashtirishga harakat qiladi. Aynan mana shu harakat tarixiy tadqiqotlarning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Tarixchi uchun tushuncha konkret tarixiy voqelikni tushunish va anglash uchun zarurdir. Tarixchilar uchun «yagona (aynan bir qolipdagi (andozadagi)) tushuncha» tushunchasi mavjud emas. Bunday aniqlashtirish yoki tushunchaning ta’rifini keltirish har doim ham to‘liq va mukammal bo‘lмаган. Haqiqiy tarixiy voqelik har qanday tushunchadan kengroq mazmunga egaadir. Tushuncha polisemantik bo‘lib, agar biz unga aniq va konkret ta’rif beradigan va ayni vaqtda shu ta’rifga bog‘liq qilib qo‘yadi gan bo‘lsak, u holda tadqiqotning davom ettirilishini to‘xtatib, bilish jarayonining o‘zida to‘xtab qolgan bo‘lamiz. Tushuncha tadqiqot jarayonidagi keyingi aniqlashtirishlar va uning mazmunini kengaytirib borilishi uchun ochiq va rivojlanuvchi bo‘lishi lozim. Tushuncha aniq va mustahkam bo‘lishi lozim, lekin ayni vaqtda har qanday tadqiqot muammosini «ochib beruvchi» universal mazmunda bo‘lmasligi kerak.

Tushunchani aniq davr va haqiqiy tarixiy voqelikdan alohida ajratish mumkin emas, ya’ni tarixiylik tamoyiliga (prinsipi-ga) qat’iy amal qilish talab etiladi, aks holda u mazmun kasb etmaydi.

Tayanch tushunchalar: tadqiqot obyektining tanlanishi, tadqiqotning axborot-manbaviy asoslari, tadqiqot uslublari, tushuntirish va nazariy bilish, tadqiqot vazifalari, ilmiy muammoning dolzarbligi, mavzuning dolzarbligi, empirik bilish, nazariy bilish, tushuntirish, sabab-oqibatga bog'liq holda tushuntirish, genetik tushuntirish, tizimli tushuntirish, vazifaviy tushuntirish, tarixiy nazariya, fundamental va xususiy nazariyalar, tushuntirishda tushuncha va kategoriyalarning o'rni, ilmiy qarashlar, tushunish va anglash.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tadqiqot obyektining tanlanishi va uning tadqiqotlar jarayonidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Tadqiqot vazifalarining qo'yilishi va uning tadqiqotlar jarayonidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Tadqiqotning axborot-manbaviy asoslarini aniqlash va uning tadqiqotlar jarayonidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
4. Tadqiqot uslublarini tanlash, uning tadqiqotlar jarayonidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
5. Tarixiy vogelikni bilishning rekonstruktiv darajasini aniqlash, uning tadqiqotlar jarayonidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
6. Tarixiy vogelikni bilishning empirik darajasini aniqlash, uning tadqiqotlar jarayonidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
7. Tushuntirish va nazariy bilishning darajasi nima?
8. Nazariyaning tarixiy tadqiqotlardagi o'rni.

Mavzuga aloqador so'zlarning izohli lug'ati:

Empirizm – nazariy umumlashtirishni inkor qilib, hissiy idrokni, tajribani bilishning birdan bir manbayidir deb biladigan falsafiy yo'naliш, nazariyadan ko'ra amaliy faoliyatga ko'proq moyil bo'lishlik, amaliy faoliyatga moyillik.

TADQIQOTLARNI SAMARALI OLIB BORISH MUAMMOLARI, ILMIY ISHLARNI YOZISH USULLARI

Mavzu tanlashning asosiy tamoyillari, vazifalari va xususiyatlari, metodologik tamoyillari. Tadqiqotlarni samarali olib borish muammolari, ilmiy ishlarni yozish usullari.

Odatda, ilmiy ishlarni tashkillashtirishda muvofiqlashtirish kengashi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Kengashda o‘rganilmagan va o‘rganilayotgan mavzular ro‘yxati tuziladi hamda keyingi tadqiqotlarda bu asos vazifasini o‘taydi. Shuningdek, ilmiy ish mavzusini tadqiqotchining o‘zi ham tanlashi mumkin. Tadqiqot mavzusini to‘g‘ri tanlay bilish ham ilmiy ishning dastlabki katta yutug‘idir. Tadqiqotchi avval ishlanmagan va o‘rganilishi dolzarb bo‘lib turgan mavzuni topa bilishi kerak. Tanlanayotgan mavzu avvalgi ilmiy ishlarni takrorlamasligi kerak. Bunday holatlar kelib chiqmasligi uchun tanlanayotgan mavzuning o‘rganilish darajasi, ya‘ni shu muammoga oid ilmiy ishlar va tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqotchi tomonidan sinchkovlik bilan ko‘rib chiqiladi. O‘rganilgan mavzuga o‘xhash, biroq ulardan farqlanib turuvchi mavzu tanlanib, unda tarixning yangi bir qirrasi ochilishi nazarda tutiladi va ishda tanlangan mavzuning o‘rganilishi, ahamiyati hamda avvalgi tadqiqotlardan farqi, davriy chegarasi, ilmiy qimmati tahlil etilib yangicha nazariy asosnomalar beriladi.

Asosnomada mavzuni o‘rganish dolzarb masala ekanligi isbot etiladi. Bunda eng avvalo dissertatsiyaning asosiy g‘oyasi, mavzuning ilmiy muammo sifatida qo‘yilishi va tanlanishi ilmiy tadqiqotlar umumiy natijasidan kelib chiqqan holda ko‘rsatib beriladi.

Tadqiqot muammosidan kelib chiqib dissertatsiyaning mavzusini aniq ko‘rsatiladi.

Tadqiqotning aniq mavzusi va g‘oyasi aniqlanib, asoslab berilishi bilan birga tadqiqotni amalga oshirishdan ko‘zlangan aniq maqsadlar, tadqiqot muammolarini hal etilishida tadqiq etiladigan asosiy masalalar yoki muammolar – tadqiqotning obyekti,

tadqiqotning amalga oshirilishidagi asosiy masalalar va ularning mazmuni va mohiyati — tadqiqotning predmeti, tadqiqotning amalga oshirilishi jarayonida va uning so‘nggida umumiy xulosalar sifatida kutilayotgan ilmiy yangiliklar va ilmiy natijalar ning aniq mazmuni, ya‘ni tadqiqotchi tadqiqotdan kutilayotgan natijani aniq ko‘ra bilishi talab etiladi, tadqiqot maqsadi va ilmiy farazidan kelib chiqib aniq belgilangan vazifalarning qo‘yilishi, tanlangan mavzu bo‘yicha rejalashtirilayotgan ishlar, tadqiqot usullari bo‘yicha ma’lumotlar, tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari va ayni vaqtida har bir belgilangan bosqichda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan aniq vazifalar va ularning mazmuni, tadqiqot jarayonida va uning yakuniy bosqichida ilmiy tadqiqotning natijasi sifatida chop etilishi yoki nashr qilinishi mumkin bo‘lgan ishlar haqidagi ma’lumotlar o‘rin olishi asosnomani tayyorlashning talablari etib belgilangan.

Maqsad va vazifalarni belgilashda tadqiqotchining mavzuni tanlashdan maqsadi, shu yo‘lda uning oldida turgan vazifalar aniq ko‘rsatiladi. Ilmiy ishning o‘rganilish darajasini to‘g‘ri izohlash ham ishning yutug‘ini oshiradi. Ishning o‘rganilish darajasida shu ishga aloqador tadqiqotlar keltirilib, izlanuvchining ulardan farqli o‘laroq qaysi masalaga e’tibor qaratganligiga izoh beriladi. Avvalgi tadqiqotlarda yechilmagan qirralar ko‘rsatiladi, shuningdek, masalan, sovet davrida bir mavzu noxolis o‘rganilganligini ta’kidlab o‘tilib, aynan shu mavzu xolisona yangicha yozilishi mumkin. O‘rganilish darajasini dalillar orqali isbotlash va o‘zining mustahkam pozitsiyasini ko‘rsata bilish tadqiqotchining huquqiy imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Tarix fani tadqiqotlarida davriy chegara albatta belgilanishi va bu jihat «kirish»da aks etib turishi kerak. Chunki agar davr belgilanmasa aniq bir xulosaga ega bo‘lish va tugal dissertatsiya yozish qiyin. Davriy chegara kengaygan sari manbalar, adabiyotlar va muammolar ko‘lami ham kengayib, ularni yechish bir tadqiqotchiga og‘irlik qiladi. Bir muammoning turli davrlarni bir necha tadqiqot mavzui etib tanlash mumkin. Kichikroq doiradagi

vaqt ichida jarayonlarni ilmiy tahlil etish va xulosa berish ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshiradi.

Shuningdek ishning ushbu qismida tadqiqotda tayanilgan metodologik asoslar ham aks ettirilishi kerak. Shuningdek ishda uzviylik va davomiylik tamoyillariga tayanilgani va boshqa metodologik asoslar ham ko'rsatib o'tilishi mumkin.

Adabiyotlarni o'rganishda, ya'ni mavzuning tarixshunoslik masalalarini tadqiq etishda ham mavzuning nazariy asoslariga bag'ishlangan asarlarga katta e'tibor beriladi. Mavzuning nazariy asoslariga bag'ishlangan adabiyotlar bilan ishlanganda, shuningdek, boshqa mualliflar tadqiqotlari, ilmiy monografiyalar va avtoreferatlar bilan tanishganda ularga tanqidiy yondashib chuqur mulohazalar yuritilmog'i kerak. Adabiyot bilan ishlanganda avvalo uning muallifi, nomi, chiqqan shahri, chop etgan nashriyoti, yili hamda annotatsiyasi bilan yozilishi kerak. Bu ma'lumotlar olinganidan keyin uni alohida tayyorlangan maxsus qaydnomalariga yoki kartochkalarga ma'lum bir qoida asosida yozib qo'yiladi. Bu qaydnama bilan tadqiqotchi o'ziga maxsus adabiyotlar ro'yxatini tuza boshlaydi. Shuningdek tadqiqotchi adabiyotlarni maxsus kartochkalarga emas, balki daftarga ham yozib olishi mumkin. Sohaning nazariyasiga bag'ishlangan adabiyotlarni ko'rish uchun alohida daftar tutib, uni o'qigan kitobidagi shu soha faniga tegishli turg'un tushuncha, qonuniyat hamda qonun va qoidalarni yozib boriladi. Keyinchalik ular guruhlarga ajratilib tartibga solinganidan keyin tadqiqot ishida ba'zilardan umumiyligi, ba'zilardan esa xususiy metodologik asos sifatida foydalaniladi.

O'rganilayotgan ilmiy adabiyotni tanishish va tahlil qilish jarayonining natijasi sifatida tegishli ma'lumolar ajratib olinadi va yakunida adabiyot va uning muallifi, adabiyotdagi tadqiqot obyektiga aloqador alohida fikrlar hamda umumiy fikr-mulohazarlar qayd qilib qo'yiladi. Bu ma'lumotlar ilmiy ishning yozilishi jarayonida qo'llaniladi.

Chop etilgan monografiya, ilmiy risola, ilmiy maqola yoki anjumanlarda qilinadigan ma'ruzalarning qisqacha mazmuni (te-

zisi)ni, shuningdek, dissertatsiya yoki uning avtoreferatini o'qish tartibi nazariyaga atalgan kitoblarni o'qishdan farq qiladi.

Ilmiy tadqiqot ishining umumiy yoki bir qismining yakuniga atalgan adabiyotlar bilan ishlanganda, nomi, qachon va qayerda, qaysi muassasa yoki nashriyot tomonidan chop qilinganini kartotekaga mo'ljallangan qog'ozga tushiriladi. Shundan so'ng stolga bir yo'la uch varaq qog'oz tayyorlab qo'yiladi. Bu varaqlarni bosh-boshiga kartoteka qog'oziga tushirilgan ma'lumotlar yozib qo'yiladi va qog'ozlar tartib raqamlari bilan belgilab qo'yiladi¹.

Birinchi raqamli qog'ozga, ilmiy nuqtayi nazardan to'g'ri fikrlar ko'chirilib yozib boriladi. Har bir fikrni ko'chirib yozgandan keyin, qavs ichida adabiyotni qaysi betidan olinganligi qayd qilib boriladi. Bu keyinchalik dissertatsiya yozish jarayonida foydalaniłgan adabiyotga sahifa ostida izoh berishda kerak bo'ladi.

Ikkinci raqamli qog'ozga o'qiyotgan ilmiy adabiyotdag'i sizga to'g'ri yoki noto'g'ri ko'ringan fikrlarga muallif bilan munozara yuritib, unga alternativ (muqobil) holatdag'i fikrlar qayd qilib boriladi. Biroq munozara faqat ilmiy asoslangan bo'lib, xolislik darajasiga olib borilishi shart. Shunday qilib, o'qilayotgan adabiyot tahlil etiladi.

Uchinchi raqamli qog'ozga, shu adabiyot bilan ishlash jarayonida yechimini kutayotgan masala va muammolar to'g'risida yangi fikrlar tushirib boriladi. Shu yo'sinda uch turdag'i qog'ozlarni uch xil jiddlarga ajratib yig'iladi. Jiddlar ham qog'ozlardagi raqamlarga muvofiq tartib raqami bilan belgilab qo'yiladi. Bir necha o'n ilmiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari, ilmiy maqolalar bilan tanishib, ularning tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tanqidiy

¹ Avvalgi mavzularda tarixchining zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida ulardan foydalinish afzallikkлari haqida gapirib o'tildi. Shu o'rinda bu yerda keltirilayotgan qog'ozlar, jiddlar va boshqalarni ayni vazifalardan kelib chiqqan holatda elektron shaklda ham shakllantirish mumkin va bu shakllarning o'z o'rnida bir qator afzallikkлari va ishslash jarayonidagi qulayliklari mavjud. Qarang: mavzu – «Tarix fani tadqiqotlari va zamonaviy texnologiyalar».

tahlili amalga oshirilgandan so‘ng tadqiqotchida manbalar va ilmiy tadqiqot ishlari, adabiyotlar bilan ishslash ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Adabiyotlarni bir-biriga solishtirib ko‘rish va taqqoslash, qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra ilmiy tadqiqot obyekti uchun hamda tadqiq etilayotgan masalaning yechimini topishga jalb etilishi mumkin bo‘lgan ilmiy tadqiqot ishlarining eng zarurlari hamda umumiy xulosalar uchun kerak bo‘lishi mumkin bo‘lgan holda tasniflash va ajratib olish mumkin bo‘ladi.

Tahlil etilgan ilmiy adabiyotlar bilan tanishish asnosida tadqiqotchi ilmiy tadqiqot mavzusi va uni amalga oshirishning rejaviy vazifalaridan kelib chiqqan holda alohida adabiyotlarni (manbalarni) yoki ayni vaqtida bir adabiyotda (manbada) mavjud bo‘lgan va bir vaqtning o‘zida turli rejalgarda taalluqli bo‘lgan ma’lumotlarni tasniflashi va rejalgarda asosan tartibga olish imkoniyati yuzaga keladi.

Manbalarda yoki ilmiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar, axborot va manbalar mualliflari tomonidan keltirilgan dalillar tadqiqotning mavzusi, uning muammosi yechimini topishga yo‘nalganlik darajasiga ko‘ra tadqiqotchining fikrlari bilan mos kelishi yoki ayni vaqtida uni inkor etishi ham mumkin. Bunday holatda tadqiqotchi uchinchi manbalarga ham murojaat qilishi hamda masalaning mohiyatidan kelib chiqqan holda eng to‘g‘ri, ilmiy asoslangan va obyektiv xulosalarga kelishi talab etiladi. Tadqiqotchining mantiqiy fikrlar yechimi ishning yutug‘ini oshiradi. Tarixiy manbalarda qaysidir mavzular to‘liq yoritilgan, qaysisidir kam yoritilgan yoki umuman u haqda ma’lumot yo‘q. U shunda boshqa ma’lumotlarga tayanib fikrni to‘ldirib ketishi mumkin. Masalan, Amir Temurning harbiy qurollari o‘z davrining mukammal qurolli edi, biroq ularni ishlab chiqarish xususida manbalarda ma’lumotlar kam yoki yo‘q. Shunda tadqiqotchi bu davrdagi qurolsozlikning san‘at darajasiga ko‘tarilgani, ayniqsa poytaxt qurolsozlik markazi bo‘lganligini yoki taxminlarni ishda aytib o‘tishi mumkin. Bo‘lim oxirida esa umumiy xulosa va takliflar beriladi. Odatda

asosiy qism yozib bo‘lingach, kirish va xulosa yozish maqsadga muvofiqdir.

Ishning kirish qismida asosnomada ko‘rsatilgan holatlardan kelib chiqiladigan bo‘lsa, ishning rejalar bo‘yicha, boblar bo‘yicha va tadqiqotning umumiy natijalari va mazmunidan kelib chiqqan holda ilmiy jihatdan xulosa qilinadi.

Tadqiqotning xulosa qismida esa tadqiqot jarayonida qo‘lga kiritilgan ilmiy yangiliklar, ularning tadqiqot obyekti mazmunidan kelib chiqqan holda muammoning hal etilgani va ayni vaqtida qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalarning fan taraqqiyotidagi o‘rni, fan yuzasidan yangi ilmiy tadqiqotlarning yo‘lga qo‘yilishi uchun tavsiyalar, uning ta’lim sohasidagi jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Tadqiqot rejasini tuzish jarayonida ishning navbatdagisi va asosiyalaridan biri – maqsadga yetilishi uchun qo‘llaniladigan metodlar majmuyi hamda ularni qo‘llash tartibi belgilab olindadi. Bu ancha murakkab ish bo‘lib, izlanuvchidan tadqiqot jarayonini ko‘z oldiga yaqqol keltirishni talab etadi. Shuning uchun referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasining rejasini tuzishda va yozishda ilmiy rahbarning ko‘rsatmalari katta o‘ringa ega. Ish rejasining muvaffaqiyatli tuzilishi tadqiqotchining malakasi, dunyoqarashi va adabiyotlarni nechog‘lik chuqur o‘rganganiga bog‘liq. Ish rejasni mavzular asosida mantiqiy yoki davriy tartibda ham tuzilishi mumkin. Bunday rejalar asosan dissertatsiyalar doirasida shakllantiriladi. Shuningdek, ish rejalar boshqacha usullarda ham tuzilishi mumkin. Maqolalar, referat, kurs ishi, bitiruv ishi, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida rejalar oldindan murakkablashib boradi va unda qo‘yilgan masalalar ham ko‘lamni jihatdan bir-biridan farqlanadi. Ish murakkablashib borgani sari ulardagi mavzu va muammolarning nazariy tomonlariiga ko‘proq e’tibor beriladi. Mavzu bo‘yicha adabiyotlar o‘rganib bo‘lingach, o‘rganilishi lozim deb topilgandan so‘ng ilmiy konsepsiya tuziladi va asosiy masalalar ish rejasiga kiritiladi.

Umuman adabiyotlar bilan tanishish tadqiqot ishining boshidan boshlab, oxirgacha davom etadi. Shuning uchun ilmiy ish rejasasi ham aniqlanib, mukammallashtirib boriladi. Dastlab manba va adabiyotlardan yig‘ilgan dalillar mavzuga aloqador natijalariga qo‘yib boriladi. Uzoq muddatli izlanish natijasida papkalar ham ancha to‘lib qoladi. Adabiyotlar bilan ishslash asnosida izlanuvchida ma’lum ishga ilmiy qarashlar shakllanadi va u har bir papkadagi dalilni tizimlashtiradi. Dalillar davomiy va davriy joylashtirilib, ularni tizimlashga kirishiladi. Biroq mavzu faqtgina dalilning o‘ziga suyanib qolmasligi kerak, ular asosida yan-gicha nazariy xulosalar kelib chiqishi va bu xulosalar amaliyotga tatbiq etilishi zarur. Ish yangicha tadqiqotlarga takliflar va yo‘nalishlar berishi kerak bo‘ladi. Tadqiqotchi qaysi masala tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan va qaysi masalalarni chuqur o‘rganish kerakligini farqlay olishi kerak. Tadqiqotchi izlanishlari davomida ilmiy ish rejasiga o‘zgartirish kiritishi ham mumkin. Bu yig‘ilgan dalillar va masalalarning nechog‘liq to‘g‘ri va noto‘g‘ri qo‘yilganligiga bog‘liq.

Tayanch tushunchalar: tadqiqot mavzusi, g‘oya, maqsad, obyekt, tadqiqot, tadqiqotning predmeti, ilmiy natijalar, rejalahtirilayotgan ishlar, tadqiqot usullar, tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari, vazifalar, asosnomalar, reja, xulosa.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mavzu tanlashning asosiy tamoyillari.
2. Mavzu tanlashning vazifalari.
3. Mavzu tanlashning xususiyatlari.
4. Mavzu tanlashning metodologik tamoyillari.
5. Tadqiqotlarni samarali olib borish muammolari.
6. Ilmiy ishlarni yozish usullari.
7. Tadqiqotning kirish qismidagi tarkibiy qismlarni tushuntirib bering.
8. Mavzuning dolzarbligini belgilab beruvchi asosiy omillar.

Mavzuga aloqador so‘zlarning izohli lug‘ati:

Tadqiqot obyekti – o‘tmishga aylangan tarixiy voqelikka nisbatan yoki ayni kunlardagi jarayonlarni o‘rganishga nisbatan qo‘llaniladigan tadqiqot jarayonining tarkibiy qismi.

Tadqiqot predmeti – tadqiqot obyektining tarkibiy qismi

Tamoyillar – tadqiqotchiga nisbatan qo‘yilgan talablar. Bilish tamoyillari tadqiqotchiga tadqiqot jarayonidagi vazifalarni bir maromda ma’lum tartiblarga asoslangan holda amalga oshirishi-da zarur bo‘ladigan omillardir. Ular tadqiqotchining u yoki bu tarix maktablari, falsafiy yo‘nalishlarga mansubligi va dunyoqarashi, fikrlashi va tafakkuridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Tamoyillar uslublar bilan mustahkam o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lganligi uchun ayrim hollarda ularni bir-biri bilan adashtirish holatlari ham uchraydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish o‘rinliki, tamoyillar uslublarga nisbatan birmuncha murakkab va keng tushuncha bo‘lib, bir tamoyil o‘ziga bog‘liq holda bir necha uslublarni shakllantirishi mumkin, ayni vaqtida esa bir uslub bir necha tamoyillarga xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

XX asr davomida dunyo avvalgi davrlarga nisbatan misli ko‘ril-magan darajada shiddat bilan taraqqiy etdi va bu jarayonlarga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatgan asosiy omil sifatida albatta ilmiy taraqqiyotni e’tirof etish mumkin. So‘nggi o‘n yilliklarda zamонавиј professional tarixshunoslik va ilmiy tarixiy madaniyatning yangilanib borishi jarayoni sinfiylik determinizmidan voz kechilishi va asosiy umumiyl qonuniyatlarining rivojlanishi bilan amalga oshmoqda. Ayni vaqtda bu o‘zgarishlar fanning o‘ziga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi, ya’ni fanning shakllanishi jarayonidagi dastlabki vaqt-larga nisbatan o‘tgan asrnинг oxirgi yillarigacha vaqt mobaynida fanning ichki sohasidagi va fanga nisbatan yuzaga kelgan ko‘plab ilmiy-falsafiy qarashlar, turli mактаблarning shakllanishi tarix fani va Tarix fani metodologiyasi sohalarida ilmiy mu-rakkabliklarni va ayni vaqtda mukammalliklarning ham yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatdi. Dunyoning o‘zgarib borishi va jamiyat hayotining yangilanib borishi bilan birga fan sohasida ham bir qator yangilanishlar amalga oshib bormoqda. Fan sohasidagi bir qator ilmiy-nazariy qarashlarning takomillashib va ayni vaqtda mukammallahib borishi o‘z navbatida fan sohasidagi muammo-larning yangicha tushunilishiga, shuningdek, fan va uning ilmiy tadqiqotlari sohasida, ayni vaqtda ilmiy tadqiqotlarning nazariy va metodologik asoslarida sifat jihatdan o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa tarix fanining ham boshqa fanlar kabi taraqqiy etib borishidan dalolat beradi.

Tarixchi mutaxassislarni tayyorlashda va ularning ilmiy tadqiqot malakasini shakllantirishda tarix fanining turli tadqiqot uslublari va yondashuvlari haqida yetarli bilim berish bugungi kun tarix o‘qitishning asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Mazzkur qo‘llanmada e’tiboringizga havola etilgan tarix fani tadqiqot uslublari, tadqiqotlar jarayonidagi falsafiy yondashuvlar, mактаблар, ularning vakillari tomonidan ilgari surilgan bir qator fikrlarga oid va umuman tarix faniga oid yuzdan ortiq terminlar va

ularning qisqacha izohli sharhlari bilan tanishib chiqdingiz. Bunda keltirilgan ayrim yondashuvlar bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotgan yoki boshqa samarali tadqiqot uslublariga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergen va bunday falsafiy yondashuvlar haqida ham umumiyl tushunchaga ega bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Mazkur qo‘llanmada keltirilgan ma’lumotlardan foydalangan holda har bir tadqiqotchi yoki tarix mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar tarixga oid asarlardan foydalanish, ularni tahlil etishni, o‘zlashtirish uslublarini bilish, tarix tadqiqoti sharoitida zarur bo‘ladigan ilmiy-bilish nazariyasi, tarixni o‘rganish va anglash tamoyillari uslublari bilan tanishish hamda ularni tadqiqot jarayonlarida qo‘llash haqida ma’lum tushunchalarga ega bo‘ldilar, deb umid qilamiz.

Hozir mustaqil yurtimiz hayotining barcha sohalarida tub islohotlar, yangiliklar jadal ro‘y bermoqda. Tarixchi tadqiqotchi ham tadqiqotlarga yangicha ko‘z bilan qarashi, ularning ortidan ergashmasligi, fikrni isloh qila bilishi, tadqiqotda vatanimiz tarixi muammolari ko‘rilayotgan bo‘lsa, milliy g‘oya tamoyillari nuqtayi nazaridan yondashib, o‘zi kashf etgan tarix saboqlarini ko‘rsata bilishi kerak. U shunday xolisona ish yozishi kerakki, bu jihatdan uning ilmiy xulosalari asrlar davomida ham ahamiyatini yo‘qotmasligi, buning uchun esa tarixiy jarayonlar haqqoniy ko‘rsatilishi kerak. Tadqiqotchilar yosh avlodni vatanparvarlikka, ularda milliy g‘urur uyg‘otishga xizmat qilishi, ajdodlarimizning ishlarini davom ettirishga undashi lozim.

Xolisona tadqiqot yoza bilish tadqiqotchining mukammal bilim egasi ekanligi va ma’naviy komilligini ko‘rsatadi.

GLOSSARY

«Annallar maktabi» — «yilnomachilik maktabi», qadimgi Misr, Yunoniston, Rim, Xitoy va boshqa davlatlarda mavjud bo‘lgan yilnomalar asosida tarixni yoritish.

Absolyut (mutlaq) — (lotincha «absolutus» — shak-shubhasiz, chekhanmagan, chegaralanmagan, mutlaq) falsafada: butun mavjudotning azaliy va abadiy o‘zgarmas birlamchi asosi yoki har qanday mutlaq narsa, hodisa.

Absolyut (mutlaq) haqiqat — voqelikdagi, haqiqiy bilimning empirik tajriba va nazariy bilishning haqqoniyligini xolis mazmunining mosligi. Tarix falsafasida haqiqat narsalar haqidagi bilimlarning mosligi sifatida tushunilgan (Aristotel), ideal obyektlarning mangu va o‘zgarmas absolyut xususiyatlari (Platon, Avgustin), subyekt tafakkurining his etishi (sezgirligi, sezishi) bilan mosligi (D.Yum), o‘z-o‘zi bilan tafakkur va fikrlashdagi tekshirilmagan, dalilsiz shakllaridagi (apriori) mutanosiblik (I.Kant) kabi tushunchalar va qarashlar mavjud.

Zamonaviy mantiq fanida va fan metodologiyasida haqiqatning e’tirof etilgan tushunchasi voqelikdagi, haqiqiy bilimning haqqoniyligini tushunchasi bilan to‘ldirilishi — ya’ni, haqqoniylig darajasi va nazariyalar hamda farazlarning ishonchszlilik daramalarining mutanosibligi bilan to‘ldiriladi.

Abstraktlik — mavhumlik, fikrnинг mavhumligi.

Abstraktlikdan (mavhumlikdan) konkretlikka ko‘tarilish (yo‘naltirish, yo‘naltirilganlik) — obyektning tadqiqot metodi (uslubi) bo‘lib, abstraktlik (mavhumlik)dan va bir yoqlamalik bilimdan nisbatan konkretroq (aniq, to‘liq, mukammal) ilmiy aniqlik tizimi bo‘lgan nazariy fikrlash (tafakkur)ga tomon bilimlarni rivojlanтирib borish.

Ayollar tarixi va gender tadqiqotlari — tarixda ayollar haqida ma’lumotlarning paydo bo‘la boshlanishi feminizmning shakllanishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Biroq XX asrning 60-yillari oxirlari 70-yillari boshlariga kelib «ayollar tadqiqotlari» paydo bo‘lgan

bo‘lsa, 80-yillarga kelib bu sohada «gender tadqiqotlari» deb nom olgan predmet tarmog‘i shakllandi va bunda asosan ayollar tarixining konseptual apparatini o‘rganishga e’tibor qaratila boshlandi. Bu tadqiqotlarning birinchi bosqichidayoq ayol tarixchilarining tanqidiy qarashlari birinchi o‘ringa chiqdi. Ularning qat’iy ravishda ta’kidlashicha, erkaklar tarixshunosligi ayollarni tarixdan «o‘chirib yuborgan» va eng avvalo bu bo‘shliqni to‘ldirish lozim, qolaversa jinslar orasida «tobelik» va «hokimlik» munosabatlarini ham ko‘rsatib berish kerak deb hisobladilar. XX asrning 80-yillarida madaniy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli bo‘lgan jinslar orasidagi notenglikning ijtimoiy xususiyatiga urg‘u bergen holda tadqiqotlar amalga oshirish yuzaga keldi. Gender tadqiqotlarining asosiy mavzulari oila va nikoh, uy xo‘jaligi va bozor, huquq va siyosat, din va ta’lim, madaniyat sohalariga yo‘naltirilgan.

Analiz – tahlil, obyektiv voqelikni ilmiy bilish, o‘rganish uslubi.

Analiz (tahlil) qilish – tarixiy hodisalar va tarixiy jarayonlar, ularning tarkibiy qismlari, jarayonlar va ularning tarkibiy qismlarining o‘zaro munosabatlarini fikran qismlarga ajratgan holda o‘rganish jarayoni. Analiz (tahlil)ga teskari jarayon sintez bo‘lib, bilish jarayonida bu ikki tushuncha bir-biri bilan bog‘liq bo‘ladi. Tahliliy (analiz) jarayon tarixiy bilish jarayoni va vazifalari bilan bog‘liqligi bois ilmiy tafakkur va ilmiy tadqiqot faoliyatining muhim omillaridan biri sanaladi.

Analogiya – o‘xshashlik, tarix fanida o‘xshashlik asosida xulosa chiqarish.

Analogiya (uslub sifatida) – o‘xshashlik; tarix fanida o‘xshashligi asosida xulosa chiqarish, taqqoslab, qiyoslab xulosaga kelish, hodisa va jarayonlarning, davrlar va bosqichlarning biror jihatdan o‘xshashligiga asosan (yoki farqlanishi) fikrlash, xulosa chiqarish, tahlil qilish, tadqiqot obyektidagi biror-bir o‘xshashlik asosida jarayonning boshqa jihatlari haqida ham xulosalar chiqarilishi mumkin. Tarixiy jarayonlarning alohida belgilari asosida

boshqa tarixiy jarayonlar bilan bog'liqligi va o'xshash jarayonlarni aniqlab va qiyoslagan holda o'rganilayotgan tadqiqot obyekti bilan bog'liq tarixiy jarayonlar haqida ma'lum xulosalarni ko'rsatib berish.

Anaxronizm – (yunon. ana – teskari va chronos – vaqt) bir davrda sodir bo'lgan voqealar yoki hodisalarining boshqa davrga taalluqli deb qarash.

Apologetika – diniy ibora bo'lib, ayrim hollarda tarix fanida ham qo'llaniladi va ko'r-ko'rona himoya qilish ma'nosida tarixiy voqealarning va jarayonlarning barchasi oldindan belgilangan va ma'lum qonuniyatlarga asoslangan holda sodir bo'ladi degan teologik tushuncha.

Arxeografiya – yozma manbalarni ilk tavsifga olish yoki ularni qidirib topib, birinchi marta tavsiflash, ilmiy muomalaga olib kirishni nazarda tutadi.

Arxeologiya – (yunon. archaios – qadimgi va logos – bilim) insoniyat tarixini moddiy ashyolar va inson faoliyati izlari o'rqali o'rganadigan fan. Arxeologiya alohida qadimgi ashyolar va butun majmualarni arxeologik qazuqlar yordamida o'rganadi.

Atributsiya – tadqiqot obyektining o'ziga xos belgilarini aniqlash, metodologiyada tarixshunoslikning bir qismi bo'lib, turli manbalarning o'ziga xos belgilari va tarkibi, o'ziga xosligini (yaratish davri, mualliflari, manba va undagi ma'lumotlarning ishonarli va haqiqiyligi, ijtimoiy mansubligi, boshqa manbalar bilan o'zaro bog'liqligi va boshqalar) o'rganish va aniqlash, belgilash.

Bonistika – (fr. Bonistique) yordamchi tarix fani sohasi bo'lib, qog'oz pul belgilarini o'rganadi, bonlar tarixiy hujjatlar hisoblanib, numizmatika bilan uzviy bog'langan.

Gender tahlili – genderni o'rganishga yo'naltirilgan uslublar majmuyi bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Muammoli guruahlarni aniqlash.

Aniqlangan guruhlар tarkibidan muammoga aloqadorligi darajasiga qarab kichik guruhlarni ajratish.

Turli ijtimoiy guruqlar tajribalari kesimida muammoli vaziyatlarni boshqarish omillarini aniqlash va tahlil etish.

Muammoning yechimi topilishida zarur bo‘ladigan strategiyalar, resurslar va institusional o‘zgarishlarni aniqlash.

Gender tahlilini amalga oshirish jarayonida bir qator uslublardan ham foydalanilib, ulardan biri kartografiyalashtirish (tadqiqotchi tomonidan qo‘yilgan muammoning yechimini topishda tadqiqotning keyingi bosqichlarini tahlil qilish uchun tadqiqot obyekti atrofidagi voqelikning individual kartasini tarkibiy tadqiqot obyekti sifatida yaratish)dir.

Genealogiya – (yunoncha genealogiya – shajara, geneos – avlod va logos – bilim) yordamchi tarix fani sohasi bo‘lib, avlodning (sulolaning) kelib chiqishi, urug‘ va oilalarning kelib chiqishi, ayrim shaxslar tarixi va qarindoshlik aloqalarini o‘rganadi. Uning amaliy sohasi shajaralar tuzishdir.

Genetik uslub – genezis (kelib chiqish) bilan bog‘liq bo‘lgan, kelib chiqishini (genezisini) o‘rganadigan uslub bo‘lib, tarixiy jarayonlarning kelib chiqishi, voqealarning shakllanishidagi o‘zaro bog‘liqlik holatlarini o‘rganish nuqtayi-nazaridan tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan tadqiqot uslubi. Bu uslub tarixiy tadqiqotlarda tarixiy jarayonlarning kelib chiqishini tadqiq etib, tadqiqot yo‘nalishini o‘tmishdan bugungi kunga tomon yo‘naltiradi. Bunda genetik uslub tarixiy jarayonlarning kelib chiqishini tadqiq etib, tadqiqot yo‘nalishini o‘tmishdan bugungi kunga tomon yo‘naltiradi. Bunda genetik uslub o‘tmishdan bugungi kungacha sodir bo‘lgan tarixiy jarayonlarning kelib chiqishi, rivojlanib borishi va keyingi holatlariga o‘tishi jarayonlarini voqealarning kelib chiqishi sabablarini aniqlashga e’tiborni qaratgan holda amalga oshiradi.

Geraldika – (Heraldry) yordamchi tarix fani sohasi bo‘lib, ramzlar, nishonlar, gerblar, kompozitsiyalarning alohida belgilariini o‘rganadi, shuningdek, ularning o‘ziga xos tarixiy manba sifatida o‘rganadi.

Geraldika atamasi lotincha «heraldus» – jarchi so‘zidan kelib chiqqan. Polyakcha «herb», nemischa «erbo» atamalari meros va

merosxo'r ma'nolarida qo'llanilgan. Geraldika gerblar va ular haqidagi bilimlar tizimidir. Gerb biron-bir mamlakat yoki hududning siyosiy va tarixiy xarakterdagi g'oyalari majmuasini, o'ziga xos tabbiy va xo'jalik xususiyatlari, tabaqaviy tavofutlarini, shaxs, urug' va boshqalarning shajaralarini ifodalovchi alohida ramziy belgidir.

Geraldika moddiy madaniyat yodgorliklarini: gerb, tamg'a, muhr, nishonlarni hamda gerbli va ramzli yozma manbalarni o'rganadi, milliy an'analar, ijtimoiy xususiyatlar, mamlakatlara-ro iqtisodiy va madaniy aloqalarni o'rganishga yordam beradi. Gerblar tarixiy bilimlarning ko'plab sohalari: diplomatiya, sfragistika, numizmatika va boshqalarda o'ziga xos manba vazifasini bajaradi. Geraldika vujudga kelgan ittifoqlar, hududiy o'zgarishlar, sulolaviy nikohlarni aks ettirgan holda siyosiy tarix haqida, hukmron tabaqa o'rtasidagi demografik jarayon va boshqalar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bera oladi. Nafaqat siyosiy va ijtimoiy tarix sohasida, balki o'rganilayotgan davrning psixologik muhitini qayta tiklashda ham geraldik materiallardan samarali foydalanish mumkin. Masalan, o'rta asrlar xronikasi, siyosiy va badiiy adabiyotida gerblar tavsifi ko'p uchraydi. Ular umuman o'sha davr mentaliteti yoki turli toifalar mentalitetiga xos bo'lgan xususiyatlarni ham o'zida aks ettiradi.

Gipoteza (faraz) – (yunon tilida hypothesis – asos, taxmin, mo'ljal, gumon, «hyp» – tagida, pastda, ostida, «thesis» – holat, ya'ni biron-bir voqeanning asosida yotuvchi – sabab yoki mohiyat). Bilish nazariyasida u yoki bu tarixiy jarayon yoki voqe va hodisalar haqida taxminlarni mulohaza qilish va hukm chiqarish shaklida ifodalash. Ilmiy faraz – tarixiy jarayonlar yoki hodisalarning qonuniyatlar yoki sababiyatlar orqali bog'liqligini taxmin qilish. Har qanday ilmiy faraz bilishga bo'lgan ehtiyojni aks ettiruvchi, ya'ni bilmaslikdan bilishga (bilimsizlikdan bilimga) yo'naltirilgan bilishga oid savoldan boshlanadi. Faraz ilmiy bo'lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Tekshirish va aniqlashtirish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak, ya'ni tadqiqot jarayonida deduksiya yo'li bilan ajratib olin-

gan tarixiy hodisa yoki jarayon oqibatini tajribalar natijasiga ko‘ra, kuzatishlarga asosan, mavjud faktik materiallarga asosan tekshirish imkoniyati mavjud bo‘lishi lozim. Oldindan ko‘ra bila olish kuchiga ega bo‘lgan yetarli darajadagi umumiylig kasb etishi, ya’ni jarayonning sodir bo‘lishidagi hodisalarni tushuntirib berishgina emas, balki u bilan bog‘liq barcha hodisalarni tushuntirib bera olishi va ayni vaqtida noma’lum bo‘lgan hodisalar haqida ham xulosalar chiqarish uchun asos vazifasini bajarib berishi kerak.

Mantiqiy jihatdan bir-biriga zid mazmunda bo‘lmasligi kerak.

Deduktiv-integral modellashtirish – voqealarning xususiyatlari va ko‘lamidan hosil bo‘lgan umumiylig tushunchalar va xulosalar yordamida tadqiqotchi tasavvurida tarixiy jarayonni tarkibiy jihatdan shaklini shakllantirish.

Deduksiya – (lotin tilida «deduction» – ajratib olish, yuzaga chiqarish) mantiqiy qonuniyatlar asosida bir fikrdan ikkinchi bir fikrni ajratib olish, shakllantirish, umumiylig holatdan xususiy xulosalarga kelish, xususiy xulosalar chiqarish. Deduksiya – tarix fanida umumiylig voqelik tarkibidan alohida xususiy jihatlarni (voqeliklarni) ajratib olish. Umumiylig holatdan xususiy xulosalarga kelish yoki xususiy xulosalar chiqarish.

Determinizm – (lotin. «aniqlayman») – moddiy va ma’naviy olam hodisalarining obyektiv qonuniyatli o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi, narsa va hodisalarning sababiy bog‘lanishlari haqidagi falsafiy ta’limot. Narsa va hodisalarning sababiy bog‘lanishlari haqidagi materialistik ta’limot. Determinizmning markaziy o‘zagini sababiyatning, ya’ni hodisalar o‘rtasida bir hodisa (sabab) muayyan sharoitlarda muqarrar ravishda boshqa hodisani (oqibatni) keltirib chiqaradigan aloqadorlik mavjudligi haqidagi qoida tashkil qiladi. Determinizmning aksi indeterminizm bo‘lib, u umuman sababiyatni yoki loaql uning umumiylig xususiyatini tan olishni rad etadi. Tarix fanida determinizm (sababiylik) tamoyilli fransuz va nemis olimlari tomonidan ilgari surilgan. Ular tarix faqat tasodiflardan iborat degan g‘oyaga qarshi chiqqanlar. Sababiylik tamoyili tarixiy voqelikning o‘z sababiga egaligiga e’tibor

beradi. Determinizm (sababiylilik) tamoyili tadqiqotchining e'tiborini tarixiy hodisalar va voqealarning shartli ravishda o'zaro bir-biriga bog'liq ravishda sodir bo'lishiga qaratadi. Bu tamoyilga ko'ra barcha voqealar va hodisalar o'zaro bir-biri bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Ayrim tarixchilar sababiylilik tamoyilini tan olmaydilar, chunki tarixiy voqealarning sababini ochib berish juda murakkabdir.

Dialektika (yunon tilidan «dialektike (techne)» — bahslashish, suhbatlashish, muloqot san'ati). Dialektikada mavhumlik keng ma'noda bilimning «qashshoqligi», bir tomonlamaligi, konkretlik esa uning to'liqligi, mazmundorligi sifatida tushuniladi. Shu ma'noda mavhumlikdan (abstraktlikdan) konkretlikka o'tish ilmiy bilish jarayonining umuman olganda kam mazmunli bilimdan ko'proq mazmunli bilimga harakatini bildiradi. Tarix falsafasida dialektikaning turli talqinlari ilgari surilgan: dialektika. Turmushning abadiy shakllanib borishi va o'zgarib turiishi, beqarorligi haqidagi bilim (Geraklit); Muloqot san'ati, fikrlar qarama-qarshiligi orqali haqiqatga erishish (Suqrot); Narsalarning yuksak mohiyatini (idealligini) anglash maqsadida tarkiblarga ajratish va tushunchalarning aloqadorligi hamda ularning o'zaro bog'liqligini shakllantirish uslubi (Platon); Qarama-qarshiliklarning bir-biriga mos kelishi, o'xshashligi haqidagi ilm (N.Kuzanskiy, J.Bruno); Inson ongidagi to'liq va absolyut (mutlaq) haqiqatni bilishga intilish jarayonidagi ziddiyatlar va qarama-qarshiliklardan qocha olmagan holdagi chalkashliklarga sabab bo'ladigan illyuziyalar (borliqni, voqelikni noto'g'ri idrok qilishdan hosil bo'lgan soxta tushuncha, tasavvurlar)ni yo'q qilish (I.Kant) va boshqalar.

Diaxron uslub (davrlashtirish uslubi) — tarixiy tadrijiylik asosida tadqiqotning amalga oshirilishi, tarixiy voqelarni ketma-ket, bosqichma-bosqich rivojlanishi bo'yicha tadqiqot amalga oshiriladi.

Vaqt bo'yicha jarayonlarning eng ahamiyatli xususiyatlari, yangi bosqichlarning, davrlarning shakllanish holatlari aniqlanib,

jarayonlarning boshlanish davridagi va yakuniy davridagi holatlari solishtirilib, taqqoslanadi, taraqqiyot va rivojlanishning umumiy yo‘nalishlari aniqlanadi. Davrlarning ahamiyatga molik jihatlarini aniqlash uchun davrlashtirish mezonlarini aniq va ravshan belgilab olish va bunda albatta jarayonning sodir bo‘lishidagi obyektiv sharoitlar va jarayonning o‘zini inobatga olish zarur. Davrlashtirishning bir mezonini boshqa bir mezon bilan almash-tirish mumkin emas. Ayrim hollarda u yoki bu voqeja va jarayon yoki bosqichning boshlanish sanasini aniq ko‘rsatish imkonsiz bo‘lib qoladi, chunki jamiyatdagi barcha jarayonlarning chegaralari harakatlanuvchi va ayni vaqtida shartli holda belgilangan-dir. Bu tadqiqot jarayonida barcha jarayonlar va voqealarning turli xususiyatlarga egaligi, bir taxlitda sodir bo‘lmasligi va vaqt nuqtayi-nazaridan kelib chiqqan holda ularni aniq bir «qolip»ga solib chegaralab qo‘yish maqsadga muvofiq emas va tarixchi tad-qiqot jarayonida bu jihatlarni albatta inobatga olishi zarurdir. Qachонki bir nechta tizim va mezonlar mavjud bo‘lib, ular tadqiqotga jalb etilsa, tarixiy bilish jarayonining ko‘lami va mazmunan boyligi ham ortib boradi.

Diniy tarix – tarix fani sohalari va tarmoqlari orasida eng das-tlabki yuzaga kelgan tarmoqlardan biri diniy tarix sanaladi. Diniy soha va jamiyat hayotining bu soha bilan bog‘liq jihatlariga yetarli baho berilmasligi umumiy holatning noto‘g‘ri talqiniga sabab bo‘ladi. Ayni vaqtida bu sohaning ikki muhim jihat borki, buni tarixchilar teologiya yo‘lidan borish (yoki vogelikka diniy nuqtayi nazardan yondashuv) yoki aksincha diniy g‘oyalarni butkul inkor qilish, deb ko‘rsatadilar. Hattoki Yevropa tarixchilarida biror-bir dinga e’tiqod qiluvchi tarixchi tarixiy jarayonlarni yaxshi tushunadi, degan tushuncha ham shakllangan edi. Biroq bu tushuncha o‘zini oqlamadi va bugungi kunda diniy tarixga (din tarixiga) intellektual tarix va ijtimoiy tarixning ajralmas bir qismi sifatida yondashila boshlandi va ayni vaqtida tarixchi avvalgi davrlar tarixini o‘rganish jarayonida bu sohaga oid ma’lumotlarni ham e’ti-borga olishi kerak bo‘ladi.

Diplomatiya (diplomatika) – (yunon. diploma – ikki buklangan qog‘oz; hujjat) rasmiy hujjatlarni o‘rganuvchi va tahlil qiluvchi bilim sohasi. Diplomatika tarix fani sohasi bo‘lib, huquqiy aktlar, hujjatlarning shakli va mazmunini o‘rganadi

Diplomatiya tarixi – diplomatiya tarixining shakllanishi va mukammallahib borishi ham tarixiy tadqiqotlarning ilk ko‘rinishlarida uchraydi. Bunda asosan tarixchilar tomonidan qirollar, shohlar, xonlar, diplomatlar va elchilarning o‘zaro alohida muzokaralari tarixini yoritishga asosiy e’tibor qaratilgan. Keyinchalik diplomatiya tarixi sohasiga asta-sekin yangi tushunchalar kiring kela boshladi va endi tadqiqot jarayonida iqtisodiy va ijtimoiy ahvolning ham holatiga e’tibor qaratila boshlandi. Xalqaro munosabatlar tarixi shakllangach esa davlatlar tizimiga va tuzilishi jihatlariga ham alohida e’tibor qaratila boshlandi. XX asr oxirlariga kelib u yoki bu xalqlarning o‘ziga xosligi muammolari tadqiqot jarayonlariga aralasha boshladi. Bunda xalqlarning o‘ziga xos beba ho tarixiy merosini yaxshi anglash maqsadida ularning mentalitetiga, madaniyatshunosligiga alohida urg‘u berila boshlandi. Xalqlarning o‘zaro bir-birini yaxshi tushunishi va anglashi ni kuchaytirish maqsadida tarixchilarning tadqiqotlar jarayonida o‘zaro hamkorligi ham yo‘lga qo‘yilgan.

Dispersiya – yoyilish, ajralish, bo‘linish, parchalanish. Tarix fanida tarixiy jarayonlarning tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish. Yordamchi tarix – fanlari tarix faniga aloqador, tarix fanining aniq bir sohasini o‘rganadigan, aniq mazmunga ega bir qator fanlarning umumlashtirilgan nomlanishi bo‘lib, ularning orasida eng yirigi manbashunoslikdir. Qolgan yordamchi tarix fanlari 2 qismga bo‘linadi: Turli manbalarni o‘rganadigan, biroq ayni vaqtida tarix fanida aniq bir soha bo‘yicha o‘ziga xos vazifani bajaruvchi fanlar, ya’ni arxeografiya, arxivshunoslik, geneologiya (shajara), metrologiya (o‘lchovlar haqidagi fan), paleografiya (qadimgi qo‘l yozmalarining xati va tashqi ko‘rinishlarini o‘rganuvchi fan, shuningdek, uning tarmoqlari – epigrafika (qadimgi yozuvlarni o‘rganadigan fan) va papirologiya (papirus qog‘oziga

yozilgan qadimiy qo'l yozmalarini o'rganuvchi fan)), tekstologiya (matnshunoslik), xronologiya (muayyan bir vaqtadan boshlab tarixni hisoblab borish haqidagi fan, voqealarning tarixi, vaqt ketma-ket ko'rsatib tuzilgan jadval yoki yozilgan ro'yxat). Alohi-da manbalarni tadqiq etuvchi va ayni vaqtida ularning mazmu-ni, shakli va xususiyatlarini har tomonlama o'rganuvchi fanlar, ya'ni geraldika (muhrlarni va nishonlarni o'rganuvchi fan), diplo-matika, numizmatika (qadimgi tanga pullar va nishonlarni o'rga-nuvchi fan), bonistika (qog'oz pullarni o'rganuvchi fan sohasi), faleristika, sfragistika.

Ideal – barkamol, mukammal.

Ijtimoiy tarix – XIX asrdan boshlab tarixchilar tomonidan tarixiy tadqiqotlarda oddiy odamlar va xalqning ahvolini o'rgani-shga e'tibor qaratish boshlandi. Marksizm ta'limotida ishchilar tabaqalarini o'rganishga assosiy e'tibor qaratildi. XX asrga ke-lib, «annallar maktabi» ijtimoiy tizim va jarayonlarni o'rganishga kirishdi. XX asrning 60-yillarida E.Tomson tomonidan ishchilar tabaqasining kelib chiqish tarixining o'rganilishi tarixiy tad-qiqotlarda fanlararo yondashuvning imkoniyatlarini ko'rsatib ber-di. Oila tarixi, ayollar tarixi o'rganila boshlandi, odamlarning kundalik faoliyati va shaxsiy hayotini o'rganishga e'tibor kuchay-di. Biroq XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmi oxirlariga jamiyat hayoti tarixini o'rganish jarayonida ko'pgina sohalar e'tibordan chetda qoldirilib, asosan sinfiy kurash masalalariga assosiy e'ti-bor qaratilib, tarixning bir tomonlama o'rganilishiga yo'l qo'yildi. Shuningdek, bu jarayonlardagi bir tizimlilik ham jamiyat hayotini har tomonlama va atroflicha tadqiq qilishga imkon bermadi. XX asrning 90-yillaridan boshlab jami yat hayotini o'rganishdagi tarixiy tadqiqotlarda bunday yondashuvlar inkor qilinib, uni har tomonlama tadqiq etishga kirishildi.

Ijtimoiy fanlar – (Social sciences) – insoniyat va jamiyatning hayotini turli yo'naliishlarda (sohalarda) o'rganadigan fanlar majmuyi. Jamiyat hayoti va taraqqiyotining iqtisodiy soha bilan bog'liq jihatlarini o'rganadi, statistikaning paydo bo'lishi bilan

faol rivojiana boshlagan. Bugungi kunda matematik modellash-tirishdan keng foydalaniladi. Tarixchi monetarizm, lasseferizm, D.Keyns nazariyasi va boshqa bilimlarni bilmasdan turib tad-qiqotlarni olib borishi samara bermaydi. Tarixchi bu soha tadqi-qida odamlarning yashash tarzi haqida to‘liq ma’lumot bera olishi mumkin bo‘lmagan jon boshiga to‘g‘ri keluvchi iqtisodiy ishlab chiqarish haqidagi ma’lumotlar kabi faqatgina iqtisodiy tahlil bi-langina cheklanib qolmasdan, demografiya, sotsiologiya kabilarni ham iqtisodiy soha tarixini o‘rganishga jalb eta olishi kerak.

Induksiya — (lotinchada «inductio» — xulosa chiqarish, muayyan bir fikrga kelish; xulosa, natija, yakunlovchi fikr); da-lillardan (faktlardan) ayrim farazlarga qadar xulosalar chiqarish, farazlarga yo‘naltirilgan xulosalarni shakllantirish. Induksiyani ikki jihatni, xususiyatiga qarab bir-biridan farqlanadi. Ya’ni birinchisi to‘liq induksiya bo‘lib, umumlashtirish yakuniy xulosaga ega bo‘lgan dalilar sohasi bilan umumlashtiriladi, ikkinchisi to‘liq bo‘lmagan induksiya bo‘lib, to‘liq yakuniy xulosalarga ega bo‘lmagan yoki oxiri yo‘q dalillar sohasi bilan umumlashtiriladi. Induksiyaning ikki turi mavjud bo‘lib, birinchisi ommabop, umumiyligi (enumerativ) bo‘lib, hisoblash, sanab o‘tish yo‘li bilan hosil qilinadi, bunda hodisalarning sabab-oqibatlilik bog‘liqligi haqidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lmaydi; ikkinchisi ilmiy induksiya (eliminativ) bo‘lib, istisno yo‘li bilan hosil qilinadi, hodisalarning sabab-oqibatlilik bog‘liqligi haqidagi ma’lumotlar xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan mazmunda aks ettiriladi.

Integral — tarix fanida kichik tarixiy jarayonlardan, ularning yig‘indisidan umumiyligi jarayonni shakllantirish va uni xulosalash.

Intellektual tarix — dastlabki vaqtarda yirik mutafakkirlar-ning g‘oyalari tarixi sifatida rivojlanib keldi. Keyinroq esa ko‘plab g‘oyalarning aksariyatini tashkil etuvchi va o‘zini oqlamagan va hayotga kirib bormagan bunday g‘oyalarni o‘rganish zaruriyati bormi, degan savol paydo bo‘ldi. Tarix fanida postmodernistlar qarashlari va tadqiqotlardagi yondashuvlarining shakllanishi va taraqqiy etib borishi bilan intellektual tarix ham yangilanib bor-

di. Natijada intellektual tarix o‘z tadqiqot ko‘lmlarini kengaytirib borib, tadqiqotlar jarayonida tarixiy voqelikka diniy va ayni vaqtida ilmiy qarashlarni, turli vaqtlarda sodir bo‘lgan, kasalliklar ularning kelib chiqishi, oqibatlari va boshqa shu kabilarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratmoqda. Ayni vaqtida yirik mutafakkirlar, ularning fikr va g‘oyalariga, ulardan qoldirilgan matnlar, turli davrlarning tilshunosligi kabi sohalarga ham qiziqish ortib bormoqda.

Interpretatsiya – (lotinchada «interpretatio») sharhlash, izohlash, tushuntirib (izohlab) berish, talqin qilish. Interpretatsiya bir necha ma’noda keltiriladi:

Keng ma’noda – sharhlash, tushuntirish, nisbatan tushunarli bo‘lgan tilga tarjima qilish.

Maxsus ma’nosi – mantiqdagi va matematikadagi abstrakt (mavhum) tizimlar uchun modellarni tizimlashtirish. Tarix fani da tadqiqotlar jarayonida hamda manbashunoslik sohasida nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi va sharhlash, izohlash, tushuntirib (izohlab) berish, talqin qilish vazifalarining bajarilishini anglatadi. Yana qarang: Manbani interpretatsiyalash. Man baning tanqidiy tahlili (manbashunoslik tahlili).

Intuitsiya – ichki his, sezgi, sezgirlik, tajriba yordamidan tashqari bevosita muroqaba yo‘li bilan haqiqatni bilish mumkin degan tushuncha.

Kvantativ tarix – («quantity» – miqdor) tarixiy tadqiqotlarda miqdoriy (matematik) uslublarning qo‘llanilishi va tarix fani tarmoqlari bo‘yicha xulosalarga ega bo‘lish bilan bog‘liq tushuncha.

Klassifikatsiya-tasniflash – Tarixiy jarayonlarni, voqealarni, hodisalarni, ularning borishi va tarkibiy qismlarini tasniflash. Tadqiqot obyektlarini alohida jihatlariga asosan (turi, shakli, davri va boshqalar) hamda boshqalarining mohiyatiga ta’sir etmaydigan umumiy belgilariga asosan guruhlarga ajratish. Klassifikatsiyalashning yana bir shakli tipologiya hisoblanadi.

Konkretlik – aniqlik, fikrning aniqligi.

Konkretlik (konkret) – (lotinchadan «concretus» – zichlangan, to‘liq) falsafiy kategoriya bo‘lib, ikki ma’noda qo‘llaniladi: ya’ni, bevosita ma’lumotning o‘zi sifatida, ilmiy aniqlashtirishlarning tizimi sifatida, narsalar (buyumlar) ning mohiyatan aloqadorligi hamda o‘zaro bog‘liqligi hamda hodisalar rivojlanishining qonuniyatlari va tamoyillarini aniqlovchi sifatida tushuniladi. Dialektikada konkretlik abstraktlikka qarama-qarshi ma’noda bo‘ladi, nazariy bilish ham abstraktlikdan konkretlikka yo‘naltilirgan (ko‘tarilgan) holda amalga oshiriladi.

Kontent-tahlil – matnli ma’lumotlar mazmunini ijtimoiy an’analarni aniqlash va o‘lchash maqsadlaridagi jiddiy tadqiqot bo‘lib, bu uslub bir qancha manbalarni baravar o‘rganish vaqtida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda tadqiq etilayotgan axborotning dastlabki o‘rganish bosqichida qo‘laniladi. Mazkur uslubning rivojlanishi sotsiologik tadqiqotlar bilan bog‘liq, biroq kontent-tahlil uslubi matnlarni chuqur o‘rganish lozim bo‘lgan barcha jaryonlarda qo‘llanilishi mumkin. Kontent-tahlil uslubining asosiy maqsadi – o‘rganilayotgan hujjatlardagi axborotni o‘rganib, ma’lumotdagi ijtimoiy kontekstni aniqlashga yo‘naltirilgan. Kontent-tahlil uslubining ustunlik jihatni tadqiqotchining o‘rganilayotgan obyektga ta’sirini cheklaydi, olinayotgan ma’lumotlarning yuqori darajadagi ishonchliligi (chunki hujjatlarni bir necha bor qayta tekshiruvlardan o‘tkazish mumkin va boshqa hujjatlar bilan solishtirib ko‘rish imkoniyati bor), ijtimoiy-psixologik hodisalarni o‘tmish hujjatlariga asoslangan holda tarixiy nuqtayi nazaridan o‘rganish imkoniyatining mavjudligi.

Kontent-tahlil uslubining imkoniyatlari:

- ustuvor ijtimoiy yo‘nalishlarni aniqlash va tahlil qilish;
- manbaning eng nozik jihatlarigacha aniqlik kiritish imkoniyati;
- turli tushunchalarning takrorlanish darajalarini aniqlash;
- matnda mayjud xususiyatlardan kelib chiqqan holda muallifning manbani yaratishdagi nuqtayi nazari, yondashuvi va pozitsiyasiga tadqiqotchining e’tiborini qarata olish.

kontent-tahlil uslubining tadqiqot bosqichlari:
hujjatlar tahlili uchun dasturlarni tayyorlash (vazifalar, tu-shunchalar, farazlar va boshq.);
tanlojni shakllantirish;
muayyan aniq tahlilning usullarini ishlab chiqish;
uslublani tekshiruvdan o'tkazish, uning samarali ekanligiga ishonch hosil qilish;
dastlabki axborotlarni yig'ish;
to'plangan materiallarni miqdoriy tahlil qilish.

Qo'lga kiritilgan natijalar va xulosalarni interpretatsiyalash lo-tin tilida «conceptio» – tushunish, qarashlar

Konsepsiya – tizimi (sistemasi) – tushunishning aniq bir vo-sitasi bo'lib, biron-bir narsaning (predmetning), hodisaning, ja-rayonning mohiyatini tushuntirib berish, izohlash, talqin qilish, ularning tizimli yoritib berishning asosiy nuqtayi nazari.

Korrelyatsion – o'zaro bog'liqlik, bog'langanlik, munosabat-dorlik; tarix fanida voqealarning o'zaro bog'liqligi, o'zaro munosabatda bo'lganligi.

Madaniyat tarixi – Madaniyatshunoslikning bir bo'limi bo'lib, aniq zamon va makon chegarasida mavjud bo'lgan jamiyat madaniyatini o'rganadi. Madaniyat tarixi tarixiy tadqiqotlar-ning an'anaviy va asosiy tarmoqlaridan biri sanaladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, madaniyat tushunchasining o'zi bir necha talqinda mavjud bo'lib, keng ko'lamli tushuncha bo'lganligi sababli, faylasuflar va madaniyatshunoslар tomonidan bu tushunchaga aniqlik kirituvchi o'nlab ta'riflar berib o'tilgan. Tarixchilar tomonidan madaniyat tarixining tadqiqotlari jarayoni-da bunday tushunchalarning deyarli barchasidan foydalanib o'til-ganligini tarixiy tadqiqotlarda kuzatish mumkin.

Bugungi kunda yangi madaniyat tarixi shakllangan bo'lib, uning asosini til, matnlar va narrativ tizimlar (semiotik yon-dashuv) tashkil etadi. Yangi madaniyat tarixi xalq madaniyati va elitar madaniyatning bir-biriga qarama-qarshiligidini inkor qila-di. Bugungi kunda madaniyat tarixi bilan shug'ullanish madani-

yat falsafasi va madaniyatshunoslik sohalarida birmuncha jiddiy tayyorgarlik va bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi. Ayni vaqtda yangi yondashuvlar esa yangi-yangi natijalarni berishi shubhaisizdir. Ko‘pgina tarixchilarning fikricha aynan madaniyat tarixi tarixi sintezning asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin, vaholanki aynan ana shunday sintez vositasini shakllantirish va asoslab berishga ko‘pgina avlod tarixchilari tomonidan urinishlar bo‘lgan.

Manbalar (manba) – o‘tmish haqida axborot tashuvchilar. Insoniyat o‘tmishi va jamiyat taraqqiyoti jarayonlari haqida ma’lumot beruvchi va ularni bevosita aks ettiruvchi barcha moddiy va yozma ma’lumot beruvchilar. Manbalar bir necha turli bo‘lishi mumkin: Yozma (belgili) manbalar; Moddiy manbalar; Etnografik manbalar; Xalq og‘zaki ijodiga oid manbalar; Lingvistik (tilshunoslikka oid) manbalar. Tarixiy manbalar – har qanday tarixiy tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Manbalarsiz va ularni o‘rganmasdan turib jamiyat taraqqiyoti tarixini ilmiy bilishni amalga oshirib bo‘lmaydi. Manbalarning miqdori chegaralanmagan (cheksiz), biroq ularning bugungi kungacha saqlanib qolgan turli davrlarga oid qismlari va o‘scha davr haqida ma’lumot beruvchi miqdori bir xilda emas. Davr qanchalik qadimiy bo‘lsa, manbalar miqdori shunchalik kamayib boradi. Tarixiy manbalarning barchasi shartli ravishda 6 turga bo‘linadi: 1. Yozma manbalar. 2. Moddiy manbalar. 3. Etnografik manbalar. 4. Lingvistik manbalar. 5. Og‘zaki manbalar. 6. Kino (tasvirli) – fono (ovozli) – foto (suratli) manbalar. Manbalarning tasniflanishi, kelib chiqishini va yaratilishini o‘rganish, mualliflari, haqiqiyligi va ishonarliligi, to‘liqligi kabi bir qator jihatlarini manbashunoslik fani o‘rganadi.

Manbani interpretatsiyalash – bu shunday tushunchaki, bu jarayonida manbadagi konkret faktlar (dalillar) haqida, hodisalar va jarayonlar haqida aynan nimalar (yoki qanday ma’lumotlar va axborot) xabar qilinmoqda ekanligini aniqlash, manbadagi matn tarkibidagi to‘g‘ri ma’nodagi va ko‘chma ma’noda keltirilgan fikrlarni (ma’lumotlarni) to‘g‘ri talqin qilish, maxsus atama-

lar, ishoralar, o‘xshatishlarning ma’nolarini ochib berish jarayonlari tushuniladi.

Qarang: manbaning tanqidiy tahlili (manbashunoslik tahlili).

Manbaning tanqidiy tahlili (manbashunoslik tahlili) – manbaning tanqidiy tahlili (manbashunoslik tahlili) ikki qismdan iborat bo‘ladi:

Manbaning asl nusxa ekanligini aniqlash (tashqi yoki tekstologik (matnshunoslik xususiyatlariiga asosan) tanqidiy tahlil (tanqidiy muhokama etish));

Manba tarkibidagi mavjud ma’lumotlarning (axborotning) ishonchligini aniqlashtirish (ichki yoki xususiy tarixiy tanqid).

Turli manbalarning manbashunoslik tahlili o‘ziga xos xususiyatlariiga ega bo‘ladi (masalan, hujjatli manbalar, og‘zaki manbalar yoki rivoyat va afsonalarga qaraganda turlicha uslublarda tahlili etiladi va boshqalar).

Manbaning asl nusxa ekanligini aniqlash uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko‘zda tutiladi:

Matnni aniqlashtirish;

Manbani interpretatsiyalash;

Manbaning yaratilishi (kelib chiqishi)ni aniqlash.

Manbaning matnini aniqlashtirishda quyidagilar vazifalarni bajarish ko‘zda tutiladi:

matnni o‘qib chiqish va uning mazmunini anglash;

manba matni yaratilgan vaqtdan keyingi davrlarda unga qo‘srimcha qilingan matnlarni (qo‘srimchalarni, izohlarni, ma’lumotlarni) aniqlashtirish;

qo‘srimcha matnlarning asl nusxadagi matnlarga bo‘lgan mutanosiblik darajasi va munosabatini aniqlash;

agar matn asl nusxaga tegishli bo‘lmasa, mazkur matnning yaratilishi tarixini aniqlashtirish, manba matnining dastlabki nusxasini (ko‘rinishini) hamda muallifga tegishli asl nusxasini tiklash va boshqa shu kabilarni bajarish maqsadga muvofiqdir. Manbani interpretatsiyalash: bu shunday tushunchaki, bu jarayonda manbadagi konkret faktlar (dalillar) haqida, hodisalar va

jarayonlar haqida aynan nimalar (yoki qanday ma'lumotlar va axborot) xabar qilinayotganligini aniqlash, manbadagi matn tarkibidagi to'g'ri ma'nodagi va ko'chma ma'noda keltirilgan fikrlarni (ma'lumotlarni) to'g'ri talqin qilish, maxsus atamalar, ishoralar, o'xshatishlarning ma'nolarini ochib berish jarayonlari tushuniladi.

Manbaning yaratilishi (kelib chiqishi) tarixini o'rganish muallifning nomini (atributlarini – o'ziga xos alohida maxsus belgilarini) aniqlash, manbaning yaratilish vaqtini, joyi va sharoitlarini o'rganishdan iborat. Manbaning yaratilish vaqtini va joyi bilvosita xususiyatlari, paleografiya uslublari, metrologiya, diplomatiqa va boshqa yordamchi tarix fanlari xususiyatlariga asoslanib xulosalar (hukm) chiqarilgan holda ma'lum darajada taxminiy ham bo'lishi mumkin. Taxmin qilingan barcha xususiyatlarning bir-biriga mos kelishi esa qo'yilgan vazifaning bajarilganligini bildiradi. Atributlari – o'ziga xos alohida maxsus belgilari (mazmuni, tili, bayon etish uslubi, yozuvi, husnixati) ko'p hollarda ishonchli bo'lmaydi va ular hujjatlarga asoslanilgan holda o'z tasdig'ini yoki isbotini topguniga qadar vaqtinchalik farazlar deb hisoblanishi maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotning birinchi bosqichi yakunlariga asosan tadqiqotchi manbaning asl nusxa ekanligi (yoki asl nusxa emasligi) yuzasidan o'z xulosalarini berishi mumkin bo'ladi. Biroq bunda vazifaning ma'lum qismi bajarilmagan bo'ladi, ya'ni bu manbaning o'ziga xos alohida alomatlariga va belgilariga xos unsurlarning to'liq ravishda aniqlanmaganligidir.

Manbalar tahlilining keyingi bosqichlarida qo'llaniladigan uslublar manba tarkibida mavjud bo'lgan axborotning xususiyati bilan bog'liq bo'ladi. Hujjatli manbalar (siyosiy va huquqiy mazmundagi hujjatlar) mazmun jihatdan isbotga muhtoj emas. Biroq ayni vaqtda bunday hujjatlarning axborotga ega va ma'lumot mazmunidagi ayrim qismlari (preamble – shartnomalar yoki xalqaro bitimlarning kirish (izoh) qismlari, kirish qismida ayrim tarixiy vogelalarga to'xtalib o'tishlar kabilar) ham bo'ladi, ki-

ularni manbaning ichki tanqidiy tahlil uslubi yordamida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Hujjatli manbaning asl nusxa ekanligi aniqlangach, tadqiqotchi uning ijtimoiy-madaniy mazmundagi jihatlarini ochib berish kerak. Shuningdek tadqiqotchi manbaning yaratilishidagi aniq shart-sharoitlar, yaratilishi tarixi, hujjatli manba va uning jamiyat hayotidagi o'rni yoki jarayonlarga ta'sirini o'rganib, manba tarkibidan o'ziga (tadqiqot obyektiga) zarur bo'lgan ma'lumotlarni (axborotni) ajratib oladi.

Hikoya, bayon mazmunidagi manbalar (yilnomalar, memuar-yodnomalar, publisistik matnlar va boshqalar)ning ishonchliligni aniqlab olish uchta vazifaning bajarilishi bilan belgilanadi:

ma'lumotning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar va vaziyatni aniqlash;

manba muallifining siyosiy qarashlarini (siyosiy mansubligini) aniqlash;

aniq bayon etilgan axborotni tekshirish.

Agar manba voqeа va jarayonlarning bevosita ishtirokchisi va jonli guvohi tomonidan bayon etilgan bo'lsa, tadqiqotchi mazkur manba muallifining (axborot beruvchining) tarixiy jarayonning sodir bo'lishi vaqtida qanday kuzatish holatida va ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lganligini aniqlashtirishi lozim.

Agar manba muallifi o'zi guvoh bo'lmagan va bevosita ishtirok etmagan voqeа va hodisa yoki jarayon haqida ma'lumot berayotgan bo'lsa u holda axborot (ma'lumot) o'zlashtirilgan manbani aniqlash, ma'lumotlarning (axborotning) yetka-zib berilishidagi aniqlik va mukammallik (to'liq bo'lishi darajasi) darajasini ko'rsatib berish talab etiladi. Bayon etib berish va hikoya qilish uslubida yaratilgan manbalarning barchasini o'rganish vaqtida shuni ko'rish mumkinki, aksariyat hollarda bunday manbalarning ishonchlilik darajasi axborot (ma'lumot) beruvchining dunyoqarashi, o'ziga xush keluvchi ma'lumotlarga urg'u bergen holda boshqalarini cheklashi yoki chetlab o'tishi tufayli manbaning obyektivligi – xolisligi darajasi pasayib

ketadi va ishonarli bo'Imagan manbalar qatoriga kirib qolishi-ga sabab bo'ladi.

Muayyan bir g'oya ta'sirida yondashish ochiq-oydin holatda yoki biron-bir vositalar (umumiyl holatda bayon etish, aniq va ravshan ma'lumot (axborot)lar borasida hech narsa demaslik (qayd etmaslik), umumiyl xususiyatlar orqali ko'rsatib berish va boshqalar) bilan niqoblangan holatda namoyon bo'lishi mumkin. Aniq ma'lumotlarni tekshirish jarayonida mantiqiy tahlil uslubidan foy-dalanish maqsadga muvofiqlir. Shuningdek tekshirish jarayonida yana manbaning tarkibidagi ma'lumotlarning ichki qarama-qarshiligi va mazmunidagi ziddiyatlari hamda boshqa manbalardagi ma'lumotlar bilan ham tafovutlari borligini aniqlash, agar bunday holat mavjud bo'lsa ularning sabablarini aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir-biriga aloqador bo'Imagan va yaratilishida bog'liq bo'Imagan turli manbalardagi ma'lumotlarning bir-biriga mos kelishi manbalarning ishonchliligin tasdiqlaydi.

Shu tariqa manbalar tahlilining ikkinchi bosqichida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida tadqiqotchi manbalarning ishonchliligi, asl nusxa ekanligini aniqlab, ularni tadqiqotga jalb etishi yoki aksincha, ularning ishonchli emasligi aniqlangan holatda tadqiqot obyekti mazmunidan kelib chiqqan holda ularni inkor qilishi mumkin. Tadqiqotga aloqador barcha manbalarni tadqiq etib bo'lgach, tadqiqotchi endi ularning manbashunoslik sintezini amalga oshirishi, ya'ni qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni umumlashtirishi mumkin. Manbalar to'liqligi va ishonchliligi darajasiga ko'ra hamda yaratilishidagi o'zaro aloqadorligi darajasi-ga asosan ketma-ket bir tizimga keltiriladi. Tadqiqot mavzusiga oid qo'lga kiritilgan barcha ma'lumotlarni jamlagan holda esa tadqiqotchi tadqiqot obyektini o'rganishda manbalarning yetarli bo'Imagan qismini aniqlaydi va boshqalariga asoslangan ilmiy faraz yordamida ularni to'ldiradi.

Manbashunoslik – tadqiqot manbasi va u bilan bog'liq tushunchalarni o'rganadigan fan. Tadqiqot manbalarini ilmiy jihatdan

klassifikatsiyalash (tasniflash) tamoyillarini shakllantiradi, manbalarning ichki va tashqi tanqidiy tahlili asoslarini, alohida guruhdagi, alohida xususiyatlarga ega hamda alohida mazmundagi manbalar bilan ishslash uslublarini ishlab chiqadi. Manbalarning tasniflanishi, kelib chiqishini va yaratilishini o'rganadi, manbalarning mualliflari, ularning haqiqiyligi va ishonarliligi, to'liqligi kabi bir qator jihatlarini ilmiy jihatdan o'rganadi.

Mantiq (mantiqiylik) — mantiq ilmi, mantiqiy fikr (fikrlash), inkor qilib bo'lmaydigan mantiq (mantiqan to'g'ri xulosa yoki fikr), ichki (mantiqiy) qonuniyat — voqealarning ichki qonuniyatlar asosida (mantiqiy bog'lanishda) kechishi, mantiqiy xulosa, mantiqiy izchillik, mantiqan to'g'ri mulohaza qilmoq, mantiqiy fikr yuritmoq.

Marksizm — tarixiy-falsafiy yo'nalish sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada shakllandı. Marksizm yo'nalishining asoschilari germaniyalik K.Marks (1818—1883) va F.Engels (1820—1895) hisoblanadi. Ular tarixiy materializm g'oyasini asoslab, barcha tarixiy jarayonlarning asosini ishlab chiqarish munosabatlari tashkil etadi, iqtisod omili jamiyat taraqqiyotining asosiy omildir, mazmunidagi o'z fikrlarini ilgari surdilar. Marksistlar (marksizm tarafдорлари)ning qarashlariga ko'ra jahonning umumiy tarixi bu iqtisodiy va siyosiy hokimiyat (hukmronlik) uchun kurash jarayonidan iborat, bunda sinfiy kurash tarixiy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchi va iqtisodiy munosabatlardan jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida birinchi o'ringa qo'yiladi. XX asr davomida bu qarashlar asosida tarixiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa, asrning oxiriga kelib marksizm nazariyasi bir yoqlama bo'lganligi uchun undan voz kechildi.

Metod (yunoncha methodos — nazariya, bilim va tadqiqot yo'llari) — u yoki bu maqsadlarga erishish yo'llari, uslublari, aniq va konkret vazifalarni hal etish usullari.

Metod (yunoncha methodos — nazariya, bilim va tadqiqot yo'llari) — u yoki bu maqsadlarga erishish yo'llari, uslublari, aniq va konkret vazifalarni hal etish usullari. Tarix fanida metod —

tarixiy tadqiqotlar jarayonida aniq maqsadga olib boruvchi tadqiqot usullari va jarayonlar yig‘indisidan iborat, metodning o‘zi nazariyadan, tadqiqot metodikasi va texnikasidan tarkib topadi. Har qanday metod nazariy jihatdan asoslangan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida obyektiv va subyektiv xususiyat kasb etsada, obyektiv asosga ega.

Bunda metodning tanlanishi, uning to‘g‘ri qo‘llanilishi va tanqidiy xulosalarning chiqarila olinishi tadqiqotchining bevosita o‘ziga bog‘liq va uning o‘rnii asosiy ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, tarixchi tadqiqotchi metodlar yig‘indisidan ilmiy muammoni hal etish va yechimini topishda foydalanadi.

Tarixiy tadqiqotlar metodlarining to‘rtta darajasi va yondashuvlari mavjud:

Falsafiy (har bir falsafiy yondashuv tarixga nisbatan o‘z qarashlariga ega);

Umumfan (tabiiy va gumanitar fanlarda qo‘llaniladi);

Maxsus-tarixiy (faqatgina tarix fani tadqiqotlarida qo‘llaniladi);

Aniq-muammoviy (tor doiradagi tadqiqotlar uchun).

Tadqiqot metodlarining yuqorida har to‘rtalasi o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan bo‘lib, aniq-muammoviy va maxsus-tarixiy uslublar umumfan va falsafiy uslublarga asoslanadi. Hozirgi vaqt-da tarixchilar fanlararo yondashuv – boshqa fanlar metodlarini ham tarixiy tadqiqotlarda qo‘llamoqdalar.

Metodologiya (yunoncha «metod» va «logos» – fan, ilm) fan metodologiyasi – ilmiy bilishning shakllari, uslublari va tuzilish tamoyillari haqidagi fan. Metodologiya bilishning falsafiy nazariyasi, sotsiologiya va tarixshunoslik asosida shakllanadi. Tabiiyki, bilish nazariyasi masalalari bu fanda asosiy o‘rin tutadi, biroq bu bilan asosiy e’tibor shunga qaratilishi mumkin emas, balki nazariy bilimlar tarixiy tadqiqotlar amaliyoti bilan mukammallashtirilishi lozim. Bunday tarixiy tadqiqotlar faylasuflar tomonidan amalga oshirilmaydi, shuning uchun ularning tarix fani metodologiyasi borasida bildirgan fikrlari ko‘p hollarda bahs va munosabatda qo‘llaniladi.

zaraga sabab bo‘ladi, aksariyat hollarda esa tarixchi-amaliyotchilar ularning fikrlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri inkor qiladilar.

Metrologiya – o‘lchovlar haqidagi fan, (yunon. metron – o‘lchov, logos – tushuncha, bilim; o‘lchovlar haqida tushuncha) o‘tmishda turli mamlakat va xalqlar orasida amalda bo‘lgan og‘irlik, masofa va sath o‘lchovlarini o‘rganadi.

Modellashtirish – tarixiy hodisalarining andozasini, shaklini, holatini tuzish, shakllantirish. Bilish obyektlarini (ko‘pincha fizikada) ularning modellari yordamida tadqiq qilish. Modellashtirish asosida tadqiqot obyekti bilan uning modeli o‘rtasidagi o‘xhashlik, muvofiqlik yotdi. Hozir bu metod ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi.

Mukammal tavsiflash uslubi – (rus. Metod plotnix opisaniy) bir tadqiqot obyektining o‘ziga xos jihatlarini sinxron tahlil qilish uslubi. Bunda assosiy vazifa tadqiqot obyektining o‘ziga xos jihatlarini (tarjimayi holini) maksimal darajada o‘ta mukammal aks ettirish (tavsiflash), uning «inqiroz holatlarini», ya’ni biror-bir favqulodda holatga (hodisalar, voqealar, jarayonlar kabilar) bo‘lgan ta’sirini va bu ta’sir orqali unda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlashdir. Uslub shaxsnинг qarashlari va tarjimai holida sinxronlikdan kelib chiqadi, ya’ni tadqiqot obyektining qarashlarida (yoki sodir bo‘lish jarayonida) bordaniga yoki asta-sekinlik bilan sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni nazariy jihatdan yoki amaliy jihatdan savollar yordamida shakllantiriladi.

Nazariya (teoriya) – (yunon tilidan «theoria» – ko‘rib chiqish, tadqiq etish) ta’limot, ilmiy tamoyillar (prinsiplar) tizimi (sistemasi), qoidalar majmuyi, fikr, mulohaza, nuqtai nazar, nazariya. Fanning u yoki bu sohalaridagi asosiy g‘oyalar tizimi, voqelikning mohiyat jihatdan bog‘liqligi va qonuniyatlarini haqida to‘laqonli tasavvur qilish imkonini beruvchi ilmiy bilish shakli.

Neokantchilik – neokantchilarining qarashlaricha ijtimoiy hayotda hech qanday qonuniyatlar mavjud emas, tarixchining subyektiv xatti-harakatlari (boshidan kechirganlari, ko‘rgapn bilganlari) bilishning eng asosiy vositasidir, tarixiy dalillar – bilish-

ning asosiy dalillaridir deb hisoblaydilar. Fandagi (ilmdagi) ong, aql, idrok haqidagi (bunga tarixni ham qo'shadilar) bilishning eng asosiy vositasi bu – tushunish va intuitsiya (sezgirlik)dir deb ko'rsatadilar. Neokantchilarning ta'kidlashicha, tarix individual, alohida konkret holatlar bilan bog'liq bo'ladi, tarix poeziyaga va san'atga yaqin bo'lib, ko'proq tavsifiy xususiyatiga egadir.

Numizmatika (numismatics. Lotinchadan numisma – mone-ta, tanga) – yordamchi tarix fani sohasi bo'lib, tangalar va tangalardan iborat xazinalarni tarixiy, iqtisodiy, madaniy yodgorlik sifatida o'rganadi. Numizmatika shuningdek, Tangalarni zarb qilish ishlarini ham o'rganadi. tangalar va ularning tarixini o'r-ganuvchi yordamchi tarix fani sohasi, tangashunoslik. Qadimiy pul-larni, ashyosi, shakli, vazni, yozuvlari, zerb etilgan joyi va vaqtini tekshiradi.

«Numizmatika» termini o'rta asrdan e'tiboran tanga pullar haqidagi fanning nomi sifatida ishlatila boshlandi. Tanga – bu belgilangan formadagi metall quymasi. U o'zining og'irligiga, qiyamatiga, sifatiy tarkibiga ega bo'ladi va qonuniy muomala vositasi hisoblanadi.

Pullar, ular qanday ko'rinishga ega bo'lishdan qat'i nazar, qiyemat o'lchovi, muomala vositasi, xazina toplash, to'lov vositasi, jahon puli funksiyalarini bajaradi.

Numizmatika tanga va qog'oz pullarning, orden va medal-larning yuzaga kelish tarixini o'rganadi, shu asosda fanning turli sohalariga, jumladan tarix va arxeologiya, siyosiy iqtisod, til-shunoslik va san'atshunoslikka oid masalalarni hal etish ishiga yaqindan yordam beradi.

Birinchi tanga pullar er.avv. XII asrga oid bo'lib, ular das-tavval Xitoyda, keyinchalik Hindistonda muomalaga chiqarilgan. Chunonchi, Gerodot va Ksenofotlarning ma'lumotiga ko'ra, birinchi oltin hamda kumush tangalar eramizdan oldingi VII asrda Kichik Osiyoning Lidiya davlatida zerb qilingan. Keyinchalik Qora dengiz bo'yidagi ko'pgina grek mamlakatlari va davlatlari-dagi yirik shaharlarda tanga pullar zerb etishgan. Demak, er.avv.

VII asrda tangalar O'rta Yer dengizi rayonlarida paydo bo'lgan. Lidiya (kichik Osiyo – davlati) va Grek oroli Egina bu yerda chiqarilgan tanga pullarning vatani hisoblanadi. Keyinchalik u butun Elladaga va uning koloniysi Eron, Italiyaga tarqaldi. Ruscha «moneta» so'zi aslida lotincha bo'lib, Pyotr I davrida keng ishlatila boshlangan.

Qadimgi Rimda Yunna Moneta deb ishlatilgan. Xudo Yunona sharafiga shunday deb nomlangan. Moneo ogohlantiraman, saqlayman, bashorat qilaman degan ma'nolarni bildiradi. Rimliklar Yunona sharafiga Kapitoliy tepaligida ibodatxona qurdilar. Xuddi shu ibodatxona huzurida er.avv. IV asrning 2-yarmida Rimda birinchi marta pul chiqarish ustaxonasi ochilgan. Bu yerda yalpoq, mis pullar – asslar zarb qilingan. Rim yozma manbalarida «moneo» termini bilan bir qatorda «numizma» termini ham uchraydi.

Onomastika – ismlarni o'rganadi, tarixiy onomastika esa ularning kelib chiqish tarixini o'rganadi

Paleografiya – (yunon. paleos – qadimiy, grapho – yoza-man; qadimiylar yozuv) yordamchi tarix fani sohalaridan biri bo'lib, yozuv, grafik shakllar tarixini o'rganadi. Paleografiyaning alohi-da tarmoqlari mavjud bo'lib, ular yozuv belgilarni, yozuv ash-yolarini, yozuv qurollarini, filigran (suvtamg'a – qog'ozga oddiy qaraganda ko'rinmaydigan qilib tushirilgan, yoruqqa tutganda ko'rinadigan raqam, surat, belgi: ruschada – водяные знаки) larni, qog'ozdagagi ko'rinadigan belgilarni va tasvirlarni, badiiy bezaklarni, muqovalarni va boshqa shu kabilarni ularning tarixiy taraqqiyot darajalarini o'rganadi.

Qadimiy qo'lyozma asarlarning qog'ozasi, muqovasi, siyohi, yozuvi va yozish usullarini tekshiradi. Qadimgi qo'lyozmalarning xati va tashqi ko'rinishlarini o'rganuvchi fan, shuningdek uning tarmoqlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardir: epi-grafika (qadimgi yozuvlarni o'rganadigan fan) va papirologiya (papyrus qog'oziga yozilgan qadimiy qo'l yozmalarni o'rganuvchi fan).

Papirologiya – paleografiya fanining bir tarmog‘i bo‘lib, papyrus qog‘oziga yozilgan qadimiy qo‘l yozmalarini o‘rganuvchi fan.

Paraxronizm – (yunon. parachronos, para – qarama-qarshi, xilof ravishda, chronos – vaqt) – xronologik xatolik, biror-bir voqeanning sanasini aynan sodir bo‘lgan vaqtdan keyingi davrga bog‘lab ko‘rsatish.

Plyuralizm – borliqning yoki bilim asoslarining bir necha yoki juda ko‘p mustaqil boshlang‘ichi mavjud deb da’vo qiluvchi soxta falsafiy ta’limot.

Pozitiv – tajribaga, faktlarga asoslangan.

Pozitivism – XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ingлиз олими O.Kont tomonidan ilgari surilgan. Pozitivistlar hamma haqiqiy, pozitiv bilimlar konkret fanlarning mahsulidir, falsafa esa bunday bilimlarni bera olmaydi, shuning uchun uning keragi yo‘q, degan g‘oyaga asoslangan subyektiv qarashga ega edilar. Pozitivistlar aniq dalillarni qaror toptirish va ularni tavsiflab berish, dalillarni tekshirish va manbalarni tanqidiy tahlil qilishga e’tibor qaratishi kerak, deb hisobladilar. Pozitivistlarning fikricha, jamiyatning taraqqiyot qonunlari bu tabiat qonunlarining davomidir. Tarixchi pozitivistlar ilgari surgan uslublardan biri bu tarixiy taqqoslash uslubidir. Asosiy kamchiliklari – pozitivistlar tarixda hodisalarining ichki sabab-oqibat aloqadorligi imkoniyatlarini inkor qildilar va tarixchining asosiy vazifasi tarixiy hodisalar sodir bo‘lishining «Nima uchun sodir bo‘ldi?» degan savolga emas, balki «Qanday sodir bo‘ldi?» degan savolga javob berishdan iborat deb hisobladilar.

Pozitivistlar – (pozitiv – tajribaga, faktlarga asoslanish). Pozitivistlar tarixni «pozitiv» bilimga aylantirishga harakat qildilar. Bu tushunchaning mohiyati shundaki, pozitivistlar hamma haqiqiy, pozitiv bilimlar konkret fanlarning mahsulidir, falsafa esa bunday bilimlarni bera olmaydi, shuning uchun uning keragi yo‘q, degan g‘oyaga asoslangan subyektiv qarashga ega edilar. Ular tarixiy dalillar bilan qanday ishslash, manbalarni tahlil qilish bo‘yicha bir qancha metodlarni ham taklif qilganlar.

Polisemantizm – ko‘pma’nolilik.

Postmodernistlar – tadqiqot obyektini subyektdan, dalillarni uydirmadan alohida ajratmaydilar va obyektiv haqiqatga erishishi ni shubha ostiga qo‘yadilar.

Ratsionalist – hayotga aql ko‘zi bilan qarovchi, mulohazakor, aql-idrokka asoslangan hukm (fikr). Falsafada ratsionalizm – tafakkurni hissiy tajribadan ajratib qo‘yadigan va aqlni bilishning birdan-bir manbayi deb hisoblaydigan falsafiy oqim. Tarix fanida har qanday tarixiy jarayonni aql-idrok, mulohazakorlik va ilmiylikka asoslangan holda tushunish va talqin qilish.

Relyativizm-relyativistik – voqelikni obyektiv ravishda bilish mumkinligini inkor etadigan metodologik g‘oya, unga nisbiylik asosida yondashish tarafdlari.

Relyativistik yondashuv (relyativistlar) – Qarang: Relyativizm-relyativistik

Retrospektiv uslub – retrospektivlik, o‘tmishga qaratilganlik. Tarixiy tadqiqotlarda bugungi kundan o‘tmishga yoki natija va oqibatlardan sabablarga yo‘nalgan holda tarixni tadqiq etish uslubi; bugungi kundan o‘tmishga yoki natija va oqibatlardan sabablarga yo‘nalgan bo‘ladi. O‘tmishning saqlanib qolgan elementlari orqali o‘sha o‘tmishni rekonstruksiya (qayta tiklash) qilishi mumkin. O‘tmish bilan tanishish jarayonida bugungi mavjud holatlarning yuzaga kelishi bosqichlari va shakllanishini aniqlash mumkin.

San’at tarixi – San’atshunoslikning bo‘limi bo‘lib, san’atning paydo bo‘lishidan boshlab bugungi kungacha bo‘lgan tarixiy jarayonlarini o‘rganadi.

San’at tarixi haqida tarixchilarning o‘z nuqtayi nazarlari mavjud. Agar san’atshunoslар san’at asarining yaratilishi sansasи, muallifligi va uslubi kabi jihatlarini birinchi o‘ringa qo‘ysalar, tarixchilar esa mazkur san’at asarining yaratilishidagi shart-sharoitlar, kompozitsiyalar, kontekstlar, intellektual va ijtimoiy tarixi jihatlarini asosiy o‘ringa qo‘yadilar. Tarixchi asar yaratilgan davr tadqiqi jarayonida o‘sha davrning estetik qarashlarini ham o‘rga-

nish bilan bir vaqtida o‘zi ham bu sohada ma’lum bilimlarga ega bo‘lishi lozim. San’at tarixini chuqur o‘rganish tadqiq etilayotgan davr madaniy hayoti tarixini kengroq va batafsilroq tushunish va tadqiq etishda muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan o‘rgani- layotgan davr tarixi haqida ma’lum bilimlarga va ma’lumotlar- ga ega bo‘lgan tarixchi tadqiqotchida san’atshunos tadqiqotchi- dan farqli o‘laroq ma’lum darajada imkoniyatlar ko‘proq bo‘ladi.

Semiotika – (yunon tilidan «semeion» – belgi, nishon). Kishi- lik jamiyatidagi, tabiatdagи yoki kishining o‘zidagi axborotni (ma’lumotni), qonunlarning mazmuni, belgilar tizimi (aksariyat hollarda tabiiy va sun’iy tillar, madaniy hayotning ayrim sohalari oid ma’lumotlar, jumladan afsonalar, marosimlar va ularning ji- hatlari, tizimlarini) berish yo‘llarini tadqiq etuvchi fan sohasi.

Siyosiy tarix – tarix fanining eng dastlabki yuzaga kelgan tar- moqlaridan biri bo‘lib, bu tarix o‘z tarkibiga fuqarolik jamiya- ti tarixini, siyosiy voqealar tarixini, siyosiy tizimlarni boshqarish va ijro etuvchi hokimiyat tarixini kiritgan holda tarix fanining o‘rganilishini ma’lum darajada o‘zgarib borishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ingliz tarixchisi D.Eltoning fikricha, siyosiy tarix jamiyat- ning tarkibi bo‘lgan inson faoliyatini o‘rganadi. Bunda asosiy e’tibor inson faoliyatini faqatgina tavsiflab berishga emas, balki uni tushunish va idrok etishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Mazkur tarixchi o‘z fikrini davom ettirib, siyosiy tarix statistikaga but- kul bog‘liq bo‘lib qolmasdan, abstraksiyadan qochish va faqatgi- na ijtimoiy tarixni yozmasdan, inson faoliyati va insonlar bilan munosabatga kirishish kerak, deb ko‘rsatadi. Biroq tarixni yo- zishda sotsiologiyaga ko‘proq e’tibor qaratuvchi bir qator tarixchil- lar D.Eltoning bu fikrlarini ma’qullamaydilar va asosiy qimmat- li ma’lumotlarni ijtimoiy tarixdan olish kerak deb hisoblaydilar.

Ko‘p hollarda siyosiy tarixchilar o‘z diqqat – e’tiborlarini in- sonlar taqdiriga ko‘proq ta’sir etuvchi siyosiy hokimiyat faoli- yatini o‘rganishga qaratadilar. Shunga ko‘ra tadqiqotlar ko‘la- mi ham kengayib boradi, ya’ni aholining harakatlari, alohida muammolar, hattoki ommaviy madaniyat ham siyosiy tarixchilar

diqqat-e'tiboridan chetda qolmaydi. Tarix fanining bu tarmog'ini rivojlantirishda tarixchi E.Xobsboum katta o'ren tutadi. U tarixni faqatgina «oliy siyosat» sohasida emas, balki nizolar va kelishmovchiliklar, iqtisod, ijtimoiy psixologiya va boshqa bir qancha guruhlarga bo'lib o'rganishni taklif etadi.

Sintez – hodisalarni o'zaro bog'langan, bir butun holda tekshirish, olingan natijalarni umumlashtirish, ulardan bir butun xulosa chiqarish.

Sinxron uslub – sinxronlik xususiyatiga ega bo'lgan, sinxron ravishda (bir vaqtda, baravar) sodir bo'ladigan. Bir vaqtda sodir bo'lgan turli tarixiy voqealarni o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqot uslubi. Bir vaqtda sodir bo'lgan turli tarixiy voqealarni o'rganishga yo'naltirilgan. Jamiyatda har qanday hodisa o'zaro bog'liqligi sababli bu metoddan tizimli yondashishida foydalanish bu bog'liqlikni ochishga yordam beradi.

Bu esa u yoki bu mintaqada sodir bo'lgan tarixiy jarayonlarni tushuntirishga imkon yaratadi, shu bilan birgalikda ularning iqtisodiy, siyosiy hamda turli davlatlarning xalqaro aloqalariga ta'siriini kuzatish imkonini beradi.

Strukturalizm – tarixda tarixiy voqelik, hodisa va jarayonlarni ularning ichki tarkibiy jarayonlari va hodisalari tizimi, ularning o'zaro bog'lanishi va munosabatlarni tekshiruvchi sifatida qarash.

Subyektivlik – falsafa fanida tashqi, moddiy dunyo mavjudligini inkor etib, ular faqat odamlarning ongidagina mavjud deb qaraydigan falsafiy oqim; tarix fanida esa tarixiy voqelik va tarixiy jarayonlarga, ularning tadqiqi va talqini jarayonida xolis (obyektiv) bo'limgan, o'z mansubligi va dunyoqarashi jihatidan kelib chiqqan holdagi ilmiy bo'limgan yondashish.

Sfragistika – (yunoncha sphragis – muhr), sigillografiya (lotincha sigillum – muhr va yunoncha grafo – yozaman) tarix fanining muhrlarni o'rganadigan sohasi. Muhr deb qattiq materialdan yasalgan shtamp – matritsa va uning hujjatdagi izi, tasviriga aytildi.

Sfragistika XVIII asrda diplomatiyaning bo‘limi sifatida shakllangan va uning vazifasi hujjatning vaqtini aniqlash va undagi muhrga qarab haqiqiyligini tasdiqlashdangina iborat bo‘lgan. XIX asrning oxiridan boshlab, ilmiy doiralarga qazishmalar chog‘ida topilgan va hujjatdan alohida bo‘lgan muhrlarning (qadimgi Misr, Bobil, Hind, Parfiya, Rus muhrlari va h.k.) ko‘plab kirib keliishi bilan sfragistika alohida fan sifatida yangi davrni boshladи. Davlat apparatining har qanday islohotlarini xronologik turkumlash orqali qadim davlat institutlarining shakllanishini o‘rganishda sfragistikaning ahamiyati kuchaydi.

Sfragistika fanining asoschisi sifatida Mixail Geyneksiy (1709) ning nomini keltirish mumkin. Iogann Geymann, F.Gerken, Gatterer, Ledebur, knyaz Gogenloe-Valdenburg, Zeyler (sfragistikaga oid «Abriss der Sphragistik» (Vena, 1884) va «Geschichte der Siegel» (Lits., 1894) asarlarining muallifi) kabi olimlar bu fanning rivojlanishiga katta hissa qo‘sishgan. Sfragistikaning o‘rganish obyekti haqidagi fikrlar fransuz olimi G.Shlyumberje, rus olimi N. P. Lixachyovlarning asarlarida o‘z ifodasini topdi. Sfragistikaning vazifasi hujjatlardagi muhrlarni o‘rganish orqali ularning aslini aniqlash va tasdiqlashdan iborat. Ammo uning vazifasi faqat shu bilangina cheklanmaydi. Davlat va davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va davlatning shakllanish bosqichlarini o‘rganishda ham sfragistik ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega.

Sfragistika materiallari amaliy san’at, geraldika, numizmatika, onomastikani o‘rganishda, qadimgi arxivlar tarkibini aniqlashda ham muhim manba hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy-ma’lumotnomा apparati — eslatma va izohlar (ya’ni tadqiqot ishining sahifasi ostidagi izohlar, shu sahifada keltirilgan matnni (ma’lumotni) izohlar bilan ta’minlash va matnga (yoki uning muallifiga yoki manbasiga) izohlar berish), iqtibos yoki havola (ssilka) keltirish (ya’ni, tadqiqot ishining sahifasi ostida shu sahifada keltirilgan matnning (ma’lumotni) to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliги, ishonarli yoki ishonarli emasligi kabi

xususiyatlarini aks ettirishda, yoki tadqiqotchi o‘zining fikrini boshqa manbalardagi ma’lumotlar va dalillar bilan quvvatlantirmoqchi bo‘lganida yoki isbotlamoqchi bo‘lganida birlamchi manbalarga tayanishi va birlamchi manbalardan dalillar keltirishi). Shuningdek, tadqiqotning ilmiy ma’lumotnomma apparatiga tadqiqotga jalg etilgan va tadqiqot jarayonida foydalanilgan manbalar hamda adabiyotlar ro‘yxati, tadqiqot obyektining ayrim alohida o‘ziga xos xususiyatlari va jihatlarini ko‘rsatib beruvchi, tadqiqot matnida keltirilgan ma’lumotlarni mustahkamlovchi, tadqiqotning ilmiy ahamiyatini oshirishga xizmat qiluvchi manbalarning nusxalari, hujjatlarning nusxalari, fotosuratlar, jadvallar, chizmalar, lug‘atlar, izohlar, so‘rovnomalar natijalari va tadqiqot mazmunidan kelib chiqqan holda boshqa ma’lumotlardan tarkib topgan ilovalar ham kiradi.

Tamoyillar – tadqiqotchiga nisbatan qo‘ylgan talablar. Bilish tamoyillari tadqiqotchiga tadqiqot jarayonidagi vazifalarni bir maromda ma’lum tartiblarga asoslangan holda amalga oshirishida zarur bo‘ladigan omillardir. Ular tadqiqotchining u yoki bu tarix maktablari, falsafiy yo‘nalishlarga mansubligi va dunyoqarashi, fikrlashi va tafakkuridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Tamoyillar uslublar bilan mustahkam o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lganligi uchun ayrim hollarda ularni bir-biri bilan adashtirish holatlari ham uchraydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish o‘rinlikki, tamoyillar uslublarga nisbatan birmuncha murakkab va keng tushuncha bo‘lib, bir tamoyil o‘ziga bog‘liq holda bir necha uslublarni shakllantirishi mumkin, ayni vaqtida esa bir uslub bir necha tamoyillarga xizmat qilishi mumkin.

Tarix – (yunoncha «historia» – o‘tmishni tavsiflash, hikoya qilish). Ijtimoiy fanlar majmuasi (tarix fani) bo‘lib, insoniyatning butun o‘tmishi davomidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotidagi jarayonlar va voqeа-hodisalarни aniq-konkret holda va turli uslublar yordamida davrlarga bo‘lingan va umumiyl holda o‘rganadi. Tarmoqlari: iqtisodiy tarix, siyosiy tarix, madaniyat tarixi, harbiy tarix, diplomatiya tarixi, tarixiy geografiya va bosh-

qalar. Tarkibiy qismlari maxsus tarixiy fanlar hamda arxeologiya va etnologiya. Fan va madaniyat tarixi, san'at tarixi shu sohalar bilan bog'liq holda o'rGANiladi.

Tarixiy informatika – maxsus fan sifatida shakllantirila bo'rib, uning jihatlariga aniqlik kiritila boshlandi. Unga ko'ra, tarixiy informatika tarix fani va ta'limi jarayonlarini axborotlashtirishga yo'naltirilgan ilmiy fan bo'lib, uning tarkibiga hamma turdag'i tarixiy manbalarning elektron shakllarini yaratish va shakllantirish borasidagi barcha nazariy va amaliy bilimlar kiritildi. Bunda uning nazariy asosi sifatida nazariy manbashunoslik va axborotning zamonaviy tamoyillari, amaliy asosi sifatida esa kompyuter texnologiyalari va u bilan bog'liq jihatlari ko'rsatildi. Tarixiy informatikaning fan sohasidagi qiziqishlari sifatida maxsuslashtirilgan dasturlash ta'minotlari, ma'lumotlarning banki va tarixiy bazalarining shakllantirilishi, tizimlashtirilgan, matnli, tasviriy va boshqa manbalar va ulardagi axborotni tasavvur qilishda axborot texnologiyalarining qo'llanilishi, tarixiy jarayonlarning kompyuterlashtirilgan modellarini yaratish, Internetdan foydalanish va tadqiqotlar jarayonlari-da uning qo'llanilishi, multimedia vositalaridan foydalanish va uni rivojlantirib borish, shuningdek ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish etib belgilandi (L.I.Borodkin).

Tarix falsafasi – falsafa fanining bir bo'limi bo'lib, tarixning mazmuni, uning qonuniyatlari, insoniyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari va tarixiy bilish masalalari bilan shug'ullanadi.

Tarix falsafasining namoyandaları («tarix falsafasi» atamasi fanga Volter tomonidan kiritilgan) tarixni harakatlantiruvchi kuch bu – ilohiydir (Avgustin), tarixni harakatlantiruvchi kuch bu – ilohiy ongdir (I.G.Gerder), tarixni harakatlantiruvchi kuch bu – absolyut (mutlaq) ruhdır (Gegel), tarixni harakatlantiruvchi kuch bu – insonning o'zgarmas tabiatı va uning tabiiy shart-sharoitlaridir (ma'rifatparvarlar, L.Feyerbach) mazmunidagi turli falsafiy yondashuvlarni ilgari surganlar.

Tarix fani – 1. Bu ilmiy ijtimoiy institutlar, professional tadqiqotchilar, ilmiy bilish faoliyati turlari, aniq (konkret) ja-

miyatlar va ularning o‘tmishdagi va bugungi kundagi taraqqiyoti jarayonlari, shuningdek yordamchi tarix fanlari hamda aniq (konkret) tarixiy va haqqoniy ilmiy bilim olishga yo‘naltirilgan, bu orqali ilmiy bilishga erishilgan faoliyat va uni qo‘llash uchun zarur bo‘ladigan faoliyatlar tizimidir. 2. Kishilik jamiyatining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida sodir bo‘lgan baracha voqeа, hodisa, jarayonlarni o‘rganadigan fan.

Tarix fani va tarixiy bilimlarning boshqa shakllari – ilmiy tarixiy bilim – bu obyektiv (xolisona), tizimlashtirilgan, tarixiy jarayonlar, ulardagi konkret jamiyat yoki jamiyatlar taraqqiyoti haqidagi ishonchli va konkret bilimlar.

Kundalik tarixiy bilim (ong) – ilmiy tarixiy bilimlardan keskin ravishda farqlanib, uzuq-yuluq, tizimlashtirilmagan shakldagi, ishonchli bo‘lmagan, subyektiv qarashlarga moyil bo‘lgan, tarixiy jarayonlarni faqatgina hodisa darajasida baholaydigan, jiddiy sabab-oqibatli aloqadorlikni aks ettirmaydigan tarixiy bilim.

Tarix fani va tarixiy bilishning asosiy maqsadi – tarixiy bilishning asosiy maqsadi – aniq (konkret) jamiyat taraqqiyoti haqida ishonchli tarixiy, obyektiv (xolis), tizimli, tarixiy haqiqatga erishish hisoblanadi.

Tarix fani metodologiyasi – ilmiy bilish faoliyati bo‘lib, tarixiy tadqiqotlarning ishlanishi, tahlili va o‘rganilishiga qaratilgan faoliyatdir. Metodologiya ilmiy muammolarning qo‘yilishi xarakterini aniqlaydi, ularning yechilishidagi eng maqbul prinsiplar va yo‘nalishlarni aniqlaydi, tadqiqot metodlarini tanqidiy baholaydi va tahlil qiladi.

Tarix fani obyekti va predmeti – tarix fani obyekti – bu insoniyatni tashkil etuvchi jamiyatlar majmuyidir. Tarix fani predmeti – bu aniq (konkret) jamiyat va uning shakllangandan boshlab tanazzuligacha zamon va makondagi taraqqiyoti bir butun holatda va ayni vaqtida uning ichki tarkibiy tuzilishlari, shuningdek, boshqa aniq (konkret) jamiyatlar bilan aloqadorligi va munosabatlaridir.

Tarix fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi – ijtimoiy fanlar o‘rganish predmetlariga ko‘ra bir-birlaridan farqlansalarda umumiy tadqiqot obyektlariga ega bo‘ladilar. Har qanday ijtimoiy fan jamiyatning to‘lig‘icha, ayni vaqtida u yoki bu sohalarning umumiy holatda va ayni vaqtida o‘z xususiyatlardan kelib chiqqan holda o‘rganadilar. Bunda tarix fani esa aniq va konkret jamiyatning taraqqiy etishini (yoki tanazzulini) to‘laqonli ravishda va ayni vaqtida u yoki bu holatiga ko‘ra jamiyat tizimining barcha bosqichlarini, shuningdek aniq bir inson hayotiga cha bo‘lgan sohalarni tadqiq etadi. Bunda quyidagi fanlar bilan sohalar bo‘yicha aloqadorlik asosiy omillar hisoblanadi:

Iqtisod – umumiy aloqadorlikda bo‘lib, zamonaviy jamiyatning iqtisodiy hayoti sohasini o‘rganadi.

Siyosatshunoslik – umumiy aloqadorlikda bo‘lib, zamonaviy jamiyatning siyosiy hayoti sohasini o‘rganadi.

Davlat va huquq nazariyasi – umumiy aloqadorlikda bo‘lib, davlat taraqqiyoti va rivojlanishini umumiy (mukammal) holda o‘rganadi.

Madaniyatshunoslik – umumiy aloqadorlikda bo‘lib, madaniy hayot sohasidagi alohida va konkret shakllanishi, tuzilishi va taraqqiy etishini o‘rganadi.

Fanshunoslik – umumiy aloqadorlikda bo‘lib, fanning alohida va konkret rivojlanishi, shu jumladan tarix fanining rivojlanishini o‘rganadi.

Sotsiologiya – umumiy aloqadorlikda bo‘lib, zamonaviy jamiyatning tuzilishi va vazifalari, jamiyatdagi ijtimoiy guruqlar, ijtimoiy ong mazmuni va o‘zgarishlarini o‘rganadi.

Falsafa va falsafiy fanlar – asosiy nazariy – metodologik yo‘nalishlar bo‘yicha falsafiy dunyoqarashni, tarix fanining gne-seologik asoslarini shakllantiradi:

ontologiya – kategoriyalar yordamida jahoning o‘zida umumiy tuzilishini aks ettiruvchi falsafiy manzarasini, jumladan jamiyat va uning aniq hamda konkret tarixiy taraqqiyoti haqidagi qarashlarni shakllantiradi;

gneseologiya – dunyoni, jumladan tarixiy jarayonlarni anglash, bilishning chegaralari, me’yorlari va imkoniyatlarini asoslab beradi;

mantiq – ilmiy tarixiy bilish uchun zarur bo‘lgan fikrlashning shakllari amalga oshirilishining to‘g‘ri qo‘llanilishini ajratib, asoslab beradi;

epistemologiya – ilmiy bilishdagi umumiylikni o‘rganadi, ilmiy bilish nazariyasini ishlab chiqadi, jumladan ilmiy tarixiy bilish nazariyasini o‘rganadi;

ijtimoiy falsafa – zamonaviy jamiyatning tuzilishi va vazifaviy xususiyatlaridagi umumiylikni o‘rganadi va ayni vaqtida yangi va eng tarixning nazariy asoslarini yaratishda asosiy o‘rin tutadi;

tarix falsafasi – umumjahon tarixiy jarayonlaridagi umumiyligi o‘rganadi, tarixiy jarayon nazariyasi uchun ilmiy dunyoqarash asoslarini yaratadi.

Tarix fanining ijtimoiy vazifalari – tarix fani o‘zining asosiy maqsadiga erishish jarayonida: 1. Haqiqiy ijtimoiy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirish 2. Qaror topgan jamiyatning taraqqiyotini oldindan ko‘ra bilish. 3. Jamiyat taraqqiyoti va uning ichki sohalari va jarayonlarini boshqarish kabilalar uchun ilmiy shart-sharoitlar yaratadi.

Tarix fanining sohalari – tarix fani tarixiy bilishning shakli yoki fanning predmetiga asoslangan holda ikki sohaga bo‘linadi:

Tarix fanining asosiy sohalari.

Yordamchi tarix fani sohalari.

Yordamchi tarix fani sohalari tarixiy jarayonlarni o‘rganmaydi, ular tarix fanining asosiy sohalarini tadqiq etish jarayoni uchun ilmiy-bilish xususiyatiga ega bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib berib, umumiyligi yordamchi tarix fani sohalari hamda maxsus yordamchi tarix fani sohalariga bo‘linadi:

Umumiyligi yordamchi tarix fani sohalari:

tarix fani metodologiyasi.

tarixiy bibliografiya.

tarixshunoslik (umumiy va muammoviy tarixshunoslik sohalariiga bo'linadi:

umumiylar – tarixi fanining tarixini o‘rganadi.

muammoviy – tadqiq etilayotgan ilmiy muammoning o‘rganilishi tarixini hamda uning o‘rganilishi darajasini aniqlab beradi).

Manbashunoslik – umumiylar va maxsus manbashunoslik tar-moqlariga bo‘linadi;

Umumiy manbashunoslik – tarixiy manbalarning shakllari, mohiyati va tarixni o‘rganishdagi vazifalarini, shuningdek, ularning o‘rganish metodlarini o‘rganadi.

Maxsus manbashunoslik fanlari alohida xususiyatga ega bo'lgan tarixiv manbalarni o'rGANADI va ularga quvidagilar kiradi:

Sfragistika – muhrlarni o'rganuvchi yordamchi tarix fani sohasi, muhrshunoslik

Geraldika – gerblarni o‘rganuvchi yordamchi tarix fani sohasi, gerbshunoslik Qarang: Gerladika

Numizmatika – tangalar va ularning tarixini o’rganuvchi yordamchi tarix fani sohasi, tangashunoslik. Qarang: numizmatika.

Tarix fanining tarmoqlari – tarix fani ko‘p tarmoqli fan bo‘lib, inson va jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq bir qator sohalar rivojlanishi jarayonlarining umumiyligi mahsulidir. Shundan kelib chiqqan holda quyidagilarni tarix fanining asosiy tarmoqlari sifatida ko‘rsatish o‘tish mumkin:

Harbiy tarix

Sivosiy tarix

Iqtisodiy tarix

Taqimay tarix

Diniv tarix

Billy Carr
Fan tariixi

Avollar tarixi va gender tadqiqotlari

Şəhər tarihi

Sənət tarixi
İntelлектуal tarix

İntelijençial tarix Mədəniyyət tarixi

Diplomatika tarixi va boshgalar

Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari tarixni xronologik davrlashtirish, ya'ni qadimgi davrlar, o'rta asrlar, yangi va eng yangi davrlar tarixiga bo'lib o'rganish, shuningdek, alohida olin-gan davlatlar, mintaqalar tarixiga va boshqalarga asoslangan hol-da o'rganish mumkin. Jahon tarixini global tarzda keng va atrof-licha o'rganish va tadqiq etish bilan bir qatorda alohida insonlar, shaxslar, voqealar, qishloqlar, shaharlar tarixi bilan bog'liq ki-chik-kichik tarixiy tadqiqotlarni (mikrotarix) ham amalgamashirish mumkin.

Tarixda matematik uslublar – matematiklashtirish (matematizatsiya) va kompyuterlashtirish (kompyuterizatsiya) ilmiy- texnikaviy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlaridir. Matematik uslublardan tarix fani tadqiqotlarida foydalanish haqida maxsus asarlar ham yozilgan (М. Ковалъченко. Количественные методы в историческом исследовании. –М., 1984; Математические модели исторических процессов. – М., 1998). Matematik uslublar tarixiy jarayonlaridagi qonuniyat va an'analarni aniqlash va o'rganish va xulosalar chiqarishga yordam beradi (masalan, iqtisodiy taraqqiyot darajasini aniqlash, aholini ro'yxatga olish, saylovlarning natijalarini tahlil qilish). XIX asr oxiri–XX asr boshida fransuz olimi Seminon fransuz xalqining oylik statistikasini hisoblab chiqib matematik uslublarga asos solgan. XX asrda bu usul rivojlanadi. II jahon urushidan keyin AQSH olimlari bu usuldan foydalana boshlaydilar. Ular matematik uslublardan elektron hisoblash mashinalari bilan bog'liq holda foydalanganlar. Yangi fanlar paydo bo'la boshlagach, tarix yangi uslublarda ko'rib chiqila boshlangan. D.Nort va G.Fogel matematik uslublardan foydalangani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lishgan. Ba'zi olimlar agar hamma jarayon raqamlarga aylantirib yuborilsa, tarixda tirik inson qolmaydi, boshqalari matematik uslublarsiz umumiyligi xulosaga kelib bo'lmaydi, degan fikrlarni bildirganlar. XX asrning 60-yillaridan boshlab matematik uslublar tarix fani tadqiqotlarida keng ko'lama qo'llanila boshlandi. Matematik uslub-

larlardan foydalanib, tarixiy jarayonlar, voqealarni matematik modellashtirish (tiklash) mumkin.

Tarixiy antropologiya – (Historical anthropology) – tarixiy antropologiya fan bo‘lib, uning asosiy maqsadi antropologik tadqiqotlar tarkibidan tarixiy axborotni (ma’lumotlarni) ajratib olish, tanlab olingan axborotni tarix fani ehtiyojlari uchun jalb etish, talqin qilib berish.

Tarixiy geografiya – (Historical geography) – tarix va geografiya fanlari kesishuvidan bilim sohasi bo‘lib, aniq bir hududning aniq bir taraqqiyot bosqichini o‘rganadi.

Tarixiy sotsiologiya – (Historical sociology) – sotsiologiyaning bir yo‘nalishi bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining, ijtimoiy tizimlarning, institutlar va hodisalarning tarixiy jarayonlarini o‘rganadi. Tarixiy sotsiologiya tarixiy taraqqiyotning sotsiologik nazariyalari va tarixiy ma’lumotlarning sotsiologik tahlilini ishlab chiqadi.

Tarixiylik (tarixiylik tamoyili) – Historism – obyektiv voqelikni ilmiy bilish tamoyili bo‘lib, unga muvofiq obyektlar va hodisalar tarixiy taraqqiyot qonuninyatlari asosida, ularning konkret vaziyatlardagi mavjudligidan kelib chiqib ko‘rib chiqilishi lozim. Tarixiylik tamoyili shuningdek, tadqiq etilayotgan obyektlarning va hodisalarning kelajak taraqqiyoti haqida ham ma’lum bir fikrlarni va xulosalarni bildirishi mumkin.

Tarixiy-tizimlilik uslubi – turli darajadagi ijtimoiy-tarixiy tizimlarning mavjudligidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, voqelikning asosiy komponentlari - individual va takrorlanmas hodisalar, voqealar tarixiy vaziyatlar va jarayonlar ijtimoiy tizimlar sifatida ko‘rib chiqiladi.

Tarixiy-tizimli uslub tarix fani tadqiqotlarida matematik uslublarni va modellashtirishni qo‘llash bilan bog‘liq holda qo‘llanila boshlandi. Mazkur uslub turli darajadagi ijtimoiy-tarixiy tizimlarning mavjudligidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, voqelikning asosiy komponentlari (tarkibiy qismlari) – individual va takrorlanmas hodisalar, voqealar tarixiy vaziyatlar va jarayonlar ijtimoiy tizimlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Ularning barcha-

si vazifalari va bir jarayonda sodir bo‘lish (namoyon bo‘lish) ketma-ketligi jihatdan bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Bu uslubdan foydalanishning dastlabki bosqichida tadqiq etilayotgan tizimni tizimlar umumiyligidan va uning tarkibidan ajratib olish kerak. Tadqiq etilayotgan tizim ajratib (belgilab) olingandan so‘ng uni tuzilish jihatdan tahlil qilish va tizimlarning tuzilishi va ular tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlab olish kerak bo‘ladi. Bu jarayonda mantiqiy va matematik uslublar qo‘llaniladi. Ikkinci bosqichda o‘rganilayotgan tizim (tuzilish)ning shu tizim (tuzilish) mansub bo‘lgan umumiyl tizim (tuzilish) bilan bog‘liqligi va uning tarkibiy qismidagi o‘rnii va vazifaviy mohiyati hamda ahamiyati aniqlanadi. Mazkur uslubni tarixiy tadqiqotlar jarayonida qo‘llashning murakkabligi shundaki, ijtimoiy tizimlarning murakkab tuzilishga ega ekanligi va oddiy tizim (tuzilish) dan murakkab tizim (tuzilish)larga (turar joy – qishloq – viloyat kabi) o‘tib borish jarayonlaridir. Tadqiqotlar jarayonida agar hodisalarning mohiyatini yoritish yoki aniqlash imkonii bo‘lmagan holda umumfan uslublari va maxsus tarixiy uslublardan foydalanish tavsiya etiladi. Sinxron tahlilda nisbatan ko‘proq samara ga erishishi mumkin, biroq bu holda taraqqiyot jarayoni ochilmay qolishi mumkin. Tizimli – tuzilish jihatdan va funksional jihatdan tahlil esa haddan tashqari abstraktlashtirishga va formal lashtirishga olib kelishi mumkin.

Tarixiy manbalar – kishilik jamiyati o‘tmishini hamda tarixiy jarayonlarni o‘rganish imkonini beradigan barcha obyektlar, ya’ni inson qo‘li bilan yaratilgan narsalarning hammasi, shuningdek, atrof-muhit bilan munosabati natijalari, moddiy madaniyat namunalari, yozma yodgorliklar, urf-odatlar, marosimlar va boshqalar. Tarixiy manbalar miqdori chegarasiz, biroq turli tarixiy davrlarga oid bo‘lgan manbalar miqdori bir-biridan farqlanadi.

Tarixiy taqqoslash uslubi – tarixiy jarayon tafsilotlari aniq va ravshan bo‘lmaganda uning mohiyatini ochishga, shuningdek, umumiylikni, qonuniylikni, takrorlanuvchanlikni aniqlash ham-

da umumlashtirishga va tarixiy parallellikni yuzaga chiqarish uchun qo'llaniladi.

Taqqoslash uslubi dastlab ma'rifatparvarlar tomonidan qo'llanilgan. F.Volter birinchilardan bo'lib o'zi tomonidan yaratilgan tarixiy kitoblarida taqqoslash uslubini qo'llagan, biroq bunda bu uslub tarixiy uslubga nisbatan ko'proq vosita sifatida qo'llanilgan. XIX asr oxirlariga kelib bu uslub tarixiy tadqiqotlarda, ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy tarix sohalarida ancha keng o'rinni tuta boshladi. Ikkinchisi jahon urushidan keyingi yillarda ayniqsa komparativ uslub keng qo'llanila boshlandi. Amalda bironqa ham tadqiqot bu uslublarni qo'llamasdan amalga oshirilmaydigan bo'ldi.

Daliliy materiallarni, ma'lumotlarni yig'ish, dalillarni tizimlashtirish va tahlil qilish jarayonida tarixchi ko'pgina jarayonlarning mazmunidagi o'xshashlikni, biroq ayni vaqtida jarayonlarning zamon va makon bo'yicha turliligi, bir-biridan farqlanishi omillari sababli turlilik kasb etishini va yana ayni vaqtida shaklan umumiylilikni ko'rishi mumkin.

Mazkur uslubning bilish jarayonidagi mohiyati uning tarixiy jarayonlarning mohiyatini tushuntirib berish uchun yo'naltiradigan imkoniyatlaridadir. Jarayonning mohiyatini anglash va tushunish uchun uning o'xshashlik va farqlanuvchi xususiyatlarini tushunish kerak. Bu uslubning mantiqiy asosini analogiya tashkil etib, tadqiqot obyektidagi biror-bir o'xshashlik asosida jarayonning boshqa jihatlari haqida ham xulosalar chiqarilishi mumkin.

Tarixiy taqqoslash uslubi tarixiy jarayon tafsilotlari aniq va ravshan bo'lmaganda uning mohiyatini ochishga, shuningdek, umumiylilikni, qonuniylilikni, takrorlanuvchanlikni aniqlash hamda umumlashtirishga va tarixiy parallellikni yuzaga chiqarish uchun imkon beradi. Bunda albatta bir qator talablarga rioya etishga to'g'ri keladi. Jumladan, avvalo taqqoslash tarixiy jarayonning shaklan o'xshash jihatlarini emas, balki mohiyatini aks ettiruvchi aniq va konkret dalillar (faktlar) bilan amalga oshirilishi lozim, ikkinchidan, hodisalar va jarayonlarning tipologiyasi.

yasi va davrini yaxshi bilish va tushunish lozim. Taraqqiyotning bir bosqichida yoki turli bosqichlarida bo‘lgan bir xil va turli xil hodisalarni taqqoslash mumkin. Bir holatda mohiyat o‘xshashlik asosida ochiladigan bo‘lsa, boshqa holatda turlilik asosida aniqlanishi mumkin. Biroq ayni vaqtida tarixchidan tarixiylik tamoyilini unutib qo‘ymaslik talab etiladi. Tarixiy taqqoslash uslubini qo‘llashda bir qator cheklanishlarga duch kelish mumkin. Bu uslub real voqelikning turliligini tushunishga imkon bersada, konkret shakldagi xususiyatini ko‘rsatib berolmaydi. Shuningdek, tarixiy taraqqiyot sur’atining tadqiqida ham tarixiy taqqoslash uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Mazkur uslubning rasman (shunchaki qo‘llash, qo‘llanishi «kerak» bo‘lganligi uchun qo‘llash) qo‘llanilishi xatoliklarga olib kelishi, ko‘pgina tarixiy hodisalar mohiyatining noto‘g‘ri talqiniga va tavsiflanishiha olib kelishi mumkin. Tarixiy taqqoslash uslubidan boshqa tadqiqot uslublari bilan birgalikda foydalanish mumkin. Afsuski, tarixchilar tomonidan tarixiy taqqoslash uslubi ko‘p hollarda analogiya va solishtirish bilangina qo‘llaniladi, u tadqiqotlar jarayonida to‘liq yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan jihatlarini inobatga olgan holda kamdan kam qo‘llaniladi.

Tarixiy xaritalar (kartalar) – tarixiy voqealar va jarayonlar, ularning borishi, sodir bo‘lgan joylari, masalan, qadimgi sivilizatsiyalar, madaniy markazlar, davlatlar, jang va to‘qnashuvlar bo‘lgan joylar, savdo yo‘llari va chegaralar kabilarni aks ettiradi va voqelikni tasavvur qilishda yordam beradi.

Tarixiy-genetik uslub – tarixiy-genetik uslub va retrospektiv uslublar keng tarqalgan bo‘lib, ular tarixiy voqealarning tarkibi, vazifalari va o‘zgarishlarni ketma-ket ochib berishga yo‘naltirilgan. Tarixchi I. Kovalchenkoning ta’kidlashiga ko‘ra mazkur uslublar «mantiqiy tabiat bo‘yicha bu analitik va induktiv, axborotning bayon etilishga ko‘ra esa tavsifiydir». U sabab va oqibat o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, u yoki bu tarixiy jarayonlarning kelib chiqishini tahlil qilishga asoslanadi. Bunda tarixiy voqea ham individual, ham konkret holatda ko‘rinadi.

Bu metoddan absolyutlashtirilgan (mutlaqlashtirilgan) holatda foydalanish ayrim xatoliklarga olib kelishi mumkin. Tarixiy jaryonlarni o'rGANISHGA asosiy urg'u berilgan holda bu jarayonlarning barqarorligini yetarlicha baholash ham mumkin emas. Shuningdek, voqealarning individualligi va takrorlanmasligini ko'rsatgan holda uning umumiyligini kasb etishini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bunda empirizmdan saqlash tavsiya etiladi.

Tarixiy-tipologik uslub – tipologiya tarix fanida tarixiy hodisalar va jarayonlarni umumiy alomatlari, jihatlari, mohiyatiga qarab ilmiy asosda guruhlarga ajratish, tasnif (klassifikatsiya) qilish. Tipologik uslub tarixiy jarayonlarning mohiyatiga asosan tahlil qilishdir (I.Kovalchenko). Pozitivistlarning ta'kidlashicha, rasmannan tavsiifiy klassifikatsiyalash natija bermaydi. Subyektiv yondashuv tarixchi tafakkuridagina tiplarni shakllantirishga olib keladi. M.Veber tomonidan ilgari surilgan «ideal tiplar» nazariyasi sotsiologlar tomonidan uzoq vaqtgacha qabul qilinmadi va soddashtirilgan holda talqin qilindi. Bunda asosan gap bugungi kunda ma'lum bo'lgan modellasshtirish haqida borib, hozirgi vaqtida tarixchilar bu uslubdan samarali foydalanmoqdalar.

I.Kovalchenko tomonidan taklif etilgan guruuhlar (turlar) deduktiv yondashuv va nazariy tahlil jihatlari bilan ajralib turadi. Sifat xususiyati bilan aniqlashtirishning belgilari ajratib ko'rsatilib, tadqiqot obyektining u yoki bu tipga mansubligini aniqlash mumkin ekanligi ta'kidlanadi. Bu yondashuv keyinchalik unga matematik uslublarni tadqiqot jarayonida qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qilgan edi.

Tarixshunoslik – (yunon tilida «historia» – tarix va «grapho» – yozaman) – fanning tarixini o'rGANADIGAN fan. Aynan ma'nodagi tushunchasi esa ilmiy tadqiqotning bir qismi bo'lib, aniq ilmiy mavzuning o'rGANILISHI darajasini ochib beradi.

Tasniflash – qarang: klassifikatsiya.

Tahlil – qarang: analiz.

Tekstologiya – matnshunoslik. Yordamchi tarix, filologiya, madaniyatshunoslik fanlari sohasi bo'lib, yozuv, adabiyot, folk-

larning yaratilishini o'rganadi, ularning tanqidiy tahlil qiladi va «tekshiruv»dan o'tkazadi, matnlarni keyingi tadqiqotlar va nashr-lar uchun tayyorlashni amalga oshiradi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyili – sistema – muayyan tarzda o'zaro bog'langan va bir qadar yaxlitlikni tashkil etadigan elementlar majmuyi. Tarmoq, shoxobcha, birlik, butunlik tashkil etuvchi narsalar majmuyi. Tarix fanida umumiylar yaxlit tarixiy jarayonlarning tarkibini tashkil etuvchi tarixiy jarayonlar, voqealar, hodisalar majmuyi.

XIX asrda tarixchilar jamiyatni, tarixiy voqealarni tizimlilik asosida (sistemalashtirib) o'rgana boshlagan bo'lsalar, XX asr ga kelib barcha fanlar tadqiqotlarida tizimlilik uslubidan foydalanish asosiy o'rinni tutib bora boshladi, bunda tadqiqot obyektiga sababiylik va kelib chiqishidagi hamda vazifaviy aloqadorligi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkab tuzilmali tizim sifatida qaraldi.

Tipologiya – tarix fanida tarixiy hodisalar va jarayonlarni umumiylar alomatlari, jihatlari, mohiyatiga qarab ilmiy asosda guruhlarga ajratish, tasnif (klassifikatsiya) qilish. Tipologik uslub tarixiy jarayonlarning mohiyatiga asosan tahlil qilishdir (I.Kovalchenko). Yana qarang: klassifikatsiya.

Tipologiyalash – tarixiy jarayonlar va hodisalarni umumiylar alomatlariga asoslanib guruhlarga, turkumlarga ajratish. Yana qarang: klassifikatsiya, tipologiya.

Uslub – qarang: metod

Fan tarixi – tarix fani ilm-fanga kashfiyotlar ro'yxati sifatida emas, balki inson faoliyatining mahsuli va ayni vaqtida jamiyat va madaniy hayotning ajralmas bir bo'lagi sifatida qaraydi. Ilm-fan ijtimoiy va mafkuraviy xususiyatga ega. Ayni vaqtida tarixchilardan ilm-fanning ilmiy bo'Imagan tafakkur mahsuli bo'lgan (astrologiya, alkimyo va boshq.) fanlarni ilmiy fanlar bilan aralashtirib yubormaslik talab etiladi. Bu sohaning tarixiy tadqiqotlari jarayonida ilm-fan va jamiyat o'rtasidagi aloqalar va bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilishi kerak.

Fanlararo yondashuv – qarang: Tarix fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Fanning metodologiyasi – fanning ilmiy tadqiqot komponentlariga – tadqiqot obyektiga, tadqiqot predmeti va predmet tahlili-ga, tadqiqotning (yoki muammoning) vazifalariga, mazkur qo‘yilgan muammoning yechimini topish yoki tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarning hal etilishida muhim o‘rin tutuvchi va eng samarali hamda maqbul hisoblangan tadqiqot vositalari (metodlari)ning umumiy xususiyatlariga, tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarning hal etilishi jarayonida tadqiqotchi tomonidan amalga oshiriladigan ishlar va tadqiqotlar bosqichlarining ketma-ketligini shakllantirish kabi omillarga tavsif beradi. Fan metodologiyasining eng muhim vazifalaridan biri tadqiqot muammosining qo‘yilishi, ilmiy nazarriyalar va tadqiqot predmetining tanlab olinishi va tartibga solinishi, shuningdek, qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalarning ularning haqqoniyligi nuqtayi nazaridan tekshirilishi, ya’ni o‘rganilayotgan obyektning o‘rganilishini amalga oshirish sanaladi.

Fatalist – taqdirga ishonuvchi, taqdir, peshanaga yozilgani, qismatga bitilgani sodir bo‘ladi, deb hisoblaydi, fatalistlar (tarix fanida) voqealar sodir bo‘lishi muqarrar, uni muhokama qilish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblovchilar. Fatalistlarning fikri-cha, tarix o‘zining avvaldan ma’lum yo‘lida g‘ildirab kelaveradi, unda hamma narsa qonuniy va zaruriy, inson esa shiddat bilan sodir bo‘layotgan bu jarayonda mayda va arzimas payrahadir (ya’ni inson tarixiy jarayonning sodir bo‘lishida hech qanday rol o‘ynamaydi va unga ta’sir ko‘rsata olmaydi) deb hisoblaydilar.

Feminizm – yunon mifologiyasidagi adolat ma’budasi Femida nomi bilan ramziy bog‘langan bo‘lib, XX asrda ayollarning erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishi g‘oyasi.

Xronologik uslub – voqealarning ketma-ket sodir bo‘lishiga asoslangan, voqealarini xronologik tartibda bayon qilishga yo‘naltirilgan tarixiy tadqiqot uslubi.

Har bir tarixchi tomonidan qo‘llanilib, tarixiy jarayonlarning vaqt bo‘yicha (xronologik) ketma-ketlikda o‘rganish imkonini

beradi. Biroq bunda e'tiborga molik faktlarni diqqatdan chetda qoldirmaslik kerak. Ayrim hollarda, ya'ni tarixchilar tomonidan ayrim dalillarning (faktlarning) mazkur tizimga jalb eta olmagan hollarida tarixiy jarayonning tavsifidagi noaniqlikka yo'l qo'yili-shi mumkin. Bu uslubning bir ko'rinishi muammoviy-xronologik uslub bo'lib, yirik tadqiqot mavzusini tadqiqot jarayonida bir necha qismga bo'lib, ularning har biri bo'yicha alohida xronologik jihatdan ketma-ketlikda tadqiqot amalga oshiriladi.

Xronologiya – (yunon. xronos – vaqt, logos-tushuncha, bilim; vaqt haqida tushuncha) qadimgi xalqlar orasida va mam-lakatlarda amalda bo'lgan yil hisobi va taqvimni o'rganuvchi soha. Muayyan bir vaqtdan boshlab tarixni hisoblab borish haqidagi fan, voqealarning tarixi, vaqtin ketma-ket ko'rsatib tuzilgan jadval yoki yozilgan ro'yxat.

Abu Rayhon Beruniyning «Osor ul-boqiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») nomli asari turli taqvimlarni o'rganishga bag'ishlangani uchun Yevropada «Xronologiya» nomi bilan mashhur.

Harbiy tarix – tarix fanining eng qadimiy tarmoqlaridan biri-dir. Hatto «tarixning otasi» Gerodot va boshqa antik davr tarixchilari ham qadimda sodir bo'lgan urushlar haqida alohida va ko'plab ma'lumotlar yozib qoldirganlar. XVIII asrdan boshlab esa harbiy tarix harbiy to'qnashuvlar tarixi sifatida rivojiana boshladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlab, urushlar xususiyatidagi yuzaga kel-gan o'zgarishlar ta'sirida harbiy tarix sohasida nafaqat harbiy soha-ga aloqador masalalarning o'zinigina, balki jamiyat taraqqiyotiga alo-qador masalalar o'rganila boshlandi. Ikkinci jahon urushidan so'ng, harbiy tarix fani sohasi tarkibiga urushayotgan mamlakatlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o'rganish sohalari ham qo'shildi. Hozirgi vaqtida harbiy tarix predmeti birmuncha kengroq tusda, ya'ni «urush va jamiyat» tushunchasiga ega bo'lib, ayrim vaqtlarda harbiy mutaxassislar harbiy harakatlarni o'rganish uchun ham jalb etiladi.

Harbiy tarix fani – tarix fanining tarkibiy qismi bo'lib, urushlar, harbiy jang san'ati, qurolli kuchlar, harbiy texnika va harbiy

bilim berish, harbiy qo‘mondonlar, qo‘shinlar, davlatlarning harbiy faoliyati tajribalarini o‘rganadi.

Harbiy tarix fanining tarmoqlariga urushlar tarixi, harbiy jang san’ati tarixi, qurolli kuchlarning shakllanishi va tuzilishi tarixi, harbiy o‘q otar qurollar va harbiy texnikaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi, harbiy qismlar tarixi va harbiy tafakkur tarixi kiradi. Shuningdek, harbiy tarixshunoslik, harbiy arxeologiya, harbiy arxivografiya, harbiy statistika sohalari harbiy tarix fanining maxsus tarmoqlari sanaladi.

Harbiy soha va uning taraqqiy etib borish jarayoni haqida asosiy tushunchalarni berish imkoniyatiga ega bo‘lgan urushlar tarixi hamda harbiy jang san’ati tarixi harbiy tarix fanining yetakchi tarmoqlari hisoblanadi.

Harbiy tarix fani ham boshqa fanlar kabi ma’lum bil imlar sohasiga tayanadi va o‘ziga xos an’anaviylikka ega. Siyosiy qarashlar, metodologik va nazariy yondashuvlar ta’sirida urushlarning xususiyatlari, mohiyati va o‘rniga baho berishda turlicha yoritilish hollari ham mavjud. Shundan kelib chiqqan holda XXI asr tarixchilari oldidagi asosiy vazifalardan biri urushlar tarixiga, harbiy harakatlar tarixiga qat’iy obyektivlik, sof ilmiylik va tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashish sanaladi.

Empirizm – nazariy umumlashtirishni inkor qilib, hissiy idrokni, tajribani bilishning birdan bir manbaidir, deb biladigan falsafiy yo‘nalish, nazariyadan ko‘ra amaliy faoliyatga ko‘proq moyil bo‘lishlik, amaliy faoliyatga moyillik.

Epigrafika – paleografiya fanining bir tarmog‘i bo‘lib, (yunon. epi – ustida, tepasida, grapho – yozuv; biron narsa; buyum us-tidagi yozuv) tarix fani bo‘limi bo‘lib, yog‘ochga (taxtaga), daraxt po‘stlog‘iga, sopolga, toshga, charmga, metallarga, toshbaqa kosalari va boshqalarga bitilgan alohida belgilar, so‘zlar va matnlarni o‘rganadi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T.: «O‘zbekiston», 1996.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: «Sharq». 1998.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasi-da. – T.: «O‘zbekiston», 2011.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: «O‘zbekiston», 2017, 488 bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – T.: «O‘zbekiston», 2016, 56-bet.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – T.: «O‘zbekiston», 2017, 48-bet.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: «O‘zbekiston», 2017, 104-bet.
9. «Pedagogik kadrlar tayyorlash: tarixiylik, zamonaviylik, istiqbol» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T.: 2015-yil.
10. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8-jild. 274-b.
11. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat. – T.: Fan. 1993.
12. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T.: Fan. 1968.
13. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Hindiston. – T.: Fan. 1968.
14. Abulg‘ozzi Baxodirxon. «Shajarai turk». – T.: «Cho‘lpon» 1992.

15. Aytmatov Ch., Shoxonov M. Qoyada qolgan ko‘z yoshlar. / Hokimiyat va ma’naviyat yoki podshohlar, xonlar, qirollar, prezidentlar faoliyatiga bir nazar. — «Jahon adabiyoti» jurnali, 1997-yil, №1. 7-56-bb.
16. Aliyev Z. Mahmudxo‘ja Behbudiy. — T., 1994.
17. Алимова Д.А. История как история, история как наука. Т.И. Историческое сознание. — Т.: «Ўзбекистон». 2008.
18. Алимова Д.А. История как история, история как наука. Т.П. Феномен джадидизма. — Т.: «Ўзбекистон». 2009.
19. Аристотель. Сочинения: В 4 т. — М., 1984. Т. 4.
20. Asqarov A. O‘zbekiston mustaqillik sharoitida tarix fanining vazifalari. «O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar», 1992-yil, 7–8-sonlar.
21. Atadjanov Sh., Ilxomov Z., Ishquvvatov V., Allayeva N. O‘zbek xonliklari tarixshunosligi. — T.: Yangi asr avlod. 2011.
22. Афанасьев Ю.Н. История против эклектики. М. 1980.
23. Барг М.А. «Историческое время»: методологический аспект // Новая и новейшая история. 1990. № 1. С. 66–67.
24. Баринова Е.П., Ипполитов Г.М., Бобкова Е.Ю. Основы теории и методологии исторической науки: Учебное пособие в схемах. — М.б 2010
25. Бибиков Г.Н., Бибикова Л.В. Методология современной истории: историографический очерк. — М.: Фонд современной истории, Издательство Московского университета, 2011. 208.
26. Блок М. «Апология истории или ремесло историка». — М., 1973.
27. Бродель Ф. История и общественные науки. Историческая деятельность // Философия и методология истории. Благовещенск, 2000. С. 133.
28. Вен П. Как пишут историю: опыт эпистемологии. — М., 2003.

29. Гринин Л. Е. Теория, методология и философия истории: очерки развития исторической мысли от древности до середины XIX века. Лекция 4. Философско-историческая мысль в Средние века. Византия, Русь, арабский мир, Китай / Философия и общество. Выпуск №2 (58) / 2010. <http://www.socionauki.ru>
30. Грязнов В.М. Методология научного творчества. – М.: РУДН, 2000.
31. Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. – T.: Iqtisod-Moliya, 2007.
32. Jadidchilik: Islohot, yangilanish, mustaqillik, taraqqiyot uchun kurash. To‘plam. – T.: Universitet. 1999
33. Jo‘raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma’naviyat. 2008.
34. Ibrat. Tarixi Farg‘ona – T.: Meros. 1991.
35. Ibrohimov A. Bizkim o‘zbeklar.... – T.: «Sharq», 1999.
36. Иванов Г.М. и др. Методологические проблемы исторического познания. – М., 1981.
37. Ilhomov Z. Tarix fani metodologiyasi (tarixiy bilish, tarixiy ong va tarixiy xotira). Nizomiy nomidagi TDPU, 2015.
38. Илхамов З. Теория логичности и интерпретации фактов в историческом познании. IV Международная научно-практическая конференция. г.Таганрог. Россия. 2016 г.
39. Ilhomov Z., Ismatullayev F. Abu Rayhon Beruniy va tarix fani tadqiqot uslublarining nazariy masalalari. Tarixiy manbushunoslik, tarixnavislik, tarix tadqiqoti metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari» mavzusidagi Respublika ilmiy nazariy konferensiyasi. – T., 2015.
40. Ilhomov Z. Sharq tarix falsafasi haqida mulohazalar. Ilk o‘zbek davlatchiligi tarixi. Respublika ilmiy konferensiyasi. – T., 2010.
41. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. – T., 2013.
42. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi (tadqiqot uslublari va terminlarining izohli lug‘ati). – T., 2013.

43. Историческое познание сегодня. <http://istoriya-s-drevneyshih-vremeyon>.
44. Ковальченко Д.И. Методы исторического исследования. – М.: Наука, 2003.
45. Ковальченко И.Д. Методы исторического исследования. –М.: Наука, 1987.
46. Коллингвуд Р. Дж. Идея истории; Автобиография. – М., 1980.
47. Лаптева М.П. Теория и методология истории: курс лекций / М.П. Лаптева; Перм. гос. ун-т. – Пермь, 2006. С.159-160.
48. Лотман Ю.М. Культура и взрыв. – М., 1992.
49. Madraimov A., Fuzailova G. Tarixiy manbashunoslik. – Т., 2005.
50. Математические модели исторических процессов. – М., 1996.
51. Мелконян Э.Л. Проблемы сравнительного метода в историческом знании. Ереван. 1981.
52. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – Т.: «Cho‘lpon». 1993. 4-б.
53. Mullo Olim Mahdumhoja. Tarixi Turkiston. – Т.: 2010.
54. Muhammad Yusuf Bayoniy «Shajarai Xorazmshoxiy». – Т.: Meros. 1991.
55. Нормативны материалы по оформлению диссертации и автореферата. Методические указания. Под редакцией Мухитдина М. – Т., 2003.
56. Парфёнов И.Д. Методология исторической науки. Саратов. 2001.
57. Перегудов Л.. Методология научных исследований. – Ташкент, 2002.
58. Peregudov L.V., Saidov M.X., Aliqulov D.E. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Т.: «Moliya» nashriyoti, 2002.

59. Репина Л. П. История исторического знания: пособие для вузов / А. П. Репина, В. В. Зверева, М. Ю. Парамонова. — 2-е изд., стереотип. — М.: Дрофа, 2006. 45-б.
60. Репина Л.П. «Новая историческая наука и социальная история». — М., 1998.
61. Розен В.Р. Рецензии на кн Alberuni's, India. Записки Восточного отделения импер. Русского Археологического общества. Спб. III, 1889.
62. Савельева И.М., Полетаев А.В. «История и время». 1997.
63. Саифназаров И., Никитченко Г., Касымов Б. Методология научного творчества. — Т.: Янги аср авлоди, 2004.
64. Смоленский Н.И. Теория и методология истории. — М.: «Академия». 2007.
65. Смоленский Н.И. Теория и методология истории: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. 2-е изд., — М.: Издательский центр «Академия», 2008. С.16.
66. Сорокин П.А. Голод как фактор. — М., 2003. С. 4.
67. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. — Т.: «O‘zbekiston». 1997.
68. Tarix, mustaqillik, milliy g‘oya. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. — Т.: Akademiya, 2001.
69. Тацит. Анналы. —Л., 1969. —III, 65.
70. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. — Т.: Qomuslar bosh tahririyati. 1996.
71. Temur tuzuklari. — Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1997.
72. Tojiyev M. va boshq. Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. — Т., 2001.
73. Топольский Е. Методология истории. Варшава. 1968.
74. XXI asrda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. O‘zMU. 2008.
75. Xolbayev S. Tarix fanining metodologik asoslari va tamoyillari masalasi (I.Karimovning asarlari misolida). // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari, 2004, N1, 140-147 б.
76. O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi konsepsiysi // O‘zbekiston tarixi. 1999, 1-сон.

77. O‘zbek davlatchiligi tarixi: muammo va izlanishlar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T., 2012.
78. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8-jild. 274–279-bb.
79. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2012.
80. O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. – T., 1999.
81. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakasi davrida. – T.: «Sharq». 2000.
82. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinci kitob. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. – T.: «Sharq». 2000.
83. O‘zbekistonning yangi tarixi. Konsepsual – metodologik muammolar. – T.: «Akademiya».
84. Февр Л. Бой за историю. – М., 1991.
85. Фролова Е.А. История арабо-мусульманской философии. Средние в.а и современность: Учебное пособие. — М., 2006.
86. Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60-80 гг. XIX в). – М.: Наука, 1965.
87. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: Kamalak, 1994.
88. Shoniyofov K.Sh. O‘zbek xalqining shakllanishi jarayoni. – T.: «Sharq», 2001.
89. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М., 1991.
90. www.Ziyo.net.
91. www.uznet.net.

MUNDARIJA

So‘zboshi.....	5
Kirish.....	7
«Tarix fani metodologiyasi» fanining predmeti, mazmuni va vazifalari.....	12
Tarix fanining predmeti	41
Sharq tarixnavisligi va tarix Isafasining nazariy masalalari	71
Abu Rayhon Beruniyning tarixiy ilmiy merosi	91
Abu Rayhon Beruniy va tarix fanida tadqiqot uslublarining nazariy masalalari.....	96
Tarixiy ong, tarixiy xotira va tarixiy meros	106
Tarixiy bilishning o‘ziga xosligi.....	121
Tarixiy manba. Axborot va uning xususiyatlari	132
Tarixiy dalil va uning interpretatsiyasi	141
Tarixiy qonuniyat va tarixiy zamon kategoriyalari	158
Tarixiy bilish tamoyillari.....	168
Tarix fani metodologiyasida asosiy falsafiy yondashuvlar va tarixiy tadqiqot uslublari	180
Tarix fani tadqiqotlarida umumfan uslublari.....	195
Tarix fani tadqiqotlarida maxsus-tarixiy uslublar	202
Tarix fani tadqiqotlarida matematik uslublarning qo‘llanilishi.....	212
Tarix fani tadqiqotlarida fanlararo yondashuv.....	218

Tarix fani tadqiqotlari va zamonaviy texnologiyalar	232
Tarix fani ilmiy tadqiqot ishlarini tashkillashtirish tamoyillari va vazifalari. Tadqiqotlarning ilmiy metodologik jihatlari	249
Tadqiqotlarni samarali olib borish muammolari, ilmiy ishlarni yozish usullari.....	261
Xulosa	269
Glossariy	271
Adabiyotlar	316

TARIX FANI METODOLOGIYASI

o‘quv qo‘llanma

Muharrir *M.Tursunova*
Musahhih *H. Zakirova*
Dizayner *A. Aubakirov*

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy.
Tel./faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.

16.10.2018. «Uz-Times» garniturasi. Ofset usulida chop etildi. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Shartli bosma tabog‘i 20,25. Nashriyot bosma tabog‘i 21,0. Adadi 200 nusxa.
Buyurtma №10.

«FAYLASUFLAR» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy.